

O'tkir HOSHIMOV


O'ZBEKLAR



O'tkir Hoshimov



Hikoyalar, o'ylar, hajviyalar



927881

Yoshlar . shriyot uyi
Toshk . – 2018

UO'K 821.512.133-3

KBK 84(50')6

H 71

Hoshimov, O'tkir

O'zbeklar: hikoyalar, o'ylar, hajviyalar. /O'. Hoshimov: – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. –256 b

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov «Bahor qaytmaydi», «Dunyoning ishlari», «Nur borki, soya bor», «Ikki eshik orasi», «Tushda kechgan umrlar» kabi qissa, roman va teran hikoyalari bilan allaqachon muxlislar qalbidan mustahkam joy olgan. Voqelikni hayot haqiqatiga omixta qilib, asar qahramonlarining ichki olamini har tomonlama mukammal, to'g'ri va aniq tasvirlash, unga o'quvchini ishontira bilish O'tkir Hoshimov ijodining tayanch nuqtasi hisoblanadi. Adibning ushbu to'plamiga kiritilgan sara hikoyalarida ham inson taqdiri, o'y-xayollarining nozik qirralari o'z badiiy ifodasini topgan. «O'ylar» rukni ostida qalamga olingan mavzularda esa, insof, andisha, uvol kabi insonga xos odob-axloq, ma'naviy olam, milliy qadriyatlar, sho'ro davri adolatsizliklari dadil yoritilgan va mavzular har bir vijdoni uyg'oq insonni bahsga chorlaydi. Hazil-mutoyiba, jarangdor qahqahaga boy hajviy hikoyalar turmushda uchrab turadigan noxush illatlarni fosh etish bilan birga kitobxon labida shirin tabassum uyg'otadi.

Adib «... kitob yozsangki, uni o'qigan kitobxon hamma narsani unutsa, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa ...» deb orzu qilgan. O'ylaymizki, ushbu to'plam ana shu orzular mahsuli bo'lib, Siz aziz kitobxanlarni o'ylashga, mulohaza qilishga chorlaydi.

UO'K 821.512.133-31

KBK 84(50')6

MASHAQQATLI SAFAR

Kitobxon bilan ikki og'iz suhbat

«Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko'z oldimga keladi...» «Dunyoning ishlari» kitobining bir bobi shunday so'zlar bilan boshlanadi. Chindan ham bu asar – deyarli hasbi-hol qissa. Faqat undagi ba'zi odamlarning ismi o'zgargan. Aslida har qanday badiiy asarda ham ma'lum ma'noda muallif tarjimai holining bir bo'lagi bo'ladi. Sababi yozuvchi o'z asariga qalbini bag'ishlaydi.

Menga qolsa, badiiy ijodda qandaydir ilohiy jarayon bor, degan bo'lur edim. Xudo ko'ngliga solmaguncha haqiqiy ijodkor qo'liga qalam olmaydi! Haqiqiy asar shunchaki yozilavermaydi, haqiqiy asar farzand kabi tug'iladi! «Dunyoning ishlari» va «Qalbingga quloq sol», «Nur borki, soya bor» va «Bahor qaytmaydi», «Ikki eshik orasi» va «Tushda kechgan umrlar» asarlari, qator hikoya va sahna asarlari ham shu tarzda tug'ilgan...

Har kim o'z ajdodlari bilan faxrlanishga haqli. Mening ota-bobolarim ham o'z zamonining mashhur kishilari bo'lishgan. Jumladan, bobokalonim – bobomning otalari Abulqosimxon eshon Turkiston tarixida o'ziga xos iz qoldirgan ulug' shaxslardan biri bo'lganlar.

Toshkentda, «Xalqlar do'stligi» saroyi yaqinida qadimiy obida – madrasa bor. Bu dargohda o'tgan asr boshlarida Abdulla Qodiriy, Munavvarqori, G'ulom Zafariy va boshqa ulug' zotlar ta'lim olgan.

Obida bir yarim asr avval Abulqosimxon eshon tomonidan bunyod etilgan. Bu zukko inson o'zbek tilidan

tashqari arab, fors, rus va boshqa tillarni mukammal bilgan, Turkistonning Chor hukumati tomonidan bosib olinishiga qarshi kurashning g'oyaviy rahnamalaridan biri bo'lganlar. 1899-yili Sankt-Peterburgda nashr etilgan «Musulmonlikka oid materiallar to'plami» kitobida bunday deb yozilgan: «1892-yili vafot etgan Abulqosimxon eshonning Toshkent va boshqa shaharlarda o'n minglab muridlari bo'lib, ulardan kelgan mablag'lar va vaqf yerlaridan tushgan daromadlar hisobidan eshon 30 ming so'mga madrasa qurdirgan. Bu madrasada 100-150 talaba tahsil olgan... Uning aholi orasidagi nufuzi nihoyatda baland bo'lgan...» 1856-yili bunyod etilgan madrasada faqat diniy emas, dunyoviy ilmlar ham o'rgatilgan.

Bobokalonimning mo'tabar va fidoyi shaxs bo'lganini isbotlovchi yana ikkita dalil mavjud. 1892-yili Toshkentda vabo kasali tarqaladi. Ustiga-ustak kelgindilar zulmidan tinkasi qurigan xalq qo'zg'olon ko'taradi. Tarixga «Vabo qo'zg'oloni» nomi bilan kirgan milliy ozodlik harakati boshlanadi. Chor hukumati askarlari eski shaharga bostirib kirib, qirg'in boshlagan chog'ida Abulqosimxon eshon muqarrar o'limni bo'yniga olib, o'sha paytdagi Turkiston general-gubernatori Vrevskiy nomiga rus tilida ariza yozib, uning oldiga boradi. Hukumat askarlari Toshkentning mahalliy aholi yashaydigan qismidan (eski shahardan) olib chiqilmasa, oqibati ikkala tomon uchun ham fojiali bo'lishini tushuntiradi. Gubernator buyrug'i bilan «sallotlar» shahardan olib chiqiladi.

Keyin esa undan ham g'aroyib hodisa ro'y beradi...

1892-yil 30-iyun kuni Abdulqosimxon eshon Xo'ja Ahror jome masjidida ming-ming odamlar orasida va'z aytib, Toshkent ahli bir balodan qutilgani – hukumat askarlari shahardan olib chiqilgani bilan xaloyiqni qutlaydi va tag'in bir ofatni – vaboni o'zi bilan olib ketish niyatida ekanini

aytib, Allohga iltijo qiladi. «Turkiston viloyatining gazetisi» muharriri, olim N. Ostroumov «Fon Kaufman – Turkiston o'lkasining tashkilotchisi» degan maqolasida bu hayratomuz hodisa haqida shunday deb yozadi: «Munkillagan yoshida so'nggi kunlardagi voqealardan («Vabo qo'zg'oloni»dan, demoqchi) qattiq larzaga tushgan muhtaram Abulqosimxon shundan so'ng tezda – 4-iyulda vafot etdi. Qiziqarlisi shundaki, vabo barham topdi, toshkentlik sartlar buni uning vafotiga nisbat berdilar...»

Shu tariqa Abulqosimxon eshon xalq fidoyisi sifatida tarixga kirgan. Bobokalonimning farzandlaridan biri Hoshimxon eshon tijorat bilan shug'ullangan, ko'p yillar padari-buzrukvorlari bunyod etgan madrasada dars bergan ekanlar.

Ajdodlarim to'g'risida bir qadar batafsil to'xtalganimning sababi shundaki, ellik yoshga chiqqunimcha bobolarimning kim bo'lganini bilmaganman. 1991-yili taniqli olim va jurnalist Sirojiddin Ahmedov shajaramiz to'g'risidagi ma'lumotni qo'limga topshirdi. Keksa yoshdagi qarindoshlarimdan bu dalillarni nega menga aytishmaganini so'raganimda, juda asosli javob eshitdim. Gap shundaki, agar bu gaplarni bilganimda qayerdadir aytishim yoki yozishim muqarrar edi. Sho'ro siyosati esa «xalq dushmanlari»ga aloqador bo'lgan odamni ko'kartirmasligi aniq edi. Xudoga shukronalar bo'lsinki, 1991-yili Vatanimiz Mustaqillikka erishdi va ming-minglab insonlar iymon sari yuz tutdi. Bolsheviklar esa din arboblari, el hurmatini qozongan, ilmli allomalar deb emas, hammasini «tekinxo'r, fanatik» deb sanagan va qattiq zulm o'tkazgan. Fuqarolar urushi qizigan yillari Beklarbegi madrasasi oldida minglab odamlarni to'plab, ularning diliga vahima solish uchun «namunali qilib» o'tib tashlanganlar orasida onamning tog'asi Abdusafiyxon ham bo'lgan. Bu begunohlarning «gunohi» o'z e'tiqodidan –

dinidan voz kechmaganida edi, xolos. Eshonlik bilan emas, o'z yerlarini sho'roga topshirib, dehqonchilik orqasidan kun kechirgan amakim Nosirxon to'rani esa qo'shnisi To'lagan qora degan marazning chaquvi bilan surgun qilib, o'ldirib yuboradilar. To'lagan qora o'zi abgor qilgan oila nomusiga tajovuz qilishga kirishganda, oilaning to'ng'ich farzandi – o'n olti yoshli Abdullajon bunga chiday olmay marazni mast-alast bo'lib yotganida chopib tashlaydi. Oila nomusini asrab qolgan yigitchani esa sud qilib, otuvga hukm etadilar. Bolaligimda elas-elas qulog'imga chalingan bu fojia mustabid tuzum zulmi quturgan 37-yillarda kechgan ekan. «Tushda kechgan umrlar» romanidagi Eshon ota, uning oilasi, farzandlari, Qurbonoy boshiga tushgan cheksiz kulfatlar shu insonlar qismatidan olingan.

Otam Atoulloxon Hoshimov tazyiqlardan bezor bo'lib, qishloqqa – Do'mbirobodga ko'chib kelgan, xarobagina kulbada tirikchilik qila boshlagan. Biroq bu yerda ham tazyiqlar to'xtamagan. Dehqonchilik qilgan. To'qimachilik kombinatida, so'ng shu kombinatga qarashli bolalar oromgohida ishlagan.

... Eski kitoblarni ham, zamonaviy adabiyot va gazetalarni ham o'qib borar, o'ta haqparast, nohaqlikni ko'rsa yonib ketar edi.

Onam – Hakima Hoshimova esa otamning aksicha, nihoyatda yuvosh, juda mehribon edi. Ko'chada biron bola yig'lab o'tirgan bo'lsa, albatta tepasiga borib boshini silar, biron sabab bilan biz bolalarni koyisa, o'zi ham yig'lab yuborar, o'sha zahoti ko'nglimizni olishga harakat qilardi. Oyim qancha sodda bo'lsalar, shuncha donishmand ham edilar! Iloji boricha hammaga yaxshilik qilishni xohlar, o'ta oqko'ngil, gina-kuduratni bilmaydigan ayol edi («Dunyoning ishlari»da qanday tasvirlangan bo'lsa, onam xuddi shunday edi).

Men 1941-yil 5-avgustda Toshkent biqinidagi Do'mbirobod qishlog'ida tug'ilganman. Qishloqda, tag'in, poytaxt biqinidagi qishloqda tug'ilganim taqdirning hadyasi bo'lsa ajab emas. Negaki, ijodkorda qishloqning qalbi, shaharning aqli bo'lishi kerak. Oyim bir gapni ko'p aytardi. «Sen tug'ilganingda qiyomat qoyim bo'lgan edi. O'ris xotinlar urush boshlanibdi, deb yig'lagan, men – ammamning buzog'i hayron bo'lgandim. Urush allaqayoqda bo'layotibdi-yu, bular nega dod soladi, degandim. Keyin aqlim yetdi».

«Ikki eshik orasi» romanida Qora amma ham urush haqidagi xabarni shunday qabul qiladi. O'g'li Kimsan frontga ketmoqchi bo'lganidan keyingina vahimaga tushib qoladi. Ba'zi do'stlarim roman qo'lyozmasining muhokamasida «urush boshlangani haqidagi xabarni bu qadar soddalashtirib tasvirlamaslik kerak edi», degan mulohazani aytdi. Biroq men uchun bu hodisa kinolarda tasvirlanganidan ko'ra, onam aytib bergan hikoyada hayotga yaqinroq ko'rindi.

Oilamizda bir qiz, to'rt o'g'il edik. Men uchinchi o'g'il edim (otamning birinchi oilasidan yana bir opam borligi, onam ikkalamiz ko'p ovarai-sarsonliklardan keyin to'ng'ich opamni ham topib olganmiz. «Dunyoning ishlari»da yozilgan).

Otamdan qattiq hayiqar edik. Otam biron marta ham birontamizni chertgan emas. Otani qattiq hurmat qilishni onam o'rgatgan: «Hozir adang keladila, uyni supurib qo'y», «Adangni jahllari yomon, tinch o'tiringlar», «Adangni ketmoniga tegma», «Adangni soatiga qo'l tegizma...»

Bilmadim, balki hozirgi oilalarga bu holat «feodallik» bo'lib tuyilar. Ammo bizning oilamizda otaga sig'inish farzandlarga ziyon keltirganini eslay olmayman.

Yetti yoshga to'lar-to'lmas, akalarimga ergashib, Do'mbiroboddagi maktabga bordim. Bu – yetti yillik maktab edi. Uni bitirib, ancha naridagi «katta» maktabda o'qishni

davom ettirdim. «Ikki eshik orasi» romanida Muzaffarning «katta maktab»ga borishi, «Alvasti ko'prik», Bo'rijar manzaralari o'sha palladagi kuzatuvlar hosilasi bo'lsa, ajabmas.

Birinchi she'rimni 5-sinfda o'qiyotganimda yozganman. Erta bahor edi. Maktabdan kelayotsam devorning kungay etagida qoqigul ochilib yotibdi. Hayajonlanib ketib, «Oltin tugmacha» degan she'r yozdim. Bu she'r esimda qolmagan. Faqat qoqigulni oltin tugmachaga o'xshatganim yodimda.

9-sinfda o'qiyotganimda uchuvchi bo'lishga qaror qildim. Javzad degan do'stim bilan aeroport devoridan oshib o'tib, uchish maydoniga chiqib qolganimiz, badjahl navbatchi «hozir otib tashlayman», deb baqirgani esimda. Taqdir bizni o'z izmiga soldi: Javzad birinchi toifali uchuvchi bo'ldi. Mening qismatim adabiyot ekan.

«Talabalik – oltin davrim» deyishadi. «Oltin davri»ni mazza qilib o'tkazgan tengqurlaringa havas qilaman. Men uchun bu davr ko'p ham oltin bo'ldi deyolmayman. Garchand o'rta maktabni medal bilan bitirgan bo'lsam-da, sirtqi bo'limga kirdim.

Avval «Temiryo'lchi» gazetasida xat tashuvchi (kuryer) bo'lib ishladim. Keyin «Qizil O'zbekiston» (hozirgi «O'zbekiston ovozi»)da musahhih yordamchisi bo'ldim. Kunora tongotar tahririyatda qolib ketardik. Yarim kechalari korrektura o'qib toliqqanda, kamtar (hatto, o'ta kamtar) bolalik do'stim Yunus Ziyodov bilan suhbatlashib, bir kun kelib bizlar ham «katta odam», «katta yozuvchi» bo'lib ketishni orzu qilardik. Otam og'ir betob, akam harbiyda, oilaga yordam berish kerak edi. Jon-jahdim bilan yozishga berilib ketdim.

To'rtinchi kursdan kunduzgi bo'limda o'qiy boshladim. Ammo ishdan bo'shamadim. Tushgacha o'qiyman, tushdan keyin «Toshkent haqiqati» gazetasida adabiy xodimlik qilaman.

Birinchi kitobim 3-kursda o'qiyotganimda chiqqan. Bu «Po'lat chavandoz» degan ocherklar to'plami edi. Birinchi badiiy asarim – «To'rt maktub» hikoyasi esa 1963-yil 17-aprel kuni «Toshkent haqiqati» gazetasida bosilgan (shundan beri har yil 17-aprelni o'zimcha nishonlayman). Shu hikoya asosida «Cho'l havosi» degan qissa yozildi. «Sharq yulduzi»da bosildi (To'rtinchi kursda o'qirdim). Qissaga atoqli adib Abdulla Qahhor nihoyatda xayrixohlik bilan xat yozganidan keyingina o'zimga ishonch paydo bo'ldi. Mendan yozuvchi chiqishi mumkin ekan, degan xayolga bordim.

Toshkent zilzilasiidan keyin – 1966-yildan – 1982-yilgacha «Toshkent oqshomi» gazetasida bo'lim mudiri bo'lib ishladim. Bu davr men uchun eng hayajonli, eng sermahsul damlar bo'ldi. «Bahor qaytmaydi», «Qalbingga quloq sol», «Kvazarlar» qissalari, «Nur borki, soya bor» romani, «Inson sadoqati», «Vijdon dorisi», «To'ylar muborak» sahna asarlari, ko'plab hikoya va hajviyalar, publitsistik maqolalar shu yillarda yozilgan.

Har gal yangi kitobim chiqishi bilan birinchi nusxasini onamga taqdim etardim, «birinchi ustozim Oyimga» deb yozib berardim.

1980-yili onamning to'satdan vafot etishi menga juda og'ir ta'sir qildi. Farzandlik burchimni qay darajada ado etdim, degan o'kinchli xayol vujudimni larzaga soldi. «Dunyoning ishlari» kitobi shu iztirobli tuyg'ular tufayli tug'ildi.

Uch yil davomida G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida ishladim. «Ikki eshik orasi» romani, qator hikoyalar, qissalar shu yillarda dunyoga keldi.

1985-yildan – 1995-yilgacha «Sharq yulduzi» jurnalida bosh muharrir bo'lib ishladim. Bular – mamlakat hayotidagi murakkab, qaltis yillar edi. Shunday paytda tarixda birinchi bo'lib «Sharq yulduzi» jurnalida muqaddas Qur'oni

karimning ma'no tarjimasini o'zbek tilida e'lon qilingani, bu xayrli yumushga tish-tirnog'i bilan qarshi bo'lganlar hujum boshlaganida jurnalni mamlakatimiz rahbari Islom Karimov himoya qilganini unutmayman.

O'tgan asrning saksoninchi yillari sho'ro siyosati o'zbek xalqi boshiga katta kulfat solgan, «o'zbek ishi» degan yangi qatag'on boshlagan davr bo'ldi. Bu siyosatda rostdan ko'ra yolg'on ko'proq ekanini, mustabid tuzumning ishongan quroli zulm va tahdid ekanini tasvirlash vijdoni uyg'oq har bir qalamkash burchidir. Olisdagi poytaxtda bo'lgan katta anjumanlarda manaman degan siyosiy arboblardan, oltin pogoni yaltirab turgan marshallar bilan «tashlashish»ga, xalqni badnom qilishga hech kimning haqqi yo'qligini baralla aytishga to'g'ri kelgan paytlar edi.

Har bir ijodkorning o'z prinsiplari bo'lishi tabiiy. Ular menda ham bor. Hamisha o'zim qattiq ishongan, haqiqat deb bilgan narsani yozishga harakat qildim. O'quvchi anoyi emas. Jinday yolg'onni darhol sezadi. Kitobxon nazaridan qolish esa qalamkash uchun fojia. Haqiqiy ijodkor qalbi buyurganini yozishi kerak.

Menimcha, XX asrda ikkita tarixiy voqea ro'y berdi. Biri – inson qadamining Oyga yetishi, ikkinchisi, O'zbekistonning Mustaqillikka erishishi! Unisini ham, bunisini ham bir emas, bir necha avlodlar umrbod orzu qilgan.

1995-yildan – 2005-yilgacha Oliy Majlisda ishladim. Qonun yaratish ham ijod. Murakkab ijod. Bir qator qonunlar loyihasi ustida ishlashga hissa qo'shdim. Qator mamlakatlarda bo'lib, O'zbekiston degan yurt haqida, uning boy tarixi, ajoyib insonlari, yorug' kelajagi haqidagi suhbatlarda ishtirok etdim. Shu yillari «Nurli dunyo», «Umr savdosi», «Bahor sog'inchi», «Hadikli tushlar» nomli to'rt jildli saylanma asarlarim chop etildi. «Daftar hoshiyasidagi bitiklar», «Osmondan tushgan pul», «Chana», «To'ylar

muborak», «Shoxruhning topishmoqlari» kabi qator kitoblarim nashr etildi. Ayrimlari chet ellarda chop qilindi. «Qatag'on» fojiasi sahnalashtirildi.

Yaratganga shukr. Qirq besh yil davomida 60 ga yaqin kitobim turli tillarda ikki milliondan ko'proq nusxada nashr etildi. Ular orasida kitobxon uzoq vaqt eslab yuradigan asarlar bo'lsa, o'quvchi qaysidir satrlarni o'qiganda ko'ziga yosh kelsa, qayerdadir mazza qilib kulsa, hayajonga tushsa, men uchun bundan ortiq quvonch yo'q.

Inson haqida yozishga, xalqimizning sodda-donishmandligini, sabr-qanoatini tasvirlashga urindim.

Ijod yo'lida boshimni silagan Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Zulfiya opa, Asqad Muxtor, Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Matyoqub Qo'shjonov kabi ustozlarimdan, Erkin Vohidov, Abdug'afur Rasulov, Ne'mat Aminov, Ibrohim G'afurov, Nosir Fozilov singari do'stlarimdan behad minnatdorman!

... Inson qismati shaxmat taxtasidagi piyodaning yurishiga o'xshar ekan. Goh oq katakdan o'tadi, goh qora katakdan... Hayotimda nurli kunlar ham bo'ldi, bulutli onlar ham. Sadoqatni ham ko'rdim, xiyonatni ham. Vijdoni buloqdek pokiza insonlarga ixlos qo'ydim, andishani qo'rqqulik, kamtarlikni ahmoqlik hisoblaydigan, o'z manfaati yo'lida hech qanday razillikdan toymaydigan hasadgo'ylar yetkazgan jabrdan dilim vayron bo'lgan paytlar ham bo'ldi... Mamlakatimiz rahbariyati kamtarin mehnatimni yuksak qadrlagani, «O'zbekiston xalq yozuvchisi» unvoni, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni, Davlat mukofotlari bilan taqdirlagani uchun behad minnatdorman. Men uchun tag'in mukofot bor. Bu – kitobxon mehri. Kitobxon mehrini yalinib ham, zo'rvonlik qilib ham, sotib olib ham bo'lmaydi. Ijod – yuz metrlik masofaga kim o'zarga yugurish emas. Ijod o'ta murakkab, olis va mashaqqatli yo'l. Iste'dod degani hech

shubhasiz – Alloh bergan ne'matdir. Yozuvchilik degani esa qismat! Bir narsaga qattiq ishonaman. Xudo yozganini bandasi o'chirolmaydi. Xudo berganini bandasi tortib ololmaydi!

Yaratganga shukr, oilam ijod mashaqqatini chuqur anglaydi. Umr yo'ldoshim – pedagog. Ikki farzandim, besh nabiram bor.

Hamisha bir orzu bilan yashayman. Shunaqa kitob yozsangki, uni o'qigan kitobxon, hamma narsani unutsa, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Kitobni o'qib bo'lgan kuni kechasi bilan uxlolmay, to'lg'onib chiqsa. Oradan yillar o'tib asarni qaytadan qo'liga olganda tag'in hayajonlansa... Eng katta orzuim shu.

HIKOYALAR

URUSHNING SO'NGGI QURBONI

Shoikrom ayvon to'ridagi sandal chetida xomush o'tirardi. Allaqachon bahor kelib, kunlar isib ketganiga qaramay, hamon sandal olib tashlanmagani, ammo hech kim bu to'g'rida o'ylab ko'rmaganini u endi payqaganday g'ashi keldi. Bo'z ko'rpa ustidan yopilgan, shinni dog'i qotgan quruq dasturxon ham, hozirgina go'jadan bo'shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog'och qoshiq ham uning ko'ziga xunuk ko'rinib ketdi. Ammo beparvolik bilan qo'l siltadi-yu, do'ppisini sandal ustiga tashlab yonboshladi.

Yarim kecha bo'lib qolgan, atrof jimjit. Faqat olislarda it uliydi. Ayvon to'sindagi uzun mixga ilig'liq lampochka xira nur taratadi. Chiroq atrofida o'ralashgan chivinlar bir zum tinmaydi. Hovlining yarmigacha ariq tortib ekilgan qulupnay pushtalari orasida suv yaltiraydi. Onda-sonda rang olgan qulupnaylar ko'zga tashlanib qoladi. Qayoqdandir shamol keldi. Hovli etagidagi yong'oq shoxlari bir guvillab qo'ydi. Shoikrom uyqu elita boshlagan ko'zlari bilan o'sha tomonga qaradi-yu, ter hidi anqib turgan lo'labolishga boshini tashladi. Shu ondayoq yana o'sha tovoq, bandi kuygan qoshiqqa ko'zi tushib, tag'in g'ashlandi: «Ziqna bo'lmay o'! – deb o'yladi xotinini so'kib. – Azaldan qurumsoq edi, zamon og'irlashgandan buyon battar bo'ldi».

Ichkarida chaqaloq yig'ladi. Beshikning g'irchillagani eshitildi. Bola xuddi shuni kutib turganday, battar big'illay

boshladi. Kattasi ham uyg'onib ketdi shekilli, qo'shilishib yig'lashga tushdi.

Shoikrom siltanib qaddini rosladi.

– Ovozini o'chir, Xadicha!

Ichkaridan xotining beshikni mushtlagani, zardali tovushi eshitildi:

– Ovozi o'chsa koshkiydi! To'qqiz kechasida jin tekkan bunga!

«Kambag'alning ekkani unmaydi, bolasi ko'payadi o'zi! – deb o'yladi Shoikrom ijirg'anib. – Shu kunimdan ko'ra urushga borib o'lib keta qolganim yaxshiydi».

Uni urushga olishmadi. To'qimachilik kombinatida montyor yetishmasmidi, yo o'zi yaxshi ishlardimi, har qalay, uni olib qolishdi. Shoikrom urush boshlanishidan sal oldin uylangan edi. Urush bo'ldi-yu zamona o'zgarib ketdi. Bir xil odamlar tirnoqqa zor. Uning xotini bo'lsa, yonidan o'tib ketsa ham boshqorong'i bo'laveradi. Xudo bergandan keyin tashlab bo'larmishmi, deb ketma-ket uchta qiz tug'ib berdi. Urushning qora qanoti uzoqlab ketgan, erta-indin Gitlarning to'ng'iz qo'pishi ko'rinib qolgan bo'lsayam, hamon uning soyasi odamlar boshiga ko'lanka tashlab turibdi. Hali u qo'shninikida aza ochiladi, hali bu qo'shninikida.

Hovli etagidagi pastak eshik g'iyqilladi. Shoikrom kafti bilan ko'zini chiroqdan pana qilib qaradi-yu, shu tomonga kelayotgan onasini ko'rdi. U uylanganidan keyin otadan qolgan hovlini o'rtadan ikki paxsa devor olib bo'lishgan. Bungayam bir chekkasi Xadichaning injiqligi sabab bo'lgan edi. Har xil ikir-chikir gaplar chiqaverganidan keyin Umri xola ro'zg'oring boshqa bo'lsa o'zingga qayishasan, deb ularning qozonini boshqa qilib berdi. O'zi kichik o'g'li Shone'mat bilan narigi hovlida qoldi.

Rangi uniqqan chit ko'ylak ustidan nimcha kiyib olgan Umri xola sharpaday unsiz yurib keldi-da, yapaloq «musulmon» g'ishtdan yasalgan zinadan ayvonga ko'tarildi.

– Hali uxlamovmiding? – dedi u zinadan enkayib chiqayotganida surilib ketgan ro'molini qayta o'rab.

– Ko'rmaysizmi, chaqaloq tinchimayapti. O'zim itday charchaganman.

– Bola bo'lgandan keyin yig'laydi-da, – dedi Umri xola yupatuvchi tovushda. – O'tiraver, bolam. – U yana o'sha unsiz odimlar bilan ichkari kirib ketdi.

Qaynana-kelin bir balo qilib, bolalarni tinchitishdi. Keyin ikkovlari boshlashib chiqishdi. Xadicha bir qo'lida choynak-piyola, bir qo'lida zog'ora non keltirib, dasturxon ustiga qo'ydi.

– Choy o'lib qopti, – dedi u zog'ora ushatarkan.

Umri xola Shoikromning yonboshiga, shaparak ko'rpachaga o'tirdi.

– Ol o'zing ham, – dedi u tomirlari bo'rtib chiqqan qo'llari bilan sochilgan uvoqlarni yig'ib og'ziga solarkan. Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi. Ilgari ham shunaqamidi, yo'qmidi, eslay olmadi.

– Ovqatingdan qolmadimi? – dedi u cho'kkalab o'tirgancha choy quyayotgan xotiniga qarab.

Xadichaning uzunchoq sarg'ish yuzi qizardi. Aybdordek mahzun tovushda uzr so'radi:

– Qolmovdi-ya.

Shoikrom uning qizarganidan yolg'on gapirayotganini sezdi. Kim bilsin, ertalab o'ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir...

– Yo'q, bolam, ovqat kerakmas, – dedi Umri xola shoshilib. – Xayol surib yotib uyqum o'chib ketdi... – U bir lahza jim qoldi-da, o'ziga gapirganday sekin qo'shib qo'ydi. – Payshanba kuni Komil tayibning uyiga boruvdim. Har kuni nahorga bir kosadan qo'y suti ichsa, dard ko'rmaganday bo'lib ketadi, dedi.

– Hozir qo'y suti qatta? – dedi Xadicha. – Sigir suti otliqqa yo'g'-u... Shu paytda sigirimiz tuqqan bo'lardi-ya.

Shoikrom xotining gapini eshitmadi. Birdan uning ko'z o'ngida pastak deraza ostida shiftga tikilib yotgan ukasi jonlandi. Bir hovlida turib o'n kundan buyon holini so'ramaganiga afsuslanib, ichidan xo'rsiniq keldi. Shone'mat Rossiyadan ko'chirib keltirilgan zavod qurilishida ishlay boshlaganida uni urushga olishmaganidan Shoikrom suyungan edi. Gap boshqa yoqda ekan. Ukasi sil ekan. Shuning uchun qoldirishgan ekan. Mana, uch oydirki, yerga yopishib yotibdi.

Shoikrom o'n kuncha ilgari ishga ketayotib birrov kirib ukasidan hol so'ragan edi. O'shanda Shone'matning qoqsuyak bo'lib qolganini, katta-katta ko'zlari nimagadir chuqur ma'no bilan o'ziga tikilganini ko'rgan edi.

«Yaqinda o'ladi, – deb o'yladi u onasining ko'ziga qaramaslikka harakat qilib. – Baribir o'ladi».

– Tuzukmi? – dedi u hammasi uchun o'zi aybdorday qovog'ini solib.

– Shukur, – Umri xola qult etib yutindi. – Hozir uxladi. – Onasi shu topda chiqib ovora bo'lmagin, degan ma'noda gapirganini Shoikrom tushundi.

– Ertalab xabar olaman, – dedi u onasi o'rnidan turganida.

– Sendan nega gina qilarkan, bolam, – dedi Umri xola ayvon labida to'xtab. – Ko'rib turibdi-ku. Ertalab chiqib ketasan, yarim kechada qaytasan. Bu kunlar unut bo'lib ketadi, bolam. Zinaga yechgan kalishining bir poyi to'nkarilib qolgan ekan, Umri xola oyog'ining uchi bilan to'g'rilayman deb, ancha ovora bo'ldi. Keyin zinalardan enkayib tushdi-yu, sharpaday unsiz yurgancha hovli etagiga qarab ketdi. Pastak eshik g'iyqillab ochilib yopildi.

– Padariga la'nat shunaqa turmushning! – dedi Shoikrom bo'g'ilib. Keyin dasturxonni yig'ishtirayotgan xotininga o'shqirdi. – Seniyam padaringga la'nat! Tumshug'ingni tagidan sigiringni yetaklab ketsa-yu, anqayib o'tirsang.

– Nega menga o'dag'aylaysiz? – Xadicha tovoqni qoshiqqa urib, yig'lamsiradi. – Nima, meniham Ilhom samovarchining xotiniday so'yib ketsinmidi? Siz kechalari ismenda bo'lsangiz. Men uchta jo'ja bilan jonimni hovuchlab o'tirganim yetmaydimi?!

Shoikrom xotinini tarsakilab yubormaslik uchun yuzini o'girib, tishini g'ijirlatdi.

Suv qalqisa, loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqiganidan buyon yomon ko'paydi. Erta bahorda ularning tug'ay deb turgan sigirini o'g'irlab ketishdi. O'sha kecha Shoikrom tungi smenada edi. Kechasi bilan sharros jala quyib chiqdi. Shoikrom tong-saharda bir nimani sezganday ko'ngli g'ash tortib, uyiga qaytdi. Kelsa xotini, bolalari, onasi dod solib o'tirishibdi. Xadicha og'iroyoq emasmi, o'zi bilan o'zi o'vora bo'lib bilolmay qolibdi. Ertalab tursa ko'cha eshik lang ochiq, yong'oqqa bog'liqlik sigir yo'q.

«Shu paytgacha sigir tug'ardi, ukamning og'ziga aqalli bir kosa sut tutardim, – deb o'yladi Shoikrom o'kinib. – Qani o'shalar qo'limga tushganda chopib tashlardim».

Shundoq deydi-yu egasi ming poylasin, o'g'ri – bir. Mana, bundan ikki oycha ilgari Ilhom samovarchining xotinini pichoqlab ketishdi. Bechoraning bitta-yu bitta echkisi bor ekan. Hovliga o'g'ri tushganini bilib, xotin sho'rlik dod solibdi. Eri choyxonada ekan. Yugurib borib echkinining arqonidan ushlaganmi, xullas, yetib kelgan qo'ni-qo'shnilar qora qoniga belanib yotganini ko'rishibdi.

– Shu kunda yana o'g'ri oralab qoldi, – dedi Xadicha ko'rpachani qoqib tancha chetiga solarkan. – Qulupnay qizarmasidan bitta qo'ymay terib ketyapti.

– Vahima qilma! – dedi Shoikrom qovog'ini uyib. – Bolalar terib yegandir. O'g'ri qulupnayga keladimi?

– Og'ziga bir dona olgan bo'lsa, buyurmasin. Nega kelmas ekan? Bir hovuchini opchiqib sotsa bir kosa jo'xori

beradi. Ana, borib qarang, devorning bir cheti o'pirilib yotibdi!

—Vahima qilma! — dedi Shoikrom yana g'o'ldirab. Ammo bu safar o'zining ham yuragi seskanib ketganini payqadi. Ko'nglida paydo bo'lgan g'ashlikni sezdirmaslik uchun hovliga tushdi. Sekin yurib, qulupnay pushtalari oldiga keldi. Ariqlardagi suv chiroq nurida yaltirab, shamolda jimirlar, marjonday terilib rang olgan qulupnaylar suvga tegay-tegay deb turardi.

«Rost-da, — deb o'yladi u pushtalar atrofida aylanarkan, — bir hovuch qulupnayga bir tovoq jo'xori beradi. Tansiq narsa... Xadicha yolg'on gapirmaydi. Bolalar yegan bo'lsa, buyurmasin, deyapti-ku. Pishiq, yo'latmaydi...»

Bultur xotini shu qulupnay tufayli onasini ham qattiq ranjitgan edi. Umri xola bir hovuch qulupnay olgan ekan, Xadicha bolalarga non puli bo'lar deb ekanmiz, norasidalarining nasibasiga tegmang, deb bobillab beribdi.

Shoikrom o'shanda onasining yoz bo'yi kelini bilan yuzko'rmas bo'lib yurganini esladi-da, yana shu gap xayoliga keldi. «Xadicha anoyi emas, qurumsoq...»

U aylanib yong'oq tagiga bordi. Bordi-yu, chindan ham ko'cha tomondagi devorning bir cheti o'pirilganini, ostiga tuproq to'kilganini ko'rib, yuragi orqasiga tortib ketdi. Nazarida devorning kemtik joyidan birov mo'ralab turganday bo'ldi. Yong'oq shoxlarining shamolda vishillashi ham, oyog'i ostida to'kilib yotgan devor tuprog'i ham shubhali, vahimali ko'rinib, darrov orqasiga qaytdi.

Xadicha allaqachon uyga kirib ketibdi. U chiroqni o'chirib, sandal chetiga yotdi-yu, ko'nglidagi g'ulg'ula kuchayib ketaverdi.

Kuzda o'zi bilan ishlaydigan yigitning hovlisidagi so'ritoqdan g'arq pishib yotgan uzumlarini o'g'irlab ketishganini esladi. Shamol borgan sari avjga chiqar,

hovlidagi yong'oq barglari shovillab, shoxlari shubhali g'irchillar, allakim ship-ship qadam bosib, ayvon labiga kelayotganday bo'lardi.

Xadicha rost aytadi. O'zi kechalari smenada bo'lsa, xotini uchta jo'ja bilan jon hovuchlab tong ottirsa, o'g'riga o'ljaning katta-kichigi bormi? Qo'liga nima ilinsa olaveradida. Bordi-yu, o'zi yo'g'ida uyini o'g'ri bossa, xotini dod solsa, pichoqlab tashlasa. U yoqdan onasi chiqsa, uniyam pichoqlasa... «Vijdonsiz! Odamlarning boshiga kulfat tushganidan foydalanib qoladiganlarni qirish kerak».

Birdan xayoliga kelgan fikrdan uning vujudi titrab ketdi. Qora kunlari uchun, ne umidlar bilan tishida tishlab yurgan sigirini o'g'irlagani uchun, o'lim to'shagida yotgan ukasini oxirgi nasibasidan mahrum qilgani uchun, non puli bo'lar deb yetishtirgan mevasidan judo qilayotgani uchun shundoq qasos olsinki, o'sha Xudo bexabarlardan.

U o'rnidan sakrab turib ketdi. Chiroqni yoqib, otilib hovliga tushdi. Hamon shamol o'kirar, osmonning goh u, goh bu burchida chaqmoq yaraqlab, yong'oq shoxlari shubhali g'iyqillar, ammo endi bular uni qo'rqitolmas edi. Uy yonboshidagi oshxonaga kirdi-yu, cho'ntagidan gugurt olib chaqdi. Titroq qo'llari bilan qorayib ketgan devordagi mixga ilig'liq turgan ikki o'ram simni oldi. Bir vaqtlar urushdan oldin u bu simlarni bazmlarga olib borar, odamlarning hovlisini mash'aladay yoritib berardi. Endiyam yaxshilikka xizmat qilsin!

«Menga desa otib yubormaydimi! – deb o'yladi u ayvon labiga cho'qqayib o'tirganicha usti yopiq simni ochiq simga ildam ularkan. – Harna bitta haromxo'rni o'ldirganim. Bittasi o'lsa, boshqalari adabini yeydi».

U chaqqon harakat qilar, a'zoyi badani terlab ketgan, ammo buni o'zi payqamas, faqat bir so'zni takrorlardi: «Menga desa otib yubormaydimi!»

U simning ochiq qismini qulupnay pushtalari ustiga uloqtirdi. Sim ilonday bilanglab pushta ustiga tushdi. Yopiq qismini ayvon etagidan olib o'tdi-da, bir uchini ustundagi ilgakka tiqib qo'ydi. Keyin birdan bolalar kechasi hovliga tushsa nima bo'ladi, degan xayol miyasiga urildi-yu uyga kirdi. Xadicha yotgan joyida uyqisirab boshini ko'tardi.

– Ha?

– Hovliga chiqma, bolalar ham chiqmasin, o'ladi! – dedi Shoikrom ko'zlari yonib.

Xadicha hech nimaga tushunmadi shekilli, «xo'p» dedi-yu, boshini yostiqa tashladi. Zum o'tmay tekis, chuqur nafas ola boshladi. Shoikrom ayvon chirog'ini o'chirib, yana uyga kirdi. Har ehtimolga qarshi shundoq eshik tagiga namatga ko'ndalang yotib oldi.

«Menga desa otib tashlamaydimi?» deb o'yladi yana o'shanday zarda bilan. Shu topda negadir bolalarini emas, xotinini ham emas, ukasini o'yladi. Shone'mat bolaligida ham zaifgina edi. Shoikrom uni har kuni maktabdan o'zi olib kelar, ikkinchi smenada dars tugaguncha poylab o'tirardi. Otasi o'lganida Shoikrom oltinchida, ukasi ikkinchida o'qirdi. O'shanda Shone'mat yig'lamagan, ammo ichikib kasal bo'lib qolgandi. Ona-bola uni avaylab katta qilishdi. Endi bo'lsa, besh kunligi qoldimi, yo'qmi, aka bo'lib xabar ham ololmaydi.

Shoikrom uxladimi, yo'qmi, bilolmadim. Bir mahal bola yig'ladimi yo tashqarida shamolning guvullashi aralash dahshatli bir faryod qulog'iga kirdimi, anglay olmay qoldi. Sapchib o'rnidan turib ketdi. Ayvon chirog'ini yoqishi bilan qulupnay pushtasida muk tushib yotgan odam gavdasini ko'rdi-yu, dahshatdan qotib qoldi. Shu ondayoq xato qilganini, qotillik qilganini payqadi. Sim uchini shartta ilgakdan yulib olib, hovliga otildi. «Boshqalari qochdi» degan fikr lip etib xayolidan o'tdi. Pushtalar ustida sakrab-

sakrab yurib borarkan, oyg'i botib ketayotganini payqadi. Keyin g'ujanak bo'lib yotgan odamdand uch qadam beriroqda to'xtadi-yu birdan cho'kkalab qoldi. Bir lahza ko'zlari olayib tikilib turdi-da, ko'ksidan shamol g'uvurini ham, o'z vujudini ham larzaga soluvchi bir nido otilib chiqdi:

– Oyi-i-i!

U boshidan hushi uchib borayotganini elas-elas his qilib o'zini yerga otdi. Titroq qo'llari bilan loy changallagancha cho'kkalab ko'ksiga mushtlay ketdi.

– Oyi! Oyijon!

Umri xola bir qo'li bilan uniqqan chit ko'ylagining etagini mahkam changallab olgan, etak ichida ikki hovuch pishgan-pishmagan aralash qulupnaylar ko'rinib turar, boshqa qo'li bilan esa ilondek simni ushlab turardi. Shoikrom uning qulupnay qizili yuqqan, yorilib ketgan barmoqlarini, bo'rtgan tomirlarini aniq ko'rdi. Nariroqda, loyli ariq ichida uning kalishi yotar, chamasi sim oyog'iga tekkanida yulib olmoqchi bo'lganu, qo'liga o'ralashib yiqilgan edi.

Shoikrom loyli marzadan emaklab borgancha, o'zini onasining quchog'iga otdi.

– Oyijon, oching ko'zingizni! – dedi u gezarib ketgan lablari bilan onasining muzday yuzidan o'pib.

U anchadan keyin o'ziga keldi-yu, tepasida xotini turganini, qizchalari yig'layotganini payqadi. Boshini ko'tarishi bilan marza chetida cho'nqayib o'tirgan Shone'matga ko'zi tushdi. Necha haftalardan buyon o'rnidan jilmay yotgan ukasi, aftidan, qandaydir kuch topib emaklab chiqqan, ko'ylagining yelkalari osilib turar, katta-katta ko'zlari vahima bilan boqar edi.

– Nima qilib qo'ydim, ukam! – dedi Shoikrom yana balchiqqa belangan kafti bilan yuzini changallab. Keyin tag'in onasining ustiga o'zini tashladi. U onasini ko'tarishga

urinar, ammo onasining ikki buklangan gavdasi negadir hech tiklanmas edi.

– Sut ichmay zahar ichsam bo'lasmidi, – dedi Shone'mat ovozi titrab.

Shoikrom bu ojiz, titroq tovushdan seskanib, ukasiga tikilib qoldi.

– Zahar ichsam bo'lasmidi, – dedi Shone'mat yana o'sha ohangda. Aftidan, u yig'lay olmas, yig'lashga madori yetmasdi, – kechayam aytuvdim, ko'nmadilar. Qulupnayga sut alishadi, dedilar.

Shoikrom boshqa hech nimani eshitmadi. Eshitilmadi. Foydasi ham yo'q edi.

* * *

Umri xolani peshin namoziga chiqarishdi. Go'ristondan chiqib kelishayotganida Shoikrom odamlarning o'zaro gapini eshitib qoldi.

– Urush tamom bo'pti, eshitdingizmi?

MUHABBAT

I

Uzoq, entikib o'pishdilar. Qizning soch tolalari Tirkashning yuziga tegib turar, allanechuk notanish, ammo totli is anqir, uning butun vujudi tarang tortilib, oyoqlari titrar, qizning ham yelkalari bilinar-bilinmas silkinayotganini his qilib turardi. To'satdan qiz siltanib qaddini rostladi-yu, zarb bilan itarib yubordi uni.

Tirkash laylak qilib qo'yilgan aravaga suyanib qoldi. U hamon o'ziga kelolmas, allaqanday ichki bir to'lqin borgan sayin qattiqroq jo'sh urardi.

– Dadam so‘yib tashlaydi, – dedi qiz to‘zib ketgan sochlarini kafti bilan tekislarkan. Ammo dadasidan hech qachon hayiqmaganligi, bundan keyin ham hayiqmasligi uning ovoizidan bilinib turardi.

Tirkash, aravadan uch-to‘rt qadam narida, maysalar ustiga tashlab qo‘yilgan bir parcha namat ustida uxlab yotgan cholga qaradi. Chol ola-bula xurjunga boshini tashlab, oyoqlarini kerganicha, chalqancha yotar, qorong‘ida yuzi aniq ko‘rinmasdi. Undan ham nariroqda bir tup do‘lananing to‘kilgan xazonini shitirlatib, sharpaday qop-qora eshak o‘tlab yurardi.

Tirkash qaddini rostlab, qizga tikilib qoldi. Uning katta-katta ko‘zlari yonib turar, uzun-uzun kipriklari, qirra burni qorong‘ida yanayam jozibali ko‘rinar, Tirkash hali ham hayajonini bosib ololmas edi. Ikkovlari anchagacha jimib qolishdi. Arslonbob tog‘ining cho‘qqisi yonib ketdi. Zum o‘tmay dum-dumaloq to‘lin oy chiqdi. Chor atrofga nur aralash sukunat seli quyilganday, hammayoq jimjit bo‘lib qoldi. Yaproqlari to‘kila boshlagan do‘lana soyaday qorayib ko‘rinar, havoda xazon, g‘o‘zapoya isi anqirdi.

Qiz sochini qaytadan o‘rib, orqasiga tashladi. Tirkashning yoniga keldi-da, niholday nozik gavdasini egib, arava ichidan paxtalik nimcha olib kiydi. Tirkashga bir qarab qo‘ydi-yu, oyoqlarini osiltirib, aravaga o‘tirib oldi. U endi hamma narsani unutganday, Tirkashni ko‘rmayotganday edi. Boshini baland ko‘tarib, oyga tikilib o‘tirar, chehrasida beparvolik ko‘rinib turardi. Boyagi to‘lqin yana jo‘sh urib ketdi. Tirkash, nima qilayotganini o‘zi ham sezmay, tiz cho‘kib, qizning oyoqlaridan mahkam quchoqlab oldi.

– Dilor, ketma. Iltimos qilaman, yalinaman... – U qizning tizzasiga bosh qo‘ydi. Negadir shu topda qizning qo‘llari sochini silashini kutar, orzu qilardi. Dilor egilib uning yelkasidan itardi.

– Ket bu yerdan!

– Tushunsang-chi, axir, qayoqqa borasan?! Nimaga borasan? – Tirkash qizning oyoqlarini mahkamroq qisib iltijo bilan bosh chayqadi. – Yo‘q dema, Dilor. Ikkalamiz birga ishlaymiz. Sen nimani xohlasang...

– Ket, men uxlayman! – Dilor tag‘in uning yelkasidan itarib yubordi.

Tirkash qizning chimirilgan qoshlariga, qat‘iyat bilan qimtilgan lablariga qarab, endi gapirish ortiqcha ekanini tushundi. Asta qaddini rostlab, boshini quyi soldi. O‘ziga ham erish tuyilgan past, o‘kinch ovozda pichirladi:

– Ketib qolmanglar, tongotarda kelaman.

Shartta burildi-da, tasmaday oqarib yotgan tuproq ko‘chadan soyasini bosib, chopib ketdi. Oy koptokday sakrab-sakrab unga ergashib kelayotganday bo‘lar, qishloq tomondan itlarning akillagani eshitar, soy shovullar edi. Qir ustiga chiqqanida old tomonidan qishloq chiroqlari yiltilladi. U to‘xtab qoldi. Orqasiga burilib qaradi. Pastlikda, yo‘l yoqasidagi o‘sha bir tup do‘lana qorayib ko‘rinar, Dilor ham, otasi ham daraxt ko‘lankasi tagida qolib ketgandi.

Tirkash tez yurganidan nafasi qisib, terlab ketganini endi sezdi. Ko‘ylagini yechib yelkasiga tashladi-da, tag‘in qishloq tomonga qaradi. Katta yo‘ldan nur zanjiri bilan bog‘lanib qolganday qator-qator mashinalar o‘tib borardi. «Punktga paxta olib ketishayapti», deb o‘yladi u. Birdan ko‘ngli cho‘kdi. «Yo‘q! – dedi u pichirlab. – Hech qayoqqa bormayman. Bormayman! Uyga ham, Dilorning oldiga ham. Hech nima kerakmas menga, hech nima!»

U ko‘ylagini yerga tashlab, qurib, sarg‘ayib qolgan ko‘katlar ustiga o‘tirdi.

«Nima bo‘lyapti o‘zi? Qayoqdanam shu qizni uchratdim?! Nahotki endi hamma narsadan – uyim, qishlog‘im, otamdan

ayrilsam? Nahotki Tentaksoydan bir umr boshimni olib ketsam? Nima bo'lyapti o'zi?»

U diqqat bilan quloq sola boshladi. Bu safar soyning shovullashi aniq eshitildi. Keyin xo'rozlar cho'zib-cho'zib qichqira boshladi. Ehtimol, ularning hovlisidagi tojdor xo'roz ham qo'noqda turib bo'ynini cho'zgancha jo'r bo'layotgandir. Ehtimol, Qosim ota xirmondan qaytib, uning kelishini kutib, supada nos chekib mudrab o'tirgandir.

Tirkashning xayolida Qosim otaning oppoq qoshi ostidan o'ychanlik, muloyimlik bilan boqib turgan ko'zlari, so'lg'inroq, ammo nuroniy yuzi, cho'qqi soqoli jonlandi. Shu ko'zlarning nurini olgan Tirkashning o'zi emasmikan? Shu soch-soqolga qirov qo'ndirgan Tirkashning o'zi emasmikan? Axir uni odam qilgan, ota o'rnida ota bo'lgan kishi shu emasmidi?.. Tirkashdan boshqa suyanchig'i bormi uning...

Koshki edi, Tentaksoyga o'sha eski arava kirib kelmagan bo'lsa... Koshki edi, Tirkash shu aravada kelayotgan lo'li qizni – Dilorni ko'rmagan bo'lsa...

Tirkash birdaniga o'rnidan sakrab turgisi, qishloq tomonga yugurib ketgisi keldi. Lekin qachonlardir go'daklik xotirasiga mahkam o'rnanib qolgan, unutilayozgan sog'inch bir tuyg'u ustun keldi-yu, chalqancha yotib oldi. Oy havolab ketgan, qatlam-qatlam kuz bulutlari ohista suzib o'tar, namxush tuproq isi anqir edi.

II

Bu voqeaga ancha yil bo'lib ketgan. Ancha yillar...

Tirkash esini tanibdiki, shu tuproq voyaga yetkazdi uni. Dunyoga qaysi kuni kelganini, otasi kim, onasi kim ekanini haliyam bilmaydi. To'rt-besh yoshida odam ajratadigan bo'lib qolganida lo'lilar chodirida ko'rdi o'zini. Ota-onasi allaqachon ko'z yumib ketganini shulardan eshitdi. Hammaga

ergashib yurgani uchun Tirkash deb chaqirisharkan uni. Ular Tirkashni qo'lma-qo'l ko'tarib katta qilishibdi... Tirkash ham shu lo'lilardan bittasi edi. Yarim kechagacha childirma chalib, bazm qilishni, qizil ko'ylagining etagini hilpiratib raqs tushishni hech nimaga alishmaydigan xotinlarning hammasi uning onasi edi. Gulxan atrofida davra qurib o'tirgan lo'lilarning hammasi ota edi unga.

Hazin qo'shiqlar og'ushida mudragan oqshomlar, oy nuriga g'arq bo'lgan osmon... Tirkash dunyoga kelib eng avval shularni ko'rgandi. Kun botar-botmas ularning elati ko'kalamzor bir yerga chodir tikar, Tirkash ko'katlar ustiga chalqancha tushib olardi-da, childirmaning gumbirlashiga, quvnoq qahqahalarga quloq solib yotar, gulxan atrofida lip-lip aylanayotgan soyalardan ko'zi tinib uxlab qolardi.

Erta tongda odamlarning g'ovur-g'uvuri, eshaklarning hangrashidan uyg'onib ketardi. Shudringdan ho'l bo'lib ketgan jingalak sochlarini silab o'rnidan turar, uvishib qolgan qo'llarini uqalab-uqalab qo'yardi.

Yana o'sha uzundan-uzun yo'llar boshlanardi. Dunyoda yo'llarning nega shunchalar ko'pligiga uning aqli yetmas, lo'lilar elati bo'lsa bir zum ham to'xtamas, qayoqqa ketishayotganini hech kim bilmasdi.

Tirkashning so'ngsiz-nihoyasiz yo'llari Tentaksoyda to'xtadi. Bahor oqshomlaridan birida lo'lilar elati soy bo'yiga, toshloq sohilga chodir tikdi. Tentaksoy son-sanoqsiz orolchalar hosil qilib hayqirar, osmon-u falakka marvarid sochardi.

Tirkash o'shanda yetti-sakkizlarga borib qolgan, tishlari bir marta to'kilib chiqqan edi. Kun bo'yi yo'l yuraverib charchaganidanmi, hammadan oldin uxlab qolibdi.

Tongotarga yaqin entikib uyg'onib ketdi. Uyg'ondi-yu to'lqinlar ketma-ket urilib, suv qa'riga tortib ketayotganini bilib chinqirib yubordi. Ammo ovozi o'zi ham eshitolmadi.

Og'ziga suv to'lib o'qchiy boshladi. Soy dahshatli guldurosdan titrar, yer-u ko'k qop-qora to'lqinlarga ko'milgan edi. Tirkash suvdan qalqib chiqib, qop-qora osmonni so'nggi marta ko'rdi-yu, tipirchilab cho'kib ketdi.

U ko'zini ochganida boshiga egilib turgan notanish kishini ko'rdi. Elatida bunday odam yo'q edi. Boshiga ko'k duxoba do'ppi kiyib olibdi. Yuzlari qizarib ketgan, oq oralagan mo'ylovi ho'l bo'lib, cho'qqi soqoliga yopishib qolibdi. U jiqqa suv ko'ylagining etagini qayirib, Tirkashning peshanasini arttdi.

– Oting nima, o'g'lim?

Tirkash o'zini shu odam suvdan olib chiqqanini endi tushundi.

– Ketaman!

U o'rnidan turmoqchi bo'lgan edi, majoli kelmadi. Notanish kishi uning ustiga ko'rpa tashladi.

– Elatlaring ketib qolishdi. Seni allaqachon o'ldiga chiqarishgan bo'lsa kerak. – Notanish kishi chuqur xo'rsindi.

– Sel yomon quturdi-da! Tentaksoy shunaqa o'zi. Har bahorda jilovini yo'qotib qo'yadi.

Tirkash begona uyning guldor qog'oz yopishtirilgan shiftiga tikilib, yota-yota ko'zlari ilindi.

... Bu voqeaga ancha yil bo'lib ketgan... Ancha yillar...

Agar uch kun avval qishloqqa yana bitta lo'li arava kirib kelmaganida, agar Dilorni ko'rmaganida, qiz ketaman deb turib olmaganida, o'sha damlarni eslab o'tirarmidi u?

III

Quyosh ufqqa lab bosdi. Kichkina shalaq arava tuproq yo'ldan imillab borar edi. Qora eshak chillakday ingichka oyoqlari bilan tuproq changitib, aravani sudrab borar, g'ildiraklar nola chekkan kabi hazin g'iyqillardi.

Aravada o'tirgan cholning ingichka, burishiq bo'ynidagi chuqurchasi, oq oralagan sochi Tirkashga ko'rinib turardi. Dilorning otasi hech qayoqqa shoshilmayotganini shama qilganday eshakni qistamas, boshini tashlab, mudrab borardi. Ertalabdan beri chol Tirkashga bir og'iz ham gapirmadi. Faqat ahyon-ahyonda milki qizarib ketgan ko'zlari bilan unga sinchiklab qarab qo'yar, yana indamasdan teskari qarab olardi.

Aravaning ketidan Tirkash bilan yonma-yon kelayotgan Dilor unga qarab jilmayib qo'yar, allaqayoqdan sindirib olgan tol xivichi bilan yo'l chetidagi giyohlarni savalab borardi. Uning shapaloq gulli qizil ko'ylagi shafaqda lovillar, o'zi ham o't bo'lib yonib ketayotganday ko'rindi. Tirkash shu topda qizning nima o'ylayotganini bilolmas, ammo bir ko'zini sal qisib, istehzoli, jozibali jilmayishidan o'zining go'zalligidan, yigitni ergashtirib kelayotganidan mamnun ekanligini ko'rib turardi.

Quyosh yer ortiga yumalab ketdi. Oqshom shamoli ufqda yonib turgan shafaq alangasini puflab o'chirdi. Hamon g'ildiraklar nola chekar, shalaq arava tepalikka chiqib borardi.

Tirkash qishloqdan chiqib ketayotganida hozirgidek ko'ngli g'ash bo'lishini o'ylamagandi. U Qosim otaning ko'ziga ko'rinishdan qo'rqqan, Tentaksoydan chiqib olguncha tanish shofyorlarning uchrab qolishidan yurak hovuchlab turgandi. Yo'q, hech kim uchramadi... U Dilorni endi o'ziniki deb o'ylar, shu qiz uchun dunyoning narigi chekkasigacha borishga ham tayyor edi. Lekin qishloqdan uzoqlashgan sayin uning qadami sekinlashar, o'zi qilayotgan gunohini endi tushunayotganday bo'lardi. Go'yo kimdir ko'zga ko'rinmas nozik, juda nozik iplar bilan uni Tentaksoyga bog'lab qo'ygan-u, bu iplar borgan sayin tarang tortilar, yana bir qadam yursa, uzilib ketayotganday bo'lardi.

Shalaq arava tepalik ustiga chiqqanda to'xtadi. Tirkash tag'in burilib orqaga qaradi. Pastda qishloqni tasmaday o'rab olgan soy yaltillab ko'rinar, ammo uylar ko'zga tashlanmas, quyuq daraxtzor ustiga oqshom sharpasi qo'ngandi. Uzoqda katta yo'l ustida quyuq chang ko'rindi.

– Poda qaytayapti, – pichirladi u. Birdan ko'z o'ngi qorong'ilashib, xotiralar quyunidan boshi aylanib ketdi.

Bir vaqtlar o'zi ham kattakon targ'il sigirni tong-saharda podaga qo'shib yuborar, kechqurun sigirning o'zi eshikdan mo'rab kirib kelardi. Sigirni qo'shni kelin sog'ib berar, Qosim otaning kampiri o'lib ketgan, so'qqabosh edi. Cholning o'zidan boshqa ovunchog'i yo'qligini, uning umidi yolg'iz Tirkashdan ekanini endigina tushundi u.

O'sha suvdan olib chiqqan yiliyoq Qosim ota unga papka, «Alifbe» olib bergan, Tirkash maktabga qatnay boshlagan edi. Tong-saharlab shudring qo'ngan dalalardan maktabga yugurganlari, yozlari xo'jalik bog'ida bolalar bilan uzum uzishgani, bultur o'ninchini bitirganida maktabda o'tkazilgan kecha uning xayolida jonlandi-yu, yuragi gupillab urib ketdi.

Tirkash kuz kechalari xirmonda ishlashni yaxshi ko'rardi. U baland xirmon ustiga chiqib, chalqancha yotib olar, nazarida osmon borgan sayin pastlab tushayotganday bo'lar, paxtaning yelkalariga iliqqina, yumshoqqina botishi ham, salqin shamoldan junjikib, seskanib ketishi ham – hamma-hammasi juda laziz edi.

U rohat qilib yotganida pastdan mashinaning bo'g'iq ovozi eshitilar, kabina eshigi taraqlab ochilardi.

– Uxlab qoldingmi, hoy lo'li!

Tirkash haydovchilarning qo'polligiga parvo qilmas, o'zini shu qishloqning bir o'zbeki, bir farzandi hisoblardi. U xirmon ustidan sakrab tushardi-da, kuzovga panshaxa bilan paxta ortardi...

Keyin traktorhiga shogird tushdi. U omochlarni to'g'rilab borar, palaxsa-palaxsa bo'lib ko'chayotgan tuproq isi, kerosin hidi mast qilib qo'yganda boshi aylanib ketar, motorning guvillashi ham, traktor atrofida parvonaday aylanayotgan qora qarg'alarning qag'illashi ham gashtli tuyilardi unga.

Yigit o'sha tuproq isini, bahor qo'ng'irog'idan uyg'ongan yerning iliq nafasini, Tentaksoyning tishni qamashtirib yuboruvehi muzday suvlarini hech qachon, hech nimaga alishmasligini, alisha olmasligini endi tushundi. Tushundi-yu tishlari g'ijirlab ketdi.

... Tirkash yelkasiga kelib tushgan xivich zarbidan seskanib ketdi.

– Yurmaysanmi?

Dilor bir qo'lini biqiniga tirab, bir qo'lida xivich o'ynatib jilmayib turardi. Atrof qorong'ilashib qolgan, shalaq arava allaqachon pastga tushib ketgandi.

Dilorning hukmron jilmayib turishi ham, o'tday yoniq ko'zlari, qirra burni ham birinchi marta xunuk ko'rinib ketdi unga.

– Turtmasdan gapir! – dedi u bo'g'ilib. G'azabdan yuzlari lovillab ketganini o'zi ham sezib turardi.

– Bechora oshiq! – Dilor birdan qah-qah urib kulib yubordi. Sukunat cho'kkan adirlar ustidan oqshom sharpasiday sirli, bo'g'iq aks-sado keldi.

Tirkash bir siltanib qizning xivichini tortib oldi-da, mayda-mayda qilib yerga otdi. Dilor hech nima bo'lmaganday hamon jilmayib turardi.

– Qishloqqa qaytamiz! – Tirkash juda muhim, aziz bir narsani tushuntirmoqchi bo'lganday, qizning yelkalaridan ushlab o'tinch bilan silay boshladi. – Iltimos, Dilor, yo'q demagin! Ketishimizdan nima foyda, qayoqqa boramiz? Jon Dilor, xo'p degin, – u qizni bag'riga bosib shivirlay

boshladi: – Tentaksoyga qaytamiz. U yerda mening otam, o'rtoqlarim, traktorim bor, bilasanmi, – u negadir bo'g'ilib ketdi. Tomog'iga tiqilib qolgan iliq bir narsani yutib arang shivirladi, – bilasanmi, Dilor, u yerda mening... mening vatanim bor. – Qizning soch tolalari yana yuziga tegib ketdi. Yana o'sha kishini mast qilib yuboruvchi mayin is gurkiradi. – Dilor, xo'p degin, bitta xo'p degin...

Qiz siltanib chekindi. Endi u jilmaymas, ko'zlari o't bo'lib yonardi.

– Hech kim seni boshlab kelayotgani yo'q. O'zing kelayapsan, – u birdan chinqirib yubordi. – Sen lo'li emassan, anqovsan! – Keyin ko'zlari qisilib kinoya bilan ovozi pasaytirdi. – Kim qo'yibdi senga duch kelgan qizga ergashib yurishni? Bor, qishlog'ingga boraver! Sen bilan ishim yo'q. Men bilan ham ishing bo'lmasin!

Dilor tuproq yo'ldan pastga qarab chopib ketdi. Tirkash uning shamolda hilpirab uzoqlashib borayotgan ko'yagini ko'rib turar, ammo nima bo'layotganiga hali ham tushunolmasdi. U bir nafas ikkilanib turdi-da, qizning ketidan yugurdi. Tepaning yarmiga borganda, halloslab yetib olib, qo'lidan tortdi.

– Dilor!

– Qoch! – qizning ko'zlari nafrat bilan yonib turardi.

– Ketma, Dilor!

– Qoch, laycha!

Birdan Tirkashning vujudi muzlab qoldi. Boyagi qaynoq hislar o'rmini allaqanday yovvoyi kuch egalladi-yu tarsakilab yubordi uni.

– Yo'qol! – dedi xirillab, – Yo'qol!

U Dilorning kafti bilan yuzini ushlab qolganini ko'rdi. Keyin keskin burildi-da, qishloq yo'lini mo'ljallab chopib ketdi. Bir marta ham orqasiga qaramadi.

Arslonbob cho'qqisidan qip-qizarib oy chiqib kelar, tuproq yo'l oqarib ko'rinar, Tirkashning soyasigacha qaltirardi.

IV

Qish erta tushdi. Hali g'o'zapoyalar yig'ishtirib olinmasdan turib qor yog'di. Ertasiga havo charaqlab ochilib ketdi.

Tirkash qor ko'rpasiga burkanib endi uyquga ketgan yerni cho'chitib traktor haydar, qor bosgan dalalar oftob nurida ko'zni qamashtirib yarqirar, yakkam-dukkam g'o'zapoyalar taqdiridan nologanday shumshayib turardi. Traktor hali yaxlamagan dalada yengilgina suzib, muzyorar kemaday orqasidan qop-qora iz qoldirib borardi.

U tushlikka chiqish uchun motorni o'chirib, kabinadan sakrab tushdi-yu paykal boshidagi tutzor yonida turgan qizni ko'rib qoldi. Boya, motorga suv quyayotganida ham ko'rganday bo'lgandi. Qiz sariq paxtalik kiyib, boshiga ko'k ro'mol o'rab olgandi. Uning bir qo'lini biqiniga tirab turishi tanishday ko'rindi yigitga.

«O'tkinchilardan bo'lsa kerak». Tirkash shiypon tomonga burilib ketayotgan edi, qiz qo'l siltab imo qildi.

Tirkash kirza etiklari bilan qor kechib, besh-o'n qadam yurdi-yu, qizni tanib qolib, yugurib ketdi. Yuragi yana o'sha sog'inch hislar bilan jo'sh urar, etikning sirg'anishiga ham, g'o'zapoyalarga qoqilishiga ham parvo qilmasdi. «Dilor, Dilor!» – derdi u pichirlab. Negadir quvonchdan entikar, nimaga quvonayotganini o'zi ham bilmasdi.

U nafasi tiqilib yugurib keldi-yu, Dilorning nozik, ammo chayir qo'llarini kaftiga oldi.

«Qo'li muzlab ketibdi», – deb o'yladi qizning yuziga tikilarkan. Dilorning rangi so'lg'inlashgan, ko'zlari cho'kkan,

ammo hamon jozibali tabassum bilan jilmayib turardi. U isib ketganday paxmoq ro'molining tugunini yecharkan, tirsagi bilan Tirkashning ko'kragiga turtidi.

– Haydab yubormaysanmi?

– Qachon kelding?

– Ertalab.

– Butunlaymi?

– Butunlay! – dedi Dilor beparvo. Tirkash qizning ko'zlariga bir qaradi-yu shu bir og'iz so'zga ishonish mumkinligiga tushundi.

– Jinni! – dedi u kulib.

Qizning yelkasiga ohista qo'l tashladi-da, qor bosgan dala yo'lidan qishloqqa – o'z hayotiga boshlab ketdi.

HURKITILGAN TUSH

«Ko'ngil vayron bo'lishi uchun
taqdirning ojizgina zarbasi kifoya».

S. Sveyg

Tishlari to'kilgan kemshik bola edim. Soy bo'yidagi o'tloq biz – bolalarning «katta yerimiz» edi. Har kuni erta bilan oyim chiyduxoba shimimning cho'ntagiga yarimta zog'ora, bir bo'lak qaynagan lavlagi solib berardi-da, shoxsiz, yuvosh echkimizni yetaklab «katta yer»ga jo'nardim. Ovozi do'rillab qolgan Melivoy ko'k ko'zni aytmasa, hammamiz yosh bolalar edik. O'tloq yonidagi ikki tup azim tol bizning ovunchog'imiz edi. Bahor kelishi bilan bolalar tol novdalaridan hushtak yasashar, qizlar bo'lsa bargak taqib, daraxt soyasida cherta o'ynashardi.

Bir kuni oramizga yangi mehmon – Halima degan qizcha qo'shildi. Uning qishlog'imizga kelganini hammadan avval

men bildim. Kechqurun oyim dadamga aytgan gapini eshitib qolgandim.

– Hakim sassiq shaharga borib qizini topib kelibdi. Xotinining boshiga itni kunini solibdi. «O'zing-ku, sharmandalik qilding... Mayli, sen o'sha topganing bilan bo'laver. Menga qizimni ber», debdi...

Hakim sassiq bultur urushdan kelgan, polizda brigadir bo'lib ishlardi. Men uni juda yomon ko'rardim: bir marta echkim poliziga kirib ketganida meni ikki tarsaki urgan. Oyimning gapidan hech nima tushunmagan bo'lsam ham, Hakim sassiqning qizini ko'rgim keldi. Ertasiga ko'rdim ham...

* * *

O'sha kuni ertalab momaqaldiraq bo'lib, jala quygani esimda bor. Oyim odatdagiday echkinining yelin qopini bog'lab (bo'lmasa bolasi emib qo'yardi) arqonni qo'limga tutqazdi.

– Yaxshilab to'yg'iz!

«Katta yer»ga yetib kelgunimcha havo charaqlab ochilib ketdi. Echkinining arqonini yechib, mollarga qo'shib yubordim-da, tol tagida to'dalashib turgan bolalar yoniga keldim.

O'rtada urushda o'lgan dadasining kattakon beqasam choponini kiyib olgan Melivoy yonboshlab yotar, yalang oyoq bolalar uning atrofida o'tirib olib nimagadir xaxolab kulishardi.

– Hakim sassiqning qizini ko'rdingmi, Anvar? – Melivoy yaqin kelishim bilan do'rillab so'radi. Keyin qo'lidagi tol yog'och bilan imo qilib ko'rsatdi. – Dadasiga o'xshagan daroz ekan.

Bolalar tag'in baravariga kulib yuborishdi. Tolning panasida turgan novcha qizaloqni endi ko'rdim. Uning katta-

katta ko'zlari ma'yuslik bilan javdirar, nima qilishni bilmay, kalishining uchi bilan maysalarni ezg'ilardi.

Melivoydan hammamiz qo'rqardik, hech kimni ayamasdi. Lekin hozir uning qizni masxara qilishi alam qildi menga.

– Daroz bo'lsa senga nima? – dedim alamimdan chiyillab.

Halima yalt etib menga qaradi-yu, indamadi. Melivoy birpas baqrayib turdi-da, tayog'ining uchi bilan soy tomonni ko'rsatdi.

– Bor, buqamni qaytarib kel! Sening galing keldi.

U har doim molini bizlarga qaytartiradi. Nimagadir bu safar o'jarligim tutdi.

– O'zing qaytar! – dedim.

– Shunaqami? – Melivoyning ko'k ko'zlari olayib ketdi. Irg'ib o'rnidan turdi-yu, qo'lidagi tayoqni baland ko'tardi. Hozir yelkamga kaltak tushishini bilib, qo'rquvdan ko'zlarimni yumib oldim. Ammo kaltak tegmadi. Bir mahal ko'zimni ochib qarasam, Halima tayoqni ingichka tizzasiga tirab, sindiryapti.

– Buzuqning bolasi! – dedi Melivoy unga qarab.

Halimaning labi pirpirab, yig'lab yuboray deyotganidan bu yomon gap ekanligini tushundim.

– O'zing buzuqning bolasi! – dedim baqirib. – Ko'k ko'z! Ko'kqarg'a!

... O'sha kuni «katta yer»ning xo'jayini – Melivoyning buyrug'i bilan echkimni soyning narigi betida boqadigan bo'ldim.

* * *

Bolalar orasiga qaytgim kelardi-yu, «ko'kqarg'a»dan qo'rqardim. Faqat bir narsaga xursand edim: Halima ham ola sigirini men bilan birga boqardi. Keyin bilsam, u mendan uch yosh katta ekan. Kun bo'yi ikkalamiz chillak o'ynardik. Halima bu o'yinda o'g'il bolalardan qolishmasdi.

Yozda tag'in bir odat chiqardik. Har kuni peshinda soy bo'yida olov yoqib, qo'riga ikkitadan kartoshka ko'mib yeydigan bo'ldik. Bir gal u, bir gal men uydin kartoshka olib kelardik.

Cho'g'da qop-qorayib pishgan kartoshkani shosha-pisha artib, og'zimiz kuyishiga qaramay yeb olishdan lazzatliroq narsa yo'q edi bizga.

Hech esimdan chiqmaydi. Bir kuni o'sha totli tushlikni yeb bo'lib, maysalar ustiga chalqancha yotib oldim. Tubsiz osmonning bir chekkasida ko'pikday oppoq bulutlar ohista suzib yurar, baland-balandlarda jajjigina bir to'rg'ay turgan yerida tipirchilab, shodon sayrardi...

Halima yonimda o'tirib olib, o'tlardan «ajina kavush» to'qir, uzun-uzun barmoqlarining shunchalik chaqqon harakat qilishiga hayron qolardim. Birpasdan keyin u ingichka, past tovushda ashula ayta boshladi.

«Ochil-ochil oq toshlar-a...
Men onamni ko'rayin-a...
Diydoriga to'yayin-a...»

Uning sekin xo'rsinganini eshitdim. Zum o'tmay yana qaytardi.

«Oyijonimni... ko'rayin-a...
Diydoriga...»

Keyin birdan jim bo'lib qoldi. Allanimadan qo'rqqanday, sekin boshimni ko'tarib qaradim. Halimaning katta-katta, qop-qora ko'zlari jiqqa yosh edi.

Nima qilishimni bilmay, dovdirab qoldim.

– Yig'lama, – dedim yalinib, – yig'lamagin...

Halima qo'lidagi «ajina kavush»ni uloqtirib yubordi-da, qizil chit ko'ylagining etagini qayirib, ko'z yoshini artidi.

Arpaga o'roq tushdi. Endi bizning ham ishimiz ko'payib qolgandi, har kuni mashoqqa borardik. O'sha kuni peshingacha ikkalamiz bir to'rvadan mashoq terdik. O'roqchilar narigi adirga o'tib ketishgan, qizib yotgan arpazorlarni quyosh yondirardi.

– Yur, soydan suv ichib kelamiz, – dedim to'rvachamni orqalab.

– Polizga borib qovun yemaymizmi?

– Dadang bermaydi-da, – dedim ishonmay.

– Beradi, beradi, – Halima qo'limdan ushladi. Chopib ketdik. Soy bo'yidan yurib, poliz yoniga yetib borganimizda to'xtab qoldim.

– Qo'rqma! – Halima sudraguday bo'lib poliz ichiga yetaklab kirdi. Pushtalar ustida yumalab yotgan katta-katta qovun-tarvuzlarni ko'rib ko'zim o'ynardi. Lekin chayla yoniga yaqin borganda qo'rqa-pisa yana to'xtadim. Chayla soyasida Hakim sassiq bilan tabelchi To'lash aka chordana qurib o'tirgancha kosa qilingan bosvoldini yeyishardi.

– Dada, bizgayam qovun berasizmi? – Halima avval menga, keyin dadasiga qarab qo'ydi.

Hakim sassiq qizarib ketgan ko'zlarini menga qadagan edi, urgani esimga tushdi. O'shanda ham ko'zlari shunaqa qip-qizil edi.

To'lash aka og'zini katta ochib, xaxolab kula boshladi. Yakkam-dukkam tishlari orasida yarim chaynalgan oppoq bosvoldi bo'lagi ko'rindi.

– Sassiq! – dedi u og'zini to'ldirib. – To'yni boshlayversang ham bo'larkan. Mana kuyov bolayam tayyor. – Keyin yana xaxolab kuldi.

Hakim sassiq labining bir chekkasi bilan iljayib qo'ydi. Hayron bo'lib, Halimaga qaradim. U ham ko'zlari javdirab, atrofga alanglar, hov o'shanda – Melivoydan so'kish

eshitganda qandoq qilgan bo'lsa, hozir ham o'shanday kalishining uchi bilan yer chizardi.

To'satdan miyamga bir nima urilganday bo'ldi. Ular men bilmaydigan, yomon bir narsa to'g'risida gapirishayotganini tushunib qoldim. Sekin burildim-u, yig'lagancha chopib ketdim. Katta-kichik qovunlarini bosib, pushtalar ustidan sakrab-sakrab borarkanman, yelkamdan og'ir bir narsa bosib tushayotganini anchadan keyin bildim: boshqoq to'la xaltam ekan. Uni ham uloqtirdim-u soy bo'yiga yugurdim.

... Aqlimni taniganimdan keyin bilsam, men shirin, juda shirin, beg'ubor tush ko'rayotgan ekanman-u, To'lash bir og'iz gapi bilan ustimdan muzday sovuq suv quyib uyg'otib yuborgan ekan. Men bo'lsam mana shu tush uzoq, juda uzoq davom etishini xohlardim. O'sha-o'sha Halimani boshqa ko'rmadim, nimagadir ko'rishni xohlamadim ham. Keyin eshitsam, shaharga – oyisining yoniga ketib qolibdi.

* * *

Kecha «Panorama» kinoteatri yonida Halimani ko'rib qoldim. Agar o'zi chaqirmasa, tanimasdim. U yo'lkadan bolalar aravachasini yetaklab borardi. Qiziq, Halima meni qanday taniganiga hayronman... Arg'uvon tagidagi skameykada o'tirib gaplashdik. Halima turmush quribdi. Eri aspirant, o'zi vrach ekan.

– Bu – ikkinchi o'g'lim, – dedi u aravachada uxlab yotgan shiringina chaqaloqni ko'rsatib. Anchagacha jim o'tirganimizdan keyin sekin xo'rsindi.

– Qandoq yaxshi opa-uka edik-a... Qarang, o'n olti yil o'tib ketibdi.

Men uni sizlashni ham, senlashni ham bilolmay ikkilanib qoldim.

– Haliyam qo'rga ko'milgan kartoshkani yaxshi ko'rasizmi? – dedim anchadan keyin.

– Haliyam yosh bolasiz-a, Anvar... – u kuldi. Bu o'sha – o'zimga tanish opalarcha mehribon kulgi edi.

Yuragimning bir burchida sog'inch tuyg'usi jo'sh urib ketdi. Rost-a, qandoq opa-uka edik-a!.. To'lash aka o'shanda nimagayam shunaqa dedi-ya?

O'ZBEKLAR

Mahallada qaysi kampirni uyidan topolmasangiz, to'ppa-to'g'ri Otinoyinikiga boravering!

Otinoyining hovlisi past ko'chaning etagida. Uyi ham boshqalarnikidan ajralib turadi. Ikkita derazali pastak uy. Boshqalarning derazasi oldida gilos bo'lsa, Otinoyinikida ikki tup tut bor. Boshqalarning tomi tunuka bo'lsa, Otinoyining tomi shifer. Hammaning tomida televizor antennasi bor, Otinoyinikida yo'q. Ammo uning uyi hamisha hammanikidan gavjum bo'ladi. Doimo ochiq turadigan pastak darvozadan kirishingiz bilan eng avval dimog'ingizga gup etib rayhon isi uriladi. Keyin bir mahalla xotinning gangur-gungur suhbatini, bolalarning qiy-chuvini eshitasiz. Mashina sig'maydigan (unga mashinaning nimayam keragi bor) tor yo'lakdan o'tib, qutidekkina shinam hovliga kirasiz. Ariq tortib ekilgan rayhonlar belga uradi. Osh rayhon, sada rayhon, oq rayhon, qora rayhon. Hovli etagida, eski bostirma oldida bir tup o'rik bor. Dovuchcha tukkanidan boshlab turshak bo'lguncha mahallaning qora-qura bolalari shoxdan-shoxga tarmashadi. Otinoyi o'rikni qizg'anganidan emas, bolalarga achinganidan chirqillaydi: «Hoy, uyingga bug'doy to'lgur takalar, tush, yiqilib ketasan!» «Takalar» parvo qilmaydi. Biladiki, Otinoyining tuti ham, o'rigi ham ularniki! Umuman, bu hovli hammaniki. Erta ko'klamda sumalak shu yerda bo'ladi. Ismaloq somsa, yalpiz somsa Otinoyining

bostirmasidagi tandirda yopiladi. Keyin tut pishadi. Ketidan o'rik. Mahalladagi xotinoshi bormi, challarmi, beshik to'yi bormi, quda chaqiriqmi – hammasining maslahati shu yerda pishadi. Qancha non yopiladi, qancha guruch damlanadi. Qudalarga «to'qqiz-to'qqiz»da nimalar tortish kerak...

To'g'ri, u otinlikdan ko'ra, ko'proq xodimlik qilgan. Ammo uni xodim xola emas, Otinoyi deyishadi. Qolaversa, hozir dasturxonchilikni tashlagan. Uch yil bo'ldi. Keksayib, kuchi yetmay qoldi. Lekin haliyam Otinoyi deyishadi. Yozda o'rik tagidagi eski so'ri, qishda «chiylampa» suvoq qilingan pastak shiftli, tokchalariga barkashlar, chegalangan qadimiy «gardim» laganlar terib qo'yilgan uy hamisha gavjum bo'ladi.

Hozir yoz. Dumbul bo'lgan o'rik shoxida odatdagidek qo'shni bolalar kir maykasining qo'yniga o'rik to'ldiryapti. Bittasini og'ziga tashlaydi, bittasini qo'yniga soladi (Har ehtimolga qarshi). Otinoyi pastak shiftli uyida og'zi ochilgan eski sandiq oldida cho'kkalab o'tiribdi. Uyni kuyadori hidi tutib ketgan. O'rtadagi xontaxta atrofida Inoy garangning xotini Bahri xola, zavodda ishlaydigan «giroy» Ahmadning onasi Muattar xola, «Kelinposhsha» o'tirishibdi. Otinoyi sandiqdan birma-bir o'limliklarini olib, «ko'z-ko'z» qilyapti.

– Mana bu – kafanlik, – deydi u bejirim qilib o'ralgan dokani ko'rsatib.

Muattar xola dokaning bir uchini chimchilab ko'radi.

– Yaxshi, misqoli doka ekan.

– Iskandarim ataylab Maskovdan obkelgan. – Otinoyi kerilib qaddini rostlaydi. – Mana buni yirtishga berasila. – U tag'in bir tugunni ochadi. – Ammo-lekin ro'mollardan sal ko'nglim to'lmay turibdi. Hammasi bir xil bo'lgani yaxshi. Mana, o'ttiztasi ko'k, yigirmatasi moshrang. Mayli, Iskandarimga aytaman, obkeb beradi.

– Qo'ying ovsin moshsha, hali ko'p yurasiz, – deydi Bahri xola ming'irlab. U ming'irlamasdan gapirolmaydi. Dimog'i shunaqa bechoraning. Ayniqsa «p»ni aytolmaydi, «m» deydi. Sal g'iybatchiroq-ku, ammo yaxshi xotin, ko'ngli bo'sh. Qo'shning mushugi tug'sayam, «joni og'rigandir», deb yig'laydi. U ro'molining uchini mijjasiga bosib xo'rsindi. – Qarab turing, hali qo'sha-qo'sha nevaralar ko'rasiz, to'ylar qilasiz, ovsin moshsha! – U «poshsha» deganda ovozi «moshsha» bo'lib chiqadi.

– Aytganingiz kelsin, – Otinoyi ma'yus jilmayadi. «O'limligini» tartib bilan yana sandiqqa joylaydi.

– Xudo Iskandarimgayam qo'chqordek o'g'illar bersa ajabmas. Kechayam kelib ketdi, bolam boyaqish. – Otinoyi sandiqni qaytadan titkilaydi. – Mana, – deydi ikki lo'ppi yaltiroq qog'ozli sovunni olib. – Polcha degan joydan mozor bosib kelgan. Iskandarim obkeldi.

U sovunning bittasini Bahri xolaga, bittasini Muattar xolaga beradi.

– Voy, munchayam yaxshi! – Muattar xola «polskiy» sovunni huzur qilib hidlaydi. Bahri xola ham hidlayotganida Muattar xoladan dashnom eshitadi.

– Is bilmaysiz-ku, hidlab nimaning farqiga bordingiz...

– O'g'limni duo qilinglar, – deydi Otinoyi astoydil yalinib. – O'zidan ko'paysin, denglar, yaxshi farzandlar bersin, denglar.

Boyadan beri indamay o'tirgan «Kelinposhsha» jilmayadi.

– Menga-chi, Otinoyi? Mozor bosib kelgan «Polcha» sovundan menga bermaysizmi?

– Siz sovunni nima qilasiz, Kelinposhsha, o'zingiz oydaysiz. Undan ko'ra borib choy damlab keling.

«Kelinposhsha» – Otinoyining devor-darmiyon qo'shnisi. O'rtadan tuynuk ochib qo'yishgan. Eri provodnik. Mahalladagi yosh-yalanglar uni Kelinoyi deb chaqirishadi.

Otinoyi uchun u «Kelinposhsha». Yaxshi juvon, bechora. Sakkizta bolasi bor. Eng kichkinasi endi yo'lga kirdi. «Kelinposhsha» shu ko'klam tag'in boshqorong'i bo'ldi: dovuchchaga. Hovuch-hovuch dovuchcha yeb esi ketdi boyaqishni. Kelinposhsha «dik» etib o'rnidan turadi. Otinoyi ketidan tayinlab qoladi:

– Iskandarim obkegan choydan damlang, bolam. Dutor chalib turganidan.

«Kelinposhsha» bir zumda choy damlab keladi.

– «Polcha» sovunni to'yana qilasiz, Otinoyi, – deydi kulib. – Aqining to'yiga!

Aqida «Kelinposhsha»ning to'ng'ich qizi. Hamshira bo'lib ishlaydi. Yaqinda uzatishmoqchi. Yangiyo'llik paxta brigadiriga fotiha qilishgan.

– To'yana sizdan aylansin! – Otinoyi ham kulimsiraydi. – Aqi qizimning to'yi bo'ladi-yu, men qarab turarmidim. Sovun nima bo'pti, hali Iskandarimga aytsam, gilam olib beradi.

Iskandar – Otinoyining yolg'iz o'g'li. Katta joyda ishlaydi. Oq mashinada yuradi. Markazda to'rt xonali uyi bor. Otinoyining aytishicha, vannasi chinnidan emish. Iskandar yaxshi bola. Domga olib ketaman, deb uvvalo yalinsayam, Otinoyi ko'nmaydi: hovlisiga o'rganib qolgan. Otinoyining bittayu bitta orzusi bor. Shu – Iskandarining aqalli bittagina bolasini bag'riga bossa, oyoq-qo'lini bermalol uzatib ketardi.

– Mayli, to'y bo'lsin, – deydi u negadir xo'rsinib. – Endi... Tirik jon-da, o'rgilaylar. Vaqti qazoyim yetsa, bolam bechora yugurgilab qolmasin, deyman-da, ishi og'ir, lak-lak odamga xo'jayin bo'lish osonmi?

* * *

Iskandar Vahobovich «vertushka» go'shagini joyiga qo'ydi-yu, ichidan xo'rsiniq keldi. Vazir o'rinbosari

telefonda yigirma daqiqa «qovurdi». Yubiley obyekti o'lda-jo'lda bo'lib yotgani uchun Iskandar Vahobovich boshchilik qilayotgan trest aybdor emish. Iskandar Vahobovich yotig'i bilan tushuntirmoqchi edi, vazir o'rinbosari, «bahona izlamang», deb jerkib berdi.

U sirqillab ketayotgan chakkalarini kafti orasiga olib bir zum ko'zlarini yarim yumgancha stol qirrasiga tikilib o'tirdi. «Har kuni bir g'alva!»

Eshik g'iyqillab ochildi. Iskandar Vahobovich ostonada turgan do'mboq kotibaga «ha, tag'in nima gap!» degandek zardali qaradi.

– Shahar telefonidan so'rashyapti, – dedi kotiba hurkibroq.

– Kim?

Kotiba quyuq bo'yalgan kipriklarini pirpiratdi.

– Tanishiman, deydi.

«Padariga la'nat tanishlarniyam, notanishlarniyam! Qaysi birining ishi tushsa, darrov «tanish» bo'lib qoladi». U olcharang telefon go'shagini shaxt bilan ko'tardi.

– Ha!

Shu zahotiyoq shang'illagan ovoz qulog'ini teshib yuboray dedi.

– Iskandarmisan?

«Qanaqa savodsiz bu! Baqiradi, sansiraydi!»

– Kim o'zi bu? – dedi Iskandar Vahobovich qoni qaynab. Javob o'rniga yana savol eshitildi.

– Iskandarmisan?

– Ha. O'zingiz kimsiz?

Go'shak yana shang'illadi:

– Xolmatman! Qo'shning...

Iskandar Vahobovich beixtiyor qo'shnilarini bir-bir eslab ko'rdi, Xolmat degan qo'shnisi yo'q. Jinni bo'lganmi bu odamlar?!

– Qiladigan ishingiz bo'lmasa, telefonni joyiga qo'ying!
Shunday deb endi go'shakni uloqtirmoqchi edi, boyagi ovoz yana shang'illadi:

– Otinoyimning ahvoli og'ir!

Iskandar Vahobovich esankirab qoldi. Axir Otinoyi...
O'zining onasi-ku!

Bo'ldi-bo'ldi! Xolmat aka ularning devor-darmiyon qo'shnisi. Provodnik.

– Nima bo'ldi?! – dedi birdan yuragiga g'ulg'ula tushib.

– Oyimga nima bo'ldi?

– Ahvoli og'ir.

– Shoshmang, hozir «skoriy» chaqiraman.

– «Skoriy»ni nima qilasan? – Xolmat aka tag'in baqirdi.

– O'zing kel, tezroq!

Telefon uzilib, «tut-tut-tut» degan qisqa tovush eshitila boshladi. Iskandar Vahobovich ichida bir nima uzilib ketgandek bo'ldi. Nahotki onasi...

U yugurib qabulxonaga chiqdi. Mashinka chiqillatayotgan kotibaga buyurdi:

– Dilya! Tezroq mashina chaqiring! Podyezdga!

...Oq «Volga» gavjum ko'chalardan shiddat bilan uchib borar, Iskandar Vahobovich orqa o'rindiqda o'tirgancha yuragi gursillab bir savolni xayolan qaytarardi. «Nahotki!»

Mashina chorrahalarda hadeb to'xtar, u xayoliga kelgan dahshatli o'yni haydashga, «toblari qochgandir-da», deb o'zini yupatishga urinar, ammo o'sha zahoti boyagi shafqatsiz savol yana vujudini teshib o'tar edi. «Nahotki!»

Mashina choyxo'rlar chaqchaqlashib o'tirgan guzar oldidan o'tayotganida u bir qadar taskin topgandek bo'ldi. «Xayriyat, tinchlik ekan». U biladi. Xudo ko'rsatmasin, biron kor-hol bo'lsa, choyxonada odam qolarmidi? Ammo mashina past ko'chaga kirishi bilanoq yuragi muzlab ketdi. Ana o'sha shifer tomli pastak uy, ana ikki tup tut, rangi unniqib ketgan

taxta darvoza. Darvoza oldida besh-olti erkak to'dalashib turishibdi. Allaqanday ayol tut tagini supuryapti.

«Nahotki!» Bu savol uning miyasiga so'nggi bor chaqmoqday urildi-yu, majolsiz oyoqlarini arang sudrab, mashinadan tushdi. Shu ondayoq Xolmat aka yugurib kelib, uni quchoqladi.

– Onamizdan ayrilib qoldik-ku, ukam! – U Iskandar Vahobovichni bag'riga bosgancha birdan o'krab yig'lab yubordi. – Ayrilib qoldik!

Iskandar Vahobovichning ko'z o'ngi qorong'ilashib ketdi. U karaxt bo'lib qolgan, Xolmat akaning yelkasi muttasil silkinayotganini, mo'ylovi o'zining yuziga tegib, g'ashini keltirayotganini sezib turar, ammo boshqa narsani idrok etolmas, xayolida faqat bir fikr charx urardi. «Oyim!» «Oyim!» U amallab Xolmat akaning quchog'idan chiqdi-da, gandraklagudek bo'lib uy tomon yo'naldi. Darvoza oldida turgan kishilar negadir unga tik qaramas, biri boshini xam qilib turar, biri yuzini o'girganga o'xshardi. Biroq hozir u bunga e'tibor beradigan ahvolda emasdi.

Chayqalib-chayqalib g'ishtin zinalardan chiqdi-yu, salqin dahlizdan o'tib, uyga otilib kirdi. Qandaydir ayollar (Iskandar qaramadi) unga yo'l bo'shatishdi.

Iskandar yaltiroq qubbalari zanglab ketgan sim karavotda yotgan onasini ko'rdi. Ustiga oq choyshab yopib qo'yilgan. Onasi qandaydir osoyishta yotar, xuddi uxlayotganga o'xshardi. Iskandar hozir «Oyi!» deb chaqirsa, uyg'onib ketadigandek.

U shunday qildi. Karavot oldiga, namatga cho'kkancha iltijo qildi:

– Oyi! Oyi-i!

Yo'q, onasi ko'zini ochmadi. Shunda u choyshabni ochib tashladi-yu, onasining qo'lini, yillar zahmatidan barmoqlari

qing'ir-qiyshiq bo'lib ketgan qo'lini changallab o'pdi. Qiziq, onasining qo'li muzdek edi!

– Oyi! Oyijo-on! – dedi hayqirib. Keyingi so'zlar bo'g'zidan yig'i aralash otilib chiqdi. – Oyi-i!

U ko'z yoshlaridan ho'l bo'lib ketgan lablari bilan onasining qo'llarini o'pa boshladi. Keyin nima uchundir ikki qo'llab namat to'shalgan yerni mushtladi.

– Nega? Oyi, ayting, nega?

U hadeb yerni mushtlar, ammo bu xitob onasiga qaratilganmi, o'zigami, aqli yetmas edi. U cho'kkalagan ko'yi tag'in onasining qo'llariga yopishdi. Muzdek, dag'al qo'lni yuziga bosib, o'krab yubordi.

...Bu qo'llar uning boshini silagan, ko'p silagan. Ko'ngli o'ksiganida, betob bo'lganida, ilk bor maktabga borganida, maktabni oltin medal bilan bitirganida... Nihoyat... uylanganida... Bu qo'llar uning boshini ko'p silagan. O'zi-chi, o'zi onasining boshini silaganmi? Biron marta, aqalli biron marta silaganmi?!

Yuragining tub-tubidan otilib chiqqan bu savol a'zoyi badanini o'rtab yubordi.

– Oyi-i-i! – dedi ingrab.

Bu qo'llar uni yo'rgaklagan, unga ko'krak tutgan, shamollaganida badaniga qo'y yog'i surgan. Bu qo'llar sigir soqqan, tappi qilgan, kir yuvgan, ovqat pishirgan, non yopgan...

Non! Onasining nazarida nondan tabarruk narsa yo'q edi. Qo'ni-qo'shnilarining go'dak bolasi yo'lga kirsar, oyog'i orasidan kulcha yumalatib, boshqa bolalarga obqochtirardi. Nikoh to'yidan avval ikki yoshning pok turmushidan nishona bo'lsin deb non ushatardi. Bostirmadagi tandirda kunora non yopardi. Zog'orami, arpa nonmi, ishqilib, non-da! Tandir yonida o'ralashib yurgan Iskandarga eng avval pishgan nonni yuziga suv sepib uzib berardi...

U yosh to'la ko'zlari bilan beixtiyor karavot ustiga, shift tomonga tikildi. Ana, ana o'sha non! «Chiylampa» qilib suvalgan shift ostida, devordagi mixga ilig'liq turibdi. Bir cheti tishlangan, ana, o'sha tish izlari. Bu – dadasi tishlagan non. Qip-qizil...

U onasining nonni arta-arti joyiga ilib qo'yganini ko'p ko'rgan. Mixdan hadeb olib qo'yilavergani uchun teshigi kengayib ketgan. Ammo non hamon turibdi. Mog'or bosmagan, qip-qizil...

Bir mahal u kimdir ohista turtganini idrok etib, yelkasi osha burilib qaradi. Tanidi: Bahri xola. Ko'k ro'mol tang'ib, ko'k ko'ylak kiyib olibdi. Yig'layverib, shishib ketibdi.

– Bandalik-da, bolam, – dedi u ming'irlab. – Olloning irodasi, jon bolam! Yuvg'uvchi keldi... – Shunday dedi-yu, hiqillab yig'lagancha ko'k ro'molini yuziga bosdi.

Iskandar chiqib ketishi kerakligini tushundi. Ostona borganida to'xtab qoldi. Onasiga termildi. Onasi qubbalari zanglab ketgan sim karavotda yotar, go'yo uxlayotgandek, hozir o'rnidan turib, uni bag'riga bosadigandek, ikki kafti bilan ikki yuzidan ushlab, peshanasidan o'padigandek edi. U doim shunday qilardi. Shu uyda, shu karavotda onasi uni bag'riga bosib uxlatgan. Ertalab peshanasini silab uyg'otgan.

...Esida, o'shanda Iskandar birinchi sinfda o'qirdi. O'rik gullagan kun edi. Maktabdan isitmalab keldi. Onasi ming zo'rlamasin, bir piyola choy ichdi-yu, xuddi mana shu karavotga cho'zildi. Uyda xotinlar ko'p edi. U isitma aralash Bahri xolaning dimog'i bilan ming'irlab aytayotgan gaplarini eshitib yotardi.

«Endi, ovsinmoshsha, xudodan ham, bandasidanam qarzingiz qolmadi. Urush bitdi. Kelganlar keldi. O'lganlarning joni jannatda bo'lsin. Yosh umringizni xazon qilmang. Bolagayam ota kerak, o'rgilay. Sizga og'iz solayotganlar tag-zoti ko'rgan odamlar...»

Iskandar onasining javobini eshitmadi. Uxlab qoldimi, hushidan ketdimi, o'zi bilmasdi. Umuman, bu gaplarning ma'nosini tushunmasdi. Faqat ertasiga onasi kuyib-yonib aytgan so'zlar qulog'iga o'rnamshib qoldi.

«Ikkinchi unaqa gaplarni gapirmanglar! Xudoning qahri keldi. Bolamga qizamiq toshib ketdi. Dadasi omon bo'lsa kelar, kelmasa peshanamdan ko'rdim. Yolg'iz emasman, shukr, oldimda bolam bor...»

– Iskandarjon, jon bolam, – Bahri xola uning yelkasiga qoqdi. – Chiqa qoling, qoqindiq.

Iskandar (u endi Iskandar Vahobovich emas, Iskandar, oddiy Iskandar bo'lib qolgandi, negaki, o'lim hammani baravar qilib qo'yadi) vazmin qadamlar bilan salqin dahlizga chiqdi.

Peshayvon ustunidagi mixlarga onasining butun «bisoti» ilib qo'yilibdi: bitta yangi, ikkita eski ko'ylak, unniqib ketgan baxmal nimcha, bir burchi teshilgan jun ro'mol, hali tikilmagan bir kiyimlik shtapel, shol dasturxon...

Kavshandozda onasining kavushi turibdi. Qiziq, bu kavushni Iskandar uch yil ilgari olib bergan edi. Nega yangi turibdi?

Xolmat akaning xotini – Kelinoyi yig'idan qizargan ko'zlari bilan unga termuldi. Iskandar kavushga tikilib turganini sezdi shekilli, tushuntirdi:

– Ayab yurardilar. To'yga borsalar yonboshlariga – ko'rpachaning tagiga berkitib o'tirardilar. Iskandarim obergan, deb maqtanardilar.

Iskandar hamon kavushdan ko'z uzmasdi. Kelinoyining savolini daf'atan yaxshi eshitmadi.

– Nima qilaylik, mastavami, sho'rvami?

Iskandar hech nimaga tushunmadi.

– Nima? – dedi garangsib.

– Hali-zamon uyni odam bosadi. Issiq ovqat qilish kerak.
 – Kelinoyi kuymalanib tushuntirdi. – O'lik chiqqan uyda qozon qaynatib bo'lmaydi. Biznikida qilamiz. So'ramasam ham bo'lardi-ku, siz – o'zimiznikisiz, ukam.

Iskandarni Kelinoyining savoli emas, o'zini o'rtayotgan muammo qiynar edi.

– Nima bo'ldi? – dedi ingrab. – Oyim soppa-sog' edilar-ku!

Kelinoyi o'pkasi to'lib xo'rsindi.

– Tuppa-tuzuk edilar, – dedi burnini tortib. – Ertalab o'ynab-kulib o'tirdilar. O'limliklarini ko'rsatdilar. Hazillashdik. Men aytdim: «O'limni o'ylamang. Aqining to'yini... – Kelinoyi hiqillab qoldi. – Aqidaning to'yini o'zingiz bosh bo'lib o'tkazasiz», dedim. Xo'p, dedilar. Keyin birdan, g'alati bo'p ketyapman, dedilar. Karavotga yotqizgan edik...

Iskandar kavshandozga o'tirgancha boshini changalladi. Bu qanday gap! Bu qandoq adolatsizlik! Nimaga? Tuppa-tuzuk yurgan onasi nimaga to'satdan...

Kelinoyi hamon hiqillagan ko'yi uning boshiga egildi.

– Sho'rva qila qolamiz.

Ajab, shu topda taom o'tadimi tomoqdan! Darvoqe, onasi sho'rva pishirishga usta edi. To'yda, ma'arakada xotinlar uning ovqatini maqtashsa quvonib ketardi. Ayniqsa, moxorani ko'p qilardi. Bu taomni Iskandar ham yegan. Ko'p yegan. Onasi beva qolganidan keyin jamoat uni Otinoyi qildi. U maktabda farrosh bo'lib ishlar, lekin uyda ham tinchi yo'q edi. «Kelin tushdi»ga qovurma chuchvara pishirish bormi, «to'qqiz-to'qqiz»ga qatlama qilish bormi, nikoh to'yida «tortishmachoq» bo'ladimi, kuyov-kelinning boshidan sochqi sochishmi, kelinsalomda quda-qudag'aylarga salom berishmi – hammasi onasining zimmasida edi. U to'ydan albatta tuguncha olib kelar, tugunchada non, monpasi,

govurma chuchvara, keyin... albatta moxora bo'lardi. Ba'zan yarim kechalari eshik taqillab qolar. Iskandar onasining dik etib o'rnidan turib ketganidan uyg'onar, zum o'tmay onasi qaytib kirardi. «Jon bolam, Ismat cho'loq omonatini topshiribdi, bormasam bo'lmaydi, sen qo'rqmaysan-a, katta yigitsan-ku», deb peshanasidan o'pib chiqib ketar, shu ketgancha ertasiga peshinda qaytib kelar, o'zicha qur'on o'qir: «Joyi jannatda bo'lsin», deb yuziga fотиha tortar edi.

...U onasi yotgan uyga oqsoqlanib kirib ketayotgan paranjili kampirni ko'rdi-yu, garangsib hovliga tushdi. Dimog'iga rayhon hidi kirdi. Negadir onasining isi kelgandek bo'ldi.

Kelinoyi hovlidagi rayhonlardan shosha-pisha yulgancha uyga kirib ketdi. Iskandarning xayoliga yarq etib bir fikr urildi: «Gulyaga aytish kerak. Xabari yo'q-ku hali».

U endi eshik tomon yo'nalgan edi, xotiniga ko'zi tushdi. Gulya, qo'lida oq sumkacha, xuddi to'yga kelgandek yasanib olgan, vodolazka kiygan, qulog'ida brilliant zirak yaltirab turardi. «Qayoqdan eshitibdi bu», degan xayolga bordi-yu, uning orqasidan sumka ko'tarib kelayotgan haydovchisi Shavkatni ko'rib, hammasini tushundi: «Shavkat xabar qilgan».

– Iskandar aka! – Gulya uning yelkasiga boshini qo'yib quchoqladi. – Bechora oyim! – U bir zum shu alfozda turdi-da, negadir teskari qarab kafti bilan yuzini changalladi. Shosha-pisha oq sumkachasidan ro'molcha olib ko'ziga bosdi.

«Sen aybdorsan! – deb o'yladi Iskandar vujudi titrab. – Hammasiga sen – qanjiq aybdorsan!» U xotinidan shart yuzini o'girdi-da, burchakda, o'rik ostida turgan so'riga borib o'tirdi.

Shu ondayoq shafqatsiz bir savol a'zoi badanini sirqiratib yubordi. «O'zing-chi, o'zing!»

Uning uylanishi qiziq bo'ldi. Qurilish fakultetida Iskandar Vahobovning oldiga tushadigan talaba yo'q edi. A'lochi, jamoatchi... To'rtinchi kursda o'qiyotganida «Turar joy qurilishini mahalliy sharoitga moslash» degan mavzuda ma'ruza qildi. U shu qadar dadil fikrlarni o'rta tashladiki, muhokama janjalga aylanib ketdi. Birovlar uni modernist dedi, boshqalar donishmandga chiqardi. Shunda kafedra mudiri, Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, professor Zarif Hodiyeovich uni himoya qildi. «Yosh do'stimiz Iskandar Vahobovichdan kelgusida yetuk olim chiqadi», dedi komil ishonch bilan. Rostdan ham shunday bo'ldi. Zarif Hodiyeovich uni o'z tarbiyasiga oldi. Iskandar aspiranturada qoldi. Birinchi bor domlanning qizi – jinsi shim kiyib yuradigan Gulyani ko'rganida e'tibor bermadi. To'g'rirog'i, e'tibor bermaslikka harakat qildi. Kimsan, akademikning qizi qayoqda-yu, mahalla otinining o'g'li qayoqda! U shunday deb o'ylar, lekin domla bilan olcha soyasida o'tirib suhbatlashayotganida ichkarida royal chalayotgan, ba'zan xiyol bo'g'i, ammo yurakni o'rtovchi ovozda qo'shiq aytayotgan Gulandom – Gulyaga ko'ngli talpinayotganini sezib turardi. Gulya konservatoriyada o'qir, zamonaviy, o'ktam qiz edi. Xullas, Gulyaning o'zi unga ko'nglini yordi.

To'y restoranda o'tdi. Kellingning dugonalari past ko'chadagi kulbaga kelishganida Iskandarning yetti nomusi yerga bukildi. Nazarida, Otinoyi kelinining boshidan sochgan sochqilar ham, pishirgan moxorasi ham o'ta bachkana, o'ta g'arib ko'rinar edi. Buni qarangki, Zarif Hodiyeovich mard odam ekan! Xuddi shu hovlida, xuddi shu so'rida o'tirib (Otinoyi katta oxurdan yem yegan qudalaridan uyalib, restoranga bormagan, ammo uyda chiroyli dasturxon tuzab qo'ygan edi) qiziga nasihat qildi:

«Iskandarni o'zing tanladingmi, endi bilib qo'y, shu oilaning jirini jirlaysan. Ona bechora bir ko'zlab o'g'il

o'stiribdi. Mening ham bir bolam ikkita bo'ldi, Otinoyining ham».

Otinoyi bu gapdan boshi osmonga yetdi. Tog'dek suyanchiq topganiga quvonib, qudasining yelkasiga bosh qo'yib yig'lab yubordi.

Yarim yilcha yaxshi turishdi. Otinoyi kelini uyg'onmasidan avval pechkaga ko'mir qalab qo'yar, ataylabdan tandirda non yopar, kechqurun er-xotin ishdan qaytishiga ovqat tayyor turar edi... Boshqa paytlarda u to'ygami, ma'rakagami chiqib ketar, alla-pallada bir lagan sovigan osh, bir kosa moxora, bir chekkasi ushatilgan qatlama olib kelib, o'rta qo'yar, tantana bilan e'lon qilar edi. «Olinglar, bolajonlarim! Sizlarniyam to'yga yetkazsin!» Keyin bir kiyimlik chitmi, satinmi keliniga uzatardi: «Obqo'ying, kelinposhsha, Xudo xohlasa, o'g'il to'yi qilsangiz kerak bo'ladi!»

Gulya qaynanasining oldida bir nima deya olmas, kechasi Iskandarni egovlardi: «Onangiz tilanchilikni bas qilsin! Menga birov tishlagan qatlamalar, birov sadaqa qilgan lattalar kerakmas».

Katta janjal arzimagan narsadan boshlandi. Bir kuni Iskandar ishdan kelsa, xotini divanda muk tushib yig'lab yotibdi.

Iskandar uning yelkasidan ohista tutgan edi, Gulya divan suyanchig'ini mushtladi, yoshdan tushi erib ketgan ko'zida g'azab chaqnadi:

«Yo'qoling! – dedi yig'lab. – Tilanchi onangiz bilan qo'shmozor bo'ling! Gilamim! Gilamimni nima qildi? Belgiyskiy gilam edi! Irim-sirimlaring boshingda qolgurlar!»

Iskandar esankirab qoldi. Devordagi ipak gilamga qaradi. Yo'q, hammasi joyida. Keyin, yerga to'shalgan gilamni sinchiklab tekshira boshladi. Qarasa, Gulyaning gapi rost. Gilamning bir burchagi teshilib qolibdi. Tangadek teshik. Iskandar go'yo shu bilan teshik bekilib qoladigandek

barmog'ini tiqib ko'rdi. Yuragi siqilib uf tortdi. Boshini ko'tarsa, tepasida onasi turibdi. Otinoyi, «bu yoqqa kel», degandek uni imladi. Iskandar hamon divanda yuztuban yotgan xotiniga o'g'rincha qarab qo'ydi-da, onasiga ergashdi.

«Ayb menda, – dedi onasi shivirlab. – Kecha to'yda bir uy xotin Gulandomni maqtadi. Kelinimga ko'z tegmasin, deb isiriq tutatgandim. Xokandoz o'lgurdan cho'g' tushganini bilmay qolibman. – U bir zum o'ylanib turdi-da, tushuntirdi: – Xotiningni ko'nglini ol. Xapa bo'lmasin. Ja bo'lmasa, pensiyamdan yig'ib-yig'ib olib berarman!»

Na ilojki, bu bilan janjal tugamadi. Gulya masalani ko'ndalang qo'ydi: «Yo meni deng, yo tilanchi onangizni! Ketaman! Dadamnikiga ketaman! Onam meni ko'mirning sassig'ini hidlasin, deb tuqqan emas».

Oxiri er-xotin boshlashib Zarif Hodiyeovichning oldiga borishdi. Maslahat so'rashgan edi, qaynatasi Iskandarni jerkib berdi: «Qanaqa erkaksiz o'zi! Bir yil turmasdan onangizni tashlab qochishni mo'ljallab qoldingizmi? Xotin deganni qattiq ushlash kerak-da, bundoq!»

Dadasining gapi Gulyaning jon-jonidan o'tib ketdi. «Uyingizga sig'masam, ijaraga kvartira olaman», deb yig'ladi. Qiziq, shunda yana Otinoyining o'zi yordamga keldi. «Bolalarimga yordam bering, joy olishsin. Gulandomim katta oxurdan yem yegan, mening chaldivorimda tursa uyat bo'ladi», deb qudasiga yalindi.

Shundoq bo'ldi. Zarif Hodiyeovichning ko'magida shahar markazidan uy olishdi. Er-xotin, «yuring biz bilan», deb Otinoyini hol-joniga qo'yishmadi. Ammo Otinoyi ko'nmadi. «Qorada ko'rsam qornim to'q, o'zlaringdan ko'payinglar. Men cholimning chirog'ini o'chirib ketmayman».

To'g'ri, Iskandar onasini qarovsiz qoldirmadi. Loysuvoq tom ustiga starapil o'rnatib, shifer yoptirdi. Uy «zamonaviyroq» bo'ldi. Keyin... keyin gaz kirgizib berdi.

To'g'ri, tabiiy emas, balonli... Otinoyi ularning «dom»iga borsa ko'p o'tirolmas, mahalladagi biron to'ynimi, ma'rakanimi bahona qilib, tezgina tura qolardi.

Avvaliga er-xotin bu hovliga bot-bot kelib turishdi. Keyin Iskandarning ishlari ko'payib ketdi. Iskandar endi kimsan Iskandar Vahobovichga aylandi, fan kandidati, trest boshqaruvchisi... Ajab, uning ishi ko'paygandan-ko'payib borar, biroq hammasiga ulgurar edi. Faqat bir narsaga – onasini ko'rishga vaqt topolmasdi. Bunga bir chekkasi Gulya ham sababchi edi. Er-xotinning umri o'tib borardi. Farzandlari yo'qligi avvaliga bilinmasa ham bora-bora Gulya serzarda bo'lib qoldi. Bir kuni eriga piching qildi: «Oyingiz sizga yangi xotin izlab yurganmish. Eshikma-eshik tentirab o'rganib qolgan-da! Topsa-topadiyam!»

Iskandar o'shanda xotinini birinchi marta sansiradi. «Uyat bormi sanda», – dedi g'azabdan titrab. Onasi har doim bir gapni qaytarardi: «Xotiningni xafa qilma, bolam. Umid bilan bir yostiqa bosh qo'ygan». Gulya har ehtimolga qarshi «profilaktika» uchun shunday deganini bilib, Iskandar battar g'azablandi: «Uyat bormi sanda?» – Gulya kinoyali kuldi: «Uyat nima qiladi menda, hammasini yig'ishtirib sizga bergan».

«Mana endi hammasi tamom bo'ldi. Hammasi». Iskandar hovlida odamlar kuymalanib yurganini payqar, ammo hech nimani ko'rmas edi.

Chekkisi keldi. Shimining cho'ntagiga qo'l suqsa, sigaret yo'q. Hali ishxonada stol ustida qolib ketaveribdi. U ma'nosiz nigohini ro'parasidagi bostirmaga tikdi. Loysuvoq tom yupqalashib qolibdi. Katalakdek derazaning bir ko'zi singan, oynalari xiralashib ketgan.

Ajab, oxirgi marta qachon keluvdi bu hovliga? Ha, bayram arafasida, yettinchi martda kelgan edi. Tushlik tanaffusidan foydalanib, birrov keldi-yu ketdi. Odatdagidek

shoshib turardi. Keyin, Gulya mehmon keladi deb qo'ygan... Onasini to'rtta choy, sovun bilan qutladi. Mashina kutib turganini bahona qilib tuflisini ham yechmadi. Onasi shoshib qoldi. Yalpiz somsa qilgan ekan. Majbur qilib shundan bittasini yedirdi. Iskandar mashinaga o'tirganda harsillab yugurib chiqdi. Ro'moli qiyshayib yelkasiga tushib ketgan. Qo'lida eski gazetaga o'rog'lik bir nima. «Ma, – dedi mashinaning qiya ochiq eshigidan uzatib. – Gulandomniyam og'zi tegsin». Iskandar gazeta ostidan issig'i sezilib turgan somsalarni mashinaning orqa oynasi tagiga tashlab eshikni yopdi... O'shanda onasini oxirgi marta ko'rayotganini bilsa edi! Bugun nechanchi o'zi? O'n ikkinchi iyul. Bundan chiqdi uch oydan oshibdi. Uch oy! Nahotki shuncha vaqt ichida bir soat vaqt topolmadi? Topardi, xohlasa, albatta topardi.

U allakim o'zining otini aytib chaqirayotganini idrok etib, boshini ko'tardi. Qarasa, jinsi shim kiygan talabanamo yigit yelkasida karton quti ko'tarib turibdi. Iskandar uni tanimadi. Talmovsirab qaragan edi, yigit so'radi:

– Qayoqqa qo'yay?

Iskandar hech nimaga tushunmadi. Yuki og'irroq bo'lsa kerak, yigit qutini qo'shqo'llab chiranib yelkasidan oldi-da, so'ri burchagiga – soyaga qo'ydi. Iskandarning ko'zi qutiga yopishtirilgan konfet etiketkasiga tushdi. Zum o'tmay boyagi yigit tag'in bir quti ko'tarib keldi. Uniyam so'ri ustiga, boyagi qutining yoniga qo'ydi.

– Mayiz, – dedi sekin.

Shundagina Iskandarning xayoliga keldi: «Pulini berish kerak».

– Shoshmang, – dedi cho'ntagini kavlab. – Necha pul bo'ladi?

Yigit to'xtab qoldi. Hayron bo'lib unga tikildi.

– Necha so'm? – dedi Iskandar ovozi xirillab.

Yigit negadir yerga qaradi.

– Otinoyim... – Shunday dedi-yu, u yog'ini gapirmadi. Ko'ziga shu qadar ma'noli tikilib qaradiki, Iskandar beixtiyor pulni qaytib kissasiga soldi. Yigit ohista burildi-da, indamay ketaverdi. Qiziq, nima demoqchi bo'ldi u? «Otinoyim mening ham onam edi, sen pastkash hamma narsani pulga chaqasanmi?» dedimi? Kim o'zi bu yigit? Nimaga Iskandar uni tanimaydi? Umuman, o'zidan boshqa – Iskandar Vahobovichdan boshqa kimni taniydi?

Bir mahal u kavshandozda Kelinoyi imlab chaqirayotganini ko'rdi. Paranjili yuvg'uvchi oqsoqlanib zinadan tushib kelardi. Kelinoyi yoshdan qizargan ko'zlarini Iskandarga tikdi.

– Otinoyimning ziraklarini yuvg'uvchiga berdik, – dedi sekin. – O'zlari vasiyat qilgandilar.

«Yuvg'uvchi», «vasiyat...» Bu so'zlar Iskandarga xunuk, sovuq eshitilar, go'yo bu gaplar hammasi yolg'ondek, tushida bo'layotgandek edi. Hozir uyg'onib ketadi-yu, yengil tortadi.

– Mana... Olib qo'ying...

Iskandar merovsirab Kelinoyining qo'liga qaradi. Ikki lo'ppi choy. «Indiyskiy».

– Ikkitasini yuvg'uvchiga berdik. Rozi bo'ling. – Kelinoyi titrayotgan labini tishladi. – To'rtta edi. Sakkizinchi martda olib kelgan ekansiz. Otinoyim... Otinoyim... – Kelinoyi entikib qoldi. – Barkash orqasiga berkitib qo'ygan edilar. Birov kelsa, Iskandar obkelgan choydan damlang, dutor chalib turgan choydan, derdilar. Men boshqa choy damlardim. Bunisini Otinoyim har kuni hidlab-hidlab barkash orqasiga bekitib qo'yardilar.

Iskandar boshi g'uwillab borayotganini, hozir yiqilib ketishini his etib turardi. Kelinoyi «dutor chalib turgan» hind choyini peshayvon taxtasiga qo'ydi. Burnini torta-torta yig'lagancha ko'ylagining yoqasidan qo'yniga qo'l suqib, eski gazeta qog'oziga o'roqlik allanima chiqardi.

– Olib qo‘ying, – dedi qog‘ozni uzatib. – O‘limligim deb, yostiqlarining orasiga tiqib qo‘ygan edilar. Siz tashlab ketgan ekansiz. Yuvg‘uvchining haqini berdik. Bunisi – qolgani. Sanab oling. – U gazeta qatini ochib, mayda-yirik aralash pullarni Iskandarga uzatdi.

Qachon, qachon shuncha pul bergandi u onasiga! Bu qandoq bedodlik! Shu kundan ko‘ra onasi emas, o‘zi o‘lgani yaxshi emasmidi!!! Onasi bir so‘mlab yiqqan pensiya pulini ham Iskandarim berdi degan. Shu gapga o‘ziyam ishongan, boshqalarniyam ishontirgan. Qani endi ko‘kragini shundoq yirtsa-yu, yuragini sug‘urib olib yerga uloqtirsa!

Ich-ichidan otilib kelgan bo‘g‘iq yig‘idan titrab, pulni tashlab yubordi. Bir dasta pul parishon pirpirab kavshandozga tushdi.

...Iskandar hovliga, undan yo‘lakka otildi. Uzun atlas lozim kiygan qandaydir kelinchak tor yo‘lakka «shakarob» qilib suv separ, sachratmaslik uchun qo‘lidagi paqirni borgan sayin pastroqqa egar edi. Ochiq darvozadan zabardast yigit kirib keldi. Iskandar uning aftini ko‘rmadi. Yigit maykachan yelkasiga yo‘l-yo‘l dasturxon tashlab olgan, yelkasi aralash gardaniga orilgan bir qop un zalvari ostida ikki bukilib kelardi. Iskandar bir tomonga, suv sepayotgan kelinchak bir tomonga chetlab yo‘l berishdi. Yigit yalang oyoqlarini gurs-gurs bosgancha Iskandarning oldidan o‘tib, hovliga kirib keldi.

Iskandar darvozadan chiqdi-yu, to‘xtab qoldi. Eshik oldiga tumonat odam to‘plangan, tor ko‘chaga mashina sig‘may ketgandi. Qiziq, qayoqdan keldi shuncha mashina! «Ishxonadan bo‘lsa kerak», degan o‘y xayolidan lip etib o‘tdi. Ammo o‘sha ondayoq bular boshqa mashinalar ekanini, ishxonadan faqat o‘zining mashinasi bir chekkada turganini payqadi.

Nariroqda yuk mashinasi turibdi. Mashina ustida ikki o'spirin turib olib, yig'ma stollarni, xarraklarni uzatib beryapti. Pastda esa to'rt yigit stollarni paydar-pay tushirishib, bir chekkaga olib qo'yishyapti.

Iskandar tut panasida turgan tobutni ko'rib, ko'ngli uzilib ketdi. Tobutdan beriroqda, hozirgina mashinadan tushirilgan xarraklarda salla o'ragan, yaktak kiygan chollar o'tirishibdi.

– Bandalik-da, ukam!

Iskandar yonida turgan mahalla oqsoqoli Shokir akaga ma'nosiz qarab qo'ydi.

– Hammaning boshida bor, – oqsoqol xo'rsindi. – Onamiz boshqacha edilar-da, jannati xotin edilar.

Keyin oqsoqolning poxol shlapa kiygan «zami» Iskandarning qo'lini qisdi.

– Necha yoshda edilar? – dedi sekin.

«Buning nima ahamiyati bor?! – Iskandar shuni o'yladi-yu daf'atan xayoliga boshqa fikr keldi. – Darvoqe, necha yoshda edi onasi? Ha, o'n sakkizinchi yil edi. O'zi qirq ikkinchi yilda tug'ilgan bo'lsa, demak, onasi yigirma to'rt yoshda beva qolgan ekan».

O'zini quchoqlagan to'nli kishini Iskandar daf'atan taniy olmadi. Keyin bildi: qaynatasi. Zarif Hodiyevich uning peshanasidan ohista o'pdi.

– Bardam bo'ling, o'g'lim, – dedi sekin. – Ota-ona o'lmog'i meros...

Keyin kimdir yelkasiga turtdi. Qarasa, Xolmat aka.

– Bu yoqqa yur, – dedi-yu, uni yo'lakka boshlab kirdi. Devor tagidagi kursida yotgan to'nni kiygizdi, beliga belbog' o'radi. Qati buzilmagan do'ppi uzatdi, – kiyib ol!

Do'ppi kichkina ekan. Iskandar kafti bilan bosib-bosib tashqariga yo'nalarkan, Xolmat aka yana pichirladi:

– Laylaktepaga olib boramiz-da, a! O'zlari aytgan ekanlar.

Iskandar yuk mashinasi faqat stol-stulni olib kelishga mo'ljallanmaganini tushundi. Laylaktepa olis, to'rt chaqirim keladi. Oyog'i ostida o'ralashayotgan o'n-o'n ikki yashar bolakaylar ham to'n kiyib, belini bog'lab olganiga avval hayron qoldi-yu, keyin tushunganday bo'ldi. Ehtimol, Xolmat akaning bolalaridir, ehtimol, qo'shni bolalardir...

...Old tomoniga paranji, orqasiga mursak yopilgan tobutni olib chiqishganida hammayoq dilni o'rtovchi faryodga to'lib ketdi. Kelinoyi, Bahri xola, Muattar xola, allaqanday qizlar, kelinlar chuvvos solib tobut ketidan yugurishdi.

– Voy, onam!

– Ro'shnolik ko'rmagan, onam!

To'n kiyib, belbog' bog'lagan bolakaylar ko'zidan duv-duv yosh oqib: «Buvijonim, buvijonim!» deb chiqirishar edi. Xolmat akaning mo'ylovi ho'l bo'lib ketgan, nuqul titrardi.

– Hammamizning onamiz edingiz-a!

Yo'q, Iskandar o'ylagandek tobutni mashinaga ortishmadi. Yelkada ko'targancha yo'lga tushishdi. Iskandar tobut bandidan ushlab olti-yetti qadam yurgan edi, uni siqib chiqarishdi. U tobut bandiga hadeb qo'l cho'zar, ammo navbat tegmas edi. Tanish-notanish odamlar goh oldinga, goh orqaga o'tib talashib-tortishib tobutga yopishar, har kim iloji boricha ko'proq ko'tarishga, yelkasini uzoqroq tutib berishga harakat qilar edi.

Bekatga chiqishganda trolleybus kelib qoldi. To'xtashi bilan duv etib o'ttitztacha erkak tushdi-yu tobutga yopishdi.

– Kim? – deb so'radi ziyolinamo ko'zoynakli yigit Iskandarning yonida ko'z yoshini to'nining yengiga artib-artib ketayotgan Xolmat akadan.

– Otinoyim!

– Iye! – ko'zoynakli yigit rangi o'chgancha tobutga qaytadan tirmashdi.

Endi katta ko'cha odamga to'lib ketgan, orqada trolleybus to'xtab qolgan, ro'paradan kelayotgan yengil mashinalar chekkaga chiqib to'xtar, haydovchi ham, yo'lovchilar ham shu tomonga yugurishar edi.

– Kim?

– Otinoyim!

– Iye!

Ko'chada harakat butunlay to'xtab qoldi. Burilishga yetganlarida Iskandar beixtiyor orqasiga qaradi. Odamlar oqimi ikki bekat orasiga cho'zilib, butun ko'chani to'ldirib kelar, tobut ularning yelkasida osoyishta tebranib borar, oqimga esa yangidan-yangi odamlar kelib qo'shilar, qo'shilar, qo'shilar edi...

YANGA

Akmal qo'ng'iroq tugmasini bosishi bilan ichkaridan ovoz eshitildi:

– Ana, Akmalxon keldilar.

«Kelinoyim», deb o'yladi u yangasini ovozidan tanib.

Yangasi negadir uning nomiga «xon» qo'shib gapirardi.

Akmal yangasining kelganidan quvondi. Har safar uni ko'rsa onasini ko'rgandek bo'lardi.

Eshikni yangasining o'zi ochdi. Akmalning yelkasidan quchoqlab ko'rishdi. U yashil jemper kiygan, shtapel durra o'rab olgan, qoracha, ozg'in yuzida iymanuvchan tabassum bor edi. Akmal uning qo'lidagi oddiy xo'jalik sumkasini ko'rib, ketishga hozirlanayotganini payqadi.

– Nega otlanib oldingiz? – dedi astoydil ranjib.

– Bolalar yolg'iz, – dedi yangasi tufilisini kiyarkan. – Qorong'i tushmasdan bora qolay.

– Akam bor-ku, – dedi Akmal hamon uning ketishini xohlamay.

Yangasi yana iymangan qiyofada jilmaydi:

– Choyxonaga chiqadilar, bilasiz-ku.

Yonbosh tomondagi oshxonadan parcha gulli xalat kiygan, oldiga kleyonka fartuk tutgan Klara chiqdi.

– Ovqatga turing desam, ko'nmayaptilar, – dedi u goh eriga, goh ovsiniga qarab.

– Mayli, o'zinglar boringlar, – yangasi eshik tutqichidan ohista tutib, tashqariga chiqdi.

Akmal uni zinadan kuzatib qaytib kirganida oshxonada jiz-biz eshitilar, uyni piyozdog' hidi tutib ketgan edi.

– Kelinoyim qachon keluvdi? – so'radi u go'sht qovurayotgan xotinidan.

Klara achishgan ko'zini kaftining orqasi bilan artib, unga yuzlandi.

– Yaqinda.

– Biron yumushi bor ekanmi?

– Nima yumushi bo'lardi, pul so'raydi-da...

Akmal xotinining ovoqidagi pichingni payqab, ko'ngli ranjidi.

– Necha marta pul so'radi sizdan? – dedi zarda bilan.

Klara kapgirmi taraqlatib stolga tashladi.

– So'ramasa, endi so'raydi. Bir marta bersangiz kelaveradi. Nima, bizning pul zavodimiz bormi?!

Klara oilasida yolg'iz qizligi uchunmi, kelin bo'lib tushgandayoq ovsinini xush ko'rmagan edi. Seksiya olib bu yoqqa ko'chib kelishguncha ancha mayda-chuyda gaplar o'tgan, ularning ko'piga xotini sababchi bo'lganini Akmal bilardi, ammo indamagan edi. Hozir g'ashi keldi.

– Bizning pulimizga zor qaqshab qolgan joyi yo'qdir, – dedi ovozi bo'g'ilib. – Bir narsaga kerak bo'lib qolgandirki, so'ragandir.

– Nega zoriqadi?! Eri ishlaydi, o'zi ishlaydi. Rejasi bilan ishlat sin! – Klara gap tamom, degandek, indamay burilib qozonini kovlashga tushdi.

Akmal xotini ning xalat ostidan tirsillab turgan bo'liq yelkalariga, kapgiri ni chaqqon aylantirayotgan tilla uzukli qo'liga birpas qarab turdi-da, burilib, xonaga kirib ketdi. Hali uyga kirganida yangasi nimagadir iyma nib jilmayib turganini, nima uchun shoshilib ketib qolganini endi tushundi. Xotini ning mix qoqqandek qarsillatib muomala qilishidan, o'zi bo'lsa jilovini shunchalik berib qo'rganidan g'ashi keldi. «Bo'ynini egib pul so'rab kelish osonmi? Qish kelyapti. Bolalardan birontasiga qishlik kiyim olmoqchidir. Topgani yetishmayotgandir. Buning ustiga akamning ichishi bor...» U divanga chalqancha yotgancha shularni o'ylar, o'ylagan sayin ko'ngli g'ash bo'lar edi.

O'rtadagi eshik ochildi. Akmal xotini o'ziga qarab turganini payqab, indamay yotaverdi.

– Yana qancha yotasiz? – dedi Klara tag'in o'sha o'yib oluvchi ohangda. – Lolani kim olib keladi?

– Bilmayman, – dedi Akmal karavot tepasiga ilingan arabi y gilam gullarini tomosha qilgan bo'lib. – Bog'chaga har kuni men borishim shart emas.

– Bo'lmasa, ovqat qiling!

Akmal gilam tomonga butunlay o'girilib oldi.

– Masalan, men ovqat yemayman, – dedi sovuqqonlik bilan.

– Qarang-a, men sizning to'yib kelishingizni bilmabman.

– Klara eshikni qarsillatib yopib chiqib ketdi. Zum o'tmay tashqi eshikning kaliti shiqirladi.

Akmal o'sha alfozda yotganicha xotini ni ham, qizini ham emas, negadir yangasini o'ylardi.

Adham akasi uylanganda Akmal uchinchi kursga o'tgan edi. Mexanika-matematika fakultetida fanlar og'ir bo'lgani

uchunmi, yo o'zining qobiliyati sustroqmidi, xullas, u stipendiyaga ilinmadi. Onasi yigirma besh yil ishlab, pensiyaga chiqqan, uning nafaqasi Akmalning joniga ora kirib turardi.

Yangasi kelin bo'lib tushganida ham qop-qora, ozg'in qiz edi. Akmal o'zidan nari borsa ikki yosh katta bu qizga avvaliga unchalik ko'nikolmay yurdi. Negadir undan o'zini olib qochar, yangasi paypog'inimi, maykasinimi yuvayotganini ko'rib qolsa, iymamar, onasiga «o'zingiz yuvmabsiz-da», derdi. Ammo onasining kun sayin nari ketayotganini, oyoq-qo'llari shishib, yotib qolganini Akmal bilardi. U har kuni o'qishga ketayotganida onasi yotgan xonaga kirib, undan ahvol so'rab o'tardi. Shunaqa paytlarda har doim onasining tepasida yangasi o'tirganini ko'rardi.

Xuddi shunaqa erta kuz kunlaridan birida u o'qishdan qayt-ganida, eshik tagida to'planib turgan odamlarni ko'rib hammasiga tushundi. U qachondir shu hodisa ro'y berishi muqarrar ekanini bilardi. Ammo nazarida bu narsa hech kutilmaganda ro'y bergandek, allaqanday adolatsizlik bo'lgandek tuyildi. U bir hovli xotinlar orasidan o'tib, onasi yotgan xonaga otilib kirdi. Qiziq, o'shanda u yig'lamadi. Yig'lay olmadi. Faqat tong-saharda o'qishga ketayotganida onasining qilgan duosini esladi. «Tuproq olsang, oltin bo'lsin, bolam. Umring uzoq bo'lsin...»

O'sha kundan boshlab Akmal eng katta tayanchi yo'qolganini tushundi. Endi uning hayoti chalkashib ketgandek, allanima o'zgarishi kerakdek tuyilardi. O'qishdan ko'ngli soviy boshladi. Stipendiya olmasa, kap-katta yigit birovga tirik tovon bo'lib o'tirsa...

Uydagi hayot o'sha-o'sha davom etardi. Xuddi onasi bor vaqtdagiday har kuni karavotining boshidagi stul suyanchig'ida dazmollangan shim, oppoq ro'molcha, yoqasi

qordek toza ko'ylak, cho'ntagida har kuni tushlikka loyiq pul...

Akmal bularning hammasini yangasi qilayotganini bilardi. Akasining topgani o'zidan ortmaydi. Yangasi qurilishda ishlaydi. O'z erining tashvishi yetmaganday, tong-saharlab turadi. Akmalning kir-chiriga qaraydi.

Yangasi og'iroyoq bo'lganidan keyin ta'tilga chiqdi. Hamon Akmalning yonidan pul arimasdi. Lekin o'zi endi ortiq bu ahvolda yurish mumkin emasligini tushundi. O'qishdan butunlay aynidi. Bir kuni akasiga qat'iy qarorini aytdi:

– Men zavodga ishga kiranman.

Akasi tayinli bir gap aytmasa ham, Akmal uning qarshi emasligini bildi. Ertasiga u kech uyg'ondi. O'sha qish tongi aslo esidan chiqmaydi. Akmal uyg'onganida cho'yan pechkada o't guvillab yonar, yangasi pechka oldida cho'nqayib o'tirgancha xayolga tolga, go'yo uxlab qolganga o'xshardi. Akmal pechka g'irasidan tushayotgan yog'duda yangasining dog' bosgan yuzini ko'rib, yanayam ozib ketganini, chehrasi g'amgin ekanini sezdi.

Karavot g'irchillaganini eshitib, yangasi yarq etib unga qaradi. Ammo o'rnidan jilmadi.

– Akmalxon, men eshitdim, – dedi u past tovushda. Keyin bir zum jim qoldi-da, uf tortdi: – Mayli, bizni o'ylamay qo'ya qoling. Oyimning arvochini chirqillatgani qo'rqmaysizmi? Oyim sizni menga topshirib ketganlar. Tushundingizmi?

Akmal yangasiga qaradi-yu, ko'zlarida yosh aylanayotganini, bu gaplarni yurakdan ezilib aytayotganini sezdi. Sezdi-yu, o'zining ham yuragi orziqib ketdi. Shu tobda yangasining ko'ksiga bosh qo'ygisi, dog' bosgan yuzlarini silagisi, nimadir deb uzr so'ragisi keldi.

O'shanda u mana shu yangasi o'z onasiday aziz bir odam ekanini his qildi. Mana, u o'qishni ham bitirdi. Bola-chaqalik

bo'lib, yangasidan ko'pda xabar ham ololmaydigan bo'lib qoldi...

Eshik kaliti shiqirlaganini eshitib, Akmal qaddini rosladi. Yo'lakda Klaraning tovushi eshitildi:

– Televizor ko'rasanmi, Lola? Hozir multik bo'ladi.

– Yo'q, dadamga boraman...

Eshik ochilib, jamalak sochiga oppoq lenta taqib olgan Lola chopqillab kirdi-da, Akmalni quchoqladi. O'sha tomondan yana Klaraning ovozi keldi:

– Qo'y, Lola, dadangga tegma, chaqib olasan.

Akmal qizini yetaklab yo'lakka chiqdi.

– Kelinoyim necha so'm so'radi?

Oshxonaga kirib ketayotgan Klara, haliyam o'sha gapmi degandek, burilib qaradi.

– Nimaydi?

Akmal indamay yotoqqa kirdi-da, Klaraning pardoz qutisini ochdi. Ularning puli odatda shu qutida turardi. Qutidan pul olayotganida oshxona tomondan tag'in Klaraning ovozi eshitildi:

– U pulga tegmang. Lolaga shuba olishim kerak.

Akmal indamay yo'lakka chiqdi. Tufisining bog'ichini bog'layotganida tepasiga xotini kelganini ko'rib, qaddini rosladi. Klaraning rangi o'chib ketgan, nafis bo'yoq yurgizilgan bejirim lablari pիրpirab turardi.

– Ularning bolasi bola bo'lganida meniki bola emasmi?

– dedi u ovozi titrab. – Nega bolamning nasibasini qiyasiz, yo o'tqazib qo'ygani bormi?

– Ovozingni o'chirasanmi, yo'qmi?! – dedi Akmal baqirib.

Klara hayron bo'lganidan eriga tikilib qotib qoldi. Ular laboratoriyada birga ishlashar, sevishib turmush qurishgan, to'rt yildan buyon biron marta eri unga san demagan, baqirmagan edi.

– Obora qoling, – dedi Klara yig'lamsirab. – Bor-yo'g'ingizni oborib bera qoling, o'sha gadoyvachchalarga!

Akmal yana bir dam tursa katta janjal chiqishini bilib, eshikni qars etib yopib, chiqib ketdi.

...Akmal shahar chekkasidagi hovlilarning temir darvozasini taqillatganda vaqt allamahol bo'lib qolgan, sutday to'lin oy pastak uy ro'parasidagi olchalarning sarg'aya boshlagan yaproqlarini allalar, mayin shabada esib turardi.

Eshikni nimcha kiyib olgan yangasi ochdi.

– Tinchlikmi, Akmalxon? – dedi xavotirli ohangda. Chamasi, Akmalning vajohatidan jahli chiqib turganini payqagan bo'lsa kerak.

– O'zim, – Akmal ichkari kirib, gapni ataylab boshqa yoqqa burdi. – Akamlar keldilarmi?

– E, hali kelmaydilar. Bolalarni endi uxlatuvdim. Yuring.

– So'rida o'tira qolaylik, – dedi Akmal olma tagidagi temir panjarali so'riga imo qilib.

Yangasi uydan darrov ko'rpacha olib chiqdi. Akmal chinniday qilib supurilgan hovlidan yurib borarkan, dimog'iga gup etib rayhon isi urildi. Bu hid unga allanechuk qadrdon, allalovchi tuyg'ularni eslatdi. Onasi har yili rayhon ekar, «rayhon fayzli bo'ladi, bolam», deb qayta-qayta takrorlar edi. Chindan ham mana shu hid butun hovliga qandaydir osoyishtalik baxsh etganday bo'lardi.

Akmal so'ridagi ko'rpachada yonboshlab atrofni kuzatdi.

Deraza romlari qayta bo'yalganini aytmasa, hech nima o'zgarmagan edi. O'sha ikki uy, bir ayvon, ustundagi uzun mixga bir tutam isiriq ilib qo'yilibdi. O'sha kaftdekkina, ozoda hovli, bo'yra bo'yi joyga ekilgan rayhon. Olma shoxiga ilingan lampochka. O'sha so'ri... So'rining shundoq yoniga ikki dona olma tushibdi. Sap-sariq...

Oshxona tomondan yangasining o'tin yorayotgani eshitildi.

Akmal o'girilib qaradi. Yangasi hovli etagidagi oshxona eshigi oldida cho'nqayib o'tirgancha o'tin yorardi.

– Qo'ying, kelinoyi, men ketaman, – dedi Akmal.

Yangasi «hozir», dedi-yu, ishini qilaverdi.

Qiziq, oshxona ham, uning yonboshida devorga tirab tiklangan tandir ham o'sha-o'sha o'zgarmagan, tandir ostiga xuddi o'sha kezlardagiday o'tin taxlab qo'yilgan edi.

Bir mahallar, Akmal bolalik chog'ida, onasi shu tandirda zog'ora non yopar edi. Tandirdan chiqqan birinchi zog'oraning yarmisini ushatib, sopol piyoladagi sutga to'g'rab berardi. Akmalga dunyoda ivitilgan zog'oradan lazzatliroq taom yo'qdek tuyilardi.

U hozir ham o'sha lazzatli non ta'mini sezganday yutib qo'ydi-da, sekin entikdi.

Erta kuz kechasiga xos chuqur sukunat cho'kdi. Faqat onda-sonda bir shamol kelib, olma yaproqlarini duv to'kib ketadi, keyin yana sukut quyiladi. Olisdan teplovoz tovushi keldi. Guldirab o'tayotgan poyezdning bir me'yorda guvullashi eshitildi. Ovoz pasaya-pasaya tinib qoldi. Bu tovush Akmalga yana o'sha bolalik damlarini eslatdi.

Bir vaqtlar mana shu so'ri o'rnida supa bo'lardi. Onasi yotar chog'ida ko'loblatib suv separ, butun hovlini rayhon hidi tutib ketardi. Akmal onasi bilan Adham akasining o'rtasida ko'rpadan boshini chiqarib, osmonga tikilib yotar, uzoq vaqt uxlay olmay xayol surardi. Akmal, ishchi bataloniga ketib, o'sha yerda vafot etgan otasini eslay olmas, ammo onasining bir gapi go'dak xotirasiga o'rnashib qolgan edi.

«O'lgan odamning joni osmonga chiqib, yulduzga aylanib qolarmish». Akmalning nazarida osmondagi eng yorqin yulduz otasining joni bo'lib tuyilar, o'sha yulduzga uchib ketgisi kelardi. Shunaqa oydin kechalarda paravoz ovozi, uzoqlashib borayotgan poyezd sadosini eshitsa, olis

joylarga ketib qolgisi kelar, yuragi orziqib-orziqib qo'yardi. Hozir ham negadir xuddi o'sha tuyg'u yuragini qamrab oldi. Bolalik damlariga bir zum qaytgisi keldi. Laboratoriyadagi murakkab tajribalar-u Klaraning injiqliklari ham, bugungi dilsiyohlik ham, hammasi bachkana, mayda narsalar bo'lib ko'rindi. Qaniydi onasi tirilib kelsa-yu, bir kecha mana shu so'rida osmonga, yulduzlarga, to'lin oyga tikilib yotsa.

Bir qo'lida choynak, bir qo'lida tuxum qovurdoq ko'targan yangasi temir zinalardan chiqib keldi. Akmal qaddini rostlab o'tirdi. Yangasi non ushatdi, choy quydi.

Akmal ishtahasiz bir tarzda non kavsharkan, gapni nimadan boshlashni bilmay taraddudlanardi. Tayin gapki, Klara pulimiz yo'q degan, endi nima deydi? Xotinim sizni aldagan ekan, deydimi?

– Asqar katta bo'p qolgandir? – dedi u anchadan keyin. Yangasining yuziga tabassum yugurdi.

– Ha, besh bilan o'qiydi. Dastyor bo'p qoldi. – U bir lahza jimib qoldi-da, yana jilmaydi. – Bu yil Laylo ham maktabga boradi.

Akmal bahona topilganiga suyunib ketdi.

– Shunaqami? Qarang, darrov maktabga boradigan qiz bo'lib qoldimi? – U hamon kulgancha asosiy maqsadga ko'chdi. – Layloga bironta sovg'a olmoqchi bo'lib yuruvdim. Hali durustroq gaplasha olmadik. Klaraning xabari yo'q, bugun men oylik oluvdim. – U cho'ntagidan pul chiqarib, dasturxon chetiga qo'ydi. – O'zingiz bironta qishlik kiyim olib berarsiz, kelinoyi...

Akmal yolg'on gapirayotganini, gaplari sun'iy chiqayotganini bilib, to'xtab qoldi.

Yangasi yarq etib uning yuziga qaradi.

– Rahmat, Akmalxon, – dedi yangasi ohista tovushda. Uning ovozi zarda ham, o'kinch ham yo'q edi. – Bolalarimning kiyimi yetarli, – dedi u dasturxon popugini

o'ynab. – Boshqa narsaga zarur bo'lib qoluvdi... Bilasiz, indinga oyim vafot etgan kunlariga o'n yil to'ladi. Shunga uzoq-yaqin qarindoshlarni chaqirmoqchidik. Ozroq yetmay turuvdi...

Akmal seskanib yangasiga qaradi-yu, haykalday qotib qoldi. Yangasi hamon dasturxon popugini o'ynab o'tirar, chamasi, hozir hamma narsani unutib, qaynanasining xotirasini o'ylar edi.

NEGA? NEGA?

Trolleybus silkinib qo'zg'aldi.

– Keyingisi – Beshinchi mavze! Pattalarni chekichlashni unutmanglar. Yo'lda nazoratchi bor.

Hamidulla o'rta qatordagi o'rindiqlarda o'tiribdi. Deraza oldida.

«Qo'rqadi nazoratchilaringdan! Talaba anoyi ekanda, tutqich beradigan. Yarmi sambochi, yarmi karatechi!» Shunaqa deydi-ku, keyingi paytda nazoratchilar ham kooperativ tuzgan. Pattasiz odamni ushlasa jarimani qurtdek sanab oladi. Bir gal o'zi ham qo'lga tushdi. Kap-katta odam. Uyat-e! Palakat bosib, pattasi tugagan ekan... Bir emas, to'rtta hirsday yigit atrofingni o'rab turgandan keyin ilojing qancha? To'laysan!

– Eslataman, yo'lda nazoratchi bor.

«Quloq soladi gappingga! Ichida so'kayotgandir hammasi».

Bunaqa paytda markaz tomonga odam kam bo'ladi. Trolleybus tiqilinch emas. Har kuni bitta yo'ldan yuraverganingdan keyin o'rganib ketarkansan. Sakkiz yildan beri shu (Qamoqdan qaytganidan buyon). Qoraqamish «ikki-bir»dan (topgan nomini qarang: «ikki-bir»mish, o'lsin agar, odamning tili kelishsa) sekin yo'lga tushadi. Bitta-

bitta yur-e-eb talabalar shaharchasiga keladi. Trolleybusga o'tirib (ertalab joy bemalol-da) O'rdagacha boradi. Ishiga. Oshxonaga. Kechqurun shu yo'ldan orqaga qaytadi. Qoraqamishga. Uyiga. «Shef» – insofli odam. Uyg'ur – Oxun aka. Ishga undan oldin borib turadi. «Chaqqon-chaqqon qimirlaydu, Hmidullaxon! Hli zamon lag'monxo'rlar klido'».

Kontrolyor ko'rinmaydimi? Daf bo'lsin. Bolalarga achinadi-da, odam. Talabada pul nima qilsin! Shunaqaku, yelkasiga magnitofon osib, chiroyli-chiroyli qizlarni qo'ltiqlab yuradigan qancha. Magnitofonga yetgan pul pattaga yetmaydimi? Yo'-o'q, olmaydi. Yuradi otasining soyai davlatida magnitofon varanglatib.

Ota sho'rlik o'g'lim Toshkentdek shahri azimda o'qiyapti, olim bo'lib keladi, deydi. Oftobda yelkasi yag'ir bo'lib ketmon uradi. Nasibasidan qiyib jaraq-jaraq pul jo'natadi. Bular bo'lsa... O'rgildim oberadigan shaharingdan! Xudoga shukr, Rahmatillasi yaxshi bola chiqdi. Ichmaydi, chekmaydi, yomon yo'lga yurmaydi. Uyam shu yerda o'qirdi. Biofakda. Birinchi kursni bitirib armiyaga ketdi. Nasib etsa, keladi, erta-indin.

Obbo! Yomg'ir boshlandi-ku... Qamalishiga Yomg'ir sababchi bo'lgan. Yomg'irmas-ku, xo'jayini «Volga» haydardi. TNO. Vazirni olib yurardi. O'sha kecha xo'jayin idorada ancha o'tirib qoldi. Keyin tag'in «bir joyga» bordi. «Severa-Vostok» dagi to'qqiz qavatli uy tagida Hamidulla motorni o'chirib, uzoq o'tirdi. O'rganib qolgan. Avval ham ko'p kelishgan «Severa-Vostok»ka... Keyin xo'jayinini uyiga oborib qo'ydi. Yarim kechadan oshgan edi. Yomg'ir yog'ib turuvdi. Hamidulla shoshilardi. Rahmatillaning tug'ilgan kuni edi. O'n yoshga chiqqan kuni. Palakatni qarang: plash kiygan odam ko'chani kesib o'tayotganini kech payqabdi... Ertasiga xo'jayini uni yupatdi... «O'zi stovosmoy, piyonista ekan. Oyog'i sinibdi. Baloyam urmaydi. Kasalxonaga oborib

yaxshi qipsiz. Sizga hech nima qilmaydi: men borman. Faqat, bitta iltimos, birov so'rasa «anovi yoqqa» borganimizni aytmaydiz. Uch bolam bor, tirikchilik, deb qo'yaqolasiz».

Hamidulla xo'jayin aytganini qildi... Ikki yilga kesishdi. Bir begunoh fuqaroga og'ir tan jarohati yetkazgani uchun, davlat mashinasidan o'z shaxsiy manfaati yo'lida foydalangani uchun. Axloq tuzatish koloniyasiga hukm qilishdi. Axloq tuzatarmish! Nachora, peshanada bor ekan. Xotini qon-qon yig'ladi: xo'jayinning oldiga borsa, kotibasi kirgizmabdi. Bunaqa paytda odam chodirxayol bo'lib qolarkanmi, suddan keyin xotiniga aytdi. «Yoshsan, mabodo ko'ngling bo'linsa... boshqa birovga... mayli... (Kerakmide shu gap?) Xotining ko'zi g'azabdan yonib ketdi. «Undan ko'ra o'ldirib ketaqoling!» Keyin o'g'li bilan gaplashdi. Rahmatilla uchinchi sinfda o'qirdi. Esini tanib qolgandi. Boshiga ish tushganda odam aqlli bo'lib ketarkanmi, Hamidulla xo'p dono gaplar aytdi. «Sen endi katta yigitsan, o'g'lim. Oilada sendan boshqa erkak yo'q. Opangga yordam ber, singillaringni boshini sila». O'n yashar bola onasiga qanday yordam beradi-yu, singillarini boshini silash uchun nima qilishi kerak?.. Nima desin? Bir nima deyish kerakmide, axir? O'ylab turdi-da, qo'shib qo'ydi. «Ikki yil nima? G'iz etadi, o'tadi-ketadi. San o'g'lim, hapa bo'ma». O'g'lining yig'lab yuborishidan qo'rqqar edi. Agar Rahmatilla yig'lasa, o'ziyam... Yo'q, o'g'li yig'lamadiyam, gapirmadiyam. Yerga qarab turaverdi.

Surxondaryo tomonda «axloqni tuzatishdi». Temiryo'l yaqinida. Qora paxtalik kiygan aristonlar... Kechalari og'ir g'o'ng'illagan samolyotlar, muttasil taraqa-turuq qilib o'tadigan yuk poyezdlari... Avvaliga yarmi ochiq vagonlarga ortilgan yuklarning usti brezent bilan o'rab qo'yilgani uchun hech balo ko'rinmasdi. Keyin brezent qoplamasiz tashiydigan bo'lishdi. Tanklar, zambaraklar,

BTRLar. Koloniyada siyosiy axborot bo'ldi. Imperializm malaylari Afg'oniston Demokratik Respublikasidagi Savr inqilobini bo'g'ib tashlamoqchi bo'pti. Shonli Sovet jangchilari o'zining baynalminal burchini sharaf bilan bajarishga kirishibdi... O'shanda Hamidulla hech nimani o'ylamadi. O'ylab nima qiladi? Shu padaringga qusur ikki yilni omon-eson o'tkazsa, uyiga, xotining, ikkita norasida qizalog'ining oldiga borsa, o'g'lini ko'rsa bas. Mashina degan palakatning rulini ushlagan nomard! Duch kelgan yumushni qilaveradi. Zo'r kelsa, Eski shahardagi mardikor bozoriga borib, hammolchilik qiladi. Ammo, lekin bolalarini birovga zor qilib qo'ymaydi. Qarang, bir narsa yetti uxlab tushiga kirmabdi. Birov oy o'tadi, yil o'tadi, payti kelib sening o'g'ling ham Afg'onistonga boradi, baynalminal burchini bajaradi... desa aslo ishonmasdi. Shundoq bo'ldi.

«Boshi toshdan bo'lsin ishqilib. Ko'pi ketib, ozi qoldi».

– Keyingi bekat – «G'uncha!» Patta olmaganlar o'zidan ko'rsin, jarima to'lasa xotiniga paypoq ololmaydi, uyida janjal bo'ladi.

«Obbo! Shang'illayverarkan-da, bu xotin, qo'limga mikrofon tegdi deb!»

«G'uncha». Nominiyam topganmi? Mayli, buyam bolalarga bir ermakda. «Nu, pogodi» desa, jonini beradi. Bo'rini aytmysizmi, bo'rini! Voy qistaloq!».

Ota hovlisi shu yerda edi. Suv bo'yida. Zilzilada unchayam shikast yetmadi. Boloxonaning sinch devoridagi guvalalar to'kilganini aytmasa... Hamidulla o'shanda hali uylanmagandi. Haydovchilik kursini endi bitirgandi. Aslida-ku, tarixchi bo'lmoqchiydi. Universitetga kirishni orzu qilardi. «Kitob o'qigin, ha-a, o'qiyver, yog'i chiqadi! Otangni bekitib qo'ygan g'aznasi bor! Qaynab chiqyapti. Seni uylantiradi, bola-chaqang bilan qo'shib boqadi! Tur o'rningdan, qulupnayni chopiq qil! Ertaga bozorga opchiqib

sotsang, kuningga shu yaraydi!» (Otasining asabi chatoq edi).

Zilzila bahonasi bilan «buzdi-buzdi» boshlandi. Bu yerda ko'p qavatli muhtasham binolar qad ko'tarar emish. Osmono'par qasrlar... Polshaga bir oyog'ini tashlab kelgan otasi qo'ltiqtayog'ini do'qillatib, e, yugurdi-ya! Raykom, rayispolkom, gorispolkom...

Hamidulla otasining cho'ltoq oyog'ini ko'p ko'rgan. Chap oyog'ini... Tizzadan yuqorisi saqlanib qolgan oyoq allaqanday ingichka tortib ketgan. Uchi to'mtoq, ko'kimtir qizg'ish rangda. Shimining pochasini qayirib, oqarib ketgan eski qayishga qistirib oladi-da, hakkalab borib devorga qo'yilgan qo'ltiqtayog'iga yopishadi. «Rezinkasi yeyilib ketibdi, – deydi to'ng'illab. – Bu onangni... aptekada topilsa ekan!» Hassasini do'qillatib, hovliga tushadi. «Kerak bo'lsa Moskvagacha boraman», – deydi allakinga dag'dag'a qilib. – Ko'kcha mozorida otam yotibdi, onam yotibdi! Ota-buvamdan qolgan uyni buzadiganning boshi o'nta. Ana, qo'lidan kelsa remont qib bersin! O'ligim shu yerdan chiqadi. – Ikkala hassa tayog'ini yerga baravar uradi, – shu yerdan! Ispolkomdagi jipiriqqa gapirsam, bezrayadi. «Mayli, buzadigan yerdan joy oling, uch yildan keyin shu mahalladan dom beramiz», deydi. Uch yilgacha onangni chorbog'ida turamanmi? «Bo'lmasa, Qurbaqaoboddan uchastka oling»mish. Qurbaqaobod yerning kindigida bo'lsa, tilladan tog'im bormi, bir chetidan ushatib imorat quradigan. Yo'q, eng kattangga boraman. Uchinchi Ukraina frontining jangchisi, Vatan uchun qon to'kkan, orden egasi xor bo'ldi, deyman. Uyim bosib tushgani yo'q, remontiyam boshida qolsin, buzmasin, deyman. Domini pishirib yesin, deyman».

Otasining yelib-yugurishlari shu bo'ldiki, uylarida chiroq o'chib qoldi. Gaz kelmay qo'ydi. Mahalladagi o'ttiz ikki xonadon «dom»ga ko'chishga rozi bo'pti. Yigirma bitta

oilaga Qurbaqaoboddan yer berilibdi. Sakkiz xonadon «buziladigan yer»ga rozi bo'lib, qarindoshlarinikiga ko'chib ketibdi. Uylarga buldozer qo'yildi.

– O'lsin-ey! Muncha imillaydi bu! Aksiga oladi o'zi. Soatingiz necha bo'ldi, amaki?

«Amaki-ya! O'zining yuzi tegirmonchining mahsisiga o'xshaydi-ku, amaki deydi. Upaniyam bearmon chaplabdimi? Qarilikni bo'yniga olsa o'ladi bu xotinlar?! Qimmatbaho palto kiyib, gul ko'tarib yurgandan ko'ra taksiga minsang joniqib kutayotganingning oldiga o'n minutda borasan. Ana, ko'cha to'la taksi».

– Soatim yo'q, xola! Manda soat nima qilsin. Po'ristoy odam bo'lsam.

«E-o'l-a! O'zing ham ja tajangsan-da! Yosh bo'lgisi kelsa nima qilsin bu sho'rlik. Qo'noqda tekkan-da. Go'ring nurga to'lgur otang ham shunaqa kajbahs edi... Qiziq, bugun otang tushingga kiribdimi? Qamoqda yotganingda o'lib ketgan otang? «Qo'ltiqtayog'im qani, nega yo'qotding», deb baqiribdimi?»

Tavba, otasi mayka-tursida emish. Kesilgan chap oyog'i nuqul dikillarmish. «Top! Hozir topasan tayog'imni, bo'lmasa yuqoriga chiqaman, men frontovikman, deyman! Sen ham arzinga quloq solmasang, lichna Oliy Bosh Qo'mondonning o'ziga arz qilaman», dermish. «E odamning tushiga nimalar kirmaydi?»

«Hamza teatrimi? Afishani qarang, afishani! «Xalqlar jallodi». «Ertaga premyera!» Qoyil! Ertaga odamlar yangi tomosha ko'radi. Stalinni so'kib-so'kib chiqadi. Yashavor, shovvoz. Tirikligida dohiy yasaysan, o'lganidan keyin go'rdan olib, go'rga tiqasan...

Ana, telestudiyadan ham o'tdik. Shu... televizorni o'ylab topganniyam otasiga ming rahmat-e! Uyingda indiyskiy choyni ichib yonboshlab yot-e-eb, dunyoni tomosha qilasan.

Oynai jahon-da! «Otalar so'zi»ni ayting. Dilingdagi gapni topadi-ya. Baraka toping-e, otaxon! O'rtadan andisha ko'tarildi, odamlarda insof yo'q... Qarang, televizor degan narsani Toshkentda yasashgan ekan-u, mushuk anovinisini bekigitganidek shuniyam ovoza qilishmaydi. Ha, endi, Toshkent qoloq bo'lgan, savodsiz bo'lgan».

– O'rdada tushmaysizmi, singlim?

«Ko'rdingmi, darrov chehrasi yorishdi. Nari borsa o'zing tengi xotin kishiga «xola» demasang asakang ketarmidi? Shunaqa-ku, pardoz-andoz qilgan xotinni ko'rsa... O'zingning xotining boshqachada. Yigirma bir yil turmush qilib, bir marta labiga bo'yoq surmadi-ya. Ikki gapning birida: «Rahmatim kelsa, hafta o'tmay to'y qilaman», deydi. Ko'rpa-ko'rpachalar tayyor, kelin sarpolar tappa-taxt. Shu kunlarga yetkazsin. Mayli, hafta o'tibmas-ku, bahorda... Umr savdosi-da bu. Kelinniyam tag-taxtini surishtirish kerak. Ota-onasi kim, avlod-ajdodi kim. Rahmatilla kelishgan bola. Ichmaydi, chekmaydi, yomon yo'lga yurmaydi. Shundoq bo'lgandan keyin kelin ham... chiroyli bo'ladi, esli-hushli, uyim-joyim deydigan bo'ladi... Ertalab ishga otlanganida, «adajon, choyingiz tayyor, quymoq pishirib beraymi», deydi. E, umringdan baraka top, bolam! Qo'shganing bilan qo'sha-qarigin, baxtli bo'l, qizim! Keyin... Nevarali bo'ladi. To'ng'ich nevarasi (albatta, o'g'il bo'ladi. Rahmatilla azamat yigit) uxlab yotganida qo'yniga kirib oladi. Uyg'onsaki... haligidaqa. «Iye, polvon biz tomonga choptirib yuboribdilar-ku», desa, buvisi yupatadi: «Nevarangiz halidan buyon tortqilaydi, uyg'onmaganingizdan keyin jahli chiqdi-da, dodajonisi! Nevarasi «dodajonisi»ga qarab qiqir-qiqir kuladi...»

– Kechirasiz, singlim, o'tib ketsam... Rahmat...

«Voy-bo'-o'! Atirga cho'milganmi bu xotin, nima balo, dimog'ni yoradi-ya! Bola-chaqadan vaqt orttirib pardoz ko'ngliga siqqani... E, bizning xotinlarni boshidan suv o'girib

ichsang arziydi. Uyim-joyim deydi, bola-chaqam deydi... Xudodan ham o'rgildim, yaxshi ko'rgan bandasidan dardini ayamasi ekan-da! Bugun tag'in nolidi: nafasim qisyapti, adasi, yomg'ir yog'adi shekilli. Yoqqani yaxshi bo'ladi, shoyad nafasi qisgani o'tib ketsa.

Shoshma, tag'in nima dedi, «Rahmatingiz tushimga kiribdi, oyog'im sovqotib ketyapti, adamga ayting, menga etik olib bersinlar, deyapti. Bolamning joni sog'mikan?»

Xotin kishining tushi teskari bo'ladi. «Anavi yoqda» yurganida «tushimda o'lib qopsiz, o'zingizni ehtiyot qiling», deb sakkiz marta xat yozgan. Rahmatillaga nima bo'lardi. Baquvvat, esli-hushli bola... Shunaqa deydi-ku, bu... Afg'oniston...»

Rahmatillani aeroportda kuzatayotganida qattiq tayinlagan.. «O'g'lim, sen aqlli yigitsan, opangni holi o'zingga ma'lum... Mabodo Afg'onistonga tushib qolsang, xatni Termizdan deb yozaver».

Mana, ikki yilki «Termiz»dan xat keladi. Xotini xursand. Televizorda Afg'onistonni ko'rsatsa, tavallo qiladi: «Adajonisi, peshanamiz yaraqlagan ekan, yaxshiyam Rahmatillangiz Termizda xizmat qilyapti...» Televizorni shartta o'chirib qo'ysang, xotining, qizlaringni ko'ngliga gap kelsa... Ko'raveray desang... Xayriyat, uch kun avval xat keldi. «Termizdan sog'inchli salom. Adajon, opajon, shirin singillarim – Mahfuza, Feruza... Men sog'-salomat yuribman, hech nimadan kamchilik yo'q. Xizmatlar oson. Opa! Mendan xavotir olmang. Dekabrning o'rtalarida uyga boraman».

Bugun nechanchi? O'n ikkinchi noyabrmi? Bundan chiqdi – uzog'i bilan bir oydan keyin.

– Keldingizmo', Hmidullaxon. Chaqqon-chaqqon qmirlaydo'...

Xalat qayoqda edi? Ha, mana... E, o'l-a, piyoz ivib qolibdi-ku. Bu shogird bolalar g'irt ahmoq-da! Arzimagan to'rtta qopni panaroqqa olib qo'yishga eringan. Po'konidan yel o'tmagan.

– Oxun aka! Bu bolalar...

– Hmidullaxon uka, buyoqqa qarang, siznu bir odam chaqrvatido', Vayenni odam...

Voyenniysi kim bo'ldi? Iye, mayor-ku! Savlatidan arava hurkadi. Nima gunohi bor ekan? Qiziq, quchoqlashga balo bormi?

– Kechirasiz, o'rtoq nachaynik... Men sizni...

– Hamid! Tanimading-a?

«O'rgildim! Shapka kiyganlarga ko'zing uchib turuvdi! Axloq tuzatish koloniyasida xo'p ko'rgansan!»

– Qarasang-chi, yaxshilabroq, «tajang!»

«Nima, «tajang» dedimi? Axir bu...»

– Maktab esingdami, tajang? Men – Muhammadminor.

«Shoshma, shoshma... Axir, bu...»

– Tanidingmi? Muhammadminor... Men – Muhammadminor.

– Iye, voy, sen-ey! Voy «voyenniy-ey!» Shoshma bitta o'piy! E, shapkangni yechib turgin-da, mundoq Minorka! Mana bu boshqa gap!

Axir, bu Muhammadminor-ku. Burni tovuqnikiga o'xshagani uchun «Minorka» degan laqab orttirgan, maktabni bitirib harbiy bilim yurtiga kirgan, endi senlar bilan yigirma besh yil diydor ko'risholmayman, deb yig'lagan Minor...

– Oxun aka! Piyozni bolalar to'g'rasin. Biz... bir piyola choy...

– Shoshma, do'stim, choy-poying kerakmas. Yur bu yoqqa! Vaqt ziq.

«O'h-ho'! Armiyadagi starshinaga o'xshab prikaz qiladi-ya, shovvoz! Pogon bor – zakon bor...»

– Gapimni diqqat bilan eshit. Seni zo'rg'a topdim. Mayli, gap bundamas. Diqqat bilan eshit. Hozir bir joyga boramiz. G'ing deb ovoz chiqarmaysan. Yomon bo'ladi, tushundingmi, menga yomon bo'ladi. Voyenvrach sifatida... Bo'l tez!

«Nega yomon bo'ladi? Qanaqa voyenvrach? Shoshma, Minor... Muhammadminorning mayorlik pogonida ilon rasmi bormi? Bundan chiqdi...»

– Vaqt ziq! Bugun gospital bo'yicha men dejurman.

G'ishtin devor. Panjara darvoza. Devor chetidagi qo'ng'iroq. Muhammadminorga chest berib, g'oz qotgan serjant...

– Bitta xalat. Srochno!

Hamidulla xalatni ming mashaqqat bilan yelkasiga ildi. Yomg'ir yog'ayapti. Serdaraxt hovli. Dilni g'ash qiluvchi pastak g'ishtin binolar... Ming la'nat, qarg'a muncha ko'p! Muncha nolish qiladi, bu maraz maxluqlar!

– Minor! Muhammadminor! Jon do'stim! Nima gap? Nima bo'ldi?

– Jim! O'n birinchi blokka boramiz. Kelishdik, ovozingni chiqarmaysan. Qo'rqma, hammasi joyida. O'g'ling...

«O'g'lim?» «Oyog'i nega chalishadi? Nega mador yo'q? Tezroq! Tezroq!»

Barakka o'xshash uzun palata... Ikki qator temir karavotlar. To'shaklar... Oq choyshablar... Kulrang adyollar. Bir-biriga o'xshash qiyofalar... Hammasi yosh, hammasi rangpar... Dori isi... «Bannisa» isi... Pastak derazadan tushayotgan xira nur...

– Ana! Sekin... Iltimos, shovqin solma...

– Ada!

Nahot! Nahot shu o'g'li bo'lsa! Aeroportda xayrlashayotganida «mendan xavotir olmanglar» degan, avval onasini, keyin uni quchoqlagan, quchoqlaganida belini qisirlatib

yuborgan... Har safar «Termizdan sog'inchli salom» deb xat boshlagan, «opamga ayting, xavotir olmasinlar» degan, uch kun ilgari «uzog'i bilan bir oydan keyin boraman» deb xati kelgan... Qani, qani o'sha o'g'li? O'n yasharligida «onangni ehtiyot qil» deganida yig'lamay yerga qarab turgan, xizmatga ketish oldida devdek yigit bo'lib yetilgan... Tamom bo'ptiku! Rangi dokadek oppoq... Soqol-mo'ylovi o'sgan...

– O'g'lim, jon bolam!

Rahmatilla adyol tagidan qo'lini chiqarib, uning boshini siladi.

– Yig'lamang, ada.

Qiziq, nega soqol-mo'ylovi muncha dag'al? Nega oqargan? Yo xudo! O'g'li o'zidan qarib ketibdimi?

– Bolam! Nima qildi? Nima bo'ldi senga?

– Sekin! – Hamidulla yelkasiga kimdir ohista qo'l bosganini his etdi. Ammo qayrilib qaramadi.

Ajab, o'g'lining qo'llari nega muncha ojiz? Nega qaltiraydi?

– Opamga ayt mang, ada. Opamga ayt mang... Sizni ko'rdim... Doktorga rahmat...

Hayajonli hayqiriq yangradi:

– Kordiamin! Sestra, kordiamin!

Rahmatillaning yuziga qon yugurgandek bo'ldi. Hatto... hatto kulimsiradi ham. Otasi buni ko'rdi. Aniq ko'rdi!

– Sestra! O'lib qoldingmi? Kordiamin!

– O'g'lim! Ko'zingni och! O'g'lim!

– Nari turing, qoching!

– Yo'q! Bermayman! Bolamni senlarga bermayman!

Rahmatilla!

U jinni bo'lib qolganga o'xshardi (Balki chindan ham esdan og'gandir). Shitob bilan adyolni yulqib chetga uloqtirdi.

– Tur, bolam! Tur o‘rningdan! Ketamiz! Uyga ketamiz! Shunda... shunda, to‘shakning yarmi bo‘sh ekanini payqadi. O‘g‘lining ikkala oyog‘i yo‘q edi. Tizzadan emas, undan ham yuqoriroqdan. Ko‘kragidan buyog‘i doka bilan o‘rab tashlangan. Har joy-har joyda qizg‘ishtob dog‘lar. Qotib qolgan qon dog‘lari.

– Qoching, grajdanin. Halaqit beryapsiz.

– Hamid, ket. Tushunsang-chi, do‘stim, menga gap tegadi.

– Yo‘q! – U avval temirkaravot qirrasini mushtladi. – Yo‘q! Yo‘q! – Keyin o‘g‘lining soqoli tikandek o‘sib ketgan yuzlaridan o‘pa boshladi.

– Bolam, ko‘zingni och, Rahmat!

O‘sha zahoti shilq etib yerga o‘tirib qoldi.

– Nega? – dedi ingrab. – Nega? Insoflaring bormi? Aytinglar, bolam nima gunoh qiluvdi? – Yerga muk tushdida, namiqqan taxta polni qo‘shqo‘llab ojiz mushtlay boshladi.

– Nega? Nega? Nega-a-a!!!

HOTAM-XASISNING XAZINASI

Yetti yoshlardagi bola tarvaqaylab o‘sgan daraxt tagida turibdi. Egnida pochasi uzun ishton, katak ko‘ylagining bir yengi yirtilgan. Boshida qatirmasi chiqib ketgan baxmal do‘ppi. Do‘ppi kichikroq kelib qolgan shekilli, boshining bir tomoniga qiyshayib turibdi. Oyoq yalang. U nima uchundir iljayadi. Nimaga kulayotganini o‘zi ham bilmasa kerak.

Bu – men. To‘g‘rirog‘i, mening suratim. Aslida surat esimdan ham chiqib ketgan edi. Keyin topilgan. Ammo suratga qayerda tushganim aniq yodimda bor. Qo‘shnimiz Adol xolaning keliniga beshik kelgan kuni tushganman. Suratdagi daraxt ham Adol xolaning hovlisidagi olma...

«Jiring-jiring...» Darvoza tomonda bir nima jiringlayaptimi. Yo'q, bu eshikning qo'ng'irog'i emas. U paytlarda elektr qo'ng'irog'ining o'zi yo'q edi. Bir zum sukunatdan keyin yana o'sha ovoz keladi: «Jiring-jiring...»

Beshik to'yida oyog'i olti, qo'li yetti bo'lib xizmat qilib yurgan xotinlar bir-biriga qarab uf tortib qo'yishadi. Tavanxonada to'qqiz-to'qqiz ulashayotgan dasturxonchi kampir bor ovozi bilan shang'illaydi:

– Keldimi? Xasis o'lgur topib keldimi shu yerniyam? Is chiqqan joydan qolmaydi bu!

Hovlini to'ldirib o'ynayotgan qora-qura bolalar duv etib ko'chaga otiladi. Darvoza oldida velosipediga suyanib Hotam-xasis iljayib turgan bo'ladi. Mahalladagi manaman degan kazo-kazolarda ham, boringki, Abdusamat prokurorda ham velosiped yo'q. Hotam-xasisda bor. Yangimas, ammo zo'r velosiped!

Bolalar velosipedning atrofini o'rab olishadi.

– Bitta jiringlatay, – deydi chamandagul do'ppi kiygan bola yalinib. – Amaki, bitta jiringlata qolay...

Xasis o'z nomi bilan xasis. To'g'ri, velosiped qo'ng'irog'ini jiringlatish masalasida qurumsoqlik qilmaydi. Bolalar «endi men», «endi mening galim...» deb bir-ikki martadan jiringlatish baxtiga muyassar bo'lishadi. Ammo Hotam-xasisning bunday «saxovati»da maqsad bor. Otanalarini iydirmoqchi bo'ladi-da! Bolalar qo'ng'irog'ini paydar-pay jiringlatishadi. U bo'lsa, ichkaridan kattaroq odam chiqarmikin, degan umidda birpas odob saqlab turadi-yu, hech kimdan darak bo'lavermaganidan keyin, bir qo'llab velosipedni rulidan ushlaydi, ikkinchi qo'lga «uch oyog'i»ni olib, ikkilanibroq ichkariga kiradi.

– Assalomu alaykum, qudaxolalar! – deydi ovozig a tantanali ohang berishga urinib. Qiziq, negadir tovushi titrab chiqadi. Qadam bosishiyam g'alati. Pakana odam qadamni

katta tashlasa qiziq ko'rinadi. Hotam-xasis pakana. Tag'in doim shimining pochasini qayirib yuradi. Chap pochasini to'pig'igacha, o'ng pochasini tizzasigacha. Velosipedning zanjiri g'ajib ketmasligi uchun ataylab qayirib olgan. Ayniqsa shu oyog'i xunuk: qopdek pochaning ichidan chillakdek oyoq qiltirab ko'rinadi.

– Shimingni tuzat-ey! – deydi dasturxonchi kampir tavanxona derazasidan mo'ralab. – Xotin-xalaj bor-a!

Hotam-xasis negadir iljayadi. Qoshiqdekkina yuzidagi ajinlar qat-qat bo'lib ketadi. Xuddi issiq suvda qaynatilgan olmadek. Aytishlaricha, u avval bunaqa iljaymas ekan. Urushdagi o'g'lidan qoraxat kelganidan keyin shunaqa bo'p qopti.

– Qudaxolalar qani? – deydi u ovozi ataylab balandlatib. – To'ybolani suratga olmaymizmi?

Balo-da bu xasis! Biladiki, qudalar beshik olib kelishgan. Tayyor suratkash keladi-yu yo'q dermidi. Mahalla xotinlari ensasi qotib nari ketadi. Ichkaridan «qudaxola» chiqadi.

– Nevaralar muborak bo'lsin! – deydi xasis ko'zlarini yiltiratib. – Shundoq kunlarda bir suratga tushib qo'ying, qudaxola, esdalik bo'lib qoladi.

Qiziga beshik olib kelgan qudaxola boshiga ukpar qadalgan do'ppi kiygizib nevarasini olib chiqadi.

– Yashang, qudaxola, ish degan bundoq bo'пти. – Hotam-xasis velosipedini devorga suyab qo'yib, darrov «uch oyog'i»ning boshiga surat oladigan apparatini qo'ndiradi.

– Hozir, besh minutda yest qilaman! – deydi tantana bilan.

–Qani, oting nima, o'g'lim? Bu yoqqa qarab tur-chi. Mana bu yerga! Hozir chumchuq uchib chiqadi.

– O'g'il emas, qiz! – deydi qudaxola iymانبроқ.

– Iye, holva yerkanmiz-da! Oting nima, qizim?

Endi chillasi chiqqan qizaloq otini qayoqdan bilsin! Suratkashning husn-tarovatidanmi, apparatning beo'xshov uch oyog'idanmi, qo'rqib yig'lab yuboradi.

– Ziyoni yo‘q! – deydi xasis iljayib. – Yig‘lash – yosh bolaning ziynati. Mana, bu yoqqa qaragin, hozir papa uchib chiqadi!

U apparatini uch-to‘rt marta chiqillatadi.

– Ana, bo‘ldi! – deydi yengil tortib. – Qudangizga ayting, payshanba kuni surat tayyor bo‘ladi.

Kelinning onasi-ku chaqaloqni ko‘tarib uyga kirib ketadi. Alam-alam kuyovning onasiga! Har bitta suratga – falon so‘mdan to‘lash alam qilmaydimi? Qudalarning oldida bir nima deb bo‘lmasa!

– Mayli, – deydi bu quda ming‘illab. – Bitta nevaramdan aylansin!

G‘alva shu bilan bitsa-ku, go‘rga-ya! Bitmaydi-da! Bolalar xasisning atrofini o‘rab olib, chuvillashadi.

– Meniyam suratga oling.

– Meniyam ola qoling.

– Pajalista, – deydi Hotam-xasis xursand bo‘lib. – Pajalista. Ochirid bilan kelaver.

Ana shunda to‘y janjalga aylanib ketishiga bir bahya qoladi. Xizmat qilib yurgan xotinlar biri – o‘g‘lini, biri – qizini qarg‘ashga tushadi.

– Yergina yutkur Teshavoy! Sichqon sig‘mas iniga, g‘alvir bog‘lar dumiga! Suratga tushishga balo bormi, juvonmarg! Otangni taxlab qo‘ygan puli bormi?

– Qiz bo‘lmay ajalni oldida ketgur. Kari! Voy, mushtday boshingdan suratga tushishni orzu qilmay tusingni yel yesin!

Shu janjal orasida Hotam-xasis kamida besh-olti bolaning suratini olib qo‘yadi. Payshanba kuni eshik oldida qo‘ng‘iroq jiringlaydi: «jiring-jiring».

– O‘g‘ilcha suratga tushgan edi. Olib qo‘ysangiz.

– Qizchangizning surati «vo!» chiqibdi-da, singil!

Ana shunaqa! Mahallada eshigining tagida velosiped jiringlasa bir sapchib tushmaydigan odam qolmagan. Nima,

bolasini haftada bir suratga tushirib bosib qo'ygan xazinasini bormi?!

Hech kimning bo'lmasayam, Hotam-xasisning xazinasini bor. Hujrasida sandiqqa bosib qo'ygan. Hamma biladi. Faqat Hotam-xasisning o'zi gapirmaydi. O'z nomi bilan xasis-da! Xasis bo'lmasa mashina olmasmidi! Olaman desa qudrati yetadi. Aslida-ku, velosiped ham anqoning urug'i-ya! Lekin Hotam-xasisning aeroplani puli bor. Puli ko'pligini odamlar ko'zidan yashirish uchun ataylab velosiped olgan. Aytishlaricha, u «ming yildan» beri tramvayda pattachi bo'lib ishlarkan. Yo'lovchilar pul uzatsa, patta berish o'rniga sekin qo'lini qisib qo'yarmish. Bu – «rahmat sizga, ketavering» degani emish. Kun ora ishlaydi. Ishdan bo'sh kunlari velosiped minib mahallani aylanadi. Yelkasida «uch oyoq» tasmali apparat. Xuddi surnaychining bachchasiday qaysi xonadonda chaqaloq tug'ilganini, qaysi uyda qachon beshik to'yi bo'lishi-yu qaysi kuni kimnikida o'g'il to'yi borligini is bilib yetib keladi.

«Jiring-jiring!»

– Qani esdalikka bir suratga tushib qo'yinglar!

Bitib ketgan-da, bitib ketgan! U yoqda pattachilikka maosh olsa, bu yoqda suratga pul olsa, xasis bitmay kim bitsin!

Aytishlaricha, u kechasi «ismin»dan qaytganida darvozasi oldiga kelib velosipedini jiringlatarmish. Xotini uyg'onmasa, eshikni taqillatarmish. Kafti bilan sekin-sekin silarmish. Eshik yedirilib ketmasin deydi-da. Iqbol xola bechora eshikning taqillashidan emas, siypalanishidan uyg'onib ketarmish. Xasis tok isrof bo'lmasin deb qishin-yozin oydin kechalari uyida chiroq yoqmasmish. Olgan suratlariniyam davlatning elektri hisobiga ishxonasida bitirib kelarmish. Bunisiyam mayli, dazmolga ko'mir isrof bo'lmasin deb, shimini ko'rpachaning tagiga qo'yib yotarmish. Ertalab tursa,

shim tep-tekis «dazmollangan»! Iloji boricha cho'ntagiga qo'l tiqmasmish. Qo'l tiqsa, cho'ntak kir bo'ladi. Kir bo'lgandan keyin yuvish kerak. Yuvish uchun sovun ketadi.

Bir kuni uyiga mahallaning obro'li odami – kimsan domkom mehmon bo'lib borganida xasis uning oldiga likopchada tutmayiz qo'yibdi. Mehmon to'rttagina mayizni og'ziga solgan ekan, xasis uf tortibdi.

– Bir yuz qirq yettita qoldi, taqsir, – debdi.

Mehmon hayron bo'pti.

– Nima deyapsiz, Hotam aka? – desa xasis ma'yus qiyofada boshini egibdi.

– Mayiz bir yuz ellik bitta edi.

O'sha paytlarda Amerikada atom bomba chiqibdi, yana urush boshlamoqchi bo'lganlar paydo bo'pqopti, degan gaplar chiqqan edi. Mahalla choyxonasida bir o'qituvchi amerikalik urushqoqlardan ijirg'anib gapiribdi. Bitta bomba milyon turadi. Shuncha pulni tinchlik yo'lida ishlatsa o'ladimi desa, Hotam-xasis xo'rsinib qo'yibdi. «Qaniydi o'shanaqa bombadan bittaginasi tomorqamga tushsa, ancha pulli bo'pqolardim», debdi.

Aytishlaricha, qirq yettinchi yili pul o'zgarganida Hotam-xasis bir qop pulini Qonqusga oqizganmish. Shuning alamiga yana bir qop pul yig'magunimcha qo'ymayman, deb qasam ichgan emish.

O'sha gapdan keyin Hotam-xasisning qo'shnisi Abdusamad prokuror uning payiga tushibdi. Choyxonada «bunaqa shaxsiy mulkchini qamoqqa tiqmaguncha qo'ymayman!» debdi. Mahallada Abdusamad prokurordan qo'rqmaydigan odam yo'q edi. Xohlagan kishini «joyrastoni»ga tiqib qo'yish qo'lidan kelardi. Rostdan ham shunaqa bo'ldi. Hotam-xasis uch oycha yo'q bo'lib ketdi-da, yana paydo bo'lib qoldi. Bir kuni, aniq esimda bor, erta yoz pallasi edi, qo'shnimiz

Adol xolanikiga beshik kelgandi. Darvoza tomonda tanish ovoz eshitildi.

«Jiring-jiring». Bolalar bilan yugurib chiqsak, velosipediga suyanib xasis turibdi. Qiziq, Adol xolanikida beshik to'y bo'layotganini qayoqdan bilibdi!

Hotam-xasisning rangi ketgan, ammo tiyrak edi. Ichkaridan kattalar chiqavermagach, u bir qo'lida velosipedining rulidan tutib, bir qo'liga «uch oyog'i»ni olganicha ichkariga kirdi.

– Assalomu alaykum, qudaxolalar, – dedi nochor ovoziga tantanali tus berib. – Qani, to'y bolaning suratini olmaymizmi?

Tavanxonadan dasturxonchi xotin otilib chiqdi. Ko'ylagining etagini lippasiga qistirib olgan, qo'lida barkash.

– Yana keldingmi, go'rso'xta? – dedi baqirib. – Shu barkash bilan boshingni yoraymi? Daf bo'l ko'zimdan, ariston!

Hotam-xasis xuddi barkash boshini yoradigandek siyrak kipriklarini pirpiratdi. Qaynatilgan olmadek yuzi yanayam burishib ketdi. Shosha-pisha «uch oyog'ini» yelkasiga oldi.

Dasturxonchi kampir o'zining shaddodligidan faxrlangandek qaddini g'oz tutib, tavanxonaga kirib ketdi. Hotam-xasis besh-olti qadam yurib to'xtadi.

– Tushasanmi? – dedi to'satdan. Qarasam, menga gapir-yapti.

– Nima? – dedim angrayib.

– Suratga tushasanmi! – U siyrak kipriklarini pirpiratib, tavanxona tomonga qarab qo'ydi.

U yoq-bu yoqqa alangladim: onam ko'rinmaydi.

– Mayli, – dedim iljayib.

– Anavi olmaning oldiga borib tur, – u yelkasidan «uch oyog'i» ni olib yerga tiradi.

...Payshanba kuni eshigimiz tagida velosiped jiringlashini kutib, ko'z-quloq bo'lib turdim. Qiziq, xasis kelmadi.

Payshanba kuni ham, yakshanba kuni ham... Keyin eshitsak, u suratkashlikni tashlabdi... Yanayam qizig'i shuki, Hotam-xasisni «joyrastoniga» tiqmoqchi bo'lgan prokurorning o'zi qamalib ketdi. Aytishlaricha, qirq yettinchi yili Qonqusga bir qop pul oqizgan Hotam-xasis emas, Abdusamad prokuror ekan...

Oradan ancha yil o'tdi. O'ninchi sinfda o'qib yurganimda yarim kechasi eshik taqillab qoldi. Hammamiz uyg'onib ketdik. Dadam «kimde-e» deb chiqib ketdi-yu zum o'tmay ma'yus qiyofada kirib keldi.

– Hotam aka bechora o'tibdi.

– Kim? – dedi onam tushunmay.

– Hotam-xasis... – dadam boshini xam qildi. – Yaxshi odam edi rahmatli. – Keyin aka-ukalar hammamizga qarab qo'shib qo'ydi. – Ertalab chiqarisharkan. Hammalaring borlaring. Endi katta bo'lib qoldilaring. Sho'rlikning mahalladan boshqa kimi bor.

Mozoristonda to'plangan odamlarni ko'rib hayron qoldim. Qiziq, Hotam-xasisni shuncha odam tanirkanmi?

Syrak soqolli domla odamlarga murojaat qildi.

– Marhum Hotamboy qandoq odam edi?

Bir zum sukunatdan keyin gurillagan ovozlar eshitildi.

– Yaxshi odam edi!

– Marhum Hotamboyning birovdan qarzi bormidi?

Hamma jim bo'lib qoldi.

– Marhum Hotamboyning birovdan qarzi yo'qmi? – dedi domla yana o'sha ohangda.

Ancha jimlikdan keyin o'zi javob berdi.

– Hotamboyning hech kimdan qarzi yo'q edi...

Hotam-xasisning yigirmasidan keyin, fizikadan imtihon topshirib kelsam, uyda Iqbol xola o'tiribdi. Ko'k ko'ylakda, boshida qora ro'mol, rangi bir holatda...

– Xolangnikiga borib kel, ishlari bor ekan, – dedi oyim.

Qiziq, Hotam-xasisnikida nima ish bo'lishi mumkin? Indamay Iqbol xolaga ergashdim. Bu hovliga birinchi marta qadam qo'yishim edi. Pastak eshikdan ichkari kirdik. Etakdagi bostirmada junlari sarg'ayib ketgan, soqolli echki tinmay ma'raydi. Bostirma tomiga jo'xori poyalari uyib qo'yilgan. Bo'g'otning u yer-bu yerida kaltakesakni qochirish uchun ataylab qistirib qo'yilgan tuxum po'choqlari. Oldi ochiq oshxonada tandir. Dudburoni qorayib ketgan. Ayvon ustuniga isiriq ilib qo'yilgan. Yerda qatirmasi chiqib ketgan sholcha. Bir burchakda o'sha eski velosiped.

Ayvon yonboshidagi nimqorong'i uychaga kirdim-u kavshandozda to'xtab qoldim. Vassajuftda qaldirg'och ini. Ochiq derazadan qaldirg'ochlar otilib kiradi. Vijir-vijir qilib qaytib ketishadi. Shift o'rtasidagi to'singa ilingan olmadek lampochkaga pashshalar o'tirib qoraytirib yuborgan, tokchalardan birida sirlangan yapasqi idishlar ustma-ust taxlab qo'yilgan. (Surat chiqaradigan idishlar ekanini keyin payqadim.)

Iqbol xola pastak derazalarga tutilgan eski pardalarni surdi. Indamay burchakdagi sandiq oldiga bordi. Nimchasining cho'ntagini uzoq kavlashtirib kalit oldi. Kalit solib buragan edi, sandiq qulfi jaranglab ketdi. Negadir yuragim gursillab ura boshladi. Sandiq! Hotam-xasisning xazinasini! Qiziq. Iqbol xola nima qilmoqchi?

– Mana, bolam, – dedi u namatga cho'kka lab o'tirgancha.

– Tanlab olavering!

Talmovsirab yaqin bordim. Nimani tanlab olaman! Birovning xazinasini nima keragi bor menga?

– Amakingiz vasiyat qilgan edilar, – dedi Iqbol xola qandaydir osoyishta alpozda. – Har kim o'zinikini olib ketsin degandilar.

Sandiq yoniga beixtiyor cho'kkaladim-u... Kim o'sha Hotam-xasisning xazinasini bor degan? Bir qop pulini Qonqusga oqizgan degan kim?

Sandiq to'la suratlar tartib bilan taxlab qo'yilgan edi. Katta-kichik suratlar. Hammasi-hammasi surat.

– Tanlab olavering, bolam! – Iqbol xola shunday dedi-yu, uvishib qolgan bo'g'inlarini shiqirlatib og'ir qo'zg'alancha ayvonga chiqib ketdi.

Dasta-dasta suratlarni ko'zdan kechirarkanman, o'n yil nariga – yetti-sakkiz yashar bolaligimga qaytib qolgandek edim. Muncha ko'p bu bolalar!!! Nimaga endi hammasi bolalarning surati! Boshiga yangi do'ppi, egniga to'ncha kiyib olgan manavi to'ybola kim bo'ldi! Bunisi-chi, yasatilgan toychoq oldida turgan bola-chi! Iye, manavi Ahmad-ku! Qo'shnimizning o'g'li. Ko'ylagining etagi lippasidan chiqib osilib qolibdi. Bular-chi? Biri yig'lab, biri buvisining quchog'ida yo'rgakda yotgan chaqaloqlar kim bo'ldi? Muncha ko'p bu suratlar. Bolalarning, chaqaloqlarning surati muncha ko'p?

Shoshma, manovi kim bo'ldi? Katta odamniyam surati bor ekan-ku! Tankchilarning shlemmini kiyib olibdi. Mo'ylov qo'ygan, kulib turibdi. Surat nimaga sarg'ayib ketgan? Beixtiyor suratning orqasiga qaradim. Yarim lotincha, yarim o'zbekimizning imloda yozilgan so'zlarni hijjalab o'qidim: «Mehribon dadamga, mehribon onajonimga esdalik uchun – Homidjon. 1942-yil. Harbiy Ukraina fronti». Ajab, bu surat muncha ko'p? Iye, bunisiyam shu surat-ku. O'sha mo'ylovi, o'sha kulib turishi. Faqat egnida to'n, boshida do'ppi... Bunisi – portret. Tag'in o'sha suratning o'zi. Ammo katta, patnisdek keladi. Galstuk taqib, zamonaviy kostum kiyib olibdi... Undan chiqdi Homid aka... yo'g'-e, urushdan qaytsa eshitmasmidik?..

Xayolimga daf'atan urilgan fikrdan yuragim sirqirab ketdi. Bundan chiqdi, Hotam amaki har yili o'g'lining suratini qayta ishlagan. Kattaroq qilib, zamonaviy qilib...

Sandiqni titkilay-titkilay, oxiri o'zimning suratimni ham topdim. Yetti yoshlardagi bola daraxt tagida turibdi. Egnida pochasi uzun ishton, katak ko'ylagining bir yengi yirtilgan...

O'zim bilan o'zim ovora bo'lib, tashqaridan kelayotgan ashula ovozini eshitmay qolibman. Ajab, kimdir bo'g'iq ovozda qo'shiq aytyapti...

Suratimni kaftimda ko'targanimcha ayvonga chiqdimu qotib qoldim.

Iqbol xola ayvon rahida oyog'ini osiltirib o'tirar, tizzasida Homid akaning xuddi o'sha tankchilar shlemini kiyib tushgan suratini ushlagancha iltijo qilardi.

– Voy bolam-ey! Otasini dog'da qoldirib ketgan bolam!

Yo'q, u yig'lamasdi. Chamasi yig'layverib, ko'z yoshi ham, madori ham qolmagandi. Bo'g'iq ovozi titrab-titrab iltijo qilar, har «bolam» deganda suratni siypalar edi.

– Otasini kuydirib ketgan bole-em! Hasratida yondirib ketgan bole-em! Bittagina nevaraga intizor qilib ketgan bole-em!

UMR SAVDOSI

Xurshida ishdan kelsa, Poshsha xola ayvon o'rtasida cho'kkalab olgancha ko'rpa qavib o'tiribdi. Enkayib olgani uchunmi, mushtdek gavdasi yanayam kichrayib qolganga o'xshaydi. Xurshidaning onasiga rahmi keldi. Bechoraga qiyin. Bir yildirki, To'lqinjonni uylantirish tashvishida. To'y qilish osonmi? Goh unisi yetishmaydi, goh bunisi.

– Bo'ldi endi, oyi, charchab qolasiz, – dedi Xurshida sumkasini ayvon burchagidagi stulga qo'yib. – To'y ertaga boshlanayotgani yo'q-ku!

Poshsha xola boshini ko'tardi. Oyoqlari uvishib qolgan ekan, og'riqdan yuzi burishib tizzalarini uqaladi.

– Ko'nglim g'ash, bolam, – dedi to'satdan.

Xurshida tushunmadi.

– Nima bo'ldi?

– Ertalab borsam, darvozasi taqa-taq berk. Avval oqshomdan yotib olib, kech peshingacha uxlaydi shekilli bular.

Xurshida kulib yubormaslik uchun teskari qaradi. Kampiri tushmagur-ey! Bundan chiqdi, xo'roz qichqirmasdan quda bo'lmishnikiga borgan. O'zining kallai saharlab borgani bilinmaydi-yu, aybni qudalarga ag'daryapti. Nuqul yulduzi chap kelyapti-da shular bilan!

– Qiz bola degan kun yoyilguncha yotmaydi, yalpayib! – Poshsha xola pisanda qildi. – Darvozasining oldi supurilmagan.

Poshsha xolaning odati shu. Saharlab turib oladi (Xurshida esini tanishi bilan uniyam shunga o'rgatgan. «Qiz bolali uy jig'adek taxt bo'lishi kerak, uyat bo'ladi», deb azonlab hovli supurtirardi).

– Kelinning akasi icharkan. Uniyam eshitdim! – dedi Poshsha xola hamon o'sha tajang ohangda. – Otasiniyam og'zi shaloq, deyishyapti.

Onasining keyingi da'vosi Xurshidaga yoqmadi. O'zi-ku: «Uylanasanmi, yo'qmi? Tanlaganingni ayt», deb To'lqinjonni holi joniga qo'ymadi. Oxiri, To'lqinjon yoqtirgan qizini aytdi. Poshsha xola uch-to'rt marta sovchilikka borib oq o'rab keldi. Ammo negadir keyin aynib qoldi. Goh kelinni dangasa deydi, goh quda xolani ezma deydi. Mana, endi akasining ichishi bahona bo'lib o'tiribdi.

– Kelin ham icharkanmi, oyi, bir so'ramapsiz-da, – dedi Xurshida achitib.

Poshsha xola ip qatimini shahd bilan tortarkan, Xurshida qachayib qaradi.

– Tappi tappidan uzoqqa tushmaydi, bildingmi?

– Bizlar ham oppoq emasmiz-ku, oyi! – dedi Xurshida.

– Quda tomon surishtirsa bizlardanam ayb topar. Mana, men... – u bir zum jim qoldi-yu, xayoliga kelgan gapni qaytarmadi: – Meniyam turmushim buzilgan. Ular ham surishtirib yurgandir. Kuyovning opasi nega erdan chiqqan, deb. Gapni kovlasa gap chiqaveradi-da!

Poshsha xola to'satdan mung'ayib qoldi.

– Sening turmushing buzilgan bo'lsa... Shu ish shunaqa bo'lganiga... O'zing sababchisan... Endi To'liqinning turmushi shunaqa bo'lmasin, deyman-da, bolam.

Onasining birdan bo'shashib qolishi, taskin ohangida gapirishi Xurshidaga og'ir botdi. Dushmaning tosh bilan urgani nima-yu, do'sting paxta otgani nima? Yo'q, onasi ta'na qilayotgani yo'q. Achinib gapiryapti. Shunaqa-yu, bari bir qalampirni shakarga botirib yegan bilan shirin bo'lib qolmaydi-da.

Xurshida siltab-siltab igna tortayotgan onasiga bir zum qarab turdi-da, indamay ichkariga kirib ketdi. Shu topda u oyisi ketidan mo'ltirab qarab qolganini his qilar, yuragi ezilardi.

Qiz bola bo'yiga yetganidan keyin g'alati bo'larkan. O'z uyingda, ota-onang bag'rida turasan-u baribir bu xonadon ertami-indin senga begona bo'lib qoladigandek, go'yo albatta qanaqadir o'zgarish bo'lishi shartdek tuyilaveradi.

Xurshida, ayniqsa, sovchilar kelganida buni chuqur his qilar, shuning uchun eshikdan uzun-qisqa bo'lib kirib kelayotgan xotinlarni ko'rsa allaqanday begonasirab turardi. Bora-bora ularni ko'rsa g'ashi keladigan bo'ldi. Poshsha xola bo'lsa, sovchilar bilan ochilib-sochilib so'rashar,

kuyov bo'lmishni ipidan-ignasigacha surishtirardi. Sovchilar ketgandan keyin Xurshidaga nasihat qilardi:

– Qizlik uy – bozor bolam! Shoh ham keladi, gado ham. Boshingda otang bo'lmasa. Munosib joyingni topgin deyman-da, qizim.

Xurshida tutaqib ketardi:

– Hech qanaqa bozor-pozorni bilmayman, tushundirgizmi?! Menga dallol kerakmas.

Shunaqa derdi-yu, hayotida qandaydir o'zgarish ro'y berishini kutib yurardi. Shunaqa o'zgarish to'rtinchi iyun kuni bo'ldi. Shu kuni u o'n to'qqiz yoshga to'lgan edi. Kechqurun atelyeda birga ishlaydigan dugonalarini uyga chaqirmoqchi bo'ldi. Bozorga tushdi. Chillaki, gilos, yangi pomidor xarid qilguncha kun qizib ketdi. Bir qo'lida sumka, bir qo'lida to'rxalta ko'tarib bekatga keldi. Aksiga olib avtobus ham kelavermadi. Bir mahal qizil lyuks «Jiguli» osoyishta silkinib Xurshidadan xiyol nariroqda to'xtadi. Xurshida qo'l ko'tarmagani uchun e'tibor bermadi. Lekin o'sha tomondan ovoz keldi:

– Qayoqqa borasiz, singlim?

Bir ozdan keyin boyagi savol yana qaytarildi:

– Sizga aytyapman.

Shundagina Xurshida bu gap o'ziga tegishli ekanini bilib, burilib qaradi. Mashinasining rangiga mos – qizil vodolazka kiyib olgan yigit bir oyog'i ichkarida, bir oyog'i yerda, shu tomonga qarab turardi.

– Qayoqqa borasiz? – dedi u yana.

Xurshida «xususiy» mashinaga o'tirishni umuman xushlamasdi.

Hozir ham chimirilib:

– «Hech qayoqqa» – dedi-yu, teskari qarab oldi. U motorning guvillashini, mashina jo'nab ketishini kutib

turardi. Chindan ham eshik qarsillab yopildi. Ammo motor gurillamadi. Boyagi yigit uning ro'parasida paydo bo'ldi.

– Qo'lingizda yukingiz ko'p ekan, – dedi Xurshidaga jiddiy tikilib.

Xurshida uning silliq taralgan sochlariga, chimirilib turgan qoshiga bir lahza qaradi-yu, ko'zini olib qochdi.

– Qancha so'raysiz?

Yigit kulib yubordi.

– Savob ham kerak-ku odamga!

– Unaqa bo'lsa o'tirmayman.

Yigit yana kulib uning sumkasiga qo'l cho'zdi.

– Bo'pti, benzin haqini berarsiz.

Xurshida mashinaning paralon g'ilof qoplangan orqa o'rindig'iga o'tirarkan, yigit so'radi:

– Qayoqqa hayday?

– Ko'kchaga!

Xurshida endi uyga yetguncha bir og'iz ham gapirmaslikka ahd qildi.

Anchagacha indamay ketishdi. Xurshida yigitning ro'parasidagi oynachadan o'ziga qarab qo'yayotganini his qilar, ataylab ko'chalarni tomosha qilib borar edi.

– Issiqqa qolib ketibsiz, – dedi yigit orqaga burilib. Xurshida mo'ylov qo'ygan yigitlarni yomon ko'rardi. Ammo haydovchining mo'ylovi o'ziga juda yarashib tushganini ichida tan oldi. Indamay ketaverdi. – Issiqqa qolib ketibsiz, deyman! – Yigit yana savolini qaytardi.

– Shundoq bo'ldi! Endi otimni so'rang! Qayerda o'qishimni so'rang! Iloji bo'lsa, yigitim bor-yo'qligini ham bilib oling! – Xurshida bu gaplarni shu qadar jahl bilan bidir-bidir qilib aytib tashladiki, o'ziyam hayron qoldi.

Yigit bunaqa zarbani kutmagan bo'lsa kerak, anchagacha jimib qoldi. Keyin orqaga qaramasdan sekingina gapirdi:

– O‘zining tug‘ilgan kunida o‘zi bozor qilgan odamni birinchi ko‘rishim.

Endi Xurshida esankirab qoldi. Xuddi uning yuzini yaxshiroq ko‘rib olgisi kelayotganday oldinga egildi.

– Siz... qayoqdan bilasiz? – dedi ko‘zlarini pirpiratib.

– Men hamma narsani bilaman! Telepatman. – Yigit orqaga qarab jilmaydi. Shunda Xurshida uning mo‘ylovi o‘ziga yarashganini yana bir bor his etdi-yu, xayoliga kelgan fikrdan uyalib, ko‘zini olib qochdi. – Siz hech nimani aytmay qo‘ya qoling, – dedi yigit hamon jilmayib. – Otingizni ham, bugun necha yoshga to‘lganingizni ham, hammasini bilaman. Siz bo‘lsa meni bilmaysiz. Shuyam insofdanmi? Keling, siz ham meni tanib oling. Otim – Anvar...

Xurshida qarasa gap gap bilan-u mashina boshqa yoqqa burilib ketyapti.

– Ko‘kcha u yoqdamas, – dedi u ovozini balandlatib. – Yo yo‘lni bilmaysizmi?

– Bilaman! Bir minutga!

Zum o‘tmay mashina pastak, oynaband magazin ro‘parasida to‘xtadi. Anvar ko‘cha chetidagi sement ariqchadan hatlab o‘tdi-da, magazinga kirib ketdi. Xurshida o‘tiraverishini ham, tushib ketishini ham bilmay turgan edi, Anvar ichkaridan bir savat gul ko‘tarib chiqdi. Xurshida shundagina bu gul magazini ekanini bildi.

Anvar negadir orqa eshikni ochib, savatdagi gulni shundoqqina Xurshidaning oyog‘i tagiga qo‘ydi.

– Nima qilyapsiz? – dedi Xurshida oyog‘ini nari surib.

– Tug‘ilgan kuningiz bilan chin qalbimdan tabriklayman. Iloyo, baxtli bo‘ling! – Anvar qo‘lini shunaqa qoyilmaqom qilib ko‘ksiga qo‘ydiki, Xurshida kulib yubordi.

– Artistmisiz, nima balo?

– Artist bo‘lsam, jon derdim. Eplolmayman. Aspirantman.

Anvar rulga o'tirdi-yu, mashinani g'izillatib haydab ketdi. Qiziq, endi u Xurshidalarning ko'chasiga yetguncha bir og'iz ham gapirmadi. Faqat qizning yuklarini, savatdagi gulni tushirayotganda sekingina «yaxshi dam olinglar», deb qo'ydi.

Xurshida hech qachon tug'ilgan kunini bunchalik xushchaqchaq nishonlamagan edi. Qizlar bilan rosa o'ynashdi, yarim kechagacha xursandchilik qilishdi. U orachora negadir Anvarni eslab qo'yar, ammo o'sha zahoti uni xayolidan haydashga urinardi. «Yaxshi yigit ekan. Odamgarchiligi bor ekan. Shu bilan nima bo'пти? Endi qaytib ko'rishadilarmi, yo'qmi. Ko'chada uchragan bir odam-da!»

Shunaqa deb o'ylardi-yu, baribir ko'nglida noaniq umidga o'xshash bir narsa aylanaverardi. Kechasi mehmonlarni kuzatayotganida xuddi o'sha mashina yana kelib qoladigandek beixtiyor atrofga alangladi. Ertasiga, indiniga ko'chalarda yurganida ham qizil «Jiguli» ko'rinsa, burilib qaraydigan bo'ldi. Oradan bir haftami, o'n kunmi o'tdi. U endi Anvarni xayolidan chiqara boshlaganida yana ko'rishib qolishdi. Xurshida uzoqdan kelayotgan qizil «Jiguli»ni ko'rdi-yu, negadir yuragi jiz etdi. Mashina uning ro'parasiga kelib to'xtadi.

– O'qishga ketyapsizmi? – Anvar o'tirgan joyida cho'zilib eshikni ochdi. Xurshida ikkilanib orqa o'rindiqqa o'tirarkan, unga qarab qo'ydi.

– O'qishga kirolmaganman, ishlayman, e'tiboringiz uchun! – dedi ta'kidlab. – Men to'g'rimda hamma ma'lumotga ega odam shuniyam bilmaysizmi?

Anvar kuldi.

– Ochig'ini aytsam, otingizniyam bilmayman.

– Qiziq bo'ldi-ku! – Xurshida yelkasini qisdi. – Bo'lmasa tug'ilgan kunimni qayoqdan bildingiz?

– Ko'zingizdan! – Anvar jilmaydi... – Qalay, ziyofat yaxshi o'tdimi?

Xurshida indamay bosh silkidi.

– O'sha kuni sizning baxtingiz uchun menam ichdim.

– Yolg'on! – Xurshida qo'l siltadi.

– Yolg'on gapirsam, yorilib o'lay!

Xurshida kulib yubordi.

– Qo'ying, hali bola-chaqangizga kerak bo'lasiz!

– Shunaqami, a? Ayta qoling, sizga judayam kerakmanmi?

Xurshida gap suyuqlashib ketayotganligidan g'ashi keldiyu, ammo shunga yaqinroq mavzu davom etishini bari bir xohlardi. Shuning uchun indamay qo'ya qoldi.

Ertasiga Anvar uning ishdan chiqishini poylab turdi. O'zining ishxonasiga olib bordi. Kibernetika bo'yicha ilmiy ish qilayotgan ekan. Hozircha laboratoriyada kichik ilmiy xodim bo'lib ishlarkan. Xurshida allaqanday chizmalar, yaltiroq apparatlar bilan to'la nim-qorong'i xonaga kirib qoldi.

– Bizning ishimiz suratlar bilan bog'liq, – deb tushuntirdi Anvar. – Xohlasangiz, sizniyam suratga tushiraman...

O'sha kundan boshlab u Anvarning laboratoriyasiga tez-tez borib turadigan bo'ldi. Laboratoriyaning yarim qorong'iligi ham, turli vaziyatlarda suratga tushish ham endi uni cho'chitmas edi.

Uyda bo'lsa sovchilar bozori qaynar, Poshsha xola har kuni yangi gap topib qo'yardi. Kuyov bo'lmishning biri zavuch emish, yana biri «pekarniy»da ishlarkan. «Uchastkasi» bormish.

...Bir kuni Xurshida onasining ro'parasiga o'tirib oldi-da, ochiq-oydin qilib aytib qo'ya qoldi:

– Qing'ir-qiyshiq sovchilaringizga aytib qo'ying, oyi! Mening tanlaganim bor!

Onasi Xurshida kutgandek sapchib tushmadi. Faqat so'radi:

– Kim o'zi u? Qanaqa odam?

– Yaxshi odam. Aspirant. Yaqinda olim bo'ladi. – Poshsha xola birovning «uchastka»sini gapirgani uchun Xurshida ham ataylab qo'shib qo'ydi: – Mashinasi bor.

Ertasiga u uyiga sovchilar ko'p kelayotganini gap orasida qistirib qo'ydi. Anvar odatdagidek masalani ko'ndalang qo'ydi.

– Bo'pti, ertagayoq ZAGSga ariza topshiramiz.

Hamma ish ko'ngildagidek ketayotganida Poshsha xolaning qaysarligi tutib qoldi. Ikkala oyog'ini bir etikka tiqib turib oldi.

– Mening ko'chada qolgan qizim yo'q! Uylanadigan odam besh-olti marta sovchi yuboradi, odam qo'yadi. Otini bilmasam, zotini bilmasam. Yo'q, bo'lmaydi!

Xurshidaning bir kulgisi kelar, bir jahli chiqardi.

– Nimaga tushunmaysiz, oyi? Besh marta sovchi yuborish degan qonun qayerda yozilgan? Anvar aka Qashqadaryodan kelgan. Ota-onasi yoshligida o'lib ketgan ekan. Dallolning nima keragi bor?

– Ota-onasi bo'lmasa qarindosh-urug'i bordir, ishxonasi, xo'jayinlari bordir. O'zim boraman.

Xurshida kuldi.

– Ishxonasiga borganingiz bilan siz nimani tushunardingiz. Kibernetikaga aqlingiz yetadimi? O'zim ming marta borganman ishxonasiga, bildingizmi?

Poshsha xola baribir bo'sh kelmadi.

– Sen echki emassanki, duch kelgan odamga yetaklatib yuborsam. Bo'lmaydi!

– Balki hali qalin ham so'rarsiz?

– Tag-taxtini surishtirmay turib bermayman! Bo'lmaydi.

Poshsha xola bo'lmaydi, degani bilan to'y to'xtab qolmadi. Anvarning uzoq tog'asi bor ekan, o'sha o'rtağa tushdi. To'y boshlandi-yu, Poshsha xola bir narsasini yo'qotgandek mung'ayib qoldi.

Bahor kunlarida g'alati hodisalar bo'ladi. To'satdan jala quyadi-da, yer-ko'kni shalabbo qilib yuboradi. Ketidan yarq etib oftob chiqadi. Olam yashnab ketadi. Zamin-u osmon tarovatli bir isdan – bahor isidan mast bo'lib qoladi. Xurshidaning hayoti ham shunaqa bo'ldi. U Anvarni butun vujudi bilan sevib qoldi. Muhabbati evaziga baxt quyoshi unga jilmayib boqdi-yu, butun dunyo yashnab ketgandek bo'ldi. Qizil lentani ko'ndalang taqib olgan ZAGS mudirasining nutqi, peshanasiga qo'g'irchoq qo'ndirilgan mashinada sayr qilishlar, gul isi may hidiga qovushgan charog'on restoran... U baxtiyor edi. Baxt degan lazzatli tuyg'u hayotiga shunchalik tez kirib kelganiga ba'zan o'zi ham hayron qolardi. Nazarida onasi ham uni tushungandek edi. Faqat to'ydan keyin Poshsha xola Anvarning Yunusobodagi ikki xonali uyiga bormadi. Umuman, bormadi. «Ziyoni yo'q, oyim shunaqa bir lovillaydilar-u o'chadilar», deb yupatdi Xurshida erini.

To'ydan keyin bir hafta o'tgach, nikoh sayliga chiqishdi. Avgustning o'rtalari edi. Bunaqa paytda dengiz yangi sog'ilgan sutdek iliq bo'larkan. Bir kuni ikkovlari oydin kechada cho'milishdi. Qiziq, Xurshida suzgan sayin qo'lining uchidan sachragan tomchilar xuddi marvariddek yaraqlab ko'rinardi. Bunaqa lazzatli manzarani xuddi shunaqa paytda dengizda cho'milgan odamgina biladi. Xurshida qorayib, yanayam husni ochilib ketdi...

Bir kuni Anvar ishdan tashvishliroq qiyofada keldi.

– Chamadon tayyorlang, – dedi to'satdan.

– Yana qayoqqa boramiz?

– Siz emas, men ketaman, – Anvar osoyishta tushuntirdi.

– Ilmiy ishim bo'yicha Sankt-Peterburgga borishim zarur bo'lib qoldi. Domla chaqiribdi.

– Anchagami? – Xurshida birdan ichi huvillab qolgandek, eriga termildi.

– Nari borsa, bir oy.

Xurshida kuzatib qo'ymoqchi edi, Anvar uni ayadi. Vokzalga chiqartirmadi.

Ikki xonali katalakda Xurshida yolg'iz qoldi. Hovlida, mahallada odamning yolg'izligi bilinmaydi. Ammo seksiyada bir kun tanho qolgan kishi yorilib ketay deydi. Bunaqa joyda qo'ni-qo'shnilar nimagadir salomlashishdan nariga o'tmaydi. Xurshida uch kunda siqilib ketdi. Ishga boray desa, Anvarning gapiga kirib, bo'shab olgan. U o'z uyiga bordi. Poshsha xola haliyam jahlidan tushmagan ekan. Xurshida ikki kun turgan edi, sekingina tushuntirdi:

– Uzatilgan qiz uyga kelib yotib olmaydi. Qo'ni-qo'shnilar halitdan gap qilyapti.

– Bo'lmasa yuring biznikiga, – dedi Xurshida.

– Yo'q, bolam. Og'zimga so'z olganman.

Xurshida umrida birinchi marta onasini yomon ko'rib ketdi. Ona degan ham shunaqa bemehr bo'ladimi? U uyiga keldi. Televizor bilan ovuna boshladi. Har kun yildek cho'zilar, aksiga olib Anvardan na xat, na xabar bor edi. Ba'zan Dilbar degan o'rtog'i kelib turar, ammo uning ham o'z tirikchiligi bor edi. Kunduzi ishga boradi, kechqurun o'qishga...

Bir oqshom eshik jiringlab qoldi. Xurshida ochib qarasa, «sim» ro'mol o'ragan ayol, do'ppi kiygan olti-yetti yoshlardagi bola turibdi. «Qishloqdan kelishibdi, – deb o'yladi Xurshida ayolning yaltiroq ro'moliga, beo'xshovroq osilib turgan jemperiga qarab: – Adashgan odamlarga o'xshaydi». U hamroh topilganiga quvonganday beixtiyor ichkariga taklif qildi.

– Kelinglar! – dedi yo'l bo'shatib.

Ayol dadil ichkariga kirdi. Bola sho'xgina ekan. Birpasda yugurib borib magnitafon qulog'ini buray boshladi.

– Akbar, tek o'tir! – dedi ayol jerkib. Keyin Xurshidaga qaradi. – Siz Xurshidaxonsiz-a?

Xurshida hayron bo'ldi.

– Men sizni tanimayroq turibman, – dedi iymajib.

– Tanib qolarsiz. – Ayol xotirjamlik bilan jemperini yechib stul suyanchig'iga tashladi. Uning bepisandligi, kinoya qilib gapirishi Xurshidaning g'ashiga tegdi. «Kim o'zi bu? Nimaga oliftagarchilik qiladi?»

– Kimsiz o'zi? – dedi qoshini chimirib.

– Ketdimi? – Ayol negadir iljaydi. – Ancha bo'ldimi?

– Kim ketadi?

– Uzun opketdimi, tarvuzmi?

Xurshida shahd bilan o'rnidan turdi.

– Menga qarang! – dedi tahdid bilan. – Maynabozchilikni yig'ishtiring! Kimsiz o'zi!

Ayol o'g'lga qarab qandaydir notabiiy, asabiy qiyqirib kuldi.

– Dadang Sibirga ketibdi, o'g'lim. Uzun opketibdi. Shu yerda kutib o'tirsang, senga velosiped olib keladi.

Bolakay ko'zlarini katta-katta ochib onasiga tikildi.

– Qachon, buvi, qachon?

– Unisini manavi ayachangdan so'raysan! – ayol Xurshidani ko'rsatdi. Yana o'sha notabiiy ohangda kuldi. – Qachon qaytaman degan Akbarning dadasi?

Xurshida nimanidir tushungandek bo'ldi-yu, yuragi sirqirab ketdi. Bemador bir holatda eshikka suyanib qoldi.

Ayol tantana qilgandek yana qiyqirib kuldi.

– Sizniyam mashinasiga o'tqazib, qo'lga tushirdimi? Sizgayam aspirantman, dedimi? Sizniyam to'y bo'lmasidan ishingizni to'g'rilab qo'ydimi? Hech kimim yo'q, yetimman, degandir? Bir oy ichida to'y qildimi? Svadebniy puteshestviyaga olib borgandir, hoynahoy? Endi ilmiy ish bilan Sankt-Peterburgga ketgan bo'lsa kerak.

Ayol har gapi bilan Xurshidaga tarsaki tushirayotgandek bo'lar, bundan rohatlangandek vahshiylarcha qiyqirib kular edi.

– Sankt-Peterburgda pishirib qo'ygani yo'q! Novosibirskka ketgan! Uzum opketgan.

Xurshida boshidan hushi uchib borayotganini his qilib turar, yuragi gursillab urardi.

– Yolg'on! – U yer tepinib chinqirib yubordi. – Yolg'on! Yolg'on!

Keyingi daqiqada u vahshiylarcha kulayotgan xotinga tashlandi. Boshidagi «sim» ro'moliga chang soldi. Ammo shu on iztirobga to'la bir chinqiriq yangradi-yu, Xurshidaning qo'llari havoda muallaq qotib qoldi.

– Buvi! Buvijon! – Boyadan beri magnitofon oldida o'ralashib yurgan bolakay o'qdek otilib kelib onasiga yopishdi. Shundagina Xurshida ayolning ko'zlaridan oqib tushayotgan yoshni ko'rdi. Ayol negadir kalovlanib o'rnidan turdi. Bir qo'li bilan bolaning boshini silay boshladi, bir qo'li bilan Xurshidaning yelkasidan quchdi.

– Peshanang sho'r ekan, singlim! Ko'zingga qarasang bo'lmasmidi! – Shunday dedi-yu, yelkalari silkinib yig'lab yubordi.

O'sha kecha tun bo'yi ikki «kundosh» hasratlashib chiqishdi. Bola uxlab qolgan, uy nimqorong'i, ayolning ovozi g'amgin, ammo o'ktam edi. U asli andijonlik ekan. Texnikumda o'qib yurganida Anvarning qo'liga tushibdi. Es-hushini yig'ib olguncha, Anvarning ikkinchi xotiniga aylanib qolibdi.

– Siz uchinchisisiz! – dedi u qandaydir kinoyasiz ohangda. – Xorazmda ham xotini bor. Ammo ishni pishiq qiladi. Zakonniy ajrashadi.

Xurshida ich-ichidan toshib kelayotgan yig'ini arang bosib yotardi. «Zakonniy» ajrashganning nima foydasi bor. Bu bilan dardi yengillasharmidi?

Anvar hech qanaqa olimmas, suratkash ekan. Goh u, goh bu institut laboratoriyasida suratkash bo'lib ishlab yurarkan. Kuzda allaqanday hamtovoqlari bilan Sibir shaharlariga borib uzum sotarkan. Manavi kooperativ uylar-u, mashinalar, restoran-u dengiz sayohatlari shundan ekan. Xurshida bu gaplarning tush bo'lib qolishini juda xohlardi. Qani endi to'xtovsiz gapirayotgan mana shu xotin ham, divanda pishillab uxlayotgan anavi bola ham tush bo'lsa. Tush bo'lsayu, u uyg'onib ketsa. Yo'q, tush bunaqa bo'lmaydi!

– Balki, biron narsa tama qilib keldi, dersiz. Yo'q, hech nima kerakmas. Toshkentda qarindoshlarimiz bor. Shularnikiga keluvdim. Bu gaplarni eshitib qolib, sizni ogohlantirib qo'ygim keldi. Agar yaxshi ko'rsangiz, mahkam ushlang. Anvar – tullak yigit.

...Ona-bola zinadan tushib ketayotganda Xurshida birdan uyga yugurdi. Kecha bolakay o'ynagan yaponcha magnitofonni stoldan yulib oldi-yu, zinalardan chopib tushdi.

– Ma, Akbar! – dedi bolaga tutqazib. – Baribir shu... seniki.

Kundoshi qarshilik qilgan edi, qo'ymadi.

– Baribir menga kerakmas. Endi kerakmas.

Lovillab turgan gulxanga suv sepilsa nima bo'ladi?

Achchiq, bo'g'uvchi hovur ko'tariladimi? Hozir shunday bo'ldi. Xurshidaning lovullab turgan muhabbatiga suv sepildi. U o'zining achchiq hovuriga o'zi bo'g'ilib qoldi. Nima qildi u? Nima qilib qo'ydi? Shirin gaplariga uchdimi? Mo'ylovigami? Bir savat guligami? Mashinasigami? Balki jaraq-jaraq pullariga uchgandir. Nimasiga uchdi! Hammasiga! Mashinasida kataysa qilish yoqarmidi? Yoqardi. Judayam yoqardi. Restoranlarga kirish, dengizga borib cho'milish, qorong'i laboratoriyaga kirib o'ptirish yoqarmidi? Yoqardi. O'zi-ku suratkashni aspirantdan, ucharni olimdan ajratolmas ekan, nega surishtirmadi? Nega onasi surishtiraman desa, bir

chekkaga yig'ishtirib qo'ydi? Eskilik sarqiti deb to'yiga ham chandon aralashtirmadi. Eskilik sarqiti emish! Sarqit kim? Oyisimi, o'zimi? Oyisining ko'ngli bir narsani sezgandirki, oyoq tirab turib olgandir.

U Anvar kelsa nima qilishini bilmas edi. Albatta, bo'yniga olmaydi. Uylanganini ham, bolasi borligini ham aytmaydi. Ana o'shanda boplaydi. Shunaqa boplasinki, erkak bo'lganiga ming pushaymon qilsin!

Qiziq, Anvar hech nimadan bo'yin tovlamadi.

– Nima qipti. Avvalgi xotinlarim bilan ajrashganman. Hammasi zakonniy! Uzum masalasi... Nima qipti, buyam savob ish. Ilmiy ish ham bo'p qolar. Mirquruq aspirantlardan nimam kam? «Qurug'i»ni bersam, yarim yilda dissertatsiya yoqlayman.

– Nega meni aldadingiz? – dedi Xurshida alamdand to'lg'anib.

– Qiziq ekansiz, to'yni tezlashtiring, degan menmi, sizmi?

Xurshida alam ichida uni tarsakilab yubordi. Anvar bir rangi o'chdi-yu, indamadi.

– Bo'ldimi? – dedi kulishga harakat qilib. – Alamingizdan chiqdingizmi endi?

Xurshida bu odam bilan o'rtalarida kattakon jarlik paydo bo'lganini his qildi. Bu jarlik ikkovlarini ikki sohilga uloqtirib tashladi. Kim bilsin, balki ilgari ham jarlik bo'lgandir-u Xurshida ko'rlik qilib narigi sohilga qadam bosgandir.

...Ayvon tomondan Poshsha xolaning tovushi keldi.

– To'lqinjonning to'yi yurishib qoldi, ovsinjon! Shunaqa-yu, ko'nglim g'ashroq. Kelling akasi icharkan. Otasiniyam og'zi shaloqroq deyishadi.

– Sinang, o'rgilay, obdon sinang. Qush uyasida ko'rganini qiladi. Keyin kuyib alangasiga isinib o'tirmang, ovsinposhsha!

DEHQONNING BIR KUNI

Muyassar tong saharda uygʻonib ketadi-yu, Alijonning bir tekis, chuqur-chuqur nafas olishiga quloq solib, jimgina yotadi. «Qachon qaytganini bilmabman ham», deb oʻylaydi u satin koʻrpadan boshini chiqarib. Devordagi osma soat besh marta zang uradi. Uning titroq sadolari uyning shiftiga, zaldevorlar, kirpechlar osilgan devorlarga yumshoqqina urilib, singib ketadi. Uy ichi yana jimjit boʻlib qoladi. Soat kapgiri sukunat qoʻynida goh sekin, goh qattiqroq chiqillayotganday boʻladi. Oy derazadan oʻychan moʻralaydi. Muyassar erining yelkasidan quchgisi keladi-yu, oʻylab qoladi: «Charchagan, dam olsin...»

U oʻrnidan ohista sirgʻalib chiqadi. Sandiq ustida yotgan nimchasini kiyib oladi-da, yana erining tepasiga keladi, uzoq qarab qoladi. Alijonning keng, tarang peshanasiga mayda ter tepchib chiqibdi. «Bechoraginam, – deb oʻylaydi Muyassar undan koʻz uzmay, – biram toliqibdiki, doʻppisini ham olib qoʻymabdi».

U erining peshanasini kafti bilan avaylab artadi. Keyin ayvonga chiqadi.

Ayvon labiga tegib turgan gultojixoʻrozlar boshida, hovli etagida uyib qoʻyilgan gʻoʻzapoyalar ustida shabnam yaltiraydi. Yum-yumaloq toʻlin oy qishloqni oʻzining nurli yoʻrgagiga oʻrab, uyquga, shirin tong uyqusiga chorlaydi, unda-munda yulduzlar mudraydi. Ammo, qishloq allaqachon uygʻongan. Har qaysi hovlining burchagida tunning baxmal pardasini parchalab oʻt yaltiraydi: odamlar tandirlariga olov yoqishgan.

Muyassar ham ayvondan chaqqon sakrab tushadi-yu, samovarga oʻt tashlaydi. Keyin oʻchoq boshidan suprani olib kelib, choʻkkalab oʻtirgancha xamir qoradi. Togʻorani dasturxon bilan oʻrab-chirmab, hovli burchagidagi uyilib

yotgan g'o'zapoyalar oldiga boradi. Bir quchoq g'o'zapoyani olayotganida, qo'llarini havoda muallaq tutgancha to'xtab qoladi. Pastak devorning orqasidagi, qo'shni hovlidagi bir tup o'rikning duv to'kila boshlagan yaproqlari tong shamolida ohista pirpiraydi. Muyassarning yaqin o'tmishini, kechagi kunlarini yodiga solganday shivirlaydi. Bir paytlar mana shu o'rik shoxiga arqon ilib arg'imchoq uchardi. Shu o'rikning g'o'rasini birinchi bo'lib o'zi yerdi.

Endi u sho'x qizaloq emas, kelin. Devor-darmiyon qo'shnisiga tushgan. Dadasi ham ularga – Muyassar bilan Alijonga o'z qo'li bilan fotiha bergan. «Alijon yaxshi yigit, o'zimizning sinashta bola. Yetim o'sgan. Bir-biriga ko'ngil qo'yibdi, bo'ldi-da», degan.

Muyassar, to'y kuni dadasi qanchalik uzundan-uzoq duo qilganini eslab jilmayib qo'yadi-yu, g'o'zapoyani olib tez-tez yurib ketadi. Qoq-quruq g'o'zapoya guv yonadi, yuziga olov tafti uradi.

U endi uy tomonga yurganida buzoq mo'raydi. Sigir ham Muyassarning qadam tovushlaridan uyg'onganday asta mo'rab qo'yadi.

Muyassar ayvon labidagi kattakon sirli chelakni ko'tarib xashak isi anqib turgan og'ilxonaga kiradi. Nimqorong'i burchakda yotgan sigir o'rnidan turadi.

«Tagi ho'l bo'libdi, tozalash kerak», deb o'ylaydi u. Keyin sigirning yelinini ho'llangan eski sochiq bilan tozalab artadi-da, cho'qqayib o'tirgancha sog'a boshlaydi. Iliq sut tomchilari chelakka shovullab tushib, ko'pirib ketadi, bilaklariga sachraydi.

Chelak to'lganidan keyin qoziq atrofida aylanib onasiga talpinayotgan buzoqchanning arqonini yechib yuboradi. Buzoq shodon dikanglab, sigir tagiga kirib ketadi.

Muyassar bolalikdan odat bo'lib qolgan chaqqonlik bilan non yasaydi. Bir savat qilib tandir oldiga ko'tarib boradi,

bitta-bittadan yopa boshlaydi. Oxirgi nonni yopadi-yu, yengil nafas oladi.

– Muyas!

U erining ovozi eshitib, chaqqon burilib qaraydi. Beqasam to'nini yelkasiga tashlab olgan Alijon ayvon labida unga qarab turibdi.

– Keling! – deydi Muyassar obdastaga suv quya turib.

Alijon ayvondan ildam tushib, gulzor labiga keladi. Muyassarga tikilib jilmayadi.

– Punktda navbat kutish yomon-da, Muyas... Har kecha yuztalab mashina, telejka qatorlashib ketadi. Qo'yib bersa tong otguncha turaverasan, kishi, – deydi sekingina. Muyassar uning kecha uyga barvaqt qaytolmagani uchun uzr so'rayotganini tushunadi.

Erining baquvvat yelkasidan ushlab jilmayadi...

– Engashing.

Alijon ham uning arazlamaganini payqaydi-yu, boshini quyi soladi.

– Mana, boshim sizniki, – deydi kulib.

Muyassar suv quya boshlaydi. Alijon muzday suvdan seskanib, pishqira-pishqira yuvinadi.

– Yuvinayotganingizda har doim otga o'xshab pishqirasiz-a... Qarang, ko'ylagimni jiqqa suv qilib yubordingiz, – deydi Muyassar ho'l bo'lgan etaklarini ko'rsatib.

Alijon bosh ko'tarib astoydil yalinadi:

– Hech bo'lmasa toychoq deng, Muyas.

Muyassar uning yosh bolalarday boshini bir yonga tashlab turishiga qarab, kulib yuboradi.

Shu ondayoq tandirdagi non esiga tushadi-yu, yuguradi. Qo'llari kuya-kuya bir savat non uzib oladi.

Tong yorishadi, tun qushi qop-qora qanotlarini yig'ib, qishloq ustidan olislarga uchib ketadi-da, chor-atrof odatdagi qiy-chuvga to'lib-toshadi.

Ikkovlari shosha-pisha shirchoy ichishadi. Alijon tushlik ovqatini belbog'iga tugadi-da, mashinasining yoniga ketadi. Darvozaxona tomondan motorning guldiragan ovozi eshutiladi. Kabina eshiklari qarsillab yopiladi.

Muyassar uyni naridan-beri yig'ishtiradi-da, ikki chetida qator-qator teraklar shovillab turgan toshloq yo'ldan dala tomon yurib ketadi. Uzoqda, tog' ortidan quyosh bosh ko'taradi. Qishloq suv quyganday jimib qoladi. Paxtazor katta-kichik hammani, hatto maktab bolalarigacha o'z komiga tortgan.

Muyassar etakni beliga bog'lab olgancha paykalga sho'ng'iydi. Paxtalar yonog'iga ilingan qirov sekin-sekin shudringga aylanadi. U esini tanigandan beri o'rganib ketgan ishini tag'in qaytadan boshlaydi. Zum o'tmay etak to'lib-toshadi. Bora-bora beli zirqirab og'riy boshlaydi. Zax, yumshoq egat ichiga etakni ag'daradi-yu, yana qayta bog'laydi. Ko'z o'ngidan o'nlab, yuzlab, minglab chanoqlar birma-bir o'tadi. Goho shunday boshi aylanib ketadiki, ko'zini yumsa, tasavvurida oppoq chanoqlardan boshqa hech narsa ko'rinmay qoladi. Ammo u to'xtamaydi. Engashib oldinga intilaveradi.

Peshinga yaqin kun qizdira boshlaydi. Muyassar nimchasini yechib tashlab, tag'in g'o'zalar orasiga sho'ng'iydi.

Shu payt muloyim kuz quyoshida erigan yumshoqqina havoni titratib, hisobchi Shoqosim akaning tanish ovozi yangraydi.

– Hoy, ho-oy qizlar-ov, ovqatga-e-e!

Uning tovushi paxtazor ustida anchagacha elas-elas sado berib turadi.

Muyassar tergan paxtalarini uyib, etakka bosadi, yukning og'irligidanmi, o'yga tolibmi, boshini quyi solgancha, xirmonga chiqib boradi.

Shoqosim aka etakni temir taroziga qo'yib, toshni surarkan, salqi qovoqlarini lipillatib Muyassarga qarab qo'yadi. Burushiq yuzi oqarib ketganday bo'ladi:

– Qirq sakkiz kilo... Mazangiz yo'q-ku, kelin!

Muyassar uning nimaga shama qilayotganini bilib, g'ijinadi. «O'yin-kulgidan bo'shamay qolding» demoqchida.

U bir gap bilan qayirib tashlagisi keladi-yu, yoshini hurmat qilib, o'zini tiyadi. «Mayli, – deb o'ylaydi paxtani xirmonga ag'dara turib. – Bu odamning odati shu. Yuz yil asal bilan boqsangiz ham og'zidan shirin gap chiqmaydi».

Qizlar kattakon qayrag'och soyasida, hovuz labida o'tirib tushlik qilishadi. Qayrag'och shoxlarida yuz-yuzlab chumchuqlar chirqillaydi. Qayoqdandir shamol kelib, hovuz yuzidagi mayda-mayda jilolar yelkasiga minib oladi.

Orqa tomondan mashina tovushi eshitiladi.

– Rais buva kelayaptilar! – deydi qaysidir qiz qo'ng'iroqday ovoz bilan.

Baland bo'yli, qotma, tetik rais ochiq chehra bilan hayqiradi:

– Hormanglar, qizlar!

Qizlar quvnoq salomlashishadi.

– Barakalla qizlar!!! Yashanglar! Plan to'lgan kuni hammagizni Toshkentga – tomoshaga olib boraman.

– Naq Toshkentning o'zigami? – deydi orqaroqda o'tirgan qizlardan biri ishonqiramay.

– Naq Toshkentning o'ziga!

– Kinoga ham tushamizmi?

Rais beg'araz qah-qah uradi:

– Teatrgayam tushamiz!

Rais yaxshi odam. Chindan ham har yili qizlarni bir-ikki marta shaharga – teatrga olib boradi.

– Qani, – deydi u hammaga bir-bir qarab. – Kim eng yaxshi ishlasa, o'shani kelin qilaman. Xohlasa, mexanizatorlar kursiga jo'nataman.

Hovuzda kosasini yuvayotgan qop-qora qiz – E'tibor yelkasi osha o'g'irilib qarab, bijir-bijir qilib gapirib tashlaydi:

– O'zi bitta o'g'lingiz bor, qaysi birimizni kelin qilasiz? Uyam bo'lsa shaharda o'qiydi. Kim bilsin, hali bola-chaqasini boshlab keladimi.

Hamma qah-qah urib kuladi, rais ham.

...Yana o'sha paykallar, chanoqlar, paxtalar... Muyassar yana ishga sho'ng'ib ketadi... Qo'llari yana chanoqlar ustida o'ynaydi. Oqshom shafag'i yuziga kul tortganida paykaldan chiqishadi. Muyassar uyga qaytishdan oldin kanal bo'yiga keladi: sigirga o't yulish kerak. Muyassarning yonginasida chigirtka na'masini boshlaydi. Oromli sukunatni chuqurlashtirib, uzoq, tinimsiz chirillaydi. Suv yuzida baliq sakraydi. Cho'lp etgan ovoz eshitiladi-yu, yana sukunat quyilib keladi. Allaqayoqdan uchib kelgan baliqchi qush suvga sho'ng'iydi. Shu ondayoq qiyqirib havoga ko'tariladi. Muyassar qirg'oqda o'sib yotgan maysalarni shart-shurt yulishga tushadi. Allanechuk qadrdon, mast qiluvchi ko'katlar isidan boshi aylanib ketadi. Suv yuzi qop-qorayib qoladi. Eng avval uyg'ongan shoshqaloq bir yulduzcha kanal suviga sho'ng'iydi. Goh jilolarda ko'milib ketadi, goh yana qaytib chiqadi.

Orqa tomondan mototsiklning gurillagan tovushi eshitiladi. Mototsikl sukunatni tilka-pora qilib yaqinlashadi-yu, uning yonida taqqa to'xtaydi.

– Yana so'ramasdan o't yulyapsanmi?

Muyassar qayrilib qaramasdanoq taniydi. O'sha – Shoqosim aka. U sekin boshini ko'tarib qaraydi. Hisobchi mototsiklining egaridan tushgisi kelmay, bir oyoqlab yerga tiralib turgan bo'ladi. Muyassar uning yuzini g'ira-shira qorong'ida aniq ko'rmasa ham, qovoqlari pir-pir uchib turganini payqaydi.

Bu odam shunaqa o'zi: otdan tushsa ham, egardan tushgisi kelmaydi. Bir vaqtlar rais bo'lgan edi. Unda Muyassar

qizaloq edi. Bir kuni sigiri paxtazorga tushib ketgani uchun Qoravoy taqachining to'qqiz yashar o'g'lini o'lar holatda do'pposlagan.

Shoqosim aka haliyam o'sha kunlarini qo'msaydi. Menga odamlarning dimog'-firog'i emas, paxta kerak, deydi. Muyassar bu safar ham olishib o'tirmay, qishloqqa qaytadi. U endi o'choqqa olov yoqqanida eshikdan ola sigir mo'rab kirib keladi. Muyassar gullarni payhon qilib tashlamasin deb, darrov arqonlaydi. Kattakon sirli chelak yana iliq, serko'pik sutga to'ladi. Muyassar buzoqchani yechib yuboradi.

Taom pishgandan keyingina Muyassar qattiq toliqqanini sezadi. Uch-to'rt jazni og'ziga soladi-yu, tovoqni berkitib qo'yadi. «Hali Alijon akam kelsa, birgalashib ovqatlanamiz».

Lekin Alijon hali-beri qaytmasligini o'zi ham biladi. Terim kunlari haydovchilar kecha-kunduzning farqiga bormay qolishadi.

Guzar tomondan baland musiqa yangraydi. «Klubda kino bo'lyapti, – deb o'ylaydi Muyassar jimgina quloq solib. – Qanaqa kino ekan?»

U uyiga kirib, chiroq yoqadi. Burchakdagi toshoynaga o'zini soladi. Qoraqosh, qorako'z, mo'jazgina qiz unga qarab jilmayib turadi. Birdan uning sho'xligi tutib ketadi-yu, o'zining aksini o'zi masxara qila boshlaydi. Tilining uchini chiqarib, boshini likillatib qo'yadi. Keyin mayin jilmayib, oyna tokchasidagi upani oladi. Upaga botirilgan paxtani yuziga yaqinlashtirishi bilan to'xtab qoladi.

«Yana qo'lim yorilibdi». G'o'zapoya tirnab tashlagan qo'llariga qaraydi. Tag'in jilmayib qo'yadi. Mana shu nozik, chayir barmoqlari, tiqmachoqday qo'llari bilan allaqachon o'ziga haykal bitgulik ishlar qilib qo'ygani, bugun ham o'sha haykalga yana jilo bergani uning xayoliga ham kelmaydi.

Keyin, uxlab qolishdan cho'chib, yechinmasdan o'rniga cho'ziladi-yu, kuta boshlaydi. Ana, ko'chadan mashina ovozi keldi. Muyassar ildam qaddini rostlab o'tirib oladi. Motor

tovushi kuchaya-kuchaya yaqinlashadi-da, yana sekin-sekin uzoqlashib ketadi. «Yo'q, Alijon akam emas. Idora tomonga o'tib ketdi-ku».

U shiftga tikilib uzoq yotadi. Lekin endi motor ovozi kelmaydi. Itlar akillamaydi. Bedana ham sayramaydi. Qishloqni uyquning sukunat to'liqlari o'z bag'riga oladi.

Faqat qayerdadir – uzoqda alla eshitiladi. Qaysidir ona o'z kichkintoyining boshida qo'shiq aytyapti.

Muyassar shirin jilmayib qo'yadi. Mana, bir yildan keyinmi, ikki yildan keyinmi o'zi ham ona bo'ladi. O'shanda o'zi ham shunaqa sokin kechalarga jon kiritib, alla aytadi. Bir vaqtlar ayasi kenja ukasiga alla aytayotganida quloq solib o'rganib olgan.

Bora-bora uyqu uning ham kipriklarini aldab-aldab qovushtirib ketadi. Muyassar toliqqan oyoq-qo'llarini yozgancha, dong qotib uxlab qoladi.

U tush ko'radi. Tushida jajjigina qizaloq emish. O'rikning shoxiga arqon tashlab arg'imchoq uchayotganmish. O'rik qiyg'os gullaganmish. Arg'imchoq har silkinganida uning boshiga bir dunyo gul sochilarmish. Arg'imchoq borgan sayin qattiqroq lopillarmish. U borgan sayin balandga, osmon-falakka chiqib tusharmish. Yer ham, osmon ham, arg'imchoqning arqoni ham – hammayoq gul emish. Oqish, pushti gul emish. U xandon urib kularmish. Ko'zlaridan yosh chiqib ketarmish...

U tush ko'radi. Ammo Oy fonusining piligini pasaytira boshlaydi. Kunchiqar tomonda osmon sutday oqish rangga kiradi. Yangi kun boshlanadi.

O'ZBEK ISHI

O'ta muhim ishlar bo'yicha tergovchi Koryagin mashinaning orqa o'rindig'ida o'tirar, toliqqan edi. Eski

«Jiguli» ikki betida baqateraklar tizilgan, onda-sonda paxta laxtaklari to'kilib qolgan yo'ldan borar, mashina eshigi asabni qaqshatib, muttasil g'iyqillardi.

Jumanov degani, mana, to'rt oydirki, aybini bo'yniga olmaydi. Uyoqda grupp boshlig'i Ambarsumyan siquvga olib yotibdi: «Biz sizni yosh, g'ayratli mutaxassis sifatida bu ishga jalb qilgandik. Boshqalar obkom sekretarlarini yong'oqdek chaqib tashladi. Siz bo'lsangiz allaqanday sovxoz direktorini eplay olmaysiz».

Ming la'nat hammasiga! Paxtasigayam, Jumanovgayam! Avval ham «shug'ullanishgan» u bilan. Bir emas, ikkita tergovchi... Umuman, o'rgimchak uyasiga o'xshaydi bular. Hammasi chatishib ketgan.

Shu topda mashina haydab borayotgan Berdiyev ham ko'ziga shubhali ko'rindi. Viloyat prokuraturasi xodimi. Peshka! Qarang, shuniyam tagida mashina. «Nol – olti». O'zida-chi? Kichik adliya maslahatchisida! Mototsikl ham yo'q... Muncha g'iyqillaydi bu eshik?!

– Mashinangizni moylasangiz bo'lmaydimi, Berdiyev? Berdiyev ortiga qarab jilmaydi:

– Kechirasiz, Vasiliy Stepanovich! – dedi chap qo'li bilan rul ushlaganicha, o'ng qo'lini ko'ksiga bosib. – Mashina meniki emas...

«Qo'lini ko'ksiga qo'yishga balo bormi? Qullik psixologiyasi!»

– Nima, otangiznikimi?

– Yo'q, Vasiliy Stepanovich! Qo'shnimizniki. Bir kunga so'rab oldim.

Koryagin jilmaydi.

– Tushunarli... Bundan chiqdi, qo'shningiz Qahramon...

– Qahramon! – Berdiyev favqulodda yangilikni xabar qilayotgandek, samimiy shang'illadi. – Qahramon Ona! O'n ikkita bolasi bor.

«Xo'p qahramonlik qiptimi? Kalamushga o'xshab bolalash jasorat bo'lsa... Aslida, mana qayerda yotibdi o'g'irlikning ildizi! Churvaqalar tug'ilaversa, yeyman-ichaman deb og'zini ochib turaversa...»

– Aytib qo'ying, Berdiyev. Kampir mashinasining eshigini moylab yursin...

Berdiyev kuldi.

– Kampirning pravasi yo'q, Vasiliy Stepanovich. Mashina haydolmaydi.

– Bundan chiqdi, sizning ismingizga xatlatgan... «Qahramon»ga qanday qarindoshchiligingiz bor?

«Qitmir» savol, – Koryagin o'zining soddaligidan miyig'ida kuldi. – Bordi-yu, Berdiyev mashinasini «Qahramon ona» nomi bilan xaspo'shlagan taqdirda ham og'zidan gullarmidi? Harqalay yurist...»

– Aytdim-ku, qo'shnisi bo'laman! – Berdiyev orqaga o'girilib tag'in shang'illadi. – Mashinani kampirning to'rtinchi o'g'li haydaydi. Pedagog. Krupskaya mukofoti laureati. Maktabda rus tilidan dars deradi.

«Laureat emish! Rus tilidan dars berarmish! Qani o'sha laureatning shogirdlari? So'roq paytida ko'zini lo'q qilib turadi. Rus tilini bilmasmish. Aslida-ku, sovet hokimiyatida oltmish to'qqiz yil yashab rus tilini o'rganmaslik... Biladi! Baloni biladi! O'zini go'llikka soladi. Keyin majbur bo'lasan Berdiyevga o'xshagan mahalliy huquqshunoslarni yordamga chaqirishga...»

– Laureatingizning mashinasi tezroq yura oladimi, yo aravadan farqi yo'qmi?

– Mayli-ku, yo'l tor, Vasiliy Stepanovich! Telejka chiqib qolishi mumkin...

– Tor bo'lsa, ko'zingizga qarang! Meni birinchi marta ko'rayotganingiz yo'q!

Motor kuchanib o'kirdi. Mashina shiddat bilan yelib ketdi. Yo'l chetidagi baqateraklar g'oyib bo'ldi. Na daraxt bor, na imorat. Hammayoq paxtazor. Ufqqa, ko'z ilg'aguncha... to'q yashil, qo'ng'irtob dalalar. Dilni g'ash qiluvchi manzara...

Koryagin bo'g'riqib, mashina oynasini tushirgan edi, yuziga chang urildi. Battar xunob bo'ldi. «Qanaqa xudo qarg'agan joy bu! Sentabr o'rtalab qoldi-ku, haliyam issiqqa chidab bo'lmaydi...»

Oradan hech fursat o'tmay, dimog'iga allaqanday bo'g'uvchi hid urildi. Xizmatchilik! Yurist aralashmaydigan soha yo'q. Keyingi yillarda ekologiyaga oid ishlarni ko'rishga ham to'g'ri kelgan – Dnepropetrovsk, Zaporozhye... Ammo bunaqangi badbo'y hiddan bahramand bo'lish «nasib etmagan» edi... Atrofga alangladi. Nima balo, shu gadoytopmas joyda ham ximzavodmi? Yo'q, ko'z ilg'aguncha ufqda na biron zavod binosi na tutun burqsitgan quvur ko'rinadi.

– Nima bu, Berdiyev? – dedi oynani shosha-pisha ko'tarib.

– Defoliant... – Berdiyev yo'ldan ko'z uzmay borarkan, tushuntirdi. – Butifos sepmasa, g'o'zaning bargi to'kilmaydi.

Koryagin horg'inlik bilan ko'zlarini yumdi. Daf'atan sog'inch bir tuyg'uni his etdi. Moskva atrofi... Sokin kuz... Tiniq osmon... Kristaldek beg'ubor havo... Hozir eng yaxshi fasl. Pushkin aytganidek, «ma'yus va go'zal...» «Babye leto» degan gap bor. Har yili sentabrda er-xotin ta'til olib, Podmoskavyega – qaynanasinikiga borishardi. O'rmon. Oltindek sarg'aygan emanlar... Shamol epkinida zirillab turgan oq qayinlar... yam-yashil archazor... Kuzgi qo'ziqorinlar...

Qaynanasi – Nadejda Vasilyevna ularni jon-dili bilan kutib oladi. Moskvadagi oliy toifali restoran oshpazi ham borsh bilan chuchvara pishirishda Nadejda Vasilyevnaning

oldidan o'taversin! Hayron qolasan: «Go'zallik saloni»ning bosh kosmetologi qayoqda-yu, qozon-tovoq qayoqda! Olgani aytmailsizmi, xotinini! Erta-indin doktorlik dissertatsiyasini yoqlay deb turgan olima! Kibernetikaning mana-man degan «xudo»lari tan beradi unga. O'sha akademiklar Olenkaning qo'ziqorin tuzlashini bir ko'rsami! Sentabr – er-xotin orziqib kutadigan oy... Afsus, bu yil ta'til ham harom bo'ldi...

To'g'ri, aynan shu oyda ta'tilga chiqishining bitta noqulayligi bor. Natashenkaning o'qishi boshlanadi. (Bu yil yettinchi sinfda o'qiyapti.) Ustiga-ustak musiqa maktabi – violanchelo... Lekin Olga (dono xotin – yarim davlat) buniyam yo'lini topgan. «Tashvish qilma, Vasenka, Natasha yosh bola emas». To'g'ri aytadi: pod'yездdagi qo'shni kampirga haqini to'lasalar bas – qizaloq kechqurun issiqsiz qolmaydi. Ertalab muzlatkichni ochsa, hamma yemak muhayyo. Pishloq, kolbasa, sariyog', tuxum... Tushlikni maktabda qiladi... Keyin musiqa maktabi. Qahva bor, buterbrod...

...Shanba kuni kechqurun sakkizdan uch minut o'tganda er-xotin Natashenkani stansiyada kutib olishadi. Moskvadan qaynanasinikigacha elektrichkada qirq ikki minutlik yo'l.

«Papochka!» – deydi qizaloq vagon zinasidan sakrab tushib. O'pishadilar. Keyin babushkalarinikiga yo'l oladilar. (Ajab! Qizaloq onasidan ko'ra uni ko'proq yaxshi ko'radi.)

Ertasiga ota-bola qo'ziqorin terishadi. Oyog'iga krassovka, egniga gamash, oppoq vodolazka kiygan, ko'kragi bo'rtib qolgan Natashenka qo'ziqorinlar g'uj bo'lib o'sgan joyni ko'rsa, yosh boladek irg'ishlaydi: «Papochka, qarasang-chi, papochka, ko'rmayapsanmi?» Savatchasini salanglatib o'sha tomon yuguradi... Kechqurun buvisi Natashenkaning topqirligini maqtaydi...

Koryagin o'sha dilxush damlarni ravshan tasavvur qildi-yu, yuragi orziqib ketdi.

...Tormoz nolali g'iyqillab, Koryaginning o'zi ham, xayollari ham to'zon ichida qoldi. Peshanasi oldingi o'rindiq suyanchig'iga urilib, bir zum garansib turdi-da, mashina yo'l chetiga chiqib, ko'ndalang to'xtab qolganini payqadi. Traktorning tarillashi qulog'iga kirdi. Alang-jalang qarab, bir emas, to'rtta pritsep ulangan traktor tarillab, imillab, katta yo'lni kesib o'tayotganini ko'rdi.

– O'lgani ketyapmizmi, Berdiyev?! – dedi qo'l do'lg'ab.
– Sekinroq yursangiz bo'lmaydimi?

Berdiyev unga qaramadi. Chap eshikni ochib, ovozi boricha bir nimalar deb baqirdi. Traktorch i uzr so'ragan bo'lib, qo'lini ko'ksiga qo'ydi-da, pritseplarni shaqillatgan ko'yi katta ko'chaga burilib ketaverdi. «Savodsiz! Ahmoq!»

Koryagin motorni o't oldirishga behuda urinayotgan Berdiyevga jahl bilan qarab, eshik oynasini tushirdi. Yuziga chang urilib tupurdi.

Motor hamon dumi bosilgan mushukdek vig'illar, ammo hadeganda o't olmas edi. Chang tarqalib, ko'z o'ngida g'alati manzara paydo bo'ldi. Biydek dala, paxtazor. Yuz qadamcha narida, marza boshida pritsep turibdi (hozir yo'lni kesib o'tgan pritsepga o'xshaydi). Boshiga oq mato o'ragan ayollar, do'ppi kiygan erkaklar ikki bukilgan ko'yi paxta to'la etak orqalab, pritsep tomonga turnaqator kelyapti. Xuddi o'zidan katta bug'doy boshog'ini ortmoqlagan chumolidek. Bir xillari hamon egat oralab ivirsib yuribdi. Bo'yniga etak osgan. Chotini kerib, g'ayritabiiy gandiraklagan ko'yi qadam tashlaydi. Har bir g'o'za boshiga egilib, ikki qo'llab paxta teradi, shosha-pisha etakka tiqadi. Etak soniya sayin shishib boradi.

...Televizorda paxta terimini ko'rgan edi. «Vremya»da. Qoracha yuzi tabassumdan portlab turgan mexanizator qiz... Bunkerga qordek yog'ilayotgan lo'ppi paxtalar...

U yana xiyla tikilib turdi-yu, bir narsani angladi: bular ro'mol tang'igan xotinlar emas, yosh qizaloqlar, do'ppi kiyganlar alp qomatli erkaklar emas, yosh bolalar... «Shoshma, bunaqa manzarani yana qayerda ko'ruvdim?»

Berdiyev g'udranib kapotni ochdi. Motorni titkilay boshladi.

Esladi! Bir vaqtlar «Boshsiz chavandoz» filmini ko'rgandi. O'sha kinoda xabash qullar paxtani savatga terayotgani tasvirlangan edi... «Bu yerda etakka terishaypti..»

Berdiyev bir balo qildi, motor o't oldi.

– Bir minut! – dedi Koryagin hamon paxta terayotganlardan ko'z uzmay. – Kim bular?

– Terimchilar... – Berdiyev qo'lini isqirt dokaga artib, kapotni qarsillatib yopdi.

– Mashina-chi? – dedi Koryagin astoydil ajablanib. – Nega mashinada termaydi?

– Paxta yalpi ochilmaguncha mashina dalaga tushmaydi, – Berdiyev joyiga o'tirdi. – Bundan tashqari, qo'l terimi toza bo'ladi.

«Jiguli» sekin o'nglanib, yurib ketdi. Koryagin ortiga qarab, o'zidan katta etakni ortmoqlab ketayotgan qizaloqlarga yana ko'zi tushdi. Rahmi keldi.

– Nega bolalar ishlayapti? Kattalar qayoqda?

Berdiyev darhol javob bermadi.

– Ularning ham o'z yumushi bor... – dedi mujmal qilib.

«Tushunarli...» Bolasini paxtaga haydaydi, o'zi chayqovchilik qiladi. Novosibirskka tarvuz oborib sotadi... Aslida ku yoshlarni qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilish hamma yerda bor. Moskvada ham kartoshka tergani olib chiqishadi. Yuqori sinflarni. To'qqizinchiga ko'chsa, Natashenkani ham chiqaradilar. Balki, musiqa maktabidan spravka berishar – barmoqlarini avaylashi kerak... O'ziyam talabaligida kartoshka tergan... Yomg'ir yog'ib turganida... Loy

changallab... Bir safar hatto to'rt yuz kiloga olib chiqqan. Paxta nima...»

– Qanchadan haq oladi?

Berdiyev yaxshi anglamadi shekilli, so'radi:

– Kim?

– Bolalar. Tergan paxtasiga?

– Kilosi – besh tiyin.

«Yomonmas. Bir kunda besh yuz kilo tersa, naqd yigirma besh so'm! Bir oiladan beshta bola paxtaga chiqsa...»

* * *

«Jiguli» hamon g'izillab borardi. Berdiyev bu yoqlarni yaxshi biladi: «Mahalliy kadr» «XXV parts'yezd» sovxozining sobiq direktori Panji Jumanov bilan hamqishloq...

Mashina sovxoz markaziga yetib keldi chog'i, xiyla obod manzara ko'rindi. Ko'chaning bir tomoni – gulzor. Urush qurbonlariga o'rnatilgan didsizgina haykal. Bir yoqda ikki qavatli bino. Sovхоз idorasi bo'lsa kerak, marmar «shuba» bilan suvalgan. Undan narida tepasiga «Chayka» deb yozilgan yozgi kinoteatr. Ko'cha chetida zamonaviy beton simyog'ochlar. Suvi qurigan sement ariq. Aksariyatining devori oqlanmagan uylar. Ba'zilarining tomi shifer bilan yopilgan. Tepasida televizor antennasi. Ba'zilar suvoqli tom. Ustiga g'o'zapoya bostirib qo'yishibdi. (Shuning uchunmi, uylar yanayam pastqam ko'rinadi.) Dehqon xalqi tadbirli bo'ladi. Bu yoqlarda g'o'zapoyani o'tin sifatida ishlatishlari Koryaginning qulog'iga chalingan edi. Holbuki, tuman markazidan katta gaz quviri o'tgan. Nari borsa, o'n besh chaqirim... Nachora, gazdan ko'ra g'o'zapoyani afzal ko'rsa – o'zining ishi.

«Jiguli» bo'yog'i uniqqan darvoza oldida to'xtadi.

– Keldik! – Berdiyev mashinadan tushib, darvozaga bordi. – Marhamat! – dedi xuddi o'z uyiga taklif qilayotgandek. Darvozani taqillatib o'tirmadi. Kafti bilan itargan edi, bir tavaqasi g'iyqillab ochildi. – Kiravering, Vasiliy Stepanovich.

Koryagin darvozadan kiriboq to'xtab qoldi. Eh-he, hovlimas, butun boshli ogorod-ku bu! Bemalol ko'pqavatli imorat qursa bo'ladi! Har kim shunchadan yerni egallab olaversa... Razm solib, bir narsani angladi. Hovli katta bo'lgani bilan bir qarich ham bo'sh joyi yo'q edi. Bir tomonda pamidor, kartoshka, bodring pushtalari. Bir tomon jo'xorizor. So'talari yig'ib olingan, ammo sarg'aygan poyalari so'ppayib turibdi. Nariyog' olmazor... O'rik, olcha daraxtlari...

Koryagin beixtiyor Berdiyevga ergashib chap tomondagi bostirma oldiga bordi. Bostirmada chang o'tiraverib, rangini aniqlab bo'lmaydigan ahvolga kelgan «Moskvich» mashinasi turibdi. («To'g'ri, protokolda qayd etilgan».) Mashina yonboshida bitta zanglagan kanistr, ikkita pachoq flyaga dumalab yotibdi. Unga tutash yana bir bostirma. Qoziqqa bog'langan ola sigir erinchoqlik bilan jo'xoripoya kavshaydi, ustiga qo'ngan xira pashshalarni dumi bilan haydaydi. Bir chekkada yonboshiga tezak yopishgan buzoq yotibdi. Koryagin bostirmaning pastqam burchagida bog'loqli turgan eshakni daf'atan ko'rmagan ekan. Eshak uzun quloqlarini dikkaytirib shu tomonga horg'in qarab turdi-da, bir ikki g'irqilladi. Keyin, nola qilgandek hangrab yubordi. Koryagin hovlini yana bir karra ko'zdan kechirib chiqishga ulgurdi. Burchakda tandir. Yonida oshxona: qiya eshigidan tutun chiqyapti. Etak tomonda ikki uy, oldida ayvon. Ro'paradagi tokning yog'och so'rilarini tom ustiga chiqarib yuborilgan. «Hamma gap – mana shu pastqam uylarda! O'zini bechorahol ko'rsatadi-yu, polini ko'chirsangiz, tagidan bir xum oltin chiqadi!» Darvoqe, yonbosh tarafda yana bir uy qurila boshlagan. Xom g'ishtdan devor ko'tarilgan-u,

tomi yopilmay, chala qolgan. Ko'nglida hayrat aralash nadomatga o'xshash tuyg'u uyg'ondi. Allaqaysi gazetada o'qigan maqola esiga tushdi. Qiziq odamlar! Bir qarasang, turish-turmushi bu – g'irt qashshoq! Na odamlardek sharoit qiladi, na kurortga boradi. Nuqul pul yig'adi. Jinoyat kursisiga o'tirishdan ham qo'rqmaydi. O'n yil, o'n besh yil to'playdi-da, bir kechada osmonga sovirib to'y qiladi. Keyin yana yig'adi. Bittasi – mana shu Jumanovmi! O'qimishli, oliy ma'lumotli... «Madaniyat»lisining ahvoli shu bo'lsa, boshqalardan o'pkalanmasa ham bo'ladi... Millioner – gadolar!

Nihoyat eshak entika-entika jimib qoldi. Berdiyev turgan joyida uy egalarini chaqirdi. Oshxonaning qiya ochiq eshigida boshiga eski ro'mol tang'igan qop-qora, ozg'in kampir ko'rindi. Ro'mol tagidan oqargan sochlari to'zg'ib chiqqan, guldor ko'ylagining yengini shimarib olgan, qopdek keng ko'ylak beo'xshov halpirab turardi.

«Latta o'ralgan shvabraga o'xshaydi, – deb o'yladi Koryagin. Ajab, ko'nglida armon emas, qiziqish uyg'ondi. «Bunaqa hayotga qanaqa chidaydi sho'rliklar... Ko'nikib ketgan-da! «Odamzodning eng katta baxti – ko'nika bilish. Odamzodning eng katta fojiasi – ko'nika bilish... Kim aytgan edi?» Eslay olmadi.

Kampir shoshib qoldi. Bilaklariga begona erkak nazari tushib «gunohga botayotgandek», hovliqib yengini tushirdi. Ro'molini qayta o'rab, salom berdi. Berdiyev bilan uzoq omonlashdi. Koryaginga ham alohida ta'zim qildi. Bir nimalarni gapirib, ayvon tomon yo'l boshladi. Berdiyev uning ketidan ergasharkan, Koryaginni ham taklif etdi:

– Kelavering, Vasiliy Stepanovich.

Kampir shosha-pisha uyga kirib ketdi.

Koryagin chor-nochor ayvon peshiga keldi.

– Berdiyev, – dedi imkoni boricha osoyishta gapirishga urinib. – Jumanovning onasiga ayting. Biz zaril ish bilan kelganmiz...

– Onasi emas, xotini... – Berdiyev xijolatli iljaydi.

«Xotini?! Nahot shu ayol...»

O'sha ondayoq «kampir» ichkaridan yangi ko'rpachalar olib chiqdi. Xontaxta atrofiga poyondoz to'shab, oppoq, ozoda dasturxon yozdi. Bir zumda to'rtta kattakon patir, patnisda oltindek tovlanib turgan uzum olib keldi. Berdiyevga qarab bir nima dedi.

– Dasturxonga taklif qilayapti, – dedi Berdiyev ayoldan ko'zini uzmay.

– Vaqtimiz ziq! – Koryagin goh Berdiyevga, goh «kampir»ga qarab bosh chayqadi. Shunda «kampir» unchalik ham qari emasligini, harakatlari chaqqon va shiddatli ekanini his etdi.

– Noqulay bo'ladi, Vasiliy Stepanovich! – Berdiyev tuflisini yechib ayvonga chiqdi. – Odat shunaqa.

Koryagin istar-istamas xontaxta yoniga cho'kkalarkan, ko'nglida noxushlik sezdi.

«Boshlandi! – dedi injib. – O'rgildim odatlaringdan!» – yuzini o'girib, bir nuqtaga tikilib o'tiraverdi. Bir mahal Berdiyev emin-erkin shovqinlab gapirayotganini eshitib, boshini ko'tardi. Ayvon oldida bo'y-basti babbaravar ikkita bola turar, Berdiyev kulimsirab, bularga bir nimalarni tushuntirar (ehtimol, nimanidir so'rar) edi. Bolalar negadir iljayib, javob qiladi. Papkasini muttasil salanglatadi. Birining bo'ynida galstuk, ikkinchisi galstugini yechib shimining cho'ntagiga suqqan, kissasidan bir uchi chiqib osilib turibdi. «Jumanovning egizaklari. Beshinchi sinfda o'qiydi. (Buyam protokolda bor.)»

Berdiyev nimadir degan edi bolalar chug'ur-chug'ur qilib uyga kirib ketdi. Ayol paxta gulli choynak, to'rtta

piyola (qiziq, nega to'rtta?) keltirib xontaxtaga qo'ydi. Koryagin beixtiyor tag'in zehn soldi. Yo'q, har qalay xotini Jumanovdan qari ko'rinadi. Ancha qari! Peshanasini ajin bosgan, ko'zlari horg'in... Ayniqsa bo'yni: toshbaqaning kosasiga o'xshaydi. Qaynanasining gapi lop etib esiga tushdi. «Xotin kishi bo'ynidan qariydi. Xotinni g'am qaritmaydi, er qaritadi». Naqadar dono ayol Nadejda Vasilyevna! Uyatsiz Jumanov! O'zi pulni pul bilan o'ynagan, suyuq ayollar bilan ishrat qilgan. Sho'rlik xotini buyoqda... Feodal!

Ayvon zinasida tapir-tupur eshitildi. Maktab formasini yechib, oyog'iga etik kiyib olgan egizaklar bir nima deb g'ujur-g'ujur qila boshladi. Ayol oshxonaga yo'l oldi. Dasturxonda yotgan nonga aynan o'xshash bitta patirni teng ikkiga bo'lib, yarmisini unisiga, yarmini bunisiga berdi. Zipillab kelib ayvon peshida osilib yotgan ikkita etakni bolalariga tutqazdi. Egizaklardan biri etakni qo'ltig'iga qistirib, non kavshagancha darvoza tomon ketdi. Ikkinchisi to'satdan etakni yerga uloqtirdi. Turgan joyida tepinib, bir balolar deb chinqirdi. Ko'zlarida g'alati o't yonib ketganday bo'ldi.

– Paxta tergisi kelmayapti, – dedi Berdiyev kulimsirab. Nimanidir tushuntirmoqchi bo'lgan edi, bola unga yovqarash qilib hurpaydi.

«Otasiga tortgan qaysar ekan, – deb o'yladi Koryagin undan ko'z uzmay. – Genetika!»

Xotin yerda yotgan etakni silkitib, changini qoqdi. Tag'in bolaga tutqazdi. Allanima deb yupatdi chog'i, bola istar-istamas eshik tomon yurdi. Ayol tag'in oshxonaga kirib ketdi. Noxush sukunat cho'kdi. Allaqayerda musicha kukuladi. Bostirma tomonda sigirning pishqirgani eshitildi.

– Marhamat, Vasiliy Stepanovich! – Berdiyev yarim piyola choy uzatdi. Koryagin chanqagan edi. Choy ho'pladi. – Uzumdan oling, – dedi Berdiyev qistab.

– Berdiyev! – Koryagin astoydil ranjib chimirildi. – Biz mehmondorchilikka kelgan emasmiz. Chaqiring anavi xotinni. Palovi kerakmas!

Berdiyev unga allanechuk xotirjamlik bilan bir lahza tikilib turdi-da, qo'lidagi piyolani dasturxonga qo'ydi. Oshxona tomon qarab ovoz berdi. «Anga» dedimi, «yanga»mi, Koryagin yaxshi anglamadi. Xotin oshxonadan mo'raladi, sun'iyroq iljayib javob qildi.

Xuddi shu payt uy eshigida ikki yoshlardagi qip yalang'och, do'mboqqina o'g'il bola ko'rindi. O'zicha g'udranib ostonadan oshib o'tmoqchi bo'ldi-yu, qoqilib ketdi. Yuztuban yiqilib, ovozi boricha yig'lab yubordi. Berdiyev o'rnidan ildam turib, o'sha tomon yurgan edi, oshxonadan ayol otilib chiqdi. Yo'l-yo'lakay allanima deb javradi. Berdiyev ayvon peshiga yetib bormasdan uy ostonasida egniga eski atlas ko'ylak kiygan, uzun sochini ikkita qilib o'rgan qiz paydo bo'ldi. O'ng biqinini changallaganicha, engashib bolaga qo'l cho'zdi.

Koryaginining yuragi orziqib ketdi. «Natashenka bilan teng bo'lishi kerak». Qizning allaqayeri chindan ham Natashenkaga o'xshab ketardi. Bo'y-bastimi, oppoq yuzimi... Yo'-o'q! Natasha bunaqa qiltiriq emas, rangi ham zahil emas, sog'lom, o'ktam...

Ayol yugurib kelib bolani qizning qo'lidan oldi. Bag'riga bosganча uyga kirib ketdi. Atlas ko'ylakli qiz ayvon o'rtasida to'xtab Berdiyevga salom berdi. Koryagin uning ko'zlarida kattalarga xos allanechuk chuqur ma'no borligini daf'atan idrok etdi. Berdiyev nimadir so'ragan edi, qiz bir zum so'zsiz, sadosiz tikilib turdi-da, biqinini changallagan ko'yi uyga kirib ketaverdi.

Ichkaridan ayolning erkalovchi ovozi eshitar, bola hamon g'ingshib yig'lar edi. «Eri qamalmasa bu ham Qahramon ona bo'larmidi... Bir emas, beshta bola. Nima

zaril? O'nta nimjon bolani baxtsiz qilgandan ko'ra bitta sog'lom bolaga baxt bergan yaxshi emasmi?»

Koryaginni yana xayol olib qochdi. Natashenka kichkinaligida juda yig'loqi edi. Er-xotin oqshomlari Sokolnikiga chiqib, sayr qilishar, kolyaskani itarib borayotgan Olga, qizaloq hadeb yig'layverganidan xunobi oshib baqirib berardi: «Men buni yolg'iz o'zim uchun tug'dimmi, yo o'ynashdan orttirdimmi? Ovut bolangni!» Koryagin bir qo'llab «lyu-lyu-lyu» deb, kolyaskani beo'xshov silkitar, ikkinchi qo'li bilan xotinining yelkasidan quchib, taskin berardi: «Senga asabiylashish mumkin emas, jonim...» Oxiri Natashenka uxlab qolar, er-xotin araz-tarazni unutib, uyga qaytishar (uylari parkka yaqin), lift chaqirib, o'n to'qqizinchi qavatga ko'tarilishar, shunda Olga erkalaniib uning bo'yniga osilardi: «Bo'ldi, Vasenka, endi hech ham tug'mayman».

...Nihoyat, ichkarida bola yig'isi tindi. Ayol ayvonga chiqib xontaxta yoniga tiz cho'kdi. Uzun boshlarini maydalab, olishga undadi. Qiziq, uning nigohida na asabiylilik, na jahl sezilardi. Go'yo bolasini aravachada sayr qildirib, endi uxlatgan baxtiyor onadek xotirjam va osoyishta edi.

Ayol Berdiyevdan ko'z uzmay, allanimalarni gapirdi. Uzoq gapirdi. Avval vazmin, keyin bezovtalanib... Berdiyev quloq qoqmay tinglab o'tirar, ora-chora bosh irg'ab, ma'qullab qo'yardi. Go'yo tergovchi emas, tug'ishgan ukasidek.

– Nima deyapti? – Koryagin xotinning gapini bo'lib, Berdiyevdan so'radi.

– Qizi ikkinchi marta sariq bo'pti. Kasalxonada joy yo'qmish...

– Nima, siz vrachmisiz? – Koryagin garchand ko'nglida qizga achinsa ham, xunobi oshdi. Sigaret tutatdi.

– Erim qachon chiqadi, deyapti, – Berdiyev ayolning shuncha gapini lo'ndagina tarjima qildi. – Ko'rgani borishsa kiritishmabdi.

– O‘zingiz yuristsiz-ku, Berdiyev! Tushuntiring. Tergov tugamaguncha svidaniye berilmaydi.

Berdiyev so‘zini tugatar-tugatmas, ayolning yuz ifodasida hayrat paydo bo‘ldi. Bir nimalarni tez-tez gapirdi.

– Erim ochidan o‘lmaydimi, deyapti. Jumanovning bod kasali bormish, erta-indin sovuq tushsa, holi nima kechadi, deyapti... Haligacha ko‘mir olishmabdi. Qish kelyapti, nima qilamiz, deyapti.

«Ko‘mir olmaganmish, – deb o‘yladi Koryagin ijirg‘anib. – Ishlatsin xumchaga bosib qo‘ygan oltinlarini!»

– Aytib qo‘ying, Berdiyev! – dedi qovog‘ini solib. – Albatta, qamoq – sanatoriy emas. Ammo qo‘rqmasin, eri ochidan o‘lmaydi! – Sigaretni yerga tashlash uchun yonboshiga o‘girilgan edi, besh-o‘n qadam narida to‘dalashib turgan odamlarga ko‘zi tushdi. Olacha matodan ko‘ylak kiygan kampirlar, qora-qura yosh bolalar... Yaqin kelishga hayiqib, g‘uj bo‘lib turishibdi. «Tomoshabin yetishmayotuvdi o‘zi!»

– Ayting, – dedi goh Berdiyevga, goh xotinga qarab. – Erining tezroq chiqishi va umuman chiqish-chiqmasligi ko‘p jihatdan unga bog‘liq!

Tarjima tugar-tugamas, ayolning ko‘zlarida umid yaraq etdi.

– Nima xizmat bo‘lsa, tayyorman, deyapti.

– Mana bu boshqa gap! – Koryagin xotinning ko‘ziga sinovchan tikilgan ko‘yi ta’kidladi. – Har bitta so‘zimni aniq-ravshan tarjima qiling, Berdiyev. Buning gapini ham so‘zma-so‘z tarjima qilasiz. – Biz, Jumanova, sizni so‘roq qilmoqchi emasmiz. So‘roq qilsak, chaqirtirib olardik. Shunchaki, suhbatlashgani keldik. Qancha ochiq gaplashsak, shuncha yaxshi. Siz eringizning sog‘-salomat chiqib kelishini istaysizmi?

– Erimdan boshqa suyanchig'im yo'q, – Berdiyev qoidaga binoan so'zma-so'z tarjima qila boshladi. – Tepamda xudo turibdi. Erim begunoh!

– Shoshilmang, Jumanova. Begunoh odam qamalmaydi.

– Erimda gunoh yo'q! – dedi xotin qaysarlik bilan.

– Beshta bolangizni o'ylang, – dedi Koryagin uning ko'ziga qattiq tikilib. – Qancha rost gapirsangiz, shuncha yaxshi. O'zingizga ham, bolalaringizga ham.

Ayol uzoq jimib qoldi. Ko'ziga mung cho'kdi. Nihoyat, past ovozda allanima dedi. Berdiyev uning so'zlarini tarjima qildi.

– Bolalarni o'ylasa, erimni nega qamaydi, deyapti.

– Qonun oldida hamma bir. Beshta bolasi bo'ladimi, o'ntami. Lekin biz yordam berishga tayyormiz. Azbaroyi bolalari tufayli... Faqat... Jumanova ham bizga ko'maklashishi...

Berdiyev tarjimani tugatmasidan ayol chuqur xo'rsinib, anchayin qat'iy ohangda nimadir dedi.

– Unaqa bo'lsa qizimni kasalxonaga yotqizinglar, qizim paxtada ishlab shu dardni orttirgan, deyapti.

– Yaxshi... – biqinini changallab turgan qiz (Natashenka-niing tengdoshi) tag'in Koryaginining ko'z o'ngiga keldi. – Qizaloq masalasida yordam berish mumkin.

U fikrini yakunlab ulgurmay, xotin tag'in gapga qo'shildi.

– Erimni tezroq chiqarib beringlar, deyapti.

Koryaginining ensasi qotdi. «Mantiqni qarang!»

– Jumanova, – dedi o'zi xohlaganidan keskinroq ohangda. – Men boshida aytdim: eringiz Jumanovning qamoqdan chiqish-chiqmasligi ko'p jihatdan sizga bog'liq. Siz, haqiqatni tiklash yo'lida tergovga yordam berishingiz kerak. Shunda hammasi yaxshi bo'ladi. Tushunarlimi?

Ayolning ko'zlarida yana umid uyg'ondi.

– Jumanova! – dedi Koryagin aniq-ravshan qilib. – Biz sizga, bolalaringizga yomonlik tilamaymiz. Sizdan faqat bir narsani so'rayapmiz. Diqqat bilan quloq soling. Eringiz Jumanov Panji o'z ko'rsatmasida aniq qilib aytgan: tumanlararo paxta punkti mudiri Omonovdan o'ttiz ming pora olgan. Shundan yigirma besh mingini o'tgan yil 23-oktabr – seshanba kuni kechasi xotini Jumanova Hanifaga, ya'ni sizga ko'rsatgan. Pul asosan ellik so'mlik, yigirma besh so'mliklar bo'lgan. Pora berish faktini paxta punkti mudiri Omonov ham yozib bergan... Jumanov besh ming so'mni qayoqqa sarflaganining hozircha ahamiyati yo'q. – Koryagin «balki aysh-ishrat qilgandir» demoqchi bo'ldi-yu, aytmadi. – Lekin yigirma besh mingni sizga ko'rsatgani aniq. Iltimos, eslab ko'rsangiz, o'sha pul qayoqda?

Koryagin mulohazalarini dona-dona qilib aytdi. Berdiyev ham xuddi shu ohangda tarjima qildi. Koryagin ayolning ko'zlariga tikilib, yuzidagi har bir ifodani kuzatib turdi. Xotin avvaliga hayron bo'ldi. Goh Berdiyevga, goh unga mo'ltirab termildi, keyin ko'zlari alamdand qisilib, bidir-bidir qila boshladi.

– Tushuntiring, Berdiyev! – dedi Koryagin xotinning javobini kutmay. – Eri hammasini tan olgan. Jumanova! Tushunsangiz-chi! Sabil qolmaydimi o'sha yigirma besh ming! Eringiz arzimaydimi yigirma besh mingga?!

Xotinning rangi gezarib, bo'yni battar tirishib ketdi. Ko'zlari g'azabdan yonib, o'rnidan sapchib turdi. Chinqirib, soniga shapatilay boshladi. Barmog'ini bigiz qilib hovlining goh u, goh bu burchini ko'rsatdi. Oxiri, guvala devorli pastak bostirmaga imo qilgancha, og'zidan ko'pik sachratib ayyuhannos soldi.

– Bu qandoq zulm! Qandoq bo'hton! – Berdiyev xotinning gaplarini shosha-pisha tarjima qilishga kirishdi. – Ikki marta tintuv qildinglar! Xohlasang, yana yuz marta tekshir. Ming

marta tekshir! Hech vaqo yo'q bu xonadonda. Erim bolalariga harom yegizgan emas. Erimda gunoh yo'q! Yo'q! Jonimni olmoqchimisan? Ol! Otib tashla! Ana, xohlagan joyingni titkilayver. Tekshirmaganing bitta xalajoy qoldi. Kavlab ko'r o'shaniyam!

Koryagin istehzoli kulimsiradi. Ha, avvalgi tergovchilar ikki marta tintuv qilgan... Lozim bo'lsa kavlatadi o'sha tualetni ham!

Xotin hamon og'zidan ko'pik sachratib qo'shqo'llab tizzasiga shapatilar, ammo yig'lamas edi. (Yig'lasa yaxshi bo'lardi... Harqalay ko'ngli eriydi... Til-zaboni ochiladi.) Xotin borgan sayin avjga minar, hali-veri jag'i tinadiganga o'xshamasdi. Koryaginning qulog'i shang'illab ketdi.

– Nima deydi bu, Berdiyev?

– Menga otasiz bola kerakmas, deyapti. Beshta bolamni bag'rimga olaman-da, o'zimga-o'zim o't qo'yaman, deyapti.

– Qo'ysa-qo'yaversin! Odati shu bularning! Fanaticikka! Odamga o'xshab suhbatlashay desang... – Koryagin shahd bilan o'rnidan turgan edi, xotin kutilmaganda bilagiga chang soldi. Ikkinchi qo'li bilan Berdiyevning yoqasidan ushlab, pastga sudray boshladi. Koryagin esankirab qoldi. Besh minut avval qo'ydek yuvvosh bo'lib dasturxonga taklif qilayotgan odam... Qo'li muncha qattiq bu kampirning... Bir tomonda Koryagin, bir tomonda Berdiyev harchand yulqinishmasin, xotinning ombirdek chayir qo'lidan chiqib ketolmas, ayol nuqul «yur, yur!» deb chinqirardi.

– Berdiyev! – dedi Koryagin siltanib. – Aytib qo'y bu shallaqiga. Bugunoq erining oldiga oborib tiqib qo'yaman!

Berdiyev tarjimini tugatar-tugatmas xotin battar jazavaga tushdi. Ikkalasi baravar silkitib, dod soldi.

– Qamoqqa olib bor, deyapti... – Berdiyev rangi o'chib, ayolga allanima dedi. Insofga chaqirdi chog'i. Ammo xotin esdan og'ib qolganga o'xshar, nuqul ikkala raqibini ayvondan

yerga olib tushishga urinib, tortqilar edi. Umrida bunday xo'rlik ko'rmagan Koryagin g'azablanib ketdi.

– Qo'yvor, qanjiq! – dedi hayiqib.

Bola yig'isi eshitildi. Uy ostonasida boyagi rangsiz qiz yalang'och ukasini ko'tarib turar, bola shovqin-surondan qo'rqib uyg'ongan shekilli, chirillab yig'lar, rangsiz qizning ko'zlari jiqqa yoshga to'lgan, ammo indamasdi. Ayolning changak qo'llari darhol bo'shashdi. Gandiraklagudek chayqalib borib, bolani qo'liga oldi. Ho'ngrab yig'lab yubordi.

Berdiyev sholchada to'ntkarilib yotgan shlapasini olib kiydi. Koryagin galstugini to'g'riladi. «Isterichka!» – deb o'yladi nafrat bilan.

Shu payt yonbosh tomondan g'o'ldiragan ovoz keldi.

– Nega ayol kishini haqorat qilasan, yigitcha?

Koryagin jahl bilan burilib qaradi. Tomoshaxo'rlar ko'payib ketgan, boyagi kampirlar-u bolalar orasida endi salla o'ragan chollar, yosh ayollar, erkaklar ham ko'rinar, qirq chog'li olomon yarim doira yasab o'shshayib turardi.

– Kim? Kim u gapirgan? – dedi Koryagin xezlanib.

Og'ir sukunat cho'kdi. Ruscha gapirgan odam qo'rqdi shekilli, miq etmadi. Olomon ham jim edi.

– Kim? – Koryagin dag'dag'a bilan ta'kidladi. – Qani, chiqsin buyoqqa!

Javob bo'lmadi. Sallali chollar, uzun ko'ylakli kampirlar ming'ir-ming'ir qildi.

– Xo'p... men... – Nihoyat, orqaroqda turgan ayiqsifat erkak ikkilanib davradan chiqdi. – Men gapirdim, – dedi ayvon peshiga kelib. Boshida yag'iri chiqqan do'ppi, egnida uniqqan ko'ylak, oyog'ida poshnasi qiyshiq etik... – Nega xotin kishini haqorat qilasiz, yigitcha? – dedi sof rus tilida. Biroq bu safar sizlab gapirdi. – Nima, akasimisiz, qudasimisiz?

«Eh-he! Ruscha matalniyam biladi bu!»

– Men sizga yigitcha emasman! – Koryagin uning ko'ziga tikandek qadaldi. – Men o'ta muhim ishlar bo'yicha...

– Nega qiynaysizlar sho'rlikni! – «Ayiqli» uning gapini eshitmagandek qo'l siltadi. – Necha marta obisk qilaysizlar?

– Xohlaganimizcha! Tushunarlimi! Xohlaganimizcha! O'zingiz kimsiz? Marhamat qilib ko'rsating hujjatingizni! Kim sizga ruxsat berdi xizmat burchini o'tayotgan...

– Qo'rqitmay qo'yaqoling... – «Ayiqli» sochi qirtishlangan boshidan do'ppisini yechib, kaftiga urib qoqdi. Qayta kiydi. Lapanglab borib Jumanovani yelkasidan quchdi. Yupatib, allanima dedi. Xotin battar ho'ng'ray boshladi. «Ayiqli» yig'layotgan bolani uning qo'lidan avaylab oldi. Bir qo'llab bolani ko'targancha, rapidadek kafti bilan ayolning boshini siladi. Ayol hiqillab yig'lar, nuqul bir so'zni qaytarar edi. «Akajon! Akajon!»

Olomon orasida g'ala-g'ovur boshlandi. Kosovdek qopqora, ozg'in chol qo'lini paxsa qilib, bir nima deb chiyilladi.

– Ketish kerak, Vasiliy Stepanovich, – dedi Berdiyev ruhsiz ohangda.

* * *

Mashina sekin yurib borar, Koryaginining dili xufton edi. «Aslida «suhbat»ni yumshoqroq ohangda qilish kerak edi. Harqalay tergov emas bu. Umuman olganda qonunga xilof... Lekin niyat yaxshi edi-ku! Ko'rmaysizmi bu fanatiklarni!» Xotinning lo'livozligi, «ayiq»ning dag'-dag'asi qulog'idan ketmas, g'ijinar edi. «Yaramas! Sensirab gapirdi-ya! Hammasining ildizi bir! Hammasi chatishib ketgan!»

– Boyagi kim edi, Berdiyev!

– Qaysi biri?

– Dag'dag'a qilgan bosmachi?

Berdiyev noxush g'udrandi.

– Bosmachi emas...

– Bosmachi! – dedi Koryagin qat'iyat bilan. – O'zi bo'lmasa, ota-bobosi bosmachi o'tgan. Basharasidan ko'rinib turibdi. Familiyasi nima? – Cho'ntagidan qalam-daftar chiqardi. – Aniq adresi!

– Familiyasi – Jumanov.

– Demak, Jumanovning akasi?

– Yo'q, amakivachchasi.

– Ya'ni, qaysi ma'noda?

– Qanday tushuntirsam ekan, Vasiliy Stepanovich... Jumanovning otasi boyagi... siz aytayotgan «bosmachi»ning otasi bilan aka-uka bo'lgan. «Bosmachi»ning otasi frontdan invalid bo'lib qaytgan, miroblik qilgan. Hozirgi tilda aytsak – irrigator. Jumanovning otasi partiya xodimi bo'lgan... Aka-uka o'lib ketganidan keyin...

Koryagining boshi g'uvillab ketdi. «Akasi, ukasi, amakisi... Nima ahamiyati bor?»

– O'zingizni qiynamang, Berdiyev. Shajaralarni tushuntirmay qo'yaqoling. Nimaga shunchalik himoya qilib qoldi poraxo'ring xotinini?

Berdiyev yo'ldan ko'z uzmay borarkan, chuqur so'lish oldi:

– Aytdim-ku, amakivachchasi deb. Bizning odatda, otalar o'lsa, avloddagi birinchi o'g'il hammaga ota o'rnida o'tadi.

– Ota emish! – Koryagin istehzoli kuldi. Nima ish qiladi o'sha «ota»? Machitda mulla emasmi, ishqilib?

– Samosval haydaydi. PMKda...

– Nechanchi PMK?

– O'n to'rtinchi.

– Ismi? – dedi Koryagin yondaftarga yozishda davom etib.

– Qishloqda hamma uni Vali tog'a deydi. Lekin asli oti – Valentin.

– Nima? – Koryagin oldingi o'rindiq tomon egildi. – Nima dedingiz?

– Valentin...

– Qanaqasiga?

Berdiyev yelkasi osha unga xotirjam qarab qo'ydi.

– Vali tog'a Leningrad blokadasidan chiqib kelgan ekan... Qirq uchinchi yilda. O'n bir yoshida... Jumanovlar oilasi uni o'g'il qilib olgan.

* * *

– Ayblanuvchi Jumanovni so'roqqa!

Koryagin «Delo»ni g'ijinish aralash hafsalasizlik bilan varaqladi. «Jumanov... Jumanov... Jonga tegdi! Pora olib, pora bergani – fakt! Qo'shib yozgani, amalini suiiste'mol qilgani – fakt! (149, 152, 149-prim moddalar.) Bo'yniga olmaydi, vassalom! U yoqda grupp boshlig'ining dag'dag'asi. «Bir haftada bo'yniga qo'yan, besh kunda pokazaniye olasan...» Aytishga oson! Odamga o'xshab ishlaydigan alohida kabineting bo'lmasa, aybdorni so'roqqa shaharning narigi boshidan konvoy olib kelsa... Ustiga-ustak mana bu do'zax jaziramasini!.. O'marilgan qancha millionlar davlatga qaytarildi. Hali yana qanchasi topilarkin! Bitta konditsioner qo'yib bersa haqqi ketadi bularning!»

Jahl bilan borib, derazani ochdi. Yuziga issiq havo urildi.

Kunbotar pallasi. Qilt etgan shamol yo'q. Ro'parada tomi qubballi allaqanday ko'hna bino. Qaldirg'ochlar vizillab uchib yuribdi. Pastda tor hovli. Beshinchi qavatdan qaragan odamga hovli yanayam kichrayib, katalakdek ko'rinadi. O'rtada qirg'og'i sementlangan hovuz. Hovuz bo'yida bir tup archa. Yaproqlariga chang qo'naverib sarg'ayib ketgan. Qismatidan noligandek, mung'ayib turibdi.

«Qayoqdan kelib qolding begona bu yurtlarga, birodar!» Vasiliy Stepanovichning ko'z o'ngida tag'in Podmoskovye o'rmonlari jonlandi. Natashenkani sog'inganini shu qadar chuqur his etdiki, ko'ksining chap burchi sanchib ketgandek bo'ldi. Qiziq, avval ham xizmat taqozosi bilan uzoq safarlarda ko'p bo'lgan. Lekin qizalog'ini hech qachon bunchalik sog'inmagan edi. «Olya nima qilayotgan ekan?» Shu paytgacha xayoliga kelishi bilan haydab solishga uringan ko'ngilsiz xotirot to'satdan butun tafsiloti bilan yopirilib keldi.

Olga «boshqa tug'mayman», deganiga qaramay, tag'in bir marta bo'yida bo'lib qoldi. (Er-xotin harchand ehtiyotini qilishsa ham.) O'shanda Natashenka, chamasi uch yoshlarda edi... Koryaginning o'ziga qolsa Olenkaning tug'ishini xohlardi. (Balki o'g'il bo'lar... Har qanday erkakning ko'nglida o'g'il ko'rishdek egoistik orzu bo'ladi.) Bir kuni kechasi (esida, qahraton qish edi), Natashenka uxlagach, er-xotin yotishganida Koryagin «yana bitta tug'sang hech nima qilmaydi», degan ma'noda gapirdi. Olga talay fursat jim yotdi-da, to'satdan «yorildi». «Vasiliy, – dedi bosiqlik bilan. – Sen halol odamsan. Shuning uchun aldashni xohlamayman. Esingdami, birovni sevib qolsam, sendan yashirmayman, degandim... Shundoq bo'lib qoldi. – Javob kutgandek bir lahza jimib qoldi. Eridan sado chiqmagach, chuqur so'lish oldi. Dona-dona qilib tushuntirdi. – Endi, bildimki, u sevishta arzimas ekan!.. Xotirjam bo'l, ertaga abortga boraman».

Koryagin ro'y bergan voqeaning butun dahshatini endi tushunib yetgandek, sapchib turdi. «Demak, sen... sen... – dedi entikib. – Ayt! Kim o'sha iblis!?» «Bo'kirma, Natashenkani qo'rqitib yuborasan. – Olga nihoyatda xotirjam alpozda dashnom berdi. – Qiziq odamsan, Vasya, – dedi deyarli erkalab. – Xo'sh, o'sha «iblis» kimligini aytsam,

qo'lingdan nima kelardi? Duelga chaqirasanmi? Yo borib so'yib kelasanmi? – Yana chuqur so'lish oldi. – O'zim ahmoqman! – dedi o'kinch bilan. – Vijdonim oldida pok bo'lay deb... – ovozida qat'iyat bilan ta'kidladi. – Xotiring jam bo'lsin! Endi bunaqa «ish» takrorlanmaydi... Ajrashamiz desang, hoziroq razvod beraman. Axir biz zamonaviy odamlarmiz-ku, Vasiliy... Qizingdan ko'ngling to'q bo'lsin. Natashenka o'zimga tan... Xohlasang har haftada ko'rib turasan».

Koryagin paltoni yelkasiga ildi-yu, telpak ham kiymay, chiqib ketdi. Qor qiyalab urar, sovuq shamol uvillardi. (Moskva ko'chalarida shamol shiddatli bo'ladi...) Tongotarga yaqin qaytib keldi. Olga eridan xavotirlanib uxlamagan ekan. «Sovuq qotib ketgandirsan? – dedi oradan hech gap o'tmagandek. – Damingni ol, ishga kechikasan»... Koryagin indamay narigi xonaga kirdi. Karavotchasida uxlab yotgan qizining yuzidan o'pdi. «Vasya, – dedi xotini tashvishli shivirlab. – Bolani shamollatib qo'lasan. Qara, hammayog'ing qor-ku, jonim». Koryagin qizalog'i ustida bosh egib turarkan, endi mana shu jajji vujud dunyoda o'zining eng aziz odami bo'lib qolganini teran his etdi!..

U hamon deraza oldida turarkan, allaqachon unutilib ketgan noxush xotira nega aynan shu pallada xayoliga kelganini tushunmadi. Keyin nima uchundir ikki kun ilgari qishloqqa borganida Jumanovning kampir-xotini yuzi yanayam xunuklashib chinqirganini esladi. «Menga otasiz bola kerakmas, bolalarimni bag'rimga olaman-u, o'zimga o't qo'yaman!» Dili battar xufton bo'lib, xayolan qo'l siltadi. «Bilganini qilmaydimi, o'sha yovvoyi!»

Derazadan nari ketarkan, yana bir karra osmonga qaradi. Quyosh hali botmagan, osmon g'uborli, onda-sonda isqirt bulut parchalari ko'rinar, tashqaridan dim havo yopirilib kirardi. Shoshilmay stol yoniga borib o'tirdi. Tomog'i

qaqrab, tortmani ochdi. «Pepsi-kola» shishasiga qo'l cho'zdi. Shisha muzdek edi: yaqinda muzlatgichdan olib chiqishgan... Ochqichni stol ustiga qo'ydi. Tiqinni ochmoqchi bo'ldi-yu, nafsini tiydi. «Keyin». Shishani tag'in tortmaga soldi.

Yo'lakda qadam tovushlari, soqchining «tek tur!» degan buyrug'i eshitildi. Eshik ochilib, yosh serjant ko'rindi.

– O'rtoq tergovchi...

– Siz bo'shsiz! – dedi Koryagin quruqqina qilib.

Jumanov eshik oldida to'xtadi. Katak ko'ylagi g'ijimlangan. Shimining bir pochasini negadir qayirib olgan. Soqoli o'sib ketgan, yuzi shishgan...

Keyingi paytda Koryagin uni har ko'rganda beixtiyor asabiylashardi. Hozir ham shunday bo'ldi. Biroq o'zini bosdi.

– O'tiring, Jumanov! – dedi vazminlik bilan.

Jumanov og'ir qadam bosib, ro'parasidagi taburetkaga o'tirdi. Zo'r berib, bilaklarini silay boshladi. (Qo'llari titrar edi.)

«Kishan siqdimi? Shunaqa! Kishan degani – bilakuzuk emas».

– Xo'sh, Jumanov, boshlaymizmi? – Koryagin «delo»ni shoshilmay varaqladi. – Eng muhim dalillarni alohida diqqat bilan «qayta o'qib chiqdi...» Keyin ayblanuvchining ko'ziga sinovchan tikildi.

Jumanov hamon bilaklarini silagan ko'yi yerga qarab o'tirardi. Ko'zlari qizarib ketgan, lablari pors-pors yorilgan, og'ir nafas olardi.

– Shikoyat yo'qmi, Jumanov? Sog'liq yaxshimi?

«Rasmiyatchilik... Mayli, buyam kerak-da... Uch kundan beri uyqu yo'qmi? Kameradagi ikkita retsedivist itning bolasiday do'pposladimi? Do'pposlasa-ku, mayli... Ko'ngliga siqqancha xo'rlagandir? Gapir! Savoding joyida. Yo'l-yo'riqni bilasan, o'qigansan... Aytaver! Qonunga xilof ish qilishyapti, menga ham jismoniy, ham ruhiy azob

beriyaptilar demaysanmi? Demaysan! Negaki qonunni avval boshi o'zing buzgansan! Nima, shuncha qilg'iliklaring evaziga biz seni boshimizga ko'tarishimiz kerakmi?»

– Sizdan so'rayapman, Jumanov! Shikoyat yo'qmi?

Jumanov og'ir bosh ko'tardi, gapirmoqchi edi, bo'g'zidan xirillagan ovoz chiqdi. Porsillagan labini yalab qo'ydi.

«E, ha-a! «Kameradosh»laring bir sutkadan beri suv ichgani qo'ymayaptimi? Nafas olsang ichingga olov kiryaptimi? Chanqoq azobi yomon... ayniqsa mana bu do'zax issig'ida».

Koryagin shoshilmasdan tortmani ochdi. «Pepsi-kola» shishasini stol ustiga qo'ydi. Tortmada turgan stakanni izlagan bo'lib, uzoq titkiladi. Nihoyat, stakanni ham shisha yoniga qo'ydi. Ochqich izlab, goh u cho'ntagini, goh bu cho'ntagini kavlatdi.

– Qayoqqa yo'qoldi, shayton olgur!.. Issiqni qarang, Jumanov, – dedi ochiq derazaga alanglab. – Umuman, bu tomonlarda Yomg'ir yog'adimi o'zi? – Bu gaplarni aytar ekan, ayblanuvchiga biron marta qayrilib qaramadi. Nihoyat, ochqich «topildi». «Delo» tagida yotgan ekan. Temir tiqinni ochdi. Shisha og'zi ko'pirib, muzdek hovur ko'tarildi. Suvni shoshilmasdan qirrador stakanga quydi. «Pepsi-kola» tag'in ko'pirdi. Salqin, yoqimli is xonani tutib ketgandek bo'ldi... Nihoyat xotirjamlik bilan ho'pladi.

– O'-o'o'! – dedi chuqur xo'rsinib. – Jonning rohati-ya, Jumanov... – stakanni stolga qo'ymay, unga teshib yuborgudek tikildi.

Jumanovning qizargan ko'zlari yarqillab ochilib ketgan, shishgan lablarini muttasil yalardi.

– Pepsiga qalaysiz, Jumanov! – Koryagin stakanga yana suv quydi. Tag'in salqin bug' ko'tarildi.

Jumanov g'ayritabiiy chaqqonlik bilan o'rnidan turdi. Bir-ikki qadam bosgan edi, Koryagin nihoyatda xotirjam ogohlantirdi.

– O'tirilsin! – «Delo»ni tag'in hafsalasiz varaqlashga tushdi. Zimdan razm solib turdi. Jumanov joyiga o'tirgancha, bir nuqtaga tikilgan ko'yi boshini xam qilganini nazardan qochirmay, qog'ozlardan birini ajratib olib (ehtimol yuzinchi martadir), osoyishta ovozda o'qiy boshladi. – «Men sobiq obkom sekretari (ismi, familiyasini aniq-ravshan qilib aytdi) shuni tan olib aytamanki, «XXV parts'yezd» sovxozining direktori Jumanov Panji mazkur lavozimni sotib olish uchun menga qirq ming so'm pora bergan. Pulni diplomatda obkom dachasiga (Koryagin o'sha yil, o'sha kunni aniq aytdi) tungi soat yigirma uchdan o'ttiz minut o'tganda olib borgan».

Jumanov hamon yerdan ko'z uzmay o'tirardi.

– «Dim-dim» o'ynash yetar endi? «Pepsi» ichasizmi? – Koryagin o'tirgan joyida stakanni uzatdi. – Marhamat!

Jumanov yaqin kelishi bilan stakanni beri tortdi.

– Yosh bolaga o'xshaysiz! – dedi samimiyat bilan. – Nahot bizni shunchalik go'l deb o'ylasangiz? Ishoning, bizga shaxsan sizning keragingiz yo'q. Sovet qonuni gumanniy. Chin yurakdan tavba qilganlarni kechiradi. Mana... – u bir varaq qog'ozni «delo» orasidan olib, stol qirrasiga surdi. – Shunga qo'l qo'ysangiz bas...

Jumanov stol ro'parasida turar, qizargan ko'zlari cho'g'dek yonib, stakanga tikilib qolgan, sarg'aygan bodringdek tilini chiqarib, hansirab nafas olardi.

– Marhamat! – dedi Koryagin ruchka uzatib. – Mana bu yerga.

Jumanovning ko'zida umid so'ndi. Stakandagi suvga yana bir lahza termilib turdi-da, gandraklagudek qadam bosgan ko'yi joyiga borib o'tirdi.

Tergovchi sovuq ko'pirib turgan suvni bamaylixtir ichdi.

– Siz, – dedi beixtiyor kekirib (La'nati, gazi muncha ko'p!). – G'alati odamsiz... Obkom sekretari ko'rsatmasida hammasini yozib qo'ygan bo'lsa... – Uzoq sukut saqladi-da,

osoyishta ohangda davom etdi. – Sekretar yolg'iz sizning oyog'ingizdan tortyapti, deb o'ylaysizmi? Adashasiz, u tullak ko'plardan pora undirgan: raykomlar, raislar... paxta tozalash zavodlari... priyomshiklar... Endi esa suvdan quruq chiqish uchun aybni boshqalarga to'nkayapti. Aslida hammani pora berishga o'zi majbur qilgan. Jumladan, sizni ham.

Ayblanuvchi allanima deb g'o'ldiradi.

– Nima?

Jumanov entikib-entikib nafas oldi. Og'zidan chiqqan so'z bo'g'zida qolib ketayotganga o'xshardi.

– Aniq gapiring, Jumanov! – Koryagin yozishga shaylanib, qo'liga ruchka oldi.

– Majbur qilishdi... – dedi Jumanov har so'zini bo'lib-bo'lib. – Direktor bo'lasan... deyishdi. Qoloq sovxozni ko'tarasan... deyishdi... – Nafasi qaytib xirillab qoldi. – Shu... – dedi holsizlanib.

– Shoshmang! – Koryagin stakanga yana «pepsi» quydi. Jinday... Ikki qultum. – Iching! – dedi qovog'ini solib.

Bu safar Jumanov o'rnidan turmadi.

– Nima, o'zim oborib berishim kerakmi?

Koryagin bu gapni shunaqa samimiy jahl bilan aytdiki, Jumanov ilkis o'rnidan turdi. G'ayritabiiy chaqqonlik bilan yaqin keldi. Biroq Koryaginning o'zi uzatmaguncha stakanga qo'l cho'zmadi. Keyin suvni yutoqib ichdi-yu, shisha tagida qolgan «pepsi»ga iltijoli mo'ltirab qaradi.

«Yaxshi! Chanqagan odam bir qultum suv ichdimi, battar qiynaladi».

– O'tiring! – Koryagin uning ikkilanib turganini ko'rib, sekin, ammo qat'iy ohangda buyurdi. – Stakanni joyiga qo'ying!

Jumanov ikki ko'zini shishadan uzmay, tisarilib borib, taburetkaga cho'kdi.

– Majbur qilishdi, deng! Mana bu – boshqa gap! – dedi tergovchi deyarli do'stona ohangda. – Siz bo'lsa o'rgatilgan to'tiqushday bir gapni qaytarasiz. «Tuhmat! Tuhmat!» Axir sizni majbur qilishgan ekan-ku! Shuni avvalroq aytish kerak edi. Bilamiz, qo'rqitishgan, direktor bo'lmasang partiyadan o'chasan, deyishgan. Keyin obkom pora talab qilgan. Sizning ko'nishdan boshqa chorangiz qolmagan.

Jumanov bir nuqtadan ko'z uzmay o'tirardi.

– Tushuning, Jumanov! – dedi tergovchi yana ham xayrixohroq ohangda. – Obkom ustingizdan mag'zava ag'darib yotibdi-yu, siz uni himoya qilmoqchi bo'lasiz. Bir gapni aytaymi?.. O'zaro gap. Uyingizga boruvdim. Qizingiz betob ekan.

Jumanov boshini ko'tardi. Qizargan ko'zlarida xavotir, armon bor edi.

– Hayajonlanmang, – dedi Koryagin yupatib. – Qizaloqqa yordam beramiz. Aqlli qiz ko'rinadi... Gap bundamas... Bilasizmi, porani o'z ixtiyori bilan topshirish boshqa, majbur bo'lib berish boshqa... Obkom sizni direktorlikni sotib olgan deyapti. Siz bo'lsa, qo'rqqaningizdan, majbur bo'lib pora bergansiz... Farqni anglayapsizmi?.. Darvoqe, egizaklaringiz sho'x ekan. Sizni sog'ingan ko'rinadi. Tabiiy hol... Aytayapman-ku, bizga sizning keragingiz yo'q. Siz, oddiy kilkasiz. Akulalar boshqa. Shaxsan menga qolsa, sizni ertagayoq chiqarib yuborishga tayyorman. Albatta, ishni sud hal qiladi. Lekin...

– Yuzlashtiring! – dedi Jumanov sovuq qat'iyat bilan. Endi ovozi g'o'ldirab chiqmas, harqalay, gapini anglasa bo'lardi. – Men bermagan porani berdim deyolmayman.

«Yana boshladi eski ashulasini!» – Koryagin g'ijindi.

– Demak, siz obkom sekretariga hech qanday pora bermagansiz? – dedi tamomila loqayd ohangda.

Jumanov indamay bosh irg'adi.

– Yaxshi! Unday bo'lsa, «Moskvich»ni kim hadya qildi? Nima evaziga?

– Unga to'rt yil bo'lgan, – dedi Jumanov yuzini o'girib.
– Bo'lim boshqaruvchisi edim.

Koryagin kuldi:

– To'g'ri, bo'lim boshqaruvchisi edingiz. Majburiyatni oblastda birinchilar qatori bajargansiz. Sizga «Moskvich» sovg'a qilganlar...

– Pulimga sotib olganman.

– Ahamiyati yo'q! – dedi Koryagin battar ijirg'anib. – Hamma bo'lim boshqaruvchilariyam shaxsiy mashinada kataysa qilmaydi. – Yana ma'noli sukut saqlab, Jumanovga tikilib o'tirarverdi. Darvoqe, «Moskvich»ni gapirishi bilan to'rt yilmi, besh yil avval bo'lgan suhbat esiga tushdi. Olganing tug'ilgan kuni edi. Ximkidan ukasi Sasha keldi. Jindek «otishgani»dan keyin hasrat qildi. «Bu – o'zbeklarni tergaydigan qonun bormi-yo'qmi, sen yuristsan-ku! Ular bizning mashinada kataysa qilishni biladi, evaziga paxta deb tuproq aralash xas-xashak jo'natadi». Koryagin o'shanda bu gapga unchalik e'tibor bermagan edi...

– Bilasizmi, Jumanov? – dedi dilkashlik bilan. – Bir narsaga hech aqlim yetmayapti. Marhamat qilib tushuntirib bersangiz. Demak, «XXV parts'yezd» sovxozi qoloq bo'lgan. Sizning bo'limingiz esa oblastda birinchilar qatori majburiyatni bajargan. Qanday qilib?

Jumanov engak qoqqandek, boshini g'alati sarak-sarak qildi.

– Avval ham aytgan edim-ku...

– Nima qipti, yana qaytaravering! – Koryagin kinoyali kuldi. – Siz gapiravering, men eshitaveraman... Uyog'ini o'zim davom ettiraymi? – dedi gap ohangi keskin o'zgarib. – Ta-ak... Demak, «oq oltin»ni yaratuvchi «oltin qo'lli» Jumanov o'ta jonbozlik ko'rsatgan...

– Ishonmasangiz o'sha paytda bo'limda ishlaganlardan so'rang.

– «Qahramonona» mehnat qilgan, – dedi Koryagin istehzo bilan. – «Oq oltin»dan misli ko'rilmagan hosil olgan. Shuning uchun unga mashina sovg'a qilganlar. Keyin direktorlikka ko'targanlar. Evaziga qirq ming so'raganlar.

– Aytdim-ku, majbur qilishdi. Jumanovning ovozi tag'in xirillay boshladi. – Sovxoz o'tirib qolgan edi...

– Juda to'g'ri! Qaysi ahmoq ilg'or sovxozni qirq mingga sotadi! Yaxshi sovxozlarning «taksa»si ellik mingdan yetmish minggacha bo'lgan. Bundayrog'lari qirq ming...

– Tuhmat! – Jumanov porsillagan labini yalab qo'ydi. – Hech kimga pora bergan emasman!

Koryaginning toqati toq bo'la boshladi. «Ahmoq! Qaysar eshak!»

– Tuhmat deng-a? Endi mendan eshiting, Jumanov! Siz! – dedi shiddat bilan barmog'ini bigiz qilib. – Siz porani o'z ixtiyoringiz bilan bergansiz! Sovxozni sotib olish uchun. Avval ham pripiska bilan shug'ullangansiz. Bo'limni boshqarayotganingizda. Kattalar ko'radiki, qo'shib yozishga ustasiz. Tajriba bor. Shundan keyin...

– Tushunsangiz-chi! – Jumanov ayanchli xirilladi. – Bermagan narsamni qandoq qilib berdim dey... Axir men bor-yo'g'i yarim yil direktor...

– Yarim yil emas, yetti oy!

– Agar qo'shib yozsam, sovxoz plani bajarmasmidi!

– Omonovning ko'rsatmasi-chi? – Koryagin «delo»ni asabiy varaqladi. – Nega yuz ellik tonna paxtani pripiska qilganingizni, Omonovdan nega o'ttiz ming olganingizni aytaymi? Obkomga bergan qirq mingning o'rnini qoplash kerak edi!

– Axir bu tuhmat-ku! Sovxoz plani bajarmagan, – dedi Jumanov yig'lamoqdan beri bo'lib. – Sakson yetti foizda

qolgan. – Boshini battar sarak-sarak qildi. – Paxtaning o'zi yo'q edi. Yo'q narsani qayoqdan olay?

– Buni mendan so'rayapsanmi? – Koryagin chin dildan kulib yubordi. – Mendan-a! Ha, tan olaman, men paxtani yaxshi bilmayman. Ammo pripiskaning kuxnyasini xo'p o'rgandim. Planni bajara olmaganingiz uchun ham qo'shib yozgansiz. Bajaray desangiz, paxta yo'q, bajarmay desangiz, baloga qolasiz. Bilaman, siz ahmoq emassiz. Iqtisodchisiz, bu gaplarning hammasi absurd ekanini bilgansiz. Faqat bir narsani tushunmayman. Nahotki siz – oliy ma'lumotli ekonomist, o'ylamagansiz? Markaziy tumanlarga tola o'rniga xashak borgan. Keyin o'sha la'nati xashak ham bormay qo'ygan, vagonlarda havo borgan. Ha-vo! – dedi ta'kidlab. – Samolyotlarda esa diplomat to'la pul borgan. Tola yo'q, plan bor. Paxta yo'q, pora bor! Orden bor, medal bor...

Qiziq, Jumanov g'alati iljaydi. Shishgan yuzi bir tomonga qiyshayib ketdi. Xirillab kulgan edi, yo'tal tutdi. Uzoq, entikib yo'taldi.

– Nimasi kulgili? – dedi Koryagin ijirg'anib.

– O'zim...

– Javob bering! Nimasi kulgili bu nopok ishning?

Jumanov uning ko'ziga o'qrayib qaradi.

– Buyoqdan vagonda tola o'rniga havo, samolyotda pul borgan ekan, – dedi g'o'ldirab, – uyoqdagilar nega indamabdi? Nega bizga pul kerak emas, tolaning o'zini beringlar demabdi?

«O-o-o! Tiling burro-ku! – Ukasining gapi Koryaginining esiga tushdi. Ukasi kim – oddiy master. Dodini kimga aytardi? Endi aybni biz tomonga ag'darmoqchimisan?!»

– Unisini aniqlash bizning ishimiz! – Koryagin tovushiga tag'in rasmiy tus berdi. Har so'zini chertib-chertib ta'kidladi. – Gapni aylantirmang, Jumanov! Ochig'ini ayting: nega hammalaring qo'shib yozishga bunchalik yopishib olgan-

sizlar? Bir kunmas bir kun baribir sir ochilardi-ku? Aqalli siz – mutaxassis sifatida bilgansiz-ku buni! Nega bu yog'ini o'ylamagansiz? Savolimga aniq javob bering! Ko'zimga qarab turib!

Jumanov ko'zini olib qochmadi. Battar o'qraydi.

– Plan yuqoridan belgilanar ekan, pripiska bo'laveradi!
– shunday dedi-yu, boshi tag'in tebranishga tushdi.

– Stop! – Koryagin uning so'nggi gapini tez-tez qog'ozga tushirdi. – Demak, siz pripiskani ma'qullaysiz. Demak...

– Yo'q! Men pripiskaga qarshiman. Umuman bunaqa harom ishga...

– Omonov-chi?

– Yana Omonov! – dedi ayblanuvchi hamon bosh tebratib.
– Yuzlashtirdinglar-ku! Tuhmat qilayotgani ko'rinib turibdi-ku! Hamma gapi poyma-poy...

«Tag'in o'sha ashula!» – Koryagin toshib kelgan g'azabini jilovlash uchun kulimsiradi.

– Sizningcha hamma yomon, bitta o'zingiz yaxshi. Hamma qora, bir o'zingiz oppoq... Bir narsani aytaymi? – dedi sirli qilib. – Erkakcha gap... Bilasizmi, bunaqa nozik narsalarni xotin kishiga aytmalik kerak edi. Siz bo'lsa... – Qo'llarini ikki yonga tashlab, afsus-nadomat bilan bosh chayqadi. – Eh, Jumanov, Jumanov! Omonovdan olgan pulni xotonga ko'rsatib nima qilardingiz? Jumanova Hanifa sizning xotiningizmi, axir? Hammasini aytib berdi... Suhbat paytida. Darvoqe, ayol kishini bunday xo'rlamaslik kerak. Axir siz yetarli darajada madaniyatli odamsiz. Sochlari oqarib ketibdi sho'rlikni. Sizga nokerak bo'lsa, bolalaringizga kerak hali... Mayli, gap bundamas. Shunday qilib, o'sha kecha pulni xotiningizga ko'rsatibsiz. Avval pol tagiga yashiribsiz, keyin... Tekshirish boshlanganida...

Jumanov bir muddat unga hayratlanib qaradi. Keyin to'satdan yelkalari silkina boshladi. Koryagin yig'layapti,

deb o'ylagan edi. Yo'q, Jumanov kulardi. Yelkalari silkinib, xirillab-xirillab kuldi. Xunuk, juda xunuk kuldi. Shishgan basharasi qiyshayib ketdi. Tag'in yo'tal tutdi.

– Pol tagiga deng! – dedi hansirab. – Pol tagiga emish... – Yana xirilladi. – Mening uyimda polning o'zi yo'q!

Koryaginning ichida bir nima uzilib ketgandek bo'ldi. «Yaramas, Berdiyev! Nega o'sha kuni uyga olib kirmadi? Ayvonda gap sotib o'tirish shartmidi? Ataylab qilgan. Uyam shularga hamtovoq! Uyam bosmachi!» O'zini qo'lga olish uchun shisha tagida qolgan «pepsi»ni shoshilmay quydi. Bamaylixotir ichdi.

– Tushunarli, – dedi osoyishta qat'iyat bilan. – Demak, xotining Jumanova Hanifa noto'g'ri ko'rsatma bergan. Xohlasam, ertagayoq, yo'q, bugunoq qamoqqa tiqaman!

Jumanovning ko'zida bir lahza sarosima ko'rindi. Xo'rsindi.

– Qo'lingizdan keladi... – dedi anchayin vazmin ohangda. – Mayli. Men Hanifaga ishonaman. Yolg'on gapirmaydi... Sochining oqarganiga kelsak, uni men emas, senlar oqartirding!

– Nima-nima?! – Koryagin ijirg'anib labini burdi. – Qilg'ilikni sen qilgin-da, kampir-xotining oldida men javob beraymi? Feodal! Bola tug'dirishdan boshqani bilmaydigan baran!

– Haqorat qilma!

– Eh-ha! Oriyatlari keldimi? Eshitib qo'y! Yolg'on ma'lumot bergani uchun xotiningni qamoqqa tiqmasam... Menga desa bolalaring ochidan o'lsin... Qizingning jigari ezilib ketsin!

– Bolada nima gunoh! – Jumanovning boshi soat kapkiriday muttasil tebrana boshladi. Oyoq-qo'llari titrar, hozir ag'darilib ketadigan alpozda edi.

– Bas! – dedi Koryagin hayqirib. – Endi bolalaringni o'ylaydigan bo'lib qoldingmi? Pora olib, pora berayotganingda, pripiska qilayotganingda esing qayoqda edi? Kattalarning buyrug'ini quloq qoqmay bajarayotganingda nega o'ylamading bolalaringni? – Koryagin butun nafratini bir so'zga jamlab, jirkanish bilan ta'kidladi. – Plebey!

– To'g'ri aytding, plebeyman... – Jumanov xirilladi. – Qulman... Norasmiy qul... Sen-chi? Sen qul emasmisan?

– O'chir! – Koryagin stolni mushtladi.

– Qulsan! – Jumanovning afti battar qiyshaydi. – Boshliqlaring oldida qulsan. Sendayam plan bor. Yo'q gunohimni qanchalik tez bo'yninga qo'ysang, pogoningdagi yulduz shuncha ko'payadi.

– O'chir ovozingni! – Koryagin tag'in stolni mushtladi. Bo'sh stakan zirillab ketdi. – Ertagayoq Moskvaga, Butirkaga jo'nataman. Obkomingning yoniga!

– Juda yaxshi! Vijdoni bo'lsa aytsin, qachon pora beribman unga?

– Obkoming kim bo'пти? Kerak bo'lsa respublika rahbarlaringni o'ziyam tiz cho'kadi hali...

– Qo'lingdan kelsa, – Jumanov hamon tebrangan ko'yi boshini shahd bilan ko'tarib chaqchaydi. – Qo'lingdan kelsa, Brejnevni tiriltirib kelgin-da, o'shaniyam so'roq qil! – dedi vishillab. – Pripiskani o'sha o'ylab topgan! Hamtovoqlari bilan! Yo'q paxtani olti million tonna qilasan, degan o'sha! – Jumanovning qon quyilgan ko'zlari kosasidan chiqib hayqirdi. – Bizni eshak qilib mingan – o'sha!

– Poraxo'r! – Koryagin Jumanovning oldiga uchib borgisi, bir musht bilan hushini joyiga keltirib qo'ygisi keldi-yu, o'zini tiydi.

– Poraxo'r! – dedi hayqirib. – Haromxo'r! Hammang o'g'risan! Hammang poraxo'r! Avval uyingga chaqirasan, mehmon qilasan, qo'y so'lasan, palov, shashlik... milliy

udumni ro'kach qilib, to'n kiygizasan. Yumshoqqina bo'lib odamning pinjiga kirasalar-da, keyin... Mana! – U stol tortmasini shahd bilan ochib, bir to'p gazetani oldi. Boshi ustida baland ko'tarib silkitdi. – Hammasida senlarni qilmishing yozilgan! Respublikada necha ming jinoyatchi qamoqqa olinganini yozgan. «Paxta ishi» bo'yicha. Hammang bir go'rsan! Hammang eshshaksan. Butun xalqing!.. – Bir zum sukut saqladi-da, Ambarsumyan o'rgatgan eng oxirgi, eng qat'iy zarbani berdi. – Eshitib qo'y, – dedi istehzoli kulib. – Ertaga, yo'q, bugun senga g'alati tomosha ko'rsataman. Kampir-xotiningni retsidevistlar o'tirgan kameraga tiqaman. Bir yo'la uchitasi zo'rlaydi. Sen tuynukdan tomosha qilasan!

– Tuf! – Jumanov ko'zlari vahshiylashib sapchib turdi. – Tuf senga! – dedi o'kirib.

Ajab, tupugi og'zidan chiqdi-yu porsillab yorilgan labiga shilimshiq yelimdek yopishib qoldi. Quturgan buqadek alpang-talpang bostirib kela boshladi.

– Konvoy! – Koryagin vahimaga tushib xotinlardek chinqirdi. – Konv-o-o-oy!

Yo'q, Jumanov Koryaginga emas, deraza tomon intildi. Soqchi eshikdan kirguncha bir hatlab deraza rahiga cho'kkalab oldi. Shu alpozda bir soniya, atigi bir soniya Koryaginga qaradi. Hozirgina ko'zlarida yonib turgan g'azab ifodasi o'rnida shu qadar chuqur, unsiz nafrat, nochorlik, iztirob... shu qadar teran hayrat bor edi-ki, Koryaginning yuragi orqaga tortib ketdi.

– Jumanov! – Vasiliy Stepanovich deraza tomon talpindi. – Jumanov...

Gapini tugatmasdan derazadan yana g'ira-shira oqshom yorug'i ko'rindi.

Soqchi ikkovlari baravar yugurib borishdi. Chuqurlikdagi hovlida, hovuz chetidagi simyog'ochda lampochka yonib turar, Jumanov yaproqlarini chang bosgan archa tagida g'ayritabiiy yonboshlab yotar edi: Boshi hovuzning sement

qirrasida, gavdasi qirg'oqda... Koryagin uning jon taslim qilayotib, oyog'ini uch-to'rt silkitganini ko'rdi. Aniq ko'rdi...

Havoni qalin bulut o'ragan, yomg'ir hidi kelardi. Yuziga salqin epkin urildi. Koryagin to'rt oydan beri kutgan kuz epkini...

* * *

– O'rtoq general... Meni mazkur gruppadan bo'shatishingizni iltimos qilaman.

– Arizangiz bilan tanishdim, Koryagin. Umuman... Tergovni qonun bo'yicha olib borgansiz...

– Ruben Aramisovich... Men yaxshi yurist emasman...

– Hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilgan. Jumanov qochmoqchi bo'lganida, yiqilib tushgan... Boshi yorilgan... Bo'yin umurtqalari sinib...

– O'rtoq general!

– Darvoqe, sizni tabriklayman yosh do'stim! Pogoningizga yana bitta yulduz qo'shildi.

– Ruben Aramisovich!

– Vasiliy Stepanovich! Azizim! Biz sizni bu ishga yosh, g'ayratli mutaxassis sifatida taklif etganmiz. Bardam bo'ling! Jazolash kerak ularni! Hammasini! Bitta qo'ymay!

– Ruben Aramisovich! Men... Endi... Umuman bu sohada...

– Vax-vax-vax, aza ochmoqchimisiz?.. – Generalning boyqushnikidek qiyshiq burni tirishdi. – Ertagayoq O'zbekistonga qaytasiz. Ikromov delosi bilan shug'ullanasiz. Paxtachilik brigadasi boshlig'i bilan...

JINTEPA

Bu voqeaga ancha bo'ldi. O'shanda oltinchi sinfda o'qirdim. Aniq esimda bor: aprel oyi edi. Tog'liklar ravoch-

ning toshbosdi degan turini yaxshi bilishadi. Ravoch endi o'sib kelayotganida bir tomonga yonboshlatib, ustiga tosh bosib qo'yasiz. Shunda, oftob tushmagani uchun ravoch ham sersuv, ham chuchuk bo'lib o'sadi. Qishloq bolalari ravoch chiqishi bilan tanlab-tanlab ustiga tosh bostirib qo'yishadi. Birovning toshbosdisiga birov tegmaydi. Qoida shu.

Aprel oyi bo'lgani uchun qishlog'imiz atrofidagi past-u baland tepaliklar, tog'lardagi ravoch bolalar o'rtasida allaqachon «bo'lashib» olingan edi. Faqat kunbotar tomondagi Jintepa cho'qqisiga hali hech kim chiqmagandi. Jintepa eng baland cho'qqi bo'lganidan unda qor kech erigan, ravoch ham kech chiqqan, buni bolalar bilishardi. Ammo bu cho'qqiga chiqishga har kimning ham yuragi betlayvermasdi. Biz kichkina paytimizdanoq Jintepa haqidagi har xil vahimali gaplarni eshitaverib, yurak oldirib qo'ygandik.

Aytishlaricha, bir cho'pon suruvini boqib yurib tog'da adashib qolibdi. Kechasiga qolib ketibdi. Qarasa, olisda olov yonib turganmish. Boshqa cho'ponlar ham bor ekan, deb suyunibdi. O'sha joyga yaqin borib qarasa, gulxan atrofida yap-yalang'och qizlar sochini yoyib o'tirganmish. Cho'pon qo'ylarini tashlab orqasiga qochibdi. Ancha vaqt kasal bo'lib yotibdi...

Qishloq do'konini qo'riqlaydigan chol ham Jintepaga chiqqanida soqov bo'lib qolgan, deyishadi. Aytishlaricha, u yoshligida tuppa-tuzuk ekan. Bir kuni toqqa – o'tinga chiqibdi. O'tin kesguncha qorong'i tushib qolibdi. Kechasi cho'qqidan tushib kelayotsa, yo'lda savat zambil yotganmish. Kerak bo'lar, debdi-yu, bandidan sudrab ketaveribdi. Qarasa, zambil o'zidan-o'zi og'irlashib borayotganmish. Boyagi kishi qora terga botib ketibdi. Oxiri charchab qolibdi. «Savat zambil ham shunaqa og'ir bo'ladimi», debdi o'ziga-o'zi. Shunaqa desa orqasidan g'o'ldiragan ovoz eshilibdi: «Og'irligi qancha keladi?» Qorovul bunday o'girilib qarasa,

zambil emas, badbashara bir maxluqning qulog'idan ushlab kelayotgan emish. Qorovul: «Dod!» – deb pastga yuguribdi. Shu-shu tilsiz bo'lib qolibdi.

...O'sha kuni yakshanba edi. O'rtog'im Adham bilan Jintepaga chiqib, ravochlarga tosh bostirib tushadigan bo'ldik. Yo'l olis bo'lgani uchun erta turdim. O'sha yoqda yermiz, deb bitta nonni qiyiqchaga tugib oldim. Adhamlarnikiga chiqsam, buvisi supada o'tirib olib non chakichlayotgan ekan. Uning ko'zi yaxshi ko'rmasa ham qulog'i juda yaxshi eshitardi. Adham bilan pichirlashayotganimizni sezib qoldi.

– Nima? Jintepa? Hamma g'alva sen takadan chiqadi. – U qaddini rostlab menga o'qlov o'qtaldi. – Yo'ldan urma bolani! Ikkalangniyam jin chalib, og'zingni qiyshtirib ketadi.

Adham ikkalamiz vaqt g'animatida juftakni rostlab qoldik. Ko'chaga chiqqanimizda ham Adhamning buvisi qattiq-qattiq koyiyotganini eshitib turdik.

– Hali dadang kelsin, bir urdirib tomoshangni ko'rmasam, yurgan ekanman. Jintepada balo bormi senlarga!

Ikkalamiz oldinma-keyin yo'lga tushdik. Jintepaning yo'li olis. Avval soydan o'tiladi. Keyin mol fermasining yonidan o'tib, qir oshamiz. Undan keyin uzumzor keladi. Undan ham o'tib yana qir oshamiz. Keyin archazor oralab chiqib ketilaveradi, ketilaveradi, oxiri Jintepaga chiqiladi. Havo musaffo.

Shundoqqina oyoq ostida qoqigullar, bo'tako'zlar ochilib yotibdi. Osmonda to'rg'ay tipirchilab nafas olmay sayraydi. Tanho burgut havoda vazmin suzib o'lja axtaradi. Archazorga kirgunimizcha peshin bo'lib qoldi. Bir tomonga qiyshtirib o'sgan kattakon archa ostida o'tirib nonni yeb oldik.

– Bulut chiqdi, – dedi Adham oyog'ini chalishtirib yotganicha, archa shoxlari orasidan osmonga qarab. – Tezroq yurmasak bo'lmaydi.

Chindan ham havo salqinlashib borar, osmonda to'da-to'da bulutlar suzib o'tardi. Jintepaga chiqib borgunimizcha hammayoqni bulut o'rab oldi. Ammo cho'qqi ustidagi yalanglikka chiqishimiz bilan bulutni ham, shamolni ham unutdik. Har yer-har yerda to'da-to'da bo'lib ochilgan lolalar shamolda chayqalib turar, xuddi olovdek lovillab ko'zni olardi. Ikkalamiz u yoqdan-bu yoqqa yugurib lola terdik, endi bir qarich bo'lib o'sgan ravochlar ustiga tosh bostirdik.

– Men qirq bittasiga bostirdim, – dedi Adham harsillab. Uning peshanasi terlagan, katak ko'ylagining etagi shimidan chiqib ketgani uchun shamolda qanotdek silkinar edi.

– Men sanamadim, – dedim kuchayib borayotgan shamoldan baland kelish uchun baqirib.

Shu payt boshimiz ustida chaqmoq yarq etdi-yu, momaqaldiraq gumburladi. Adham menga, men Adhamga qaradim. Qop-qora bulutlar borgan sayin pasayib kelayotganga o'xshar, shunday boshimiz ustidan qora tumandek shiddat bilan suzib o'tardi. Birpasda atrof g'ira-shira qorong'i bo'lib qoldi.

«Hozir jala quyadi», deb o'yladim u yoq-bu yoqqa alanglab. Atrofda Yomg'irdan yashirinadigan na bir daraxt, na bir xarsang – hech nima yo'q edi. Yana momaqaldiraq guldiradi. O'sha zahoti Adhamning dahshat to'la tovushi eshitildi:

– Rustam! Boshing yonyapti, Rustam!

Hayron bo'lib Adhamga qaradimu dahshatdan qotib qoldim. Adhamning sochlari tikka-tikka bo'lib ketgan, negadir sochi orasidan ko'kimtir cho'g' sachrab osmonga otilardi.

– O'zingni... O'zingni boshing yonyapti! – dedim duduqlanib.

– Voydod! – Adham ko'zlari olayib boshini changallaganicha yugurib ketdi. Men ham toshlarga qoqilib-

qoqilib uning ketidan chopdim. Momaqalldiroq tinimsiz gumburlar, ora-chora sukunat cho'kkanida sochlarim o'zidan-o'zi tikkayib, yonib ketayotganga o'xshar, Adhamni chaqiray desam, qo'rqqanimdan ovozim chiqmasdi.

Oradan qancha o'tganini bilmayman. Bir mahal yigirma qadamcha oldinda yugurib ketayotgan Adham bir narsaga qoqilib yiqilib tushdi. Men yetib kelganimda u hamon boshini changallagancha kiyiko'tlar orasida g'ujanak bo'lib yotardi.

– Tur o'rningdan, Adham! – dedim yelkasidan tutib.

U qo'rquv bilan menga qaradi.

– Boshing yonib ketmadimi? – dedi yig'lamsirab.

– O'zingniki-chi?

Ikkalamiz beixtiyor boshimizni ushlab ko'rdik. Yo'q, hech qayerimiz yonmagan, sochimiz ham kuymagandi.

– O'z ko'zim bilan ko'rdim! – dedi Adham hamon qo'rquvdan ko'zlari olayib. – Sochingdan olov chiqib ketdi. Xudo ursin, o'z ko'zim bilan ko'rdim.

– Men ham ko'rdim! – dedim Adhamning boshiga sinchiklab qarab. – Sening boshingdan ham cho'g' chiqib ketdi. Soching o'zidan-o'zi tikka bo'lib, cho'g' sachrab ketdi. Ko'kimtir cho'g'.

Yana momaqalldiroq gumburladi. Yirik-yirik yomg'ir tomchilari shatir-shutur qilib tusha boshladi.

– Ajina! – Adham sakrab o'rnidan turib ketdi. – Ajina chaladi. Qoch!

Yana avvalgidek u oldinda, men keyinda yugurib ketdik. Ammo endi Adhamning boshidan cho'g' chiqmas, savalab yomg'ir yog'ar edi. Faqat mol fermasi oldiga kelgandagina sal nafasimizni rostladik. Qishloqqa kirganimizda yomg'ir tinib qolgan edi. Jintepa ustida quyosh botib borardi.

Adhamning ust-boshi loy bo'lib ketgandi. U xayrlashmasdan to'g'ri uyiga kirib ketdi. Men ham uyga kirdimu

damimni chiqarmay, yotib ola qoldim. Jintepaga chiqqa-nimizni oyim eshitsa, sog' qo'ymasligini bilardim.

Kechasi bilan aloq-chaloq tushlar ko'rib chiqdim. Qamishzorga kirib qolibmanmi-ey, qamishlar yonib ketibdimi-ey...

Ertalab yuvinayotganimda nuqul labim achishaverdi. Artinayotib, oynaga qarasam, hamma yog'imga uchug toshib ketibdi.

– Kun bo'yi har xil o'yinlarni o'ynaydi-da, kechasi alahlab chiqadi! – dedi oyim zarda bilan.

Indamasdan papkani ko'tarib Adhamlarnikiga chiqdim. Buvisi hadeb sigirning yeliniga yopishayotgan buzoqni chetga tortayotgan ekan.

– Menga bering, buvi, – dedim arqonga qo'l uzatib.

– Qoch, qorang o'chgur! – Adhamning buvisi arqonning bir uchi bilan yelkamga tushirib qoldi. – Bolani nima qilding? Senga baloyam urmaydi...

Demak, eshitibdi... Papkamni ko'targancha sekin ichkari kirdim. Adham kirpech ilingan devor ostidagi temir karavotda yotar, rangida rang qolmagan edi.

– Tuzukmisan? – dedim peshanasiga kaftimni bosib. Uning boshi cho'g' bo'lib qizib ketgandi.

– Darsga borolmayman, – Adham sekin pichirladi. – Tezroq keta qol. Buvim urishadilar.

Buvisining jahlini chiqarmaslik uchun sekin chiqib keta qoldim. Hali dars boshlanmagan edi. Kechadan buyon ichimga sig'dirolmayotgan gapni o'zim bilan bitta partada o'tiradigan Nusratga aytib berdim. Nusrat ko'zimga qarab turdi-da, birdan xaxolab kulib yubordi.

– Boshing yonib ketgan bo'lsa, manavini qayoqdan olding! – dedi peshanamga chertib.

Atrofimizni bolalar o'rab olishdi. Nusrat gaplarimni oqizmay-tomizmay bolalarga aytib berdi. Chekka-chekkadan masxaraomuz savollar yog'ila boshladi:

- Boshingni ustida gugurt chaqqaning yo'qmidi?
- Balki chaqmoq tegib yonib ketgandir?
- Adham-chi, Adham... Uyam kalla sho'rva pishirdimi?

Hatto hech qachon bunaqa gaplarga aralashmaydigan eng yuvosh Mo'minjon ham gap otib qoldi:

- Boshing yonganida qanaqa hid chiqdi?

Hammalari sinfni boshga ko'tarib qahqaha otib kulishdi.

Birinchi dars biologiyadan edi. Odamning maymundan tarqalganini jon kuydirib tushuntiradigan, o'zining ham allaqayeri maymunga o'xshab ketadigan, qanshari past, burun kataklari keng o'qituvchimiz bo'lardi. O'sha sinfga kirishi bilan hamma jimib qoldi. U odaticha stulni qog'oz bilan yaxshilab artdi-da, o'tirib yo'qlama qila boshladi. Adhamning familiyasini aytganida yonimdagi Nusrat hammadan oldin javob qildi:

- Adhamni ajina chalib ketibdi.

Bolalar gurr etib kulib yuborishdi.

O'qituvchimiz jurnaldan boshini ko'tarib, jerkib so'radi:

- Nima?

– Mana, Rustam ko'ribdi, – dedi Nusrat menga imo qilib.

- Nimani ko'ribdi?

– Ajina chalganini, – dedi Nusrat yana iljayib. – Jintepaga chiqishgan ekan, ajina chalib ketibdi.

Jahli chiqqanidan o'qituvchimizning yuzi qizarib ketdi.

– Tur o'ringdan! – dedi menga. – Nima deb aljirading?
Qanaqa ajina?

Sekin o'rnimdan turdim.

– Men ajina chaldi deganim yo'q, – dedim to'ng'illab. –
Adhamning boshidan cho'g' chiqib ketdi.

O'qituvchining burun kataklari yanayam kengayib ketdi.

- O'zingnikidan chiqmadimi ishqilib?

Bolalar boyagidan ham dahshatli qahqaha urib yuborishdi.

- Chiqdi! – dedim qaysarlik bilan.

O'qituvchining oldinga turtib chiqqan iyagi yanayam cho'zilib ketgandek bo'ldi.

– Nima chiqdi? – dedi kinoya qilib.

– Cho'g' chiqdi! – dedim ovozim titrab. – Sochimdan cho'g' chiqib ketdi.

– Sochingdan emas, ko'zingdan chiqib ketgandir.

Bolalar yana xaxolab kulishdi.

Alam bilan baqirib yubordim:

– Axir men o'z ko'zim bilan ko'rdim.

– Sening boshing emas, miyang yonib ketganga o'xshaydi. O'tir!

Biologiya o'qituvchisi nima dedi, nima dars o'tdi, esimda yo'q. Tanaffus paytida bolalarga mazax bo'lmaslik uchun maktab bog'ining etagidagi issiqxona atrofida aylanib yurdim. Darsga kirgim kelmasdi. Hozir fizika o'qituvchisi kiradi. Yana yo'qlama qiladi. Adhamga gal kelganda hammasi qaytadan boshlanadi.

Fizika o'qituvchimiz Ismoil aka yo'qlama qilib o'tirmadi. Sinfga kirishi bilan atrofga bir qaradi-yu, so'radi:

– Adham qani?

Bolalar xuddi shuni kutib turgandek, xaxolab kulib yuborishdi.

Ismoil aka qoshini chimirib so'radi:

– Nima gap?

Nusrat o'zini tutolmay qornini ushlab kula boshladi.

– Rustam aytsin, – dedi kulgidan nafasi qaytib. – O'zi aytsin.

Alam ichida Nusratning biqiniga shunday tushirdimki, bukchayib qoldi. Hech kim bunaqa bo'lishini kutmagan bo'lsa kerak, sinfga suv quygandek jimlik cho'kdi.

– Men o'z ko'zim bilan ko'rdim, – dedim alam bilan qichqirib. – Senlar ishonmasang, men aybdormanmi?

Ismoil aka asta yurib tepamga keldi.

– Nimani ko'rding? – dedi sekin qat'iy ovoz bilan.

Men indamay eshikka chiqib ketishni ham, Ismoil akaning savoliga javob berishni ham bilmay, turib qoldim.

– Nimani ko'rding? – dedi u yana.

– Adhamning boshidan cho'g' chiqib ketganini, – dedim pichirlab.

Ismoil aka ko'zimga uzoq tikilib qoldi.

– Qayerda?

– Jintepada.

Boyagi mushtning alami ketdi shekilli, Nusrat yana iljaydi:

– Ajinaning olovini ko'ribdi.

– Jim o'tir birpas! – dedi Ismoil aka jerkib. Keyin yana ko'zimga tikildi. – Momaqaldir oq bo'layotganmidi?

Men indamay bosh silkidim.

– Bulutlar past suzayotganmidi?

Ismoil aka masxara qilmayaptimi, degan xayolda uning ko'ziga tikildim. Yo'q, uning qiyofasi jiddiy edi.

– Past edi, – dedim sekin.

Ismoil aka negadir boshimga shapatilab qo'ydi. Bolalarni erkalaganda shunaqa qiladigan odati bor edi.

– Sen kamdan-kam uchraydigan tabiat hodisasini ko'ribsan! – dedi jilmayib. Keyin sinfga yuzlandi. – Bolalar, geografiyadan Kolumbn o'qigansizlar-a?

Bolalar chekka-chekkadan tasdiqlab javob qilishdi.

– Ana o'sha Xristofor Kolumb yangi yer izlab ketayotganida dengizda qattiq dovul ko'tariladi. Bo'ron bir necha hafta davom etadi. Oxiri dengizchilarning toqati toq bo'lib, kemani orqaga qaytarishni talab qilishadi. Ammo Kolumb yo'lidan qaytmaydi. Shunda dengizchilar g'azablanib, qo'zg'olon ko'tarishadi. Kolumbn oyoq-qo'lini bog'lab dengizga uloqtirmoqchi bo'lishadi. Endi kemadan otib yuboray, deb turishganida Kolumb birdan

qichqirib qoladi. «Yana bir kun muhlat beringlar. Ertaga bo'ron tinadi, havo ochilib ketadi», deydi. Dengizchilar unga ishonishmaydi. Shunda Kolumb kema machtasining bir uchida ilinib turgan koptokdek olovni ko'rsatadi. «Mana shu olov ertaga bo'ronni tindiradi», deydi Kolumb. Dengizchilar ikkilanib qolishadi. Uni suvga tashlamay turishga qaror qiladilar. Rostdan ham kechasi to'satdan bo'ron tinadi. Ertasiga charaqlab quyosh chiqib ketadi. Dengizchilar Kolumbning avliyoligiga yana bir bor ishonishadi.

Butun sinf suv quygandek jimib qolgan, bolalar Ismoil akaning hikoyasini mahliyo bo'lib tinglashar edi. O'zimning ham og'zim ochilib qolgandi.

– Kolumb avliyo emasdi, – dedi Ismoil aka. – U tabiat qonunlarini bilardi. Osmonda to'yingan zaryadlar ko'payib ketganidan keyin havo ochilishini tushunardi. Machtaga kelib qo'ngan olov koptok past suzayotgan bulutlar zaryadi bilan kema minorasining to'qnashuvi tufayli bo'lgan edi. – U bir zum jimib qoldi-da, yana so'radi: – Rus askarlari Bolgariyaga Shipka dovonidan oshib borganini bilasizlar-a? O'sha dovondan o'tayotgan jangchilar ham miltiqlarining nayzasidan ko'kimtir olov yonib turganini ko'p ko'rishgan. Rustam bilan Adhamning sochida yongan cho'g' ham xuddi o'shanaqa zaryadlar bo'ladi. Momaqalldiroq bo'lib turganida ikkovlari eng baland joyda – Jintepada bo'lishgan. Zaryadlar ularning sochiga qo'ngan.

Bolalar hang-u mang bo'lib, menga qarashdi. Nusrat ham og'zini ochib angrayib o'tirar, kiprik qoqishga madori qolmagan edi.

Ko'p o'tmay Adham tuzalib ketdi.

SHINGIL HIKOYALAR

TARNOV

Erta bahor edi. Hordiq kuni edi. Kech turdim. Hovliga tushsam, havoning avzoyi buzuq. Yuvnib chiqib qarasam, tunuka tom peshidagi tarnov bir tomonga qiyshayib yotibdi. Qishda yoqqan qor zalvoridan qiyshayib qolgan shekilli... Qattiqroq shamol bo'lsa, tushib ketadigan...

Yo'lakda yotgan narvonni ko'tarib kelib tomga tiraguncha tinkam quridi: zax tortib, zildek bo'p ketibdi.

Narvon zinasiga oyoq qo'yishim bilan ayvondan onam tushib keldi.

– Nima qilmoqchisan? – dedi ko'zimga termulib.

– Hozir, – dedim beparvo qo'l siltab. – Tarnov qiyshayib qopti.

– Shoshma, bolam, avval choyingni ichib ol...

– Hozir tushaman.

Shunday dedim-u narvonga tirmashdim. Tomga chiqishim bilan pastdan onamning xavotirli xitobi eshitildi:

– Ehtiyot bo'l, tom labiga borma!

– Uyga kirsangiz-chi! – dedim og'rinib.

Tunuka tomni taraq-turuq bosib, qiyshaygan tarnov oldiga keldim. Uvallo urinaman, tarnov la'nati o'nglansa qani! Zanglab ketganmi, bo'yog'i yopishib qolganmi...

Aksiga olib, yomg'ir shivalay boshladi. Avvaliga tomchilab turdi-da, keyin shiddat bilan yog'ib ketdi. Tom labida o'tirgancha, tarnovni qo'shqo'llab surishga urindim. Qilt etmaydi!

Pastdan yana onamning ovozi keldi:

– Menga qara, bolam!

Narvon oldiga qaytib keldim.

– Nima deysiz?

– Jon bolam, mana buni kiyib olgin...

Qarasam, onam bir qo'li bilan narvonni changallagancha, ikkinchi qo'lida to'n ushlab turibdi. Yupqa ro'moli, nimchasi ho'l bo'lib ketgan...

Xunobim oshdi.

– Hozir tushaman, dedim-ku! Men yosh bolamanmi?

– Shamollab qolasan!

– Obbo! Siz uyga kiravering! Hozir tushaman.

Shunday deb, tag'in tarnov oldiga qaytdim. Jahl bilan tarnovni mushtlay boshladim.

Bir mahal pastdan yana ovoz keldi:

– Ada! Adajon!

– Ha! – dedim battar xunob bo'lib.

– Varragim yirtildi!

Qarasam, yetti yashar o'g'lim hovli o'rtasida turibdi. Oyog'i ostida yirtilib, qamishlari qovurg'adek turtib chiqqan varrak loyga qorishib yotibdi. O'zi ko'ylakchan. Boshyalang. Yomg'ir ostida diydirab turibdi.

– Uyga kir, Farruh! – dedim baqirib. – Uyga kir, shamollab qolasan!

Quloq solsa qani! Goh varragiga, goh menga qaraydi. Kapitalagim uchib ketdi. Tomda sirg'alib-sirg'alib, narvon tomon yugurdim.

Uch-to'rt pillapoya tushib qarasam, onam hamon narvon oyog'ini changallab turibdi. Ro'moli jiqqa ho'l bo'lib, soch-ariga yopishib qolgan... Bir qo'li narvon oyog'ida. Bir qo'lida to'n...

TUYA VA ESHIK

To'rtinchi «A» sinfda o'qirdim. G'alati o'qituvchimiz bor edi. O'zi naynov. Bo'yni uzun. Har qadam bosganida

boshi liqillaydi. Tuyaning o'zi... Sho'xlik qilsak, koyimaydi, faqat «ha, bolajon-a, bolajon!» deb xo'rsinib qo'yadi. Unga sayin biz battar to'polon qilamiz... Ammo ko'zlarini yarim yumib she'r o'qiganida sinfirmiz jim bo'lib qoladi... O'sha she'rlarning ba'zi satrlari chala-yarim esimda qolgan. «Haqiqatni ko'rganlarning ko'zi ko'rdir, haqiqatni tinglaganning qulog'i kar...»

Kunlardan birida o'qituvchimiz darsga kirmadi. Ertasiga ham... Indiniga ham...

Qiziq, biz uni sog'ina boshladik.

Bir haftadan keyin yangi muallim keldi. To'rtinchi «B»ning muallimi. «Kitelli» muallim. Ko'rinishi shu qadar qo'rqquli ediki, hamma pildirpis bo'lib qoldi. Oramizdagi dadilroq bola «o'zimizning ma'lim qani?» deb so'ragan edi, «kitelli» muallim sapchib o'rnidan turdi.

– Shoir ma'liming Magadanda! – dedi qo'lini paxsa qilib. – U ma'lim emas. Xalq dushmani! Antisovet shoirlarning shig'irini o'qigan! Mutaassib! Dindor! Ma'limingni sog'ingan bo'lsang, otangga ayt: ikkalangni ma'limingni oldiga jo'natamiz!

Keyin bir-biridan vahimali gaplar tarqaldi. «Shoir-o'qituvchi xalq dushmani ekan. Yangi ma'lim «tegishli joyga» yozib beribdi...» «Kitelli muallim» yana ancha yil dars berdi. Ammo biron marta «shig'ir» o'qimadi...

Oradan ko'p yillar o'tdi. Navro'z bayrami bo'layotgan edi. Bir mahal mikrofonda tanish, viqorli ovoz jaranglab qoldi:

– Birodarlar! Yaratgan egamga shukronalar qiling! Mustaqillik qadimiy an'alarimizni tikladi. Navro'z – xalq bayrami. Hammamizning bayramimiz!

...Qarasam, o'zimizning «kitelli» muallim. Deyarli o'zgarmabdi. Hamon tetik. Hamon viqorli... Faqat egnida jigarrang kitel emas, to'n. Boshida do'ppi...

«Kitelli» muallimning gapiga mahliyo bo'lib, ro'paramda o'tirgan qariyaga e'tibor bermabman.

Bir mahal qariyaning o'zi gap boshlab qoldi:

– Siz meni tanimaysiz. Men sizning kitoblaringizni o'qiyman, bolajon!

«Bolajon» degani qalbimda qandaydir sog'inch tuyg'ularni uyg'otgandek bo'ldi. Pokiza kiyimli, qaddi bukik qariyaga sinchiklab tikildim.

– Siz...

– Ha-da! – dedi qariya muloyim kulib. – Men o'sha «shoir» o'qituvchingizman... Xursandman, bolajon, yozganlaringizdan xursandman.

...Agar mikrofonda «kitelli» muallim va'zini cho'zmasa, boshqa mavzuga ko'chgan bo'larmidik...

– Domla, – dedim qariyaga. – Manavilar hamon va'zxonlik qilib yotibdi. Axir siz...

– Nachora, – dedi qariya xotirjam alpozda. – Eshak qachon xohlasa, qayerda xohlasa, hangrayveradi, bolajon... Mening hech kimga xusumatim yo'q... – Bir zum o'ylanib turdi-da, siniq jilmaydi.

– Bir hangomani aytib beraymi?.. Esini yeb qo'ygan cholni ma'zur tutasiz. Bu gaplarni kitobdan o'qiganmidim, yo ellik ikkinchi yili «uyoqqa» jo'natishganida etapda eshitganmidim, esimda yo'q. Ammo ma'nosi bunday.

Qadim zamonda bir sarbon bo'lgan ekan. Ko'p yurtlarga boribdi. Ko'p aziyat chekibdi... Yoshini yashab, oshini oshab, vaqti-qazosi yetganini sezibdi. Bola-chaqalari, qarindosh-urug'lari bilan rozi-rizolik tilashibdi. «Mendan rozimisizlar?» debdi. «Mingdan-ming rozimiz», deyishibdi.

Nogahon yana bir qadrdoni sarbonning esiga tushibdi. Qirq yil xizmatini qilgan tuyasi bor ekan. Shu bilan ham vidolashadigan bo'pti.

«Vaqti kelsa, keragidan ortiq yuk ortdim, vaqti kelsa, suvsiz qolding, och qolding, mendan rozimisan?» – deb soʻrabdi tuyadan.

«Roziman, – debdi tuya. Toʻgʻri, yuk ham ortding, suvsiz ham qoldirding. Nimaiki qilsang, karvon manzilga bexatar yetsin, deb qilding... Ammo bir marta sendan qattiq dilim ogʻrigan. Bir gal mening jilovimni eshakning dumiga bogʻlab qoʻygansan... Oʻshanda eshak tuproq changitgani yetmagandek, bir-ikki marta tumshugʻimga tepdi... Sen boʻlsang, kulib tomosha qilding...»

Qariya jimib qoldi. Tagʻin siniq jilmaydi.

– Yaxshi sarbon yuk ortadigan tuyasini eshakka teptirib qoʻymaydi...

Mikrofonda esa, hamon «kitelli» muallim nutq irod etar edi:

– Mana, xudoga shukr, dinimiz tiklandi. Mahallamizda machit qurilyapti. Imonli boʻlaylik. Oʻt balosidan, suv balosidan, tuhmat balosidan asrasin...

Qayerdadir eshak hangradi. Uzoq, kuchanib hangradi...

TOMSUVOQ

Qishloqda kuz pallası tomsuvoq qilish udumi boʻlardi. Uning yozilmagan qoidasi bor. Birinchidan, hech kim tomini yolgʻiz oʻzi suvamaydi: hamma hasharga keladi. Ikkinchidan, beva-bechora, qoʻli qisqa xonadonning uyi eng avval tomsuvoq qilinadi. Keyin, navbatma-navbat davom etaveradi...

Oʻqituvchimizning hashariga ayniqsa koʻp odam yigʻildi. Uyi katta yoʻl yoqasida edi. Shundoq koʻcha chetidan loyxandaq qazilgan ekan. Somon, katta yoʻlning

ko'pchib yotgan tuprog'iga qovushib, obdon yumshabdi. O'qituvchimizning Azim aka degan qo'shnisi ishboshi bo'ldi. Birov xandaqqa tushib loy soberib turibdi, birov paqirlab loy tashiydi, yana birov tomda turib, ilgak bilan tortib oladi, boshqasi hafsala bilan suvaydi...

Erta peshindayoq hamma ishni qoyil qilib tashladik. Hovli o'rtasidagi tut tagida ovqatlanib o'tirsak, o'qituvchimizning keksa onasi kelib qoldi (Keyin eshitsak, bir hafta avval ko'zi yorigan qizirikiga ketgan ekan).

Kampir hassasini do'qillatib, to'ppa-to'g'ri o'qituvchimizning oldiga bordi.

– Nima qilding? – dedi o'g'lining salomiga alik ham olmay. – Nima ish qipqo'yding?!

Hammamiz hayron bo'lib qoldik. Muallim o'quvchilarining oldida ayniqsa mulzam bo'ldi, shekilli, qizarib ketdi.

– Nima qipman, oyi? – dedi ko'zlarini pirpiratib.

– Dard! – kampir hassasi bilan yerni nuqidi. – Sanga qachon aql kiradi, nodon bola! – Keyin Azim akaga yuzlandi. – Bu-ku, ahmoqlik qilishga qipti, siz qayoqda edingiz? Nega ko'chadan loy qildinglar?! Ko'chaning tuprog'iga tegib bo'ladimi, nobakor! Ko'pchilikning haqi-ku, bu! – Bir zum harsillab turdi-da, to'satdan yig'lab yubordi. – Man yurtning haqiga suvalgan tom tagida turmayman! – Shunday dedi-yu, supa labiga borib, ters o'tirib oldi...

...Hammamiz qaytadan tomga chiqdik... Suvoq qilishdan ko'ra loyni ko'chirish qiyin bo'larkan. Bitta qoldirmay, qirtishlab, tomdan tushirdik. Paqirlab tashib, ko'chadagi loyxandaqni to'ldirib qo'ydik...

...Oradan ko'p yillar o'tib, kampir ko'z yumganida tumonat odam uni o'sha ko'chadan so'nggi manziliga ko'tarib bordi...

Ko'cha tuprog'i iliq edi... Mayin edi...

LAYLAK

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi. Bola g'o'r edi, bola go'dak edi... Kunlarning birida ona-bola qishloqqa – uzoq qarindoshlarinikiga boradigan bo'lishdi. Ona qaddini g'oz tutib, tez-tez yurib borar, bola esa alang-jalang bo'lib, atrofdagi manzaralarni tomosha qilar edi. Qishloq gularida yarmini yashin uchirib ketgan bahaybat chinor bor ekan. Bola daraxtni ko'rib angrayib qoldi. Chinorning tarvaqaylab o'sgan shoxida supradek kattakon uya qorayib ko'rinar, uyada esa oyog'i, tumshug'i uzun bir qush turar edi.

Bola mo'jiza ko'rgandek taqqa to'xtab qoldi.

– Anavi nima, oyi? – dedi o'sha tomondan ko'z uzmay.

– Laylak, o'g'lim, laylak! – ona o'g'lining boshini silab qo'ydi. – Yura qol, jonim.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko'rmagan edi. Qush negadir bir oyoqlab turardi. U yana to'xtab qoldi.

– Nima u, oyi? – dedi tag'in chinor uchiga ko'z tikib.

– Laylak, o'g'lim, laylak.

– Nimaga bir oyoqda turibdi?

Ona kuldi:

– Bir oyog'i charchagandir-da. Yura qol, jonim.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko'rmagan edi. Qush negadir bo'ynini cho'zib tumshug'ini osmonga qaratib silkitar, shunda «tarak-tarak» degan ovoz eshitilardi.

Bola tag'in to'xtab qoldi.

– Nima o'zi u, oyi?

Uning ko'zlarida quvonch bor edi. Hayrat bor edi. Ona shoshib turardi. Mingta yumushi bor. Hali shaharga qaytishi kerak.

– Laylak dedim-ku, jinnivoy, – deya ohista egilib, o'g'lining yuzidan o'pdi. – Senga salom beryapti-da.

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi.

...Oradan o'ttiz besh yil o'tdi. Bola yigit bo'ldi. Ona keksayib qoldi. Oyog'idan mador, ko'zidan nur ketdi.

Kunlardan birida ona-bola ittifoqo yana o'sha qishloqqa borib qoldilar. Yigit qaddini g'oz tutib tez-tez yurib borar, ona esa toliqqan oyoqlarini, og'ir-og'ir ko'tarib bosgancha harsillab kelardi. Guzardagi yarmini yashin uchirib ketgan chinor hali ham bor ekan. Buni qarangki, chinorning tarvaqaylab o'sgan shoxida hamon supraddek kattakon uya qorayib ko'rinar, uyada esa oyog'i, tumshug'i uzun laylak turardi. Yigit laylakka bir qarab qo'ydi-yu qadamini tezlatdi.

Orqada kelayotgan ona nursizlanib qolgan ko'zlarini chinorga, chinor shoxida qorayib turgan uyaga tikdi. Shoxda osilib turgan narsa ko'ziga g'alati ko'rindi.

– Anavi nima, o'g'lim? – dedi to'xtab.

– Laylak, oyi, laylak!

Ona yaxshi eshitmadi. Uch-to'rt qadam yurib yana to'xtab qoldi. Savatdek narsa ichida bir nima oqarib ko'rinyapti. Qiziq...

– Nima, o'g'lim? – dedi ko'zlarini pirpiratib. O'g'il taqqa to'xtadi. G'ashi keldi. O'zi shoshib turibdi: mingta ishi bor! Odam qariganidan keyin ezma bo'lib qolarkan-da!

– Laylak! – dedi jerkib. – Laylak deyapman-ku, karmisiz!

Shunday dedi-yu, jahl bilan tez-tez yurib ketdi. Nachora, yigit yosh, yigit navqiron. Uning yumushi ko'p. Hali shaharga qaytishi kerak... Uning g'o'r, go'dak bolalari bor...

O'YLAR

AJDAHOGA DUCH KELGAN ADIB

(O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq yozuvchisi
Said Ahmad bilan suhbat)

Shahri azim Toshkentning shimolida, Bo'zsuv bo'yida nafis bir majmua bor. Uning nomi «Shahidlar xotirasi» deb ataladi. Bu obida O'zbekiston Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov tashabbusi bilan yaratilgan. Sharq me'morchiligi an'analarini o'zida aks ettirgan muzeyda mustabid sho'ro tuzumining beqiyos jabru-sitamlari, qatag'onlari haqida guvohlik beruvchi ko'plab eksponatlar joy olgan. Sakkiz ustunli ulkan gumbaz ostida shahid ketganlarning ruhi-pokiga ehtirom belgisi sifatida ramziy qabr joy olgan. Uning atrofidan ziyoratchilar arimaydi. Har yili Vatanimiz Mustaqilligi bayrami arafasida bu yerga minglab ziyoratchilar keladilar.

Tarixdan ma'lumki, sho'rolar boshqa xalqlar qatori, o'zbekning ham eng asil farzandlarini «xalq dushmani», «millatchi» degan turfa xil tuhmatlar bilan qirg'in qildi. 37-yillarda avj olgan bunday xunrezliklar 50-yillarda tag'in takrorlandi. Yana millionlab begunoh insonlar qamoqlarga tiqildi, lagerlarga jo'natildi. Ular ming bir uqubatlarga yo'liqdi, ming bir marta ajal komiga duch keldi.

Begunoh qamoqqa tiqilgan, olislarga badarg'a etilgan shunday insonlardan biri – xalqimizning sevimli va atoqli yozuvchisi Said Ahmad edi...

Odatda ustozdan ko'ra shogirdlar ko'proq bo'ladi. Sababi – bitta ustoz o'nlab shogirdning boshini silaydi.

Biroq bitta shogird «odam bo'lib», qaddini rostlaguncha bir emas, bir qancha ustozning mehri, mehnati kerak bo'ladi. Shu ma'noda men barcha ustozlarimni sidqidildan hurmat qilaman. Maktabda savodimni chiqargan Ma'suda opadan ham, universitetda ijod sirlaridan saboq bergan Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Umarali Normatovdan ham, birinchi hikoyamni e'lon qilgan Nazarmat aka va Nu'mon Nasimovdan ham, birinchi asarimga «oq yo'l» tilab, barcha mashqlarimni sinchiklab kuzatib borgan ulug' adib Adbulla Qahhordan ham – barchasidan behad minnatdorman. Bular orasida tag'in bir ustozim borki, men bu insonni ayricha mehr va iftixor bilan qadrlayman. Men unga hamisha suyanib keldim, hamisha yaxshilik ko'rdim. Bu – Said Ahmad aka! Albatta, Said Ahmad aka meni doim «erkalatib keldi», desam, to'g'ri bo'lmas. Kezi kelganda koyidi, achchiq-tiziq gaplar aytdi. Lekin, nimaiki demasin, kamolimni o'yladi. Boshimda quyosh charaqlab turgan kunlari qanchalik mehr ko'rgazgan bo'lsa, tashvishli kunlarda bundan-da ortiqroq mehr berdi... Gohi paytlarda shuncha yaxshiliklariga loyiq javob qiloldimmi, mehriga yarasha mehr berdimmi, deb o'ylab qolaman.

Said Ahmad aka bilan O'zbekistonning deyarli hamma tumanlarida bo'lganmiz, desam mubolag'a bo'lmasa kerak. Qayerga bormasin, davralarning guli bo'lib o'tiradi. Uning tesha tegmagan mutoyibalaridan bahra olmagan odam kam. Aytish mumkinki, yurtimizning eng chekka tumanidagi eng ovloq qishloqning eng ovloq xonadoniga borsak ham adibni quchoq ochib qarshi oladilar. Bunday ehtirom qozonish uncha-muncha insonga nasib etmaydi. Millionlab kitobxonlar Said Ahmad deganda teran roman va hikoyalar, ichakuzdi hajviyalar, tomoshabinlar esa mashhur «Kelinlar qo'zg'oloni»ni yozgan atoqli adibni tushunadilar. Va eng avvalo ularning ko'z o'ngiga o'ta xushchaqchaq, bir gapirib

o'n kuladigan inson keladi. Ammo uning qalbida qanchadan-qancha achchiq alamlar, armonlar borligini ko'pchilik bilmaydi...

Xudoga shukr, Vatanimiz mustaqillikka erishdi. Toptalgan qadriyatlar tiklandi. Yurtboshimiz Farmoni bilan Said Ahmadga O'zbekiston Qahramoni degan sharaflı unvon berildi. Shu pallada ustoz o'zi bosib o'tgan o'kinch va qayg'ularga to'liq umr yo'lini eslagan bo'lsa ajab emas. Zero, uning qismatida qayg'uli damlar oz bo'lmagan...

* * *

...Bir necha yil avval «Sharq yulduzi» jurnali tahrir hay'ati a'zolari bilan Farg'ona vodiysiga bordik. Odatdagidek, hamma yerda adibni samimiy mehr bilan kutib oldilar. Hamma yerda Said Ahmad akani savollarga ko'mib tashladilar. Shunday uchrashuvlardan birida «Mabodo uylanish niyatingiz yo'qmi?» degan savol tushdi. Adib yarim hazil bilan javob qildi: «Men uylansam, uncha-munchasiga qayrilib ham qaramayman. Ammo falonchilarga sovchi qo'yishim mumkin», deb uch-to'rtta eng go'zal raqqosa va xonanda qizlarning nomini sanadi. So'ng «bu tushmagurlar mendek kelishgan kuyovning qadriga yetmay, hozircha ko'nmay turishibdi», deb qo'shib qo'ydi. Qiyqiriq, qahqaha avjiga chiqdi. Shunda ustoz birdan jiddiy tortdi. «Menga shuncha sadoqat ko'rsatgan Saidaxonning xotirasiga xiyonat qilsam kim degan odam bo'laman!» dedi.

...Kechqurun ziyofat bo'ldi. Yedik, ichdik. Bir mahal Said Ahmad aka sigaret tutatib, soy bo'yiga tushib ketdi. Ancha hayallab qoldi. Negadir ko'nglim g'ash tortib, ortidan bordim. Qarasam, suv bo'yidagi xarsang ustida muk tushib o'tiribdi. O'z xayollari bilan band. Yoniga borib o'tirdim. Qayrilib qaramadi. Sekin yelkasiga qo'limni qo'ydim.

– Nima bo'ldi, ustoz? – deb qarasam, unsiz yig'layapti.

– Bu dunyoga nuqul azob chekish uchun kelgan ekanman, bolam, – dedi ovozi titrab...

Esankirab qoldim. Nima deyishni bilmasdim. Ufqda quyosh botib borar, adibning g'ussaga to'lgan yuzidan ko'z yoshlari oqib tushar edi. O'zi ham kulib, boshqalarni ham kuldirib, hammaga shodlik ulashadigan, yuzlab go'zal asarlar yaratgan, qator-qator shogirdlar yetishtirgan shunday ulug' inson qalbida naqadar og'ir dardlar borligini daf'atan his etdim-u, o'zimning ham yig'lagim keldi... Oradan ma'lum vaqt o'tgach, Said Ahmad aka bilan uzoq dardlashdik. Adib hikoya qilib bergan voqealar mustabid sho'ro tuzumiga qo'yilgan aybnoma edi! Minglab, millionlab begunoh insonlarni baxtiqaro qilgan totalitarizmga nisbatan hukmnoma edi! Ona Vatanimiz istiqboliga aytilgan shukrona edi!

* * *

– Said Ahmad aka! Bilaman, bu mavzuda gaplashish tugul o'sha kunlarni eslashning o'zi siz uchun og'ir. Bolaligimda ro'y bergan bir voqea hech esimdan chiqmaydi. Urushdan yarimjon bo'lib kelgan tog'am bo'lardi. Jarohatlari tufayli ko'p yashamadi. Tog'am biznikiga kelsa, «urushni gapirib bering», deb xarxasha qilardim. Tog'am «qo'y, bolam, o'sha kunlarni esimga solma» derdi. Bola ekanman, tushunmagan ekanman. Odam qaro kunlarni eslashni xohlamas, eslasa dili vayron bo'larkan. Urush-ku o'z nomi bilan urush. Har kuni o'limga duch kelasan. Hamma uchun yozilmagan bitta qoida bor: yo sen o'ldirishing kerak, yo seni o'ldirishadi! Ammo inson bolasi hech qanday gunohsiz ming bir mashaqqatga duch kelsa, boshiga itning kunini solsalar, xo'rlasalar, har kuni ming bora o'limiga rozi qilsalar, nima qilishi kerak? Elliginchi yillarda siz bilan baravar qamoqqa tiqilgan,

qatag'on qilingan, ona yurtidan minglab chaqirim naridagi gadoy topmas Stalin lagerlarida yuzlab ofatga duch kelgan adib va olimlar bilan suhbatlashishga urinib ko'rganimda, ular ham aynan tog'am aytgan gapni takrorlashdi. «Qo'ying, ukajon, u kunlarni eslamay qo'yaqolaylik», deyishdi.

– Albatta, o'sha kunlarni eslagan odamning yuragi zirqirab boshiga tushgan kulfatlarni qaytadan his qiladi, qaytadan iztirob chekadi. Ammo gap faqat qora kunlarni xotirlab o'z dilini xufton qilishdagina emas. Senlar nimani bilarding? «Odinochka» kamerasida oylab, yillab o'tirganlar, kechalari uxlamay so'roq berganlar, fashistlar konslageridan battar sharoitda xor bo'lganlar, Belomorkanal qurilishida kafansiz ketganlar, Kuril orollarida beligacha suv kechib ishlaganlar, butun bir kemani aristonlarga to'ldirib, dengizning o'rtasiga olib borib cho'ktirib yuborishganini ko'rganlar. Sibirning qahraton sovug'ida qarag'ay kesganlar, bir burda non uchun «blatnoy»lar o'ldirib yuborgan og'aynisini qabrga qo'yganlar, har qadamda «xabarkash», har qadamda «quloq»lar «ishlab» turgan zamonda yashaganlar tilini tiyishni odat qilgan. Xudoga shukr, shunday ozod zamonga yetib keldik. Qismatimdan nolimayman. Yo'qotganlarimni yo'qotdim, topganlarimni topdim. Sho'rolar peshanamga «xalq dushmani» degan tavqi-la'nat yopishtirgan edi, Xalq yozuvchisi bo'ldim...

– *Uzr, siz qanday qilib «xalq dushmani» bo'lib qoldingiz?*

– Eskilar aytadi: bandaning boshi Allohning toshi. Mening fojialarim uylangan kunimdan boshlangan. Hayotimdagi eng katta bayram fojia bilan aralashib ketgan.

1949-yil 27-sentabr kuni Saida Zunnunova bilan to'yimiz bo'ldi. Saidaxon bilan ko'ngil berishib turmush qurdik. ZAGSdan o'tmadik ham. Sevishdik, to'y qildik, vassalom! Saidaxonlar oilasida besh qiz, bir o'g'il bor edi.

Peshananing sho'rligini qara: nikoh kuni Andijondan telegramma keldi. Saidaxonlar xonadonidagi yakka-yolg'iz o'g'il – Nasibjon vafot etibdi. Kelinga bildirmadik. Qaynanam to'yni tashlab, Andijonga jo'nadi... Ertasiga Toshkentda kelinsalom bo'ldi, Andijonda tobut chiqdi... Og'ir bo'ldi. Ayniqsa, Saidaga... Ammo hali boshimizga bundan ham mushkul sinovlar tushishini bilmagan ekanmiz.

«Sharq yulduzi»ning nasr bo'limida ishlar edim. «Qadrdon dalalar» degan qissam, «Muhabbat» nomli hikoyalar to'plamim bosilgan kezlar edi. Saidaxon SAGUda o'qir, tanilib qolgan shoira edi. Xullas, turmushimizdan noliydigan joyimiz yo'qdek.

1950-yil 10-may kuni ta'tildan qaytdim. 1-May ko'chasida qahvaxona bo'lardi. Mamarasul Boboyev bilan Vahob Ro'zimatov hazillashdi. «Otpuskaga ketayotganingizda «yuvmasdan» qochib qoluvdingiz, aqalli endi tushlikda bizni mehmon qilarsiz». Uchovlashib qahvaxonaga yo'l oldik. Yo'lkada hazil-huzul qilib ketayotganimizda ko'cha chetiga qora «Emka» mashinasi kelib to'xtadi. Ikki kishi ikki tomonimdan kelib sekin qo'limdan ushladi.

– Bu yoqqa yuring, – dedi bittasi pichirlab. Hujjatini ko'rsatdi. Ilgarilab borayotgan hamrohlarimga faqat bitta gap aytdim.

– Men ketdim...

Vahob Ro'zimatov:

– Mehmon qilishdan qochdingiz-a, – degancha qolaverdi.

Bilaman, bugun ko'plar bu gapga hayron bo'lishi mumkin. Bu qanaqasi bo'ldi? Bir begunoh odam ko'chada ketayotgan bo'lsa-da, he yo'q-be yo'q, mashinaga bosib olib ketaversalar? U paytda shunday edi. Ko'chadan odamlarni olib ketib qamoqqa tiqish, kechalari uyiga bostirib kirish shu qadar odat tusiga kirgan ediki, ba'zilar «bugun olib ketadi,

ertaga olib ketadi» deb oldindan tayyorgarlik ko'rib ham qo'yishardi. Mustabid tuzum deb shuni aytadi!

Shunday qilib, meni mashinaga o'tqazdilar. Shopir yonida tag'in bir odam o'tirgan ekan. (Keyinchalik bilsam, Mansurov degan mayor ekan.) U paytlarda xalq o'rtasida qo'rquv, ishonchsizlik avj olgandi. Uch kishi bir joyga to'planib, latifa aytishga qo'rqardi. Latifadan ham «siyosiy xato» izlashar edi. Uch kishidan bittasi «sotsa» tamom! (Aksiga olib, men latifa aytmasam turolmayman...) Xullas, qora mashinada uyimga olib kelishdi. Tintuv qilib, hammayoqni tit-pit qilib yuborishdi. 1935-yilda rus tilida chop etilgan «O'zbek adabiyoti» degan almanaxni topishdi. To'plamda Abdulla Qodiriyning «Obid ketmon» qissasidan parcha bor ekan. «Uyida taqiqlangan adabiyotni saqlagani uchun» degan aybnomani shilq etib bo'ynimga ilishdi-yu, qamoqqa olib ketishdi. Onam bilan Saidaxon chirqillagancha qolaverdi. To'g'ri, zamon og'ir edi. Ammo aybim yo'qligini bilardim. Uyimdan topilgan kitob alohida asar emas, almanax bo'lsa, tag'in rus tilida chiqqan bo'lsa... Qamoqqa tushganimdan keyin ko'p narsalarni o'ylay boshladim. 30-yillardan boshlab 50-yillargacha, turli zamonlarda, vaqti-vaqti bilan Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jayev, M.Mirsharopov, Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Botu, Mirtemir, Oltoy, Sh. Sulaymon, Yu. Latif, To'xtasin Jalolov, G'. Rasulov, Shayxzoda, Shuhrat, H.Sulaymon, aka-uka Alimuhamedovlar, Shukrullo, Mirzakalon Ismoililar «xalq dushmani»ga aylandi. Albatta, o'sha paytda (aynan 50-yilda) men bilan oldinma-ketin yana qaysi hamkasblarimiz qamalganini bilmas edim. Ammo, 37-yilda, urush arafasida qamalganlarning qanday aksilinqilobiy tashkilotlarga «a'zo bo'lgani», «aybini to'la bo'yniga olgani» haqida gazetalar to'xtovsiz yozgani esimda edi. Hatto suddagi savol-javoblar ham e'lon qilinardi. Rostini aytsam, ilgarilari «odamga

ishonish qiyin ekan-da, qarang falonchidek odam josus ekan, millatchi ekan, bilmay yurgan ekanmiz», degan xayol yo'q emas edi. O'zim «xalq dushmani»ga aylanganimdan keyin bu gaplar tuhmat ekanini tushuna boshladim.

– *Dahshatli joyi shundaki, xalqning eng sara farzandlari, xalqqa fidoyilik bilan xizmat qilganlarga «xalq dushmani» degan tamg'a yopishtirilgan. Maqsad o'sha odamlarga nisbatan xalqda nafrat uyg'otish bo'lgan. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir... Bular el nazaridagi odamlar bo'lgan. Vatanga, xalqqa sidqidildan xizmat qilgan.*

– El nazaridagi odamlarni qamoqqa tiqib, shov-shuv ko'tarishdan maqsad – xalqni qo'rqitish ham edi. «Qodiriydek, Fitratdek, Cho'lponddek mashhurlar qamalganda sen kim bo'psan. Stalin aybsiz odamni qamamaydi!». Maqsad shu edi...

– *Said Ahmad aka! Maktabda o'qiganimizda tarixdan g'alati shiorni o'rgatishgan edi. «Sotsializm rivojlanib borgan sayin sinfiy kurash ham kuchayib boradi!» Bu degani, yer yuzida hech qachon tinchlik bo'lmaydi, ashaddiy kurash davom etaveradi degan gap edi. «Sinfiylik pozitsiyasi» degani g'irt tuhmat ekanini isbotlovchi yuzlab misollar keltirish mumkin. Buni qarangki, hatto aniq fanlardan ham «sinfiylik» izlaganlar. Bir vaqtlar E.Kelman degan akademik o'z zamonining mashhur matematiklari Yegorov va Bogomolovlarni «sinfiy dushman, reaksioner» deb qoralagan. Aql bovar qilmaydi, matematikada qanday «sinfiylik» bo'lishi mumkin? Nahotki, «ikki karra ikki-to'rt» degan oddiy karra jadvalni kapitalistlar boshqacha, sotsialistlar boshqacha talqin qilishi mumkin bo'lsa? Unday desak, Xorazmiyning buyuk asari «Aljabr»ni quldorlik manfaatini ifodalovchi asar deb baholash kerak bo'ladimi? «Sinfiylik» degan g'ayriilmiy qurolni dastak qilib, sho'rolar el boshiga cheksiz zulm yog'dirdi. Oktabr to'ntarishi,*

fuqarolar urushi, majburiy kollektivlashtirish, quloq qilish, 37-yil qatag'onlari... millionlarcha insonlarni qurbon qildi. So'ng qirg'inbarot ikkinchi jahon urushi bo'ldi. Urush bitib, odamlar endi erkin nafas olaman deb turganida yangi xunrezliklar boshlandi. Savol tug'iladi. 50-yillarga kelib bunday g'ayriinsoniy mudhishliklar nega qaytadan boshlandi? Urushda qancha odam qirilgan bo'lsa, yangi qatag'onlarda ham taxminan shuncha odam qamoqlarga tiqildi, surgun qilindi. Millionlab begunohlarning yostig'i quridi. Nega shunday bo'lganiga aql bovar qilmas edi. Keyinchalik ma'lum bo'ldiki, buning o'z sabablari bor ekan. 37-yillar qatag'onidan bir amallab omon qolganlar urush maydonlariga jo'natilgan. Ba'zilar «peredovoy»da ham tirik qolgan. Ular o'zlariga qilingan zulmni unutmagan edilar. Qolaversa, Yevropaning qoq yarmigacha borib kelgan, «chirib borayotgan» kapitalizmning muattar bo'yidan bahramand bo'lib, dunyoda haqiqiy erkinlik degan narsalar ham borligini tushunganlar ham oz emas edi. Odamkushlikni hunar qilib olgan qotillar esa bundaylarning ozod yurishini xohlamas, buning uchun yangi qatag'onlar, yangi qurbonlar kerak edi...

– Faqat bu emas, hali aytganimdek, xalqni vahimada tutib turish kerak bo'lgan. Bu ishda repressiya qo'l kelgan... Men qamoqda yotib bularni asta-sekin tushuna boshladim. Ammo gunohim yo'qligi, bir-ikki haftada, uzog'i bilan bir oyda chiqib ketishimga ishonar edim. Bir haftada emas, bir oy emas, o'n bir oy «odinochka»da o'tirib so'roq berdim.

– Gunohingiz yo'q, hech qanday isbot yo'q...

– Shoshma. Avval Saidaxonning boshidan o'tganlarni eshit. Balki bu savdolarning hammasini menga aytmagandir. Tirik bo'lsa, o'zi gapirib berardi. Men undan eshitganlarimni aytib beray. Bir xotinning eriga sadoqati bo'lsa, Saidachalik bo'lar. Eri «xalq dushmani» ekanini eshitgan zahoti sudga

ariza berib, ajrashganlarni ham ko'rdim, erini dushmandan olib feodalga solib, gazetaga xat yozganlarni ham, erini qamatgan xuddi o'sha tergovchiga o'ynash bo'lib olgan xotinlarni ham... Saidaning zuvalasi boshqa edi...

Shunday qilib desang, men u yoqda yotibman. Saidani «xalq dushmani»ning xotini deb universitetda turtkilay boshlabdilar (Saidaxon Andijon o'qituvchilar institutini bitirgan bo'lishiga qaramay SAGUda o'qiyotgan edi). Oradan ko'p o'tmay Yozuvchilar uyushmasiga chaqirishadi. «Xonim, siz bizni uyaltirib qo'yyapsiz, qamoq eshigiga tugun ko'tarib, «peredacha» olib borayotgan emishsiz. Yozuvchilar uyushmasining a'zosiga bunaqa qiliq yarashmaydi, ustiga-ustak partiyaga kandidatsiz», deb «akalarcha» nasihat qilishadi. Saidaxon bo'sh kelmaganidan keyin hujum kuchayadi. G. Milchakov (A. Qahhor bu kimsani «o'zbek adabiyotining qotili» degan edi), M. Sheverdin, Z. Fatxullin o'rta olib, dag'dag'a qilishadi: «Ering xalq dushmani! Endi uning tirigi tugul o'ligini ham ko'rmaysan! Qani ayt, ajrashasanmi-yo'qmi? Yo o'zing ham qamalging kelyaptimi?» Saida bilan ZAGSdan o'tmaganimni hali aytuvdim. Qonun jihatidan olganda pasportida muhr yo'q. Saida bir og'iz «biz qonuniy er-xotin emasmiz», desa qutulib qo'ya qolardi. Yo'q! Saidaxon boshqacha javob qiladi. «Yaxshi! – deydi. – Men erim bilan ajrashishim mumkin. Lekin bitta shartim bor: erim «Men xalq dushmaniman», deb o'zi og'zi bilan menga aytsin! Qo'llaringdan kelsa, meni yuzlashtiringlar!» Uni haqorat qilib, xonadan quvib chiqaradilar. Ertasiga Saida Yozuvchilar uyushmasiga a'zolik hujjatini pochta orqali jo'natib yuboradi... Sarson-sargardonlik shundan keyin boshlanadi.

Saidaning she'riyat haqida yozgan diplom ishi bekor qilinadi (Maqsad universitetni bitirishga xalaqit berish bo'lgan). Shunda u qisqa vaqt ichida «Oltin vodiyan

shabadalar» romanida «kommunistlar obrazi» degan mavzuda qaytadan diplom ishi yozadi va yoqlaydi. Biroq, unga ish bermaydilar, she'rlari bosilmaydi. Qayerga borsa, «xalq dushmani»ning xotini deb ola qaraydilar. Oilada ahvol tanglashadi. Onam, xotinim yarim och hayot kechira boshlaydilar.

Nihoyat Saidaxon respublika Kompartiyasi Markaz-qo'miga xotin-qizlar bilan ishlash bo'limidagi Halima Muhiddinova degan mas'ul xodima qabuliga kiradi. «Partiya va hukumatimiz xotin-qizlarni faol hayotga tortish uchun ko'p harakat qilyapti. Lekin men ertadan boshlab paranji yopinishga qaror qildim!» deydi-da, qo'lidagi ikkita diplomni (Andijon o'qituvchilik instituti va SAGUni bitirganlik haqidagi hujjatlarni) uloqtirib chiqib ketadi. Uni yo'ldan qaytarib kelishadi. Yordam berishadi. «Yordam» shu bo'ladi, uni Qo'yliqdagi koreys maktabiga rus tili o'qituvchisi qilib tayinlaydilar. Tabiiyki, Saida rus tilidan dars bera olmaydi, ishdan bo'shshga majbur bo'ladi. Uyda o'tirib, mashinistkalik qila boshlaydi. «Abay» romanining tarjimasini ko'chiradi... Ba'zan uncha yoqtirmagan odaming dunyoda eng asil odam bo'lib chiqishi mumkin. O'sha paytlarda Davlat nashriyotida Kasabov degan buxgalter bo'lar edi. Nashriyotga qalam haqi olishga borgan jamiki yozuvchilardan «cho'tal» undiradigan odati bor edi. Bu qilmishi hammaga ham yoqavermas edi. Shuning uchun unga «Qassobov» deb laqab qo'yishgandi. Saida ham «Abay» romanini ko'chirgani uchun haq olganida Kasabovga o'n so'm beradi. Shunda Kasabov aytadi: «Sendan pul olib esimni yeganim yo'q. Sen qizim, ko'p xafa bo'lma. Bu kunlar unut bo'lib ketadi. Ko'rasan, ering yaqinda oqlanib keladi...» Oilamizning eng yaqin odamlari qadamini uzib ketganida yetti yot begona kishidan bunday gap eshitgan Saida yig'lab yuboradi...

Kezi kelganda Saidaga (demak menga ham) otalik qilgan tag'in bir odamni aytishim kerak. Bu – Birlashgan nashriyot direktori Vasiliy Fyodorovich Arxangelskiy edi. «Xalq dushmani»ning xotinini ko'rsa hamma besh chaqirim nariga qochib yurganida Saidani shu odam ishga oladi.

Qamoqdan qutulib kelganimdan keyin Saidaxon bilan ZAGSdan o'tdik... Saida vafot etganiga ancha yil bo'ldi. Pasportimni almashtirganimda ZAGS muhrini qaytadan bostirdim. Saida vafotidan keyin ham meniki...

...Ruslar «on sidit v tyurme» deydi. Tatarlar birovga do'q qilsa, «turmag'a o'tirtam» deydi. Biz – o'zbeklar «qamoqqa tushdi», «qamoqda yotibdi», deymiz. O'n bir oy «odinochka»da bo'lganimda bir narsani angladim. Turmada «yotilmas» ekan, aynan «o'tirilarkan». Darchasiga temir panjara tutilgan katalak xona. Darcha jonivor ham qo'l yetmas joyda, tepada.

– *Kechirasiz. Said Ahmad aka. Aytishlaricha, «odinochka»da uzoq muddat o'tirgan odamlardan ba'zilarining ko'z qorachig'i yuqoriga qarab qolarkan. Muntazam nurga, tashqariga termulib o'tirgandan bo'lsa kerak-da?*

– Shunaqa bo'ladi! Tashqi hayot bilan bog'laydigan birdan-bir narsa – o'sha panjarali darcha... Osmonni ko'rasan. Bulutlarni. Ichkarida esa... Burchakda hojatga ishlatiladigan paqir. Yotish mumkin emas. Yakkash o'tiraman. Yotsam, eshik tuynugidan dam-badam mo'ralab turadigan nazoratchi o'shqiradi. «Karserga tiqaman, ablah!» Odam yurmasa, yotmasa, oyog'i shishib ketarkan. Botinkam siqib, azob beradi. Kuyovligimda kiygan kulrang koverkot kostum-shimim bo'lardi. (Bu yoqqa o'sha kiyimda kelgan ekanman.) Ikki qo'limni ikki tizzamga tirab o'tiraverganimdan shimimning tizzasi yaltirab, qatirmoch bo'lib ketdi.

Qishin-yozin piyma kiyib yuradigan nazoratchi (kamera eshigiga kelib quloq solmoqchi bo'lsa, qadam tovushi

eshitilmasin, deb piymada yuradi) ora-chora temir eshikdagi ovqat uzatadigan tuynukchani ochadi-da, hech gapdan hech gap yo'q «Ti sam podles!» – deb baqiradi. «Men sizga nima dedim?» – desam, «Gapirmasang ham bilaman, ichingda meni so'kyapsan», deydi. Kechasi yotganda albatta adyoldan boshni chiqarib, chalqancha uxlash shart. Chiroqni xuddi ko'zingga to'g'rilab qo'yadi.

So'roq boshlandi. Konyuxov, Korshunov deganlari tergov qiladi. Boshlig'i Genkin degan kimsa ekan. Gazetada o'qib qoldim. Bu shaxs 37-yillarda Tuxachevskiydek sarkardaning «aybini bo'yniga qo'ygan» odam ekan. Ularning oldida men kimman! Qismatim oldindan hal qilinganini o'sha paytda bilmabman. Gunohim yo'q, baribir chiqarib yuboradi, deb o'ylabman.

Meni Jinoyat Kodeksining 66-moddasi 1 va 2-bandlari bilan ayblashdi. «Sovetlarga qarshi propaganda olib borgani uchun», «Uyida taqiqlangan adabiyot asragani uchun». Har gal so'roqda bir gap qaytariladi.

– Xo'sh, qaysi tashkilotga a'zo eding? Qo'poruvchi tashkilotda yana kimlar bor edi? Maqsadlaring nima edi?

Men ham bir gapni qaytaraman.

– Hech qanaqa qo'poruvchi tashkilotni bilmayman. Siz bilsangiz ayting, bo'ynimga qo'ying.

– Biz-ku hammasini bilamiz. O'zing aytsang, gunohing yengillashadi. O'ylab ko'r...

Hammasi tuhmat bo'lsa, nimani o'ylay?! O'n kun o'tadi, o'n besh kun o'tadi... Tag'in so'roq... Tergov ba'zan kechasi bilan davom etadi. Tergovchining biri dam olayotganida boshqasi so'roq qiladi. Dalil topilmaganidan keyin yangi ayb-nomalar taqadilar. «Asarlarida o'rtoq Stalinning rahbarlik roli ko'rsatilmagan», «Xalqlar do'stligi kuylanmagan», «Asarlarida rus xalqi vakilining obrazi yo'q».

Keyin undan ham antiqa «gunohlar» topishdi. «Oting nega Said Ahmad, nima, saidlar avlodidanmisan? Yo ota-onang Said Olimxonga taassub qilib senga Said Ahmad deb nom qo'yganmi?» – So'ng bir hikoyamga yopishib olishdi. Men ovsar o'sha hikoyaga «Oqsoqol opa» deb nom qo'ygan ekanman. Hikoyada selsovet raisi bo'lmish ayolning jonkuyarligi maqtalغان edi. Ruschaga «Beloborodaya sestra» deb tarjima qilishdi-yu, sen o'zbek ayolini soqolli degansan, demak feodalsan, deb tag'in bitta ayb taqashdi.

– Bema'nilik! Absurd! Gurjistonlik kinochilar yaratgan «Tavba-tazarru» filmida bir detalga e'tibor berganmisiz? Qamoqqa tushgan personaj «ha, men kontrrevolyutsion tashkilot a'zosi edim, maqsadim Bombaydan Londonga tonnel qazish edi», deb «aybini bo'yniga oladi». Nega unaqa deding, deb so'rashsa, «Tergov hujjatlari yuqoriga borib yetsa, meni nohaq qamashganini bilib, ozod qiladi», deydi. Qizig'i shundaki, Abdulla Qahhorning «Zilzila» qissasida ham xuddi shunga o'xshash lavha bor. (Afsus, qissa chala qolgan. Chamasi Abdulla aka baribir bu asar e'lon qilinmaydi, deb hafsalasi pir bo'lgan shekilli.) Asar qahramoni «men aksilinqilobiy tashkilot a'zosi edim. Kaspiy dengiziga borib, katerda Qora dengizga o'tmoqchi edim», deb gunohini «tan oladi». Kaspiydan Qora dengizga katerda o'tish haqida gapirishning o'zi kulgili. O'rtada Kavkaz tog'lari yotibdi. Qarang, ikki ijodkor bir-biridan mutlaqo bexabar holda bir narsaga ishora qilyapti. Qo'yilgan aybnomalar g'irt bema'niligini aytmoqchi. Nachora. Mantiqsiz savolga mantiqli javob berib bo'lmaydi.

– Mantiqsiz so'roqlar jonga tegar edi. Bora-bora so'roq paytida shimimning qatirmoch bo'lib ketgan tizzasiga tirnog'im bilan tergovchining rasmini chizadigan odat chiqardim. Tergovchi tepamga kelib, o'zining rasmini

tomosha qiladi. «O'xshatibsan, ablah» deydi-da, «o'chirib tashla!» – deb o'shqiradi. Yangi savollarni o'ylab topadi.

– Chet el jurnallarini o'qib turasanmi?

– Yo'q.

– Hech ko'rganmisan?

– Bir marta ko'rganman.

– Qaysi jurnalni?

– Esimda yo'q. Amerikaning jurnali bo'lsa kerak.

– Qayerda ko'rgansan?

– Sartaroshxonada.

– O'qiganmisan?

– Yo'q. Ingliz tilini bilmayman. Rasmlarini tomosha qilganman.

– Rasmlari chiroyli-a?

– Chiroyli.

– Qog'ozi yaltiroq, a?

– Yaltiroq.

– Mana endi hammasi ayon bo'ldi. Demak, Amerikaning jurnali yaxshi, o'zimizning «Ogonyok» yomon. Shundaymi? Amerika jurnalidagi rasm chiroyli chiqqan. Bo'yog'i yaxshi. Demak, u yerda ximiya sanoati rivojlangan. Bizda esa rivojlanmagan. Qog'ozi yaxshi deding. Demak, u yerda qog'oz ishlash sanoati zo'r. Mashinalari yaxshi. Bizniki esa – yomon. Demak, kapitalistik tuzumni ulug'lab, sotsialistik tuzumni qoralayapsan. Bilamiz, hammasini bilamiz! Sen a'zo bo'lgan kontrrevolyutsion tashkilotning raisi Oybek, sekretari Yashin. Tashkilotda Shayxzoda, Mirtemir, Turob To'la, Asqad Muxtor, Shukrullo, Shuhrat, sen borsan. Boshqalarniyam bilamiz. Qani ayt. O'zing ayt. Tashkilotda yana kimlar bor edi? Maqsadlaring nima edi?

Savollar mana shu. Ertasiga hammasi qaytadan boshlanadi.

– *Urarmidi?*

– Bir marta urgan. Hadeb indamay o'tiraverganimda ingichka qilib buklangan «Pravda» gazetasi bilan boshimga urgan. Orasida temir chizg'ich bor ekan. «Nega urasan?» desam, kulgan. «Iye, hali sen «Pravda»ga qarshimisan, yaxshi, buniyam yozib qo'yamiz...»

Burchakdagi kamerada yotardim. Radio karnayining tovushi, ko'chadan o'tayotgan odamlarning gangir-gungur gaplari eshilib qolardi. Ba'zan qahvaxonadan ichib chiqqan mastlarning qiyqirig'i quloqqa chalinardi. To'g'risi, o'shalarga judayam havasim kelardi. Bir kuni Turob To'la bilan Mirmuhsin radioda she'r o'qidi. Do'stlarimning o'zini ko'rib turgandek dilim yorishdi. Ertasiga so'roq paytida tergovchi aytdi.

– Oybek aybini bo'yniga oldi. Falonchi-falonchilar (Turob bilan Mirmuhsinning ham nomini aytdi) ham gunohiga iqrar. Bitta seni deb hammasi qiynalib sud bo'lishini kutib o'tiribdi. Sen gunohingni bo'yingga olsang, hammangni lagerga chiqarib yuboramiz. Harqalay ochiq havoda yurasanlar.

– Radioning odami bu yerga keldimi yo o'zlari borishdimi? – dedim o'zimni ovsarlikka solib.

– Qanaqa radio?

– Turob To'la bilan Mirmuhsin kecha radioda o'qigan she'rini shu yerga kelib yozib olishdimi yo o'zlari radioga bordimi?

Tergovchining ko'zi ola-kula bo'lib ketdi.

– Hali radio eshitaman degin...

O'sha kuniyoq chumchuqning ham ovozi kirmaydigan boshqa kameraga tiqishdi.

Tag'in bir safar yangi aybnoma taqaydigan bo'ldi. Go'yo men 5-noyabrdan 6-noyabrga o'tar kechasi Ramz Bobojonning uyiga mehmonga borganman. Leningraddan qaytib kelgan Ramz go'yo «u yoqlarda odamlar maza qilib yashayapti» degan va bu bilan millatchilik qilgan. Men o'sha

kuni Ramz Bobojonning uyiga bormaganim aniq. Shuni aytdim. Keyin qo'shimcha qildim.

– Ramz unaqa deganiga ishonmayman. Blokadadan chiqqan Leningradda odamlar maza qilib yashashi mumkin emas.

Kameraga qaytib kirgandan keyin o'sha kuni qayerga borganimni esladim. O'sha kuni o'rta Chirchiq rayonidagi mashhur paxtakor Zamira Mutalova haqida ocherk yozib, raykomdan «Qizil O'zbekiston» gazetasiga telefonda ocherkni diktovka qilgan ekanman, o'sha yerda tunab qolgan ekanman. Navbatdagi so'roqda tergovchiga shuni aytdim.

– Ishonmasanglar raykomdan so'ranglar. Ocherk bayram kuni gazetada bosilgan.

Xullas, bu tuhmat ham ish bermadi: topgan guvohining o'zi boshini changallab qoldi. Tilimdan ilintirish uchun uch kun latifa aytirib ham ko'rdilar. Tergovchi seni latifaga usta, deydi, qani, bir eshitaylik, deb turib oldi. Ro'parangda birov pichoq o'qtagandek dag'dag'a qilib tursa-da, tag'in kuldirgin, desa g'alati bo'larkan. Bildimki, mendan «siyosiy» latifa eshitib, yana bir «jinoyat»ni bo'ynimga ilmoqchi.

«Mana senga», deb og'zimga kelgan uyat-uyat latifalarni aytaverdim! Bundan ham ish chiqara olmadilar.

«Odinochka»ga tushganimning sakkizinchi oyi kameraga Ilya Grigoryevich Rafkin degan odamni ham qo'yishdi. Dardlashadigan kishi topilganiga quvondim. Rafkin Qo'qonda vrach bo'lib ishlagan ekan. Uni ham tuhmat bilan qamabdilar. U bir gapni ko'p qaytarar edi. «Tuhmatmi, balomi, bo'ynimga olaman-u, lagerga chiqib ketaman». Keyin sekin-sekin meni ham ko'ndirishga urina boshladi. «Yosh ekansiz, uka, bergan qog'oziga qo'l qo'ying-u qutuling. Sud qilar, hay besh-olti yil berar. Bu katalakda o'lib ketishdan nima foyda?!»

Bir narsani sezib qoldim. Rafkin so'roqqa chiqib, buterbrod ko'tarib keladigan odat chiqardi. «Ha?» – desam, «Xotinim peredacha olib keldi», deydi. Xotining peredachasida bufetning buterbrodi nima qiladi? Bildimki, u provakator, «seksot», tergovchi ataylab qo'ygan odam. Uning xoinligini yana bir narsadan bilib oldim: Rafkin har gal «so'roqqa chaqirilganda» ich kiyimini yangilab keladi, oyog'ida yap-yangi paypoq... U bilan gaplashmay qo'ydim. Oxiri uni olib chiqib ketishdi. Qayta ko'rmadim. Bir gal so'roqqa chaqirishdi, tergovchi kattakon daftarni o'qib o'tiribdi. Varaqlaydi-da, bosh chayqab qo'yadi.

– Husanxo'jayev Saidahmad, – deydi-da, daftarni yana varaqlaydi. – Bu yerda ham Husanxo'jayev... Mana, yana ikki joyda Husanxo'jayev... Shuncha hunar ko'rsatishga qachon ulgurding?..

Shu payt nima bo'ldi-yu, uni chaqirib qolishdi. O'rniga boshqa tergovchi kirdi. Daftarni varaqlab kuldi:

– Obbo azamat-ey! VKP(b) tarixidan erinmay konspekt yozibdi-ku.

Bir ozdan keyin boyagi tergovchining o'zi qaytib kirdi. Sherigi chiqib ketdi.

– Xo'sh, – dedi daftarni varaqlab. – Qayerda to'xtagandik?

– Husanxo'jayev VKP(b) tarixiga kirgan joyiga kelib to'xtagandik.

– Nima? Qayoqdan ko'rding? – dedi u chinqirib. Hech esimdan chiqmaydi. Bir kuni so'roqqa olib chiqishdi. Derazadan qarasam, qalin qor yog'ibdi. Terak uchida qarg'alar g'ujg'on o'ynayapti.

– Qayoqqa qarayapsan? – dedi tergovchi.

– Daraxtni tomosha qilyapman, chiroyli bo'pti. Toshkent-da shunday baland teraklar borligini bilmagan ekanman.

– Shunaqami? – tergovchi labini burib kinoyali iljaydi. – Men seni o't ham o'smaydigan joyga jo'natmasam, otimni boshqa qo'yaman!

Fevralning boshlarida tergov tugab, Saidaxon bilan uchrashtirishdi. Tergovchi siyosatdan, tergov ishlaridan, tashqarida bo'layotgan voqealardan gaplashish mumkin emas, aks holda uchrashuvni to'xtatib qo'yaman, deb tayinladi, o'zi gaplarimizga quloq solib tikilib o'tiraverdi.

Nimani gaplashishni bilmasdik. Saidaxon ham hayron. Shunda u «Sizga pijama olib qo'ydim, bu yerdan chiqqaningizdan keyin kiyasiz», – dedi.

Tomog'imga mushtdek bir nima tiqildi. Gapirolmay hiqillab qoldim. Ko'zlarimdan yosh chiqib, o'kirib yig'lab yubordim. Shuncha urinmay, yig'ini to'xtatolmayman. Saidaxon bilan hech nimani gaplasholmadik. Uchrashuvga ajratilgan besh minut mening hiqillab yig'lashim bilan o'tib ketdi.

Kameraga qaytib tushganimda nima uchun yig'laganimning sababini o'ylay boshladim. Dahshatli tergovda, haqoratlar, kamsitishlar avj olgan paytlarda ham, tongotar so'roqda ham ko'zimga bir tomchi yosh kelmagandi. Endi nega bunaqa bo'ldi?

Esimni tanibmanki, o'z tashvishimni o'zim ko'targanman. O'n ikki yoshimdan mehnat qilaman. Ust-boshimni o'zim olganman. Qorin tashvishi ham o'zimda edi. Kollektivlashtirish yillarida kolxozlarga chiqib arab alifbosida, keyin lotin alifbosida alvonga shiorlar yozardim. Shu uchun menga haq to'lashardi. Suratkashlik qilib, viveskalar yozib, tirikchilik qilganman. O'ylab qarasam, yoshim o'ttizga yetib biron odam menga na bitta do'ppi, na bitta paypoq olib bergan ekan. Saidaxonning «Sizga pijama olib qo'ydim», degani yurak-yuragimga borib tekkan ekan. Umrimde birinchi marta men to'g'rimda o'ylaydigan odam bor ekan, deb hayajonlanib ketgan ekanman.

Nihoyat, «odinochka»da salkam o'n bir oy o'tirgach, 1951-yil 8-mart kuni umumiy kameraga o'tqazishdi. Ancha

yengil tortdim. Demak, aybim yo'q ekan. Bo'ynimga qo'yadigan «gunoh» topilmadi. G'alati odamlar bor edi bu yerda. Eslasam, kulishni ham bilmayman, yig'lashni ham. Umumiy kamerada uzoq vaqtdan beri o'tirgan, soqoli ko'ksiga tushgan chol bor ekan. Aniq esimda yo'q, harqalay Badaxshon tomonlardan bo'lsa kerak. Odamlar uni gapga soladi:

– Ota, sizni nega qamadi?

– Man hayron, – deydi chol.

– Nima gunoh qiluvdingiz o'zi?

– Man gunoh qilgon? Yo'q, man gunoh qilgon yo'q. Man ukamga to'yga borgon...

– Ukangizning to'yiga borsangiz qamaydimi?

– Man hayron, – deydi chol. – Man to'yga borgon. Mani agent degon. Yapon agenti degon.

– To'yga qanday borgan edingiz?

– Qanday? Meshni puflagon. Panjning u betiga meshda o'tgon. Ertasi to'ydan qaytgon. Shapkali chegarachi meni ushlogon, agent degon.

Ma'lum bo'lishicha, chol Panj daryosining narigi betiga ukasining to'yiga meshga minib o'tgan. Buni qarangki, daryoning u beti Afg'oniston ekan. Qishloq odamlari avvallari ham meshda u yoqdan-bu yoqqa o'tib yurishgan. Chol to'ydan qaytib bu sohilga o'tganida ushlab olishgan. Yaponiya agenti deb qamashgan. Yapon razvedkasi ahmoqmiki, savodsiz bir cholni agent qiladigan, deydigan odam yo'q. Chol sho'rlik bir necha oydan beri qamoqda.

– Endi nima qilasiz, ota? – deb so'rashadi hangomatalab aristonlar.

– O'tiravergon.

– Iya, xolangizni uyimi bu o'tiraveradigan?

– Xolamning uyi? Yo'q, man hukumatimning uyiga o'tirgon.

Ana sizga «siyosiy dushman»ning tushunchasi. Shu beozor cholki siyosiy dushman bo'lsa, bilmadim...

Umumiy kameradagilar «shuncha so'roq qilib ayb topolmabdi, erta-indin sizni chiqarib yuboradi», deyishganida ichimda chiroq yonib ketgandek bo'ldi.

Indiniga esa... «Husanxo'jayev! Sen «troyka» qarori bilan halq dushmani sifatida o'n yilga hukm qilinding», degan qarorni o'qib eshittirishdi. Hech qanday dalilsiz, hech qanday sudsiz. O'sha zahoti qopimni orqalatib, ochiq mashinaga o'tqazishdi. Yuk stansiyasiga olib borishdi. Stansiyada Sharifa Abdullayeva degan olima o'qituvchimni ko'rib qoldim. Opa meni ko'rib turgan joyida to'xtab qoldi. Faqat bir og'iz «ketdim, ketdim» deyishga ulgurdim.

Shu kungacha, o'n oydan ortiq «odinochka»da yotganimda ham, tanholik azobida qiynalganimda ham ko'nglimda bir ilinj bor edi. «Dunyoda haqiqat bordir axir, gunohim yo'q, chiqib ketaman», deb o'ylardim. Vagonga chiqqanimdan keyin ichim bo'm-bo'sh qoldi. Tamom! Endi yurtimga qaytib kelmayman. Tupurdim adolatga ham, haqiqatga ham! Hammadan, o'sha Stalindan ham, Beriyadan qo'limni yuvib, qo'ltiqqa urdim. Shunda bir haqiqatni aniq angladim. «Xalq dushmani» deb qamalanganlar g'irt tuhmatga yo'liqqan. Hammasi yolg'on, bo'hton!

Hammasi tamom bo'ldi. Meni olib ketishyapti. Mahbuslar vagonining kupelaridan eshiklar olib tashlanib panjara o'rnatilgan. Xuddi hayvonot bog'idagi vahshiy hayvonlar saqlanadigan qafasning o'zi.

O'ylayman. Nima gunoh qilgan edim? Shunday haqoratlarga arziydigan biron jinoyat qilganmidim?

Tergovda uyqu berishmasdi. Faqat bitta gap: «O'zing ayt», «O'zing ayt, gunohing yengillashadi»...

Shu bo'htonlardan qutulsam bas, deb o'zimga-o'zim tuhmat qildim. Yo'q, «gunohlarim»ni bo'ynimga oldim.

Albatta tergovchi bu gaplarni kimga va qachon aytganding, deb so'rardi.

Shunda men o'lganiga o'n-o'n besh yil bo'lib ketgan tanishlarimni aytardim. Shu gapni aytganimga ikki yil, yo uch yil bo'ldi, deyman. Tergovchi aytganlarimni yozib boradi. Menga imzo chektiradi. Umidim suddan. Sud paytida men bu gaplarni aytgan paytimda bunaqa odamlar bo'lmagani, allaqachon o'lib ketgani aniq bo'ladi, deb umid qilgandim. Men kutgan sud bo'lmadi. Na prokurorni ko'rdim, na sudni, na oqlovchini.

Vagonga bosishganida mendan oldin qamalib, otilib, yo'q bo'lib ketgan mashhur odamlar xayolimdan o'tdi. Demak, ular ham xuddi mendek sudsiz yo'q qilib yuborilgan.

Tug'ilib o'sgan, qancha quvonchu g'amlarimga guvoh bo'lgan qadrdon shahrimdan olib ketishyapti. Kamdan-kam odamga nasib qiladi bu yo'llardan qaytib kelish!

Bitta kupega yigirma to'qqiz kishini tiqishdi. Birovning oyog'i birovning boshiga tegib turibdi. Birovning qopi birovning biqinida... Havo yetishmaydi. Qo'limizda kishan!

– *Kishan?*

– Kishan! G'ing deganga jo'n kishan emas, fashistlar ishlatgan nemis kishanini uradi. Unisi antiqa narsa! Aristonning bir qo'lini qo'ltig'i ostidan, ikkinchisini yelkasi osha orqaga tortadi-da, shu alpozda «nemischa» kishan uradi. Odam bu ahvolda uzoq turolmaydi, ikki qo'lini ikki yoqqa tortishga majbur bo'ladi. Qo'li qimirlagan sayin kishan suyakni qisa boshlaydi. Unga sari battar tipirchilaydi, tipirchilagan sari kishan halqasi suyakni g'ajiyveradi...

Bu dahshatli manzarani o'z ko'zim bilan ko'rganman. Poyezdda ketayapmiz. Aristonlardan biri – yoshroq yigit soq-chilarga gap qaytarganmi, so'kkanmi, unisini bilmayman. Yigitni shunaqa kishan bilan kishanlaganlar. Bir mahal shunaqangi dahshatli dod-voy ko'tarildiki, butun vagon

jim-jit bo'lib qoldi. Hatto g'ildiraklarning taraq-turuq ovozi ham tinib qolgandek bo'ldi. Yigit vagon yo'lagida dumalab dodlar, soqchilar esa miyig'ida kulib tomosha qilib turardi...

Bir necha kun yurib, Shimoliy Qozog'istonning Petropavlovsk shahriga bordik. Kim qaysi lagerga borishi shu pereselenniy punktda ma'lum bo'ldi. Meni Jezqazg'onga jo'natdilar. Aytmoqchi, shu yerda bir rus kishi menga juda beshafqat, juda achchiq bir haqiqatni tushuntirdi. «O'n yilga kesildim, demak, rosa o'n yildan keyin qutulib chiqaman, deb umid qilma. Kun sanama. O'shanda o'zingga yaxshi bo'ladi. Osoboye soveshchaniye qarori bilan qamalgan odamning oqlanishi og'ir. To'qqiz yil-u o'n bir oy o'tganidan keyin arzimagan bahona topib, senga yana o'n yil yopishtirib qo'yishlari hech gap emas. Shuni unutmaginki, sen «xalq dushmani»san.

Tergovchi, seni o't o'smaydigan joyga surgun qilaman, deganida bilib gapirgan ekan. Hammayoq qip-qizil cho'l. Bahor payti atrof ko'm-ko'k bo'lib ketadi. Ammo bu – o't emas. Qorlar erigandan keyin mis ma'dani bilan to'yingan tuproq ko'karib ketadi. Unda-bunda yilt etgan ko'kat ko'rinadi-yu, ayovsiz oftobda darrov qovjirab qoladi. Lager boshlig'i Kozlov degan odam bilan gaplashganim esimdan chiqmaydi.

– Mening gunohim yo'q, grajdanin nachalnik, sudsiz hukm qilishdi, hech qanday jinoyat qilgan emasman, – dedim.

Boshliq kuldi.

– Nima, sening jinoyat qilishingni kutib o'tirish kerakmidi? Senlar tomonda Sirdaryo oqadimi?

– Oqadi.

– Temir yo'l o'tgan ko'prigi ham bormi?

– Bor.

– Ana! Bordi-yu, sen qo'poruvchilar gruppasi bilan o'sha ko'priknı portlatib yuborsang, bilasanmi, davlat necha

million so'm zarar ko'rgan bo'lardi? Undan ko'ra lagerda yurganing yaxshi-da! Bitta sen o'lganing bilan davlat hech nima yo'qotmaydi. Ko'priq portlasa, ana u dahshat.

– Ana mantiq!

Lagerda ashaddiy kallakesarlar bilan taniqli olimlar, benderachi, vlasovchilar bilan nemis konslageridan qochib, partizanlar orasida jang qilgan va oxir-oqibat qamoqqa tushgan fidoyi frontoviklar, o'g'rilar bilan sobiq davlat arboblari, Turkiston legionida xizmat qilganlar bilan bir bo'lak shokolad uchun nemis varaqasini yopishtirgan, Boltiqbo'yi respublikasidan olib kelingan o'smir bolalar – hammasi aralash-quralash bo'lib ketgandi. Kallakesarlar «siyosiy dushmanlar»ni mazax qiladi. «Ha, intelligentlar. Vatan xoinlari, ahvoling qalay?»

Ertalab aristonlarni besh kishi-besh kishidan qilib safga tizishadi. Soqchi baland ovozda baqiradi. «Safdan ikki qadam o'ngga, ikki qadam chapga chiqish-qochish hisoblanadi. Ogohlantirmasdan otib tashlanadi!» Saf mis koniga yo'l oladi. Ikki tomonda soqchilar, atrofida it aylanib yuradi. Mis konida ishlash og'ir. O'pka sob bo'ladi. O'lib qolganlarni olib chiqib ketayotganlarida soqchilar har ehtimolga qarshi murdaning uch-to'rt joyiga nayza sanchib ko'radi. (Aldayotgan bo'lmasin tag'in.)

Jezqozg'onning sovug'i suyak-suyagingni muzlatib yuboradi. Mahbuslar paytavasini quritish uchun pechka ustiga ilganmi, boshqa sababmi, xullas, qahraton qishda bir barak yonib ketdi. Barak ustidan qulflab qo'yilgan. Ichkaridagilar dod deydi, nazoratchi ochmaydi. Men hovlida edim. Nazoratchiga «barakni ochsang-chi, shuncha odam kuyib kul bo'ladi-ku», desam, nachalnikdan buyruq bo'lmaguncha ochmayman, menga jon boshiga bitta kalla, ikki qo'l, ikki oyoq hisobga to'g'ri kelsa bas, o'lik-tirigi bilan ishim yo'q», deydi.

– Ustoz! Shaxsga sig'inish ofatlari, ommaviy qatag'on fojialari haqida talay asarlar e'lon qilindi. A. Ribakovning «Arbat bolalari», D. Graninning «Zubr», V. Dudinsevning «Oq libos» romanlari, V. Shalamovning «Kolima hikoyalari» turkumi, gurjistonlik kinochilarning «Tavba-tazarru» degan benihoya ta'sirchan filmi shular jumlasidan. Bular orasida, ayniqsa, Soljenitsinning «Ivan Denisovichning bir kuni» qissasi (bu asar lagerlar hayotining dahshatli manzaralarini tasvirlovchi birinchi bo'lib e'lon qilingan kitob edi) va «Gulag arxipelagi» romanida shaxsga sig'inish qurbonlarining achchiq qismati batafsil tasvirlangan. Bu kitob Nobel mukofoti bilan taqdirlangani bejiz emas. Hali bu mavzuda ko'p asarlar yozilsa kerak. Lekin ularning hammasi «xalqlar otasi» o'lib, bir qadar erk shabadalari esa boshlagach paydo bo'lgan. Buni ham tushunish kerak, oltmishinchi yillarning o'rtalarigacha bunday mavzuda qalam tebratgan yoki film olganning sho'ri qurishi tayin edi.

– Bunaqa asarlar ikkinchi jahon urushidan keyinoq yaratilgan. Faqat bizda emas, chet elda. Men yotgan lagerda chet ellik aristonlar ham bor edi. Bular Fransiya, Ispaniya kabi mamlakatlarning fuqarolari-kommunistik firqaga sidqidildan xizmat qilib, «mukofoti» evaziga «kapitalizm malayi» degan tang'a bilan uzoq yillarga kesilgan odamlar edi. Shular Angliyada chiqqan «Temir parda» degan kino haqida ko'p gapirishardi. Filmda «Shiroka strana moya rodnaya» degan mashhur qo'shiq yangrab turadi. «Gde tak volno dishet chelovek» («Hech yerda inson bizdagichalik erkin nafas ololmaydi»), degan paytda ko'mir konida qon tufurib ishlayotgan aristonlar, «Chelovek proxodit kak xozyain» («Inson bizni yurtida xo'jayin kabi erkin yuradi») deganda soqchilaru, itlar qurshovida ishga ketayotgan mahbuslar ko'rsatilar ekan. Ha, sho'rolarni butun dunyo oldida sharmanda qilishga o'sha zamondagi qo'rquv saltanati

sabab bo'ldi... Shubhasiz, biz buni tushunardik. Ammo tilni tishlashga majbur edik. Har bir barakning o'z «seksot»lari (sekretniy sotrudnik) bo'lardi. Bugun aytgan ehtiyotsizroq gaping ertaga nazoratchiga yetib borishi hech gap emas. Boshliqlar ora-chora «ahvol so'rab» turadi. Brigadada ishlaydigan mahbuslarni navbatma-navbat kabinetida qabul qiladi. Har biri bilan ikki minutdan gaplashadi. «Ishlar qalay, shikoyat yo'qmi?» «Seksot» shu ikki daqiqa ichida kim nima deganini aytib ulguradi.

Bir jihatdan men omadli ekanman. Rasm chizishim ish berdi. Lagerdagi stendlarni bezataman. Bir smenada qaysi brigada qancha ruda qazib, qancha portlatgani, qancha tosh tashiganini hisoblayman... Hammadan avval turib novvoyxonadan bir kurak cho'g' olib kelaman. Konserva bankaga qora moy to'ldirib, cho'g'da eritaman. «Xudojnik, boshla!» – deb buyuradi nazoratchi. Mahbuslar qator bo'lib keladi. Ularning egnidagi o'chib ketgan nomerlarni to'rt joyiga: kuragiga, ko'kragiga, shimining yonboshiga, shapkasiga qaytadan yozaman. Odamning pashshachalik qadri yo'q. Bir burda non uchun birov birovni so'yishi mumkin. Hunari assenizator bo'lgan yosh yigit bor edi. Uning vazifasi to'lib ketgan hojatxonadagi najasni aravaga ortib tashish edi. Tushlik paytida oshxonaga kirib keladi. Hammayog'i iflos. «Qani, qaysi biringni o'pay?» – deydi. Hamma har yoqqa qochib, yo'l bo'shatadi. Ko'proq ovqat suzib berishadi.

– *Shunday sharoitda ham insonlik qiyofasini saqlab qolganlar bo'lgandir axir. Hayvon odamga aylana olmaganidek, odam ham butunlay hayvonga aylanib ketmaydi-ku!*

– Albatta! Nomer yozayotganimda mahbuslar iltimos qilishardi. «Chiroyli qilib yoz, xudojnik, akkuratniy yoz!» Ba'zilar xotinining sarg'ayib ketgan fotosuratini olib keladi.

«Mana shuni chiroyli qilib ishlab bersang, tamaki olasan». Xotinining suratiga qarab rasm chizaman. Chiroyli qilib, lablarini qizilga bo'yayman. Bo'yniga marjon taqaman... Beriya otilib, mahbuslarga oilasi bilan uchrashishga ruxsat tekkanida menga rasm ishlatib, evaziga durustroq ovqat suzib beradigan oshpaz rosa so'kkani esimdan chiqmaydi. «Xudojnik bo'lmay o'! Kecha xotinim keldi. Sen chizgan rasmga hech o'xshamaydi, kampir bo'pqopti-ku!» Yigirma yil ichida xotini kampir bo'lmay qiz bo'lsinmi?

Odamlar uyini, bola-chaqasini sog'ingani uchun ba'zilar barakda musicha, o'zining ovqatidan oz-oz berib mushuk boqar edi. Bir gal bittasining mushugi bolaladi. O'lgudek pes bir nazoratchi bo'lardi. Yettita mushuk bolani qopga solib chiqib, novvoyxonaning lang'illab turgan oloviga uloqtirgani esimda. Ziyolinamo bir odam unga qarab: «Tfu, sen odam emas, sadistsan!» – dedi. «Sadist» degan so'zning ma'nosini o'shanda birinchi marta tushunganman.

Tag'in bir voqea esimdan chiqmaydi. Aprel oyi bo'lsa kerak. Zonaning tikanli simi orqasida bitta lola ochilgan ekan. Muddatini o'tab bo'lishiga bir oy qolgan surxandaryolik yigit chidab turolmadi shekilli, yugurib bordi. Sim orqasidan qo'l cho'zib endi lolani uzmoqchi edi, vishkada turgan soqchi uni qochmoqchi deb o'ylab otib qo'ydi...

Hayotda fojia ham, kulgu ham aralash bo'ladi. «Premblyud» (Premialnoye blyudo») degan gap bor edi. Planni oshirib bajargan odam bitta bo'g'irsoq mukofot olardi. Bir kuni qarasam, soddaroq yigit barak soyasida ponchik ushlab o'tiribdi.

– Yemaysanmi, axir? – desam iljayadi.

– Aka. Xudo xohlasa uyga borsam, xotinimga bi-ir qozon pirimbulut pishirib, to'yib yeyman-da!

Bu sharoitda yashash ayniqsa beozor ziyolilarga og'ir edi. Nima qilsin, birov bilan pichoqlasholmasa, o'zini himoya

qilishga kuchi yetmasa... Ustiga-ustak ularga qo'yilgan «millatchi» degan aybnoma sho'rliklarning ahvolini yanayam qiyinlashtirar edi.

– Said Ahmad aka! «Millatchi» degan vahimali gap aslida tuhmat edi. Har kim o'z millatini sevishga haqli. Har kim o'z xalqi bilan faxrlanishi mumkin. Faqat bu o'zga millat yoki xalqni kamsitish hisobiga bo'lmasligi kerak. Qodiriy va Cho'lponlar, Usmon Nosir va Elbeklar o'z xalqining o'zgalarga zug'um qilishini emas, o'z xalqining o'zgalar zulmi ostida ezilmasligini orzu qilgan. Buning otini millatchilik emas, har bir insonga xos adolat tuyg'usi deb tushunmoq kerak. Arzimagan narsadan bahona topib, tuppа-tuzuk odamga «millatchi» tamg'asini bosishga urinish yetmishinchi, saksoninchi yillarda ham bor edi. Farg'onalik yosh shoir ona tili haqida she'r yozadi. She'rda o'zbek tilining go'zalligini tarannum qiladi. She'r viloyat gazetasida bosilib chiqadi. Gorkomdagi «hushyor» bir shaxs buni «siyosiy masala»ga aylantiradi! Shoirni ham, gazeta muharririni ham shahar firqasi majlisida tik turg'azib qo'yib muhokama qiladilar. Shoir toqati toq bo'lib, «Ona tilim bilan faxrlansam nimasi yomon, Rasul Hamzatov ham «Ona tilim» degan she'r yozgan-ku» desa, gorkom kattalari «Bor, chaqir, o'sha Hamzatovingni, uniyam masalasini byuroga qo'yamiz» deb dag'dag'a qiladi. Qarang, shaharning allaqanday «rahbarchasi» dunyo tan olgan shoirning «tanobini tortib qo'ymoqchi!»

– Ba'zilar bunday xunrezliklardan «xalqlar otasi»ning xabari bo'lmagan, deyishadi. Lagerlarda azob chekib yotgan ayrim mahbuslar ham shunday deb ishongan. Ba'zilari o'zining aybi yo'qligi, bola-chaqasi borligi, «dohiy»ga cheksiz sadoqatini izhor qilib xatlar ham yozgan. Ammo buning bir tiyinlik nafi yo'qligini tezda tushungan.

– Said Ahmad aka! Stalin shaxsiga oid ko'plab hujjatli, tarixiy, badiiy asarlar o'qidik. Ularda bu odamning illatlari fosh etilgan. Biroq, faqat Sizning emas, bizning avlodga ham uni payg'ambardek qilib ongimizga singdirganlar. Stalin o'lganida beshinchi sinfda o'qirdim. Yig'lab «she'r» yozganim esimda... Sizlar – qamoqxonalarda azob chekkan, «xalqlar otasi»ning «otalik mehri»ni o'z qismatida sinab ko'rganlar bu xabarni qanday kutib olgansizlar?

– Bayram bo'lib ketgan! Hech esimdan chiqmaydi. Minglab mahbuslarni tik turg'azib, safga tizib qo'ydi-da, «xalqlar ota»sining vafoti haqidagi xabarni o'qiy boshladi. Shunda safda turganlar yerga o'tira boshladi. Nazoratchilar avtomat o'qitalib safning u boshiga yugurib, aristonlarni turg'azaman desa, bu boshidagilar tappa yerga o'tirib oladi. Ba'zilar sho'x-sho'x qo'shiq aytib o'yinga ham tushib ketdi. Bu – begunoh azob chekkan sho'rpehanalarning motam mitinggiga qarshi o'ziga xos isyoni edi!

«Tashqari»dagi hayotda esayotgan shabadalar lagerga yetib bordi. Beriya otilgandan keyin baraklar derazasidagi temir panjaralar olib tashlandi. «Maxsus kengash» qarori bilan qamalgan «siyosiy» mahbuslarga munosabat o'zgardi. «Maxsus kengash» degan tashkilot qonundan tashqari deb topildi. Sudsiz, dalilsiz hukm qilingan, «Maxsus kengash» qarori bilan kesilganlar tegishli organlarga shikoyat bilan murojaat qilishi mumkin, deyishdi. Har haftada besh-olti kishi ozod qilingani haqida ma'lum qila boshladilar... Men ham ariza yozdim...

1955-yilning 15-martga o'tar kechasi tush ko'rdim. Tushimda darvozadan chiqib, katta keng ko'chada ketayotgan emishman. Ertalab ruhimda g'alati yengillik bilan uyg'ondim.

Urushda nemis asirligida bo'lgan, u yoqlarda ko'rgan shuncha azobi yetmagandek, sho'rolar yurtiga qaytganda

bu yerda ham nemisnikidan battar «konslager»ga tiqilgan Qori aka degan namozxon odam bor edi. Tushimni aytib, ta'birini so'radim.

– Inshoolloh, yorug'likka chiqqaysiz, – dedi Qori aka.
– Bu yerdan ketsangiz bir shartim bor: ko'rpangizni menga tashlab ketasiz. Qalingina.

– Ko'rpa sizdan aylansin! – dedim hovliqib.
O'sha kuni odatdagidek hammani to'plab, lager boshlig'i e'lon qildi:

– Mahbus Husanxo'jayev, siz ozod bo'ldingiz!
Karaxt bo'lib qoldim. Qulog'imga ishonmayman.
– O'rtoq Husanxo'jayev, desangiz ishonaman! – dedim entikib.

– O'rtoq Husanxo'jayev, – dedi lager boshlig'i. – Siz ozodsiz. Lager ma'muriyati nomidan halol mehnatingiz uchun sizga minnatdorchilik bildiraman.

Qarag'andadan poyezdga chiqish mashaqqat bo'ldi. Ozodlikka yetishgan minglab kishilar poyezd kutyapti. Chu stansiyasiga amallab yetib oldim. Bu yerda sobiq mahbuslar undan ham ko'p. Sibirdan taxta olib kelayotgan o'zbeklarni ko'rib qoldim. O'shalarining vagoniga chiqib oldim. Bir haftada Toshkentga yetib keldim. Qarasam, vokzalda opam, Saidaxon, jiyanlarim kutib turibdi. (Qayerdan xabar topishganini keyin bildim. Qamoqdan chiqqach mashhur bo'lib ketgan rassom Chetkauskas men bilan lagerda birga yotgan edi. O'sha yigit telegramma yuborgan ekan.)

Uyga yetib borganimizda oyim meni eshikdan emas, devor oshirib tushirdi. (Nega bunday irim qilganini bilmayman.) Shunday qilib, besh yil deganda uyimga qaytib keldim. Yozuvchilar soyuziga Abdulla Qahhor rais ekan. «Mushtum» jurnaliga ishga joyladi.

Andijonga borib, Saidaxon bilan qaytadan to'y qildik.

Jon-jahdim bilan hikoyalar yoza boshladim. Hikoyalarimni radioda paydar-pay e'lon qilib borgan Jonrid Abdullaxonovdan, kinostudiyadan tarjima uchun senariylar bergan Mannon G'anidan hamon minnatdorman. To'g'ri, minbarga chiqib, «bu muncha ko'p yozayapti», deb vijirlaganlar ham bo'ldi... Baxillik qilganlar ham topildi...

– Ming afsuski, ustoz, o'zgalar yutug'ini ko'rolmaslik, hasadgo'ylik tuzalmas dard shekilli. Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqalar adabiyot osmonida yaraqlagan yulduzlar bo'lgan. Xalq ularni qanchalik sevib o'qisa, shunchalik ichi kuyadigan g'arazgo'ylar ham bo'lgan. Ko'pchilik iste'dodlar boshiga tushgan kulfatda bunday «xolis xizmat» qiluvchilarning ham «salmoqli» ulushi bor.

Mana, Sotti Husaynning Abdulla Qodiriyga bergan «bahosi»:

«Abdulla Qodiriy «O'tkan kunlar» bilan o'tkazib kelgan muddaosini yaxshilab kiyintirib... so'z ustida ko'p ishlab, sinfiy vazifasini bajargan... Ikki-uch iskanja tahlikasida turgan shahar mayda burjuaziya sinfi uchun birdan bir qurol so'z edi. Hayajonli, muloyim, shafqatli, «xolisona» usta so'zlariga bino qo'ydilar. Shuning uchun badiiy tafz (til) mayda burjuaziya uchun eng qulay qurol bo'lmishdir. Bunday so'z unga juda muddaolilik (tendensiozniy) bo'lib, so'z orqali ijtimoiy-sinfiy tashviqotchilik bilan ovora bo'ladir...»

Gap qayoqqa qarab ketayotganini sezayapsizmi? Ko'nglingizga kelmasin-ku, Said Ahmad aka, til mahorati bobida bironta o'zbek yozuvchisi «O'tkan kunlar» darajasiga ko'tarila olgani yo'q. Sotti Husayn esa Qodiriyning eng zo'r fazilatidan qusur izlayapti. Tili bilan odamlarni chalg'itib, sinfiy dushmanlik qildi, demoqchi.

Albatta, o'tganlar haqida salbiy fikr aytish yaxshi emas. Ammo kezi kelganda baribir haqiqatdan ko'z yummaslik

ham kerak. Yuqoridagi «dalil» Qodiriyni otishga da'vat singari eshitiladi. Mustabidlik, zulm hukm surgan o'sha zamonda, taassufki, o'z hamkasblariga, birinchi navbatda eng iste'dodli shoir va adiblarga, olim va boshqa ziyolilarga choh qazigan, tosh otganlar anchagina bo'lgan ekan.

– Bo'lgan. Yolg'iz men emas, qamoqqa olingan boshqa hamkasblarim – qalamkashlar, olimlar, san'atkorlar ustidan chaquv uyushtirgan, tergovchilar oldindan tayyorlab qo'ygan g'irt tuhmatdan iborat, «ko'rsatma»larga qo'l qo'yganlar, yonidan qo'shib-chatib «xarakteristika» yozganlar bo'lgan. Ba'zilari ro'parasida to'pponcha o'qtalib turgan tergovchidan qo'rqqanidan, ba'zilari o'zini «oqlab qolish uchun» shunday qilgan. Xabaring bor, Vatanimiz mustaqillikka erishgach, o'sha qora kunlar haqida ancha narsalar yozdim. Ularda iloji boricha «xolis xizmat» qilganlar nomini aytmaslikka harakat qildim. Qasos olgandek bo'lmay, dedim. Nima bo'lganda ham o'rtada hasad bo'lsa, yomonning emas, yaxshining boshiga kulfat yog'iladi. Hasadgo'ylar esa oddiy bir narsani bilmaydi: yozuvchini asari ko'taradi. Qolgani o'tkinchi gaplar...

– *Said Ahmad aka! Ko'plar sizning sabotingizga qoyil qoladi. Shuncha uqubatlardan keyin yuzlab dilbar hikoyalar, qissalar, romanlar yaratish uchun katta iroda kerak odamga! «Kelinlar qo'zg'oloni»chi?*

Millionlab tomoshabinlarga quvonch ulashgan miniatyuralar, hajviy hikoyalarchi? Shuncha uqubatlarni boshdan kechirgan inson bu qadar xushchaqchaq asarlar yozishi, bir qarashda g'alati tuyiladi.

– Balki o'sha g'am-kulfatlardan xalos bo'lish, unutish uchun ham shunday narsalar yozgandirman. O'ylab ko'rsam, meni ikkita narsa qutqarib qolganga o'xshaydi. Birinchisi hazil-huzulga o'chligim. Ikkinchisi – kam uyquligim. Men juda kam uxlayman. Doim tetik bo'lishga harakat qilaman.

— Said Ahmad aka! Goho inson qismatining chalkashliklarini o'ylab o'yingga yetolmaysan. Esingizdami, «O'tkan kunlar» romanida bir bob bor. Unda shunday manzara tasvirlangan. Otabek Marg'ilonda Homid va uning hamtovoqlaridan qasos olib, Toshkentga qaytadi. Bahor fasli. U bir do'sti bilan Mingo'rik degan joyga dam olishga chiqadi. Biroq ichiga chiroq yoqsa yorishmaydi. Kechqurun Qoymos darvozasidan kirib, dahshatli manzarani ko'radi. Har qadamda kallasidan judo qilingan, qonga botgan tanalar. Otabek darvozani qo'riqlab turgan qorovul yigitdan «bular kim?» deb so'rasa, soqchi «qipchoqlar!» deb javob qiladi. Otabek hayratlanib, «nima uchun so'ydilar, aybi nima?» desa, soqchi «qipchoq-da!» deydi. So'ng kimni qanday qilib so'rganlarini aytib beradi... Shu o'rinda, ustoz, hali bironta munaqqid e'tibor bermagan va Qodiriyning chinakam buyuk adib ekanini tasdiqlaydigan bitta tagma'no bor. Soqchi aytadi. «Manavinisi men bilan darvozani qo'riqlab turgan edi. Yaxshi odam edi, rahmatlik!» Bu gap tagida shu qadar katta ma'no borki, uni faqat tushungan odam tushunadi! Adib aytmoqchi, «hoy insonlar, senlar qanday nodon to'dasanki, o'z shahringni — Toshkent darvozasini qo'riqlab turgan soqchini — o'z jigaringni azbaroyi «qipchoq» bo'lgani uchun so'yib yotibsan, ikki qadam narida esa tashqi yov payt poylab turibdi!» Yozuvchi bu gapni aytmaydi, faqat zehnli kitobxonning o'ziga havola qiladi.

Dunyoning bevafoqligini qarangki, Qodiriy va uning o'nlab safdoshlarini romanda tasvirlangan xuddi o'sha joyda— sobiq O'rikzorda qatl etganlar... Dunyoning adolatini qarangki, xuddi o'sha joyda, Bo'zsuv yoqasida yurtboshimiz tashabbusi bilan «Shahidlar xotirasi» degan ziyoratgoh, qatag'on qurbonlarining ramziy qabri bunyod etildi...

Ustoz! Xalqimizda «oxiri baxayr bo'lsin!» degan gap bor. Yaratganga shukr, Siz uchun shuncha ko'rgan

azoblaringizning oxiri baxayr bo'ldi. Sizning el o'rtasida ulug' obro'ga ega ekaningiz, O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'lganingiz barcha adiblar, ayniqsa biz-shogirdlaringizga katta quvonch bag'ishladi.

Ehtimol, uzoq umr ko'rishingiz (Xudoyo yuzga kiring), shu yoshda ham boshqalarga o'rnak bo'larli ijod qilayotganingiz bir vaqtlar chekkan azoblaringiz uchun sizga Yaratganning berayotgan ajridir (Farg'onada, soy bo'yida o'tirib, «men dunyoga nuqul azob chekish uchun kelgan ekanman!» deganingiz esingizdami?). Xudoga shukr, azoblarning rohatini ko'rib turibsiz. Sizning «Borsa kelmas darvozasi», «Ajdah o'tgan yo'llarda», «Sarob», «Taqdir, taqdir, muncha shafqatsizsan!», «Umrin bayoni» kabi asarlaringiz o'zbek adabiyotining kemtik bo'lib yotgan o'rnini to'ldirdi: sho'ro tuzumining g'ayriinsoniy mohiyatini ochib tashladi. Bu va shu mavzudagi boshqa asarlaringizni hayajonsiz o'qish mumkin emas. Ular faqat kechagi kunlarni (aniqrog'i tunlarni) eslatibgina qolmaydi. Bu asarlar yosh avlodni Mustaqillik degan aziz ne'matni, o'z Vatanini, yurt ozodligini qadrlashga undaydi.

– Sen aytgan asarlarni yozish menga oson bo'lgani yo'q. Suhbatimiz boshida aytganimdek, ularni yozish, o'sha uqubatlarni qaytadan his qilish, qaytadan boshdan kechirish bilan teng bo'ldi. Ammo bu mening adiblik va insonlik burchim edi. Hayotimdan nolisam gunoh bo'ladi. «Xalq dushmani» edim, Xalq yozuvchisi bo'ldim. O'z yurtimdan, O'zbekistonimdan minglab chaqirim nariga qo'linga kishan solib badarg'a qilgan edilar. O'zbekiston Qahramoni bo'ldim. Qismatimdan roziman. Jonajon Vatanimdan, hurmatli yurtboshimizdan behad minnatdorman! Hammaga ham shunday nurli kunlar nasib etsin!

– Millionlab muxlislaringiz nomidan sizga uzoq umr, sihat-salomatlik tilayman. Yurtimiz baxtiga, kitobxonlaringiz,

tomoshabinlaringiz, do'stlaringiz va shogirdlaringiz baxtiga omon bo'ling!

INSOF

Xalqimizning ajoyib udumlari bor. Chaqaloqning tanglayini ko'tarayotganda «umring uzoq bo'lsin, insoflitavfiqli bo'l», deb duo qiladi. Biron muammoni hal etayotganda «insof sari baraka» deydi. Birovning noinsofligidan ranjisa, «insof qiling-da, birodar» deydi. Va nihoyat judayam jonidan o'tib ketsa (kechirasiz-ku, qo'polroq bo'lsa ham xalq iborasini o'z nomi bilan aytishga majburman), «o'g'ri bo'l, g'ar bo'l, insof bilan bo'lgin-da» deydi...

Xullas, «Insof» degan tushuncha bilan bog'liq gaplar ko'p. O'ylab qarasam, bu so'zning boshqa tillardagi tarjimasini topish anchayin mushkul ekan. Masalan, rus tili – dunyodagi eng boy tillardan biri. Unda «chestnost», «poryadochnost», «velikodushiye», «dolg», «sovest» singari teran ma'no tashuvchi so'zlar ko'p. Biroq, menimcha, ular aynan «insof» degan so'z ma'nosini to'liq anglatmaydi. Balki adashayotgandirman, lekin bilishimcha shunday.

Qiziq, insof degan narsaning o'zi nima? Uning salmog'i nima bilan o'lchanadi? Chegarasi qayerdan boshlanadi-yu, qayergacha davom etadi?

Uzoq-yaqin o'tmishga nazar tashlasak, bu tushuncha bilan bog'liq talay rivoyatlar-u hikoyatlar esga tushadi.

Bir do'kondor yumush bilan uyiga borib kelsa, shogirdi xursand bo'lib o'tirganmish. Sababini so'rasa, bir to'p gazlamani to'rt yuz dirhamga sotib, ancha foyda ko'rganini aytibdi. Do'kondor shogirdiga o'sha xaridorni qayerdan bo'lmasin topib kelishni buyuribdi. Shogird bozor aylanib, xaridorni topib kepti.

– Shogirdim adashib ikki yuz dirhamlik mato uchun sizdan to'rt yuz dirham olibdi, – debdi do'kondor va ortiqcha pulni qaytarib beribdi. Xaridor hayron bo'пти.

– Men bu yerlik emasman, – debdi. – Bizning yurtida bu mato to'rt yuz dirham turadi, shogirdingiz adashgani yo'q, bergan pulimga roziman.

– Men esa rozi emasman, – debdi do'kondor. – Bizda ikki yuz dirham turadi, menga birovning haqi kerakmas.

Turk olimi Yusuf Tovaslining «Hikmatlar xazinası» kitobida tag'in bir rivoyat bor. Abdurahmon degan odam hazrat Umarning xonadoniga yumush bilan boribdi. Qorong'i tushib qolgan, xalifa sham yorug'ida ishlab o'tirgan ekan. Mehmon bilan so'rashgach, yonib turgan shamni o'chirib, boshqa shamni yoqibdi.

– Mana endi xotirjam gaplashsak bo'ladi, – debdi mehmonga. Mehmon hayron bo'пти.

– Boyagi shamni nega o'chirdingiz-u, nega xuddi shunaqa boshqa shamni yoqdingiz?

– Yonib turgan sham davlatniki edi. Men uning yorug'ida davlat ishini bajarayotgandim, – debdi xalifa. – Sen bilan qiladigan suhbatimizning davlat yumushiga dahli yo'q. Shuning uchun o'z pulimga sotib olgan shamni yoqdim...

Chuqurroq o'ylab qarasangiz, insof bilan insofsizlik o'rtasidagi chegarani ajratish goho qiyin kechishini ko'rasiz.

Sho'ro zamonida birov ishga kirmoqchi bo'lsa, «oyligimas, kunligi qancha?» deb so'rardi. Sababi hamma narsa hammaniki va hech kimniki emas edi. Albatta, «sotsialistik mulk»ni talon-toroj etishga qarshi choralar ko'rilar, shunga qaramay, non zavodidan bir buxankagina non, qushxonadan bir kilogina go'sht, «tekstil»dan besh g'altakkina ip olib chiqish ko'p ham ayb sanalmasdi... Yetmishinchi yillari qaysi bir makaron zavodi bilan bog'liq latifanamo hangoma mashhur bo'lib ketgan edi. Zavodga Germaniyadanmi-

ey, Chexoslovakiyadanmi-ey, zamonaviy mashina olib kelishibdi. Mashina xamirni o'zi qorib, tobiga keltirib, o'zi makaron liniyasiga rasamadi bilan tarqatib berar ekan. Hammaning joni kirib qopti. Aqlli mashinaning tugmasini vaqtida bosib tursangiz, bas. Shunaqa-ku, oradan biron oy o'tgach, mashina xumpar yomon «hunar ko'rsatibdi». Besh tonna xamirni aylantirayotgan moslama «g'o'ldir-g'o'ldir» qilib turibdi-da, xamirni makaron liniyasiga uzatish o'rniga varaqlatib yerga to'kib tashlabdi. Besh tonna xamirning yer bilan bitta bo'lib, oqib yotishini bir tasavvur qiling! Hammayoq alg'ov-dalg'ov bo'lib ketibdi. Olis yurtga sim qoqib, zudlik bilan moslamani tuzatib berishni talab qilishibdi. Ustalar yetib kelib qarasa, chindan ham ahvol chatoq. «Nega bizga buzuq mashina o'rnatdinglar?» – debdi zavoddagilar. Ustalar mashinani tekshirishibdi. So'ng aytishibdi: «Mashina buzuq emas, uni ishlatayotgan buzuq! Xamirga un bilan birga shakar, sut, margarin – hammasini yetarli miqdorda solmasa, mashina «tuflab tashlaydi». Shunaqa «yomon odati» bor!»

Odamzot mashina emas. Shu bois, goho insof bilan insofsizlik chegarasini «ajrata olmay qolishi» yoki ataylab ajratmay qo'ya qolishi ham mumkin...

Ko'p narsalar xususiylashgani yaxshi bo'ldi. Shaxsiy manfaat bor joyda intilish bor. Intilish bor joyda taraqqiyot bor.

Avvallari ko'cha chetida bitta taksi to'xtasa, yigirmata odam halloslab borardi. Hozir ko'cha chetida bitta odam qo'l ko'tarsa, yigirmata mashina g'iyqillab to'xtaydi. Avtobuslaru trolleybuslar bekatda turna qator. Ammo bozor iqtisodiyoti tufayli hamma insofga kirdi desak, xato bo'ladi.

Qaysi kuni trolleybus bekatida uzoq turib qoldim. Roppa-rosa bir soatda keldi, azamat. O'n besh chog'li yo'lovchi salonga chiqdik. Yana chorak soatlar turdik. Ma'lum

bo'lishicha, haydovchining mo'ljalidagi yo'lovchilar chiqmaguncha sabr qilish kerak ekan. Haydovchi bag'oyat xotirjamlik bilan hammadan yuz so'mdan yig'ib oldi. Shunda bir kampir ming'illab qolsa deng!

– Qaytimini bermaysanmi, bolam?

– Men sizga o'n so'mni qayerdan olaman? – dedi haydovchi achchiqlanib. – Qanaqa mayda gap xotinsiz?

«To'g'ri» aytadi, shovvoz! U-ku har kimdan «atigi» o'n so'mdan olib qolyapti. Kun bo'yi ter to'kib trolleybus haydaganida «yoniga qoladigani» besh ming bo'lar, boring ana, o'n ming bo'lar. Kampir esa o'n so'mini qistab o'tiribdi. Shu ham «insofdanmi?»

Aptekalarni ayting, aptekalarni! Har qadamda dorixona! U boshi bilan bu boshining orasi to'rt chaqirim kelmaydigan bitta ko'chada o'n beshta apteka! Deyarli hammasi xususiy! Bemorlarning hojatini chiqaryaptimi, omadini bersin! Aptekalarni eslaganimning boisi shuki, dori kerak bo'lib qoldi. «Ming yildan beri» ishlatib kelinadigan oddiy dori. Aptekalardan biriga kirdim. Hammasi orasta, zamonaviy... Dori darrov topildi. «Arzimagan» ikki ming so'm ekan. «Arzimagan» ikki ming menga qimmatroq tuyuldi. Ikkilanib ko'chaning narigi betiga o'tsam, yana bir dorixona bor ekan. Bunisi odmigina, peshanasida yaltiroq yozuvi yo'q. O'sha dorini so'radim. Sakkiz yuz so'm ekan! Aptekachi ayoldan dorini sotib oldimda, roppa-rosa ellik qadam yurib, ko'chaning berigi betidagi avvalgi dorixonaga qaytib kirdim. O'sha dorining qancha turishini yana so'radim. Yigitcha jinday ranjidi.

– Hozir aytdim-ku, ikki ming so'm! – dedi tushuntirib.

– Bu chet el dorisi – «polskiy»!

– Bunisi-chi? – dedim qo'limdagi dorini ko'rsatib.

Aptekachi dorini olib tomosha qildi.

– Buyam «polskiy!»

– Uyam-buyam «polskiy» bo'lsa, nega sizniki ikki ming so'm, bunisi sakkiz yuz so'm? – dedim hayratlanib. – Nima, siz dorini Polshadan «kosmik kemada» olib kelgansiz-u, ular eshak aravaga ortib kelganmi?

Yigitcha ovozi pasaytirib so'radi:

– Qayerdan oldingiz, aka?

– Qayerdan olganimni aytsam, nima qilardingiz?

– Prosta so'radim-da, – dedi osoyishtalik bilan.

Nima uchun «prosta» so'raginini tushundim. Narigi dorixonaga erinmasdan tag'in qaytib kirdim. Aptekachi ayoldan undagi dori nega boshqalarnikidan arzonligini so'radim.

– Men farmatsevtika institutini bitirganman, – dedi ayol. – Ota-onam ham, qaynatam ham aptekachi bo'lishgan. Rahmatli adam qattiq tayinlaganlar. «Dorini odamlar muhtojlikdan oladi, dorining haqiga xiyonat qilib bo'lmaydi», deganlar...

...Odamlar pul o'lsin-a, pul o'lsin, degan gapni yarim taassuf, yarim tabassum bilan xitob qilishi bejiz emas. Ba'zan pul uchun shunaqangi narsalarni o'ylab topishadiki, hayron qolasan!

Qishda hadeb bozorga qatnash tashvishidan qutulish uchun bir yo'la 150 kilo piyoz sotib oldim. Bozorning oldi piyozi. Sellofan to'r qop ichida charaqlab turibdi. Hammasi bir tekis. Hammasi yirik-yirik.

– Ukajon, piyozning hammasi bir xilmi? – desam, piyozfurush ranjidi.

– Men sizni aldaymanmi?

To'rtta qopchig'ini uyga keltirib, ag'darsam, har qopchiqdan kamida besh-olti kilodan «bolachalar» chiqdi. Danakdan kattaroq, yong'oqdan kichikroq. Bir tekis piyoz orasiga shuncha maydasini qanday joylaganiga hech aqlim yetmaydi! Sellofan to'r xaltadan maydasi ko'rinib turishi

kerak-ku. Bozorga qatnab yuradigan qayninga shu gapni aytsam, mazza qilib kuldi.

– Buning otini «karnay usuli» deydi!

«Karnay usuli» g'alati ekan. Piyozfurushlardan biri sellofan to'r xaltani ochib turadi. Boshqasi xaltaga yirik piyozlarni bir qator qilib terib chiqadi. Keyin to'r qopning o'rtasiga pechkaning tunuka dudburonini tik qilib qo'yadi-da, siqqanicha mayda piyozdan «karnay» ichiga to'kadi. Atrofiga esa yirik piyozlarni joylab chiqishadi. Keyin tunuka karnayni sekin tortib oladi-da, ustiga tag'in yaxshi piyozni terib, qopning og'zini bog'laydi. Qarabsizki, qopning qayog'ini ag'darmang, hamma tomonida yirik piyoz ko'rinib turadi. Orasida esa «bolachalari». Baayni bo'g'oz sigirdek! Rostini aytsam, konfetning orasiga murabbo tiqishdek noyob «karnay usuli»ni o'ylab topgan azamatga shu paytgacha nega Nobel mukofoti berishmaganiga hayronman!

Bo'yinbog' olmoqchi bo'lib, «supermarket» degan koshonaga kirib qolsam deng! Ikkinchi qavatga ko'tarilishim bilan qoshlari qildekkina, ko'ylakchasining etagi tizzasidan bir qarich tepada turgan qiz ro'para keldi. U yoqqa borsam, u yoqqa boradi, bu yoqqa borsam, bu yoqqa. Bu qizni mening nimam bunchalik qiziqtirib qoldi, deb hayron bo'ldim-u keyin miyamga urdi: biron narsani o'marib ketmasin, deb kuzatib yuribdi! Nihoyat o'zim xohlagan bo'yinbog'ni topdim. Chiroyli, yaltiroq qutichada. Narxini so'ragan edim, boyagi qiz tabassum hadya etdi.

– O'n sakkiz ming so'm!

Hayron bo'ldim.

– Nima, buning ichida bo'yin ham bormi?

Qiz qildek qoshini chimirdi.

– Tushunmadim.

– Bo'yinbog'ning ichida odamning bo'yni ham bormi? – dedim tushuntirib. – Galstuk deganiyam o'n sakkiz ming turadimi?

– Siz «supermarket»da yuribsiz, amaki! – dedi u. – Arzon matah oladigan odam «baraxolkaga» boradi.

«Jiyancham» to'g'ri aytgan ekan! Xuddi o'shanaqa yaltiroq qutichadagi, xuddi o'shanaqa galstukni bozordan besh mingga oldim. Bergan maslahati uchun qizga ichimda «rahmat» aytdim, ammo biroz o'ylab turib o'zimni yomon ko'rib ketdim. Aslida, shu galstuk degan dardisarni «supermarket»dan o'n sakkiz mingga ola qolsam bo'lar ekan. Qiyin o'sha «supermarket»dagilarga! «Jiyancham» qildek qoshiga oro berish uchun kunora sataroshxonaga kirishi kerakmi? Ko'ylak tiktirishi uchun haftada bir «Modalar uyi»ga qatnashi kerakmi? Shuncha pulni qayerdan olsin? Albatta, o'zining «boss»idan oladi-da! «Boss» kimdan oladi? Siz bilan menga o'xshagan xaridordan-da! Haliyam insofi bor ekan! Bo'yinbog'ni ellik ming so'm desa nima qilardim?

...Albatta, «bozor munosabati»ning o'z qonunlari bor. Kim molini qanday baholashi o'zining ishi. «Chidaganga chiqargan!» Shunaqa-ku, goho hech qanday bozor iqtisodiga bo'ysunmaydigan, bo'ysunishni ham xohlamaydigan holatlar bo'lib turadi. Odamning insof doirasi shunday pallada sinovdan o'tsa, ajab emas.

Bultur qish chillasida tobim qochib qoldi. Isitma ko'tarilib ketdi. Shifoxonaga yotay desam, ish tig'iz. Do'xtirlar har sakkiz soatda ukol qilishni buyurgan. Kunduzi-ku, mayli. Poliklinikaga borib emlataman. Kechasining ishi qiyin... Mahallamizdagi hamshira ayol har kecha soat o'n ikkida, ertalab soat sakkizda uyga kelib ukol qildi. Olti kun... Xudoga shukr, dard chekindi. Oxirgi ukolni qilganda, iymanibroq qo'liga pul tutqazdim.

– Ming rahmat sizga. Uzr, «qo'l haqi» degan gap bor...

Hamshira ko'zimga ta'nali qaradi:

– Shunaqa desangiz xonadoningizga boshqa qadam bosmayman. Biz qo'shnimiz-ku, domla, mahalladoshmiz...

..Shahar chekkarog'idan mashinamga benzin quygan edim. Ishonsangiz, mashina jonivor to'xtagan joyida motori o'chib qolaveradi. Uyga ming mashaqqat bilan yetib oldim. Yaxshiyam, «mashinaning benzobakidan kirib, glushitelidan chiqib ketadigan» tanishim bor. Motorni ochmasdanoq kasalini topdi.

– Nima balo, benzin quydingizmi, diztoplivami?

Xususiy benzinkolonka ochgan boshqa bir tanishimga shu voqeani aytib hasrat qilsam, koyindi.

– Ja oshirib yuboribdi-da, noinsof! Men unaqa qilmayman. To'g'ri, yuz prasan toza benzin quyaman, demayman. Bunaqasi otliqqayam yo'q. Jinday «ekonom» qilib qolish, degan gap bizdayam bor. Ammo, lekin bir xillarga o'xshab har kanistrdan ikki-uch litrlab «urib» qolmayman. Atigi bir litr. Xo'sh, nima qilay bo'lmasa! Biri keladi tekshirib. Biri keladi pishqirib! Har kuni yigirma litr benzinni «taksa» qilib bo'ynimga ilib qo'rganlar bor.

...Sohibqiron Amir Temur zamonidan beri bizning kunlargaacha dovrug'i doston bo'lib kelayotgan toshkentlik mashhur moshtabiblar sulolasining vakili Abdujabbor hoji Moshtabib o'zining xotiralar kitobida bolalik chog'ida bo'lib o'tgan bir voqeani hikoya qiladi.

Ikkinchi jahon urushining qishli-qirovli kunlaridan birida tabibning eshigi taqillab, harbiy kiyimdagi odam Abdujabborning bobosi Muhammad Ibrohimni yo'qlab keladi. «Otaxon, meni taniyapsizmi?» deb so'raydi kulimsirab. Keksa tabib uni eslay olmaganini aytganda, mehmon urush arafasida ko'pkarida yiqilib oyog'i singanini, uni tabib davolaganini yodiga soladi. Shu mo'tabar zot davolagan oyog'i bilan yarim dunyoni aylanib kelganini aytadi. Va o'sha paytda urushga ketib, tabibni rozi qila olmagan uchun uzr so'raydi. Yuk xaltasidan allaqancha yemak chiqarib, taqdim etadi. Qahatchilik hammani qaqshatib turgan pallada bu – butun

bir xazina edi. Tabiblar oilasi hadyani yaqin-yiroq kishilari bilan baham ko'radilar...

Ajab! Qahatchilik yillarida qachondir o'zini davolagan tabib huzuriga so'roqlab kelgan oddiy askar nega shunday qildi ekan? Oradan shuncha yil o'tib ketgan bo'lsa, tabib uni batamom unutib yuborgan bo'lsa. Askar tizzasigacha qon kechib, diydasi qotib ketgan bo'lsa... Tabibni izlab kelmasligi ham mumkin edi-ku! Yo uning davlati xususiy benzokolonka egasinikidan ko'proq bo'lganmi?

...Hali maktabga qatnamasdim. Kuz pallasi tomog'imga «tepki» kelib, bo'ynim shishib ketdi. Oyim «irimini» qilish uchun «Girgitton» buvinikiga olib chiqdi. Dunyoda «Girgitton» buvidan muloyim, undan mehribon odam bo'lmasa kerak. Hamma bilan «buving girgitton» deb aylanib-o'rgilib ko'rishadi. Buving hovlisiga kirsak, etakdagi devor tagida allaqancha yong'oq dumalab yotibdi. Kechasi shamolda to'kilgan bo'lsa kerak. Yugurib borib tera boshladim. Bir mahal ayvon tomondan «Girgitton» buving ovozi keldi. «Hay-hay, girgitton, tegma, tegma yong'oqqa!» Shunday deb ildam keldi-da, qo'limdan yong'oqlarni olib, pastak devor osha nariyoqqa uloqtira boshladi. So'ng xazon orasida yotgan boshqa yong'oqlarni ham enkayib tergancha, devor ortiga tashladi. Buving bunday «qizg'anchiqligi»ga hayron bo'lib turib qoldim. Nihoyat, to'kilgan yong'oqlar qolmaganiga ishonch hosil qilgach, qo'limdan yetakladi. «Yuraqol girgitton, sanga boshqa yong'oq beraman». Shunday deb, pastak bostirmaga olib kirdi-da, savatda uyulib yotgan yong'oqlardan hovuchlab olib do'ppimni to'ldirib berdi...

O'sha kuni oyimdan ancha dakki yedim. Kap-katta bola odobsizlik qipman. Yerda yotgan yong'oq «Girgitton» buviniki emas, qo'shnisining daraxtidan to'kilgan ekan. Qo'shni haqini o'zidan so'ramasdan olsa yomon bo'larkan.

...Dunyoda xalq ko'p, millat ko'p. Har birining o'z urf-odatlari, o'z dunyoqarishi bor. Biroq yaxlit olganda bani insonning hammasi yakka-yu yolg'iz Allohning bandasi! Shu bois ularning fe'l-atvorida, xatti-harakatlarida g'aroyib mushtarakliklar bo'ladi.

Bundan bir necha yil avval Yaponiyadan kelgan mehmonlarga hamroh bo'lib Samarqandga bordik. Mehmonlar orasida Yaponiya Parlamenti rahbarlaridan biri ham bor edi. Ikkovimiz va tarjimon bir mashinada ketyapmiz. Samarqand tumanidan borayotib, yashnab yotgan bog' oldidan o'tdik. Yo'l cheti keta-ketguncha shaftolizor. Zarg'aldoq shaftolilar g'arq pishgan. Har biri kichikroq choynakdak keladi. Tarjimon mehmon janoblari bu bog' kimniki ekanini so'rayotganini aytdi. Yaponiya, Koreya va Xitoyda shaftoliga ayricha ixlos qo'yishlarini eslab, haydovchidan mashinani to'xtatishni so'radim. Yo'l chetidagi ariqchadan hatlab o'tib qo'limga sig'ganicha shaftoli uzib oldim. Buni qarangki, nariroqda temir quvurdan suv oqib turgan ekan. Shaftolilarni chayib, olib keldim. Mehmonga uzatdim. Mehmon qat'iyan bosh chayqadi, o'z tilida hayajonlanib bir nima dedi.

– «Mumkinmas» deyaptilar, – dedi tilmoch tarjima qilib.

– Tashvishlanmang, janob, – dedim tushuntirib, – boyagi suv iflos emas, vodoprovodniki, bu tuman to'la vodoprodlashgan. Bemalol yeyavering, mana o'zim boshlab bera qolay!

Mehmon tag'in bosh chayqadi. Tarjimonga bir nimalarni kuymanib tushuntirdi.

– Mumkin emas, – dedi tarjimon mehmonning gapini so'zma-so'z ag'darib. – Janob shaftolining egasiga haq to'lamadilar. Shuncha mevani so'roqsiz olib chiqdilar. Mumkinmas...

Biz o'tib borayotgan joy menga begona emasligini, bu yerga ko'p marta kelganimni, bu tumanning hokimi – meri o'zimning singlimdek bo'lib qolganini aytdim. Baribir gaplarim ishonchsiz chiqayotganga o'xshayotganini o'zim ham sezib turardim. Ko'z o'ngimda ikki buklanganча yong'oq terib, pastak devordan qo'shninikiga uloqtirayotgan «Girgitton» buvi paydo bo'lib qolgandek edi...

Xudoga shukr, yer yuzida insoflilar noinsoflilardan ko'proq. Doim shunday bo'lgan. Aks holda dunyo allaqachon ostin-ustun bo'lib ketardi. Oramizda pok-halol aptekachilar va do'konchilar, haydovchi va bozorchilar, benzinchi va xo'jalik rahbarlari oz emas. Bizning xalqimiz insof masalasida birovdan saboq olmaydi, kerak bo'lsa saboq beradi. O'z vaqtida «Turkiston viloyatining gaziti» muharriri bo'lib ishlagan Nikolay Ostroumov Rossiya Turkistonni bosib olgandan keyin ro'y bergan bir voqeani hayratlanib hikoya qiladi. Qovunchi qishlog'idan Toshkentdagi «zovudchi boy»ga dehqonlar tuyalar va aravalarga ortilgan allaqancha paxta olib keladi. O'ris «zavodchi» paxta narxini hisob-kitob qilgach, ularga qopga solingan chaqa beradi. Bu «sart»larni ermak qilishning bir yo'li edi. Dehqonlar zil-zambil chaqalarni aravaga ortib olib ketadilar. Ikki kundan keyin «sart»lardan biri «zavodchi»ning huzuriga keladi. Boy «nima gap» deb so'raganida, dehqon unga bir hovuch chaqani uzatadi. «To'ram, pulingizni sanasak, bir yarim so'm ortiq chiqdi, shuni olib keldim».

...Odam insofli bo'lishi uchun tog'ni ursa talqon qiladigan pahlavon bo'lishi shart emas. Insof majburiyatdan ko'ra ko'proq ixtiyoriylikka asoslanadi va insoniylikning oddiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zi yashaydigan «dom»ning aqalli o'zi turadigan zinasini supurib qo'yishu, birovning haqidan tiyilish ham, shifokor sifatida azob chekayotgan bemorning boshida bir

soat ortiqroq o'tirishu, muallim sifatida maktabdan ko'ngli sovugan bolaning uyiga borib, ota-onasi bilan bir lahza yurakdan suhbatlashish ham, ko'ngli o'ksik bandaga bir og'iz shirin so'z bilan dalda berishu, tansiqroq taom pishirsa, betob yotgan qo'shnisiga bir qoshiq ilinish ham insof sanaladi. Bunaqa misollarni har kuni uchratish mumkin. Saharlab ishga ketayotib, bugun men falon-falon yumushlarni qilishim kerak, deb ko'ngliga tugib qo'yishu oqshom ishdan qaytayotib, zimmamdagi vazifani qay darajada ado etdim, deyish ham, mehnat ta'tilidan aqalli ikki kun avval qaytib, shuncha dam olganim yetar, ikki kungina shu jamoam uchun xolis ishlab beraqolay, deyish ham insof daftariga bitiladi. Yanayam kengroq miqyosda oladigan bo'lsak, Vatanim qay manzilga qarab ketayapti-yu, yurtimning murod-maqsadiga yetishi uchun men qanchalik ulush qo'shdim, deb o'ylash ham, Mustaqillik menga nimalar ato etdiyu, bu ne'matni oqlash uchun men nima qila oldim, deb o'zidan so'rash ham insof doirasiga kiradi.

Yana o'sha savolni takrorlashga to'g'ri keladi. Har qalay, insof deganni nima bilan o'lgagan ma'qul? Menimcha, insof – iymonning amaldagi ko'rinishidir. Boshqacharoq qilib aytadigan bo'lsak, iymon – qonun, insof esa uning ijrosi! Inson bolasi o'z manfaatiga mos kelish-kelmasligidan qat'i nazar bajarish lozim bo'lgan ezgu amallarni bajarsa, o'z manfaatiga mos kelish-kelmasligidan qat'i nazar qilishi mumkin bo'lmagan ishlardan o'zini tiysa, insofli bo'ladi. Bunday insonni iymonli deydilar. Odam bajarishi lozim bo'lgan ezgu amallardan manfaat topolmagani uchun ulardan voz kechsayu, qilish mumkin bo'lmagan ishlarni qilib, shundan manfaat izlasa, noinsof bo'ladi. Albatta, buning uchun uni jazolamasliklari, qilmishlari goh bilinib, goh bilinmasligi ham mumkin. Biroq baribir iymonga shikast yetadi. Shuning uchun – bunday bandani iymonsiz

deydilar. Iymonsizlik esa barcha razolatlar uchun darvozani lang ochib qo'yish bilan teng! Shu ma'noda, Insofni Iymon darvozasining posboni desa bo'ladi!

ANDISHA

Kulib turgan odamning oldida yig'lama,
Yig'lab turgan odamning oldida kulma.

Otamning o'gitlaridan

Qodiriy domlanning «O'tkan kunlar» romanini har gal mutolaa qilganda buyuk adibning o'zbek xalqining o'ziga xos xislatlarini, zamonaviy tilda aytadigan bo'lsak, mentalitetini naqadar teran bilishi va nozik tasvirlashiga qoyil qolaman.

Roman boshida shunday manzara bor. Otabek qo'ngan karvonsaroyga Ziyo shohichining o'g'li Rahmat bilan Homid kirib kelishdi. Otabek ularni mamnuniyat bilan qarshi oladi va Hasanali «ba'zi yumushlar buyursam, ko'nglingizga olmaysizmi?» deb murojaat qiladi. (Hasanali is tegib qolib, bir qadar tobi qochgan.) Hasanali «buyuring, begim», degach, Otabek undan choy qaynatib berishni iltimos qiladi. Hasanali chiqib ketgach, Rahmat Otabekdan bu chol kimligini so'raydi. Otabek uning savoliga javob qilishga shoshilmaydi. Bir muddat eshikka qarab turadi. Hasanalini hujradan uzoqlatib, javob beradi.

«Qulimiz»...

Qiziq, u nima uchun Hasanalini avval «uzoqlatib», shundan keyingina bu odam o'zining quli ekanini aytadi? Deylik, boshqa milliy adabiyotda (xususan, g'arb adabiyotida) shunday manzara tasvirlansa, asar qahramoni bor ovozda, hatto bir qadar g'urur bilan «bumi, bu mening qulim!» deb baralla aytgan bo'lur edi va bu hayot haqiqatini tasdiqlardi. Otabek nega unday qilmaydi? Nima, Hasanalidan

qo'rqadigan joyi bormi? Axir bir vaqtlar uning bobosi bu qulni o'n besh tillaga sotib olgan-ku! Yo Hasanali ko'p yillar davomida Yusufbek hojilar oilasining a'zosidek bo'lib qolgani, Otabek uchun qadrdon shaxsга aylangani, yoshining ulug'ligi uchunmi?

Unisi ham, bunisi ham bo'lishi mumkin. Biroq eng muhimi bu emas. Muhimi shundaki, Otabek – o'zbek! Unda o'zbekka xos fazilat – andisha bor!

Romanni o'qishda davom etamiz. Otabek bilan Kumush sururdan entikib yashayotganda kutilmagan g'alva chiqadi. Otabek xotini bilan yo Toshkentga kelishi kerak, yo Toshkentda boshqa qizga uylanishi lozim. Toshkentdagi ota-ona orzusini tushunsa bo'ladi. Ular yolg'iz o'g'lining Marg'ilonda «ichkuyov» mansabida qolishini xohlamaydi. Kumushni olib kelsa, bosh ustiga! Lekin Kumush ham yolg'iz farzand. Uning ota-onasi ham qizini bag'ridan chiqarishni istamaydi. Marg'ilonlik qudalar oxir-oqibat Otabekning ikkinchi xotin olishiga rozilik beradi. Shunaqa-ku, bunday fojiaga Kumush qanday qaraydi?

Uning ko'zida yosh ko'rgan Otabek og'ir ruhiy azobga tushadi.

«– Ota-ona roziligini bir tomchi yoshingizga arzitdimmi?» – deydi iztirob bilan.

Kumush nima deydi?

«– Men rozi, men ko'ndim», – dedi daf'atan Kumush. Bu «so'zni nimadandir qo'rqqandek, shoshib aytdi».

Bu gapni aytish Kumushga oson bo'ldimikan? U isyon ko'tarishi, «sen – bevafo, sen – aldoqchi, ustimga nega xotin olasan?» deb janjal qilishi mumkinmidi? Albatta! Yoki, «sen mening qadrimni bilmasang, erkak zoti qurib ketgan emas» deb, eri oylab yo'q bo'lib ketganida «jazman» orttirishi (fransuz adabiyoti modeli), yoki erinimi, kundoshinimi o'ldirtirib yuborishi (ingliz adabiyoti modeli) mumkinmidi?

Kumush nega shunday qilmaydi? Nima bu? Feodalizm illatimi? Xotin-qizlarni odam sanamaslikka ko'r-ko'rona bo'ysunish – zabunlikmi? O'zbek hayotini bilmaganlar eng asosiy sabab shu, deb ko'rsatishi aniq. Lekin bu o'rinda boshqa sabablar ham bor. Kumush Otabekni beqiyos sevadi, uning sadoqatiga, basharti boshqaga uylanishi majbur bo'lgan taqdirda ham baribir aynan o'zini sevishiga ishonadi. Qolaversa, Otabekning ota-ona ra'yiga qarashdan o'zga iloji yo'qligini tushunadi. Erining kamroq iztirob chekishini xohlaydi va Otabekning qalbini jarohatlamaslik uchun o'z yuragini abgor qiladi! Bu – Kumushning ojizligi emas, mardligi, nodonligi emas, donoligi! Va yana bir gap: unda andisha bor. Harchand ozor chekmasin, erining yuziga tik qaramaydi. Betgachoparlik qilmaydi!

Suyuksiz xotinga uylanishga majbur bo'lgan Otabek «chillasi» chiqar-chiqmas qanot bog'lagudek bo'lib, Kumush tomon – Marg'ilonga uchadi. Homid yollagan qotil – Sodiqning qo'lida so'yilib ketish xavfidan tasodifan omon qolib, qadrdon xonadoni darvozasiga yetib kelishi bilan qaynatasi – Qutidor uni haydab soladi. Ko'rishmak uchun uzatgan qo'li havoda muallaq qolgan Otabek hayratlanib so'raydi:

« – Bu qanday harakat, ota?

Qutidor titroq va hayajonli bir tovush bilan:

– Uyatsizga mening uyimda o'rin yo'q, uyatsiz bilan so'zlashishga ham toqatim yo'q. Boringiz, eshigim yonida to'xtamangiz! – dedi-da, o'zini ichkariga oldi...»

Qaynataning ahvolini tushunish mumkin. Homid uyushtirgan fitna – Otabek nomidan Kumushga «yozilgan» taloq xati uni adoi-tamom qilgan. Qizining ustiga xotin olishga rozilik bergan, Kumushning baxtiqaro bo'lishiga o'zini ham sababchi hisoblagan odam shunday ahvolga tushishi tabiiy edi... Shunaqa-ku, alam va iztirobdan titrab

turgan Qutidorning muomalasiga tag'in bir karra e'tibor bering. U Otabekni haqorat qilmaydi, la'natlamaydi, shovqin solmaydi. Hatto shu o'rinda ham «siz»lab gapiradi. Otabek-chi? «Shoshmang, ota, nima gap o'zi, avval masalani oydinlashtirib olaylik» demaydi. Boshi oqqan tomonga ketaveradi. Nega shunday? Albatta, u ikkinchi xotin olganini bu xonadondagilar kechirolmayapti, degan xayolga borgan bo'lishi kerak. Unday bo'lsa o'rta odam qo'yib, oxirigacha haqiqatning tagiga yetishi mumkinmidi? Albatta! Nega shunaqa qilmadi?

Unda andisha bor edi! Endi bu xonadonga qadam bosish u yoqda tursin, dardini birovga aytishga ham or qilar edi.

Nihoyat, asarning oxirini o'qiymiz. Kumush zaharlangan. Jon talashib yotibdi. Otabek uning yonida o'tiribdi. Boshqa xalq hayotini tasvirlovchi asar bo'lsa, bu holatda ikki oshiqma'shuq bir-birining pinjiga kirib ketishi, bo'sa olishi, «men seni sevaman!» deb hayqirishi mumkin edi. Otabek bilan Kumushning holati butunlay boshqacha. Kelinining vaqti-qazosi yetganini bilib iztirobga tushgan Yusufbek hoji kirib keladi va Kumushning peshanasiga kaftini bosadi. Hozir joni chiqishi muqarrar Kumush esa uni tanib, o'rnidan qo'zg'almoqchi bo'ladi. Azbaroyi qaynatasining hurmati uchun. Uning oldida cho'zilib yotgani, boshida ro'moli yo'qligidan andisha qilgani uchun...

Fojianing so'nggi jumlasini adib shunday tasvirlaydi: «Kumush uyalgansimon ko'zini yumdi...»

«Andisha» degan so'z mulohazakorlik, fikrlamoq, oqibatini o'ylamoq kabi ma'nolarni anglatadi.

Bu – kecha yoki bugun paydo bo'lgan ibora emas. Hazrat Navoiy ham bu tushunchaga ko'p bor murojaat qilganlar.

«Umr o'tmakni andesha qil,
Davrong'a yo'qdir mehr, bil.

Ey shoh, gadoni ko'zg'a il –
Kim na gado qolur, na shoh...»

So'nggi yuz yillarda andisha tushunchasi ko'proq uyat, or, nomus, odob kabi tushunchalar bilan yonma-yon turuvchi muhim axloqiy qoidalardan biriga aylangan.

G'afur G'ulomning «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasida bundan to'qson-yuz yil naridagi voqea tasvirlanadi. Zamona nosozligi, yetim nevaralarining qismatini o'ylab uyqusi qochib o'tirgan kampir tomida yurgan o'g'rini ko'rib qoladi. O'g'ri ham azbaroyi ro'zg'or tebratish ilinjida shu yo'lga kirgan. Xullas, kampir ayvonda, o'g'ri tomida – hamsuhbat bo'lib qoladilar. Kampirning o'g'ri olgudek hech vaqosi yo'q. Ammo o'g'rining noumid ketishini ham xohlamaydi: uni bir piyola choy ichib ketishga taklif qiladi. O'g'rining javobini qarang.

« – ... Choy icholmayman. Chunki tong yorishib qolsa, meni tanib qolasiz. Andisham bor. Uyalaman...»

Qarang, o'zbekning o'g'risida ham andisha bor!

Nihoyat, tag'in bir misol. Said Ahmadning «Ufq» romanida Azizxon degan yigit bor. Yerga ursa, osmonga sapchiydigan, qaysar bo'z bola. Yaxshi ko'rgan qizi Lutfinisani to'y bo'lib turgan joyidan opchiqib ketadi. Nima bo'lganda ham uning bu qilig'ini oqlash qiyin. Bir tomondan o'zini, ikkinchi tomondan qizining ota-onasini, uchinchidan Lutfinisaga uylanayotgan kuyovni sharmanda qildi. Biroq u sevgan qizini olib qochgach, qanchadan-qancha ovloq joylarda yuradi, birovlarining uyida yashaydi, kanalda ishlaydi, oradan shuncha vaqt o'tsa ham Lutfinisaning bilagidan ushlaymaydi. Nikohsiz birovning qiziga yaqin kelish mumkinmas, deb hisoblaydi. Nima bu? Diniy fanatizmmi? Unday desak, voqea qadim zamonda emas, nikoh degan «eskilik sarqiti»ga qarshi kurash avjiga chiqqan Sho'ro

zamonida bo'lyapti-ku! Gap aylanib, yana o'sha tushunchaga taqalyapti: andisha degan tushunchaga...

Albatta, vaqt o'tishi, zamonlar o'zgarishi bilan tushunchalar ham, qadriyatlar ham muayyan o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Biroq inson bolasining kimligi, qandayligini aniqlaydigan mohaktosh desakmikin, katalizator desakmikin, shunaqa narsalar borki, ular o'zgarishsiz qolaveradi. Menimcha, andisha ham shunday tamoyilga kiradi.

Isiriq olish uchun bozorga borgandim. Darvozadan kiraverishda bir ayol somsa sotayotgan ekan. Uni ko'rib, beixtiyor bir lahza to'xtab qoldim. Rostini aytsam, bunaqangi xilqatni yaqin orada ko'rgan emasdim. Tiniq chehrasi, qop-qora qayrilma qoshlari, nim tabassumga moyil lablari, biroz xumor, chaq nab turgan ko'zlari shu qadar mukammal ediki, xayolimdan «rahmatli Chingiz Ahmarov tirik bo'lsa, o'zbek madonnasining tasvirini shu ayolga qarab chizardi», degan fikr o'tdi. Keyin (bunisini ham tan olishim kerak) beg'araz ma'noda uning eriga havasim keldi. «Qaysi baxti chopgan odam shunday pari bilan yasharkan?» degan xayolga bordim. Xarid qilib chiqquncha oradan ko'p ham vaqt o'tgani yo'q. Boyagi joyga yaqinlashganda shovqin-suron eshitildi. Yaqinroq kelib, tag'in to'xtab qoldim. Shlapa kiygan, bo'yinbog' taqqan ziyolinamo bir kishi qog'ozga o'rog'lik ikkita somsani changallagan ko'yi qizarib-bo'zarib turar, chamasi qayoqqa qochishni bilmasdi. Haligi «xilqat» esa ovozi baralla qo'yib, shu qadar iflos so'zlar bilan so'kinardiki, qirq yil ko'mir tashigan aravakash bunaqa haqoratlarni eshitsa, o'zi ham, aravasi ham, boringki, ko'miri ham uyatdan qizarib ketishi aniq edi. Xaridor sho'rlik somsa masalasida e'tiroz bildirganmi, boshqami, unisini bilmadim-ku, ammo ayol kishining og'zidan bunaqa so'zlar chiqishini birinchi ko'rishim edi! Qatorlashtirib tashlayotgan haqoratlari uning basharasini xunuklashtirib yuborgan,

qo'yib bersa, hozir etagini boshiga ilishga tayyorligi ko'rinib turardi. Beixtiyor «qaysi baxtiqaro erkak shu alvasti bilan yasharkin?» degan xayolga bordim...

Har bir xalqning qadriyatlar masalasida asrlar davomida shakllangan o'z qarashlari bo'ladi. Ulug' alloma Abu Rayhon Beruniy bundan ming yil avval «biron xalq udumiga bunisi menga yoqadi, unisi esa yoqmaydi, deb baho bermaslik kerak, ular xalqning o'z dunyoqarashi, o'z hayot tarzidan kelib chiqadi», deb yozgani bejiz emas.

Masalan, g'arbda biron estrada xonandasining uch nafar jazmani bor, sahna yulduzi ularni vaqti-vaqti bilan almashtirib turadi, degan xabar ommaviy axborot vositalarida tarqalsa, bu yaxshigina reklama hisoblanadi. Xudo ko'rsatmasin, bizda shunday xabar paydo bo'lsa, o'zini hurmat qilgan tomoshabin o'sha xonandaning o'zidan ham, tomoshasidan ham bir chaqirim naridan o'tadigan bo'lib qoladi.

Bundan bir necha yil avval amerikalik bir xonimning ishqiy sarguzashtlarini yozmagan gazeta, ko'rsatmagan telekanal qolmadi hisob. Xullas, u bo'ldi, bu bo'ldi, to'shagini bayroq qilib ko'targan o'sha xonim salkam «qahramon»ga aylandi va ... shu bahonada mo'maygina pul ishlab oldi! O'zimizning axloq, odob degan tushunchalar uchun yot bo'lgan bunday voqeani siz bilan biz andishasizlik, yuzsizlik deb ataymiz. «U yoqda» esa talqin boshqacha. Albatta, bu bilan odob qoidalari «uyoqda» yomon, «bizda» zo'r, demoqchi emasman. Beruniy hazratlarining gapi-gap! Demoqchimanki, biz boshqalar aqidasi kamsitmagan holda o'zimizning qarashlarimizni himoya qilishga haqlimiz va shunday qilishga burchlimiz!

Chetdan kirib keladigan yot ta'sirlarga darvozani ochib qo'yish odamlarni, ayniqsa, «yangilikka o'ch» yoshlarni chalg'itishi, xalqning eng aziz fazilatlarini yo'qqa chiqarishi va bora-bora uni o'zligini unutishga olib kelishi mumkin.

Afsuski, keyingi paytlarda yurtimizning milliy istiqlol g'oyalariga begona tushunchalarni tashuvchi narsalar kirib kelayotgani, bu ham yetmagandek, o'zimizdagi ayrim ommaviy axborot vositalari tomonidan azbaroyi «odamlarni qiziqtirish uchun», «g'aroyib» yangiliklarni ko'z-ko'z qilish uchun (ko'rmaganing ko'rgani qursin!) va oxir-oqibat, ko'proq pul ishlab olish uchun andishasizlikni ommalashtirish hollari ro'y bera boshladi.

O'zbek tilida chiqadigan gazetalardan birida erkak bilan ayolning intim munosabatlarini butun tafsilotlari bilan tasvirlovchi, «ishqiy o'yinlar» masalasida maslahatlar beruvchi shu qadar andishasiz maqolalar bosildiki, o'qigan odamning zardasi qaynaydi! O'zini hurmat qiladigan har qanday ona bo'y yetgan qizining qo'lida shu gazetani ko'rib qolsa, qizining ta'zirini berib qo'yib, gazetani yondirib tashlashi aniq. Badjahlroq er esa xotini bilan «qo'ydi-chiqdi»gacha borishi mumkin. Bunday «maslahatlar», ayniqsa, yoshlarga qattiq ta'sir qilishi, yigit-qizlarning «yuzini ochib», hayo pardasining ko'tarilishiga sabab bo'lishi tayin. Bunday chiqishlar haqli ravishda ko'plab o'quvchilarning noroziligiga sabab bo'ldi. Oddiy talaba boshqa gazetada «bu qanday andishasizlik?» degan ma'noda maqola bilan chiqqanida esa «intim»ni doston qilgan narigi nashr «nega so'z erkinligini bo'g'asiz?» deb shovqin soldi. («Sharmandaga shahar keng», degani shu bo'lsa kerak.)

Mayli, men ikki gazetaning bahsiga hakamlilik qilmoqchi emasman. Faqat «so'z erkinligini bo'g'ish» degani bu o'rinda asossiz ekanini aytishim kerak. Har kim o'z fikrini erkin bayon qilish huquqiga ega. Biroq bu – xohlagan odam xohlagan joyida xohlagan gapini aytishi mumkin, degan ma'noni anglatmaydi. Gazeta — ishratxona yoki to'rt nafar chapani ulfatning gap-gashtagi emas. Uni minglab odamlar o'qiydi. Navoiy hazratlari yozgandek, «Hiradmand chindan

o'zgani demas, vale hama chin ham degulik emas». O'sha gazeta tahririyatidagilarga «bunday andishasizlikni doston qilish shartmidi?» desangiz, «bu – bizning gapimiz emas, muallifning o'zi javob bersin», deyishlari mumkin. Muallifni topishning esa iloji yo'q. Chunki u kishi – chet ellik olim – professor janob Greyya ekan. Buyog'i qandoq bo'ldi? Janob Greyya mening maqolamni falon gazeta o'zbek tilida chop etsin, demagandir. Boshqalarni qo'yaturaylik, aynan shu nashrda ishlaydiganlarning o'zi ham gazetaning o'sha sonini qizi yoki kelini o'qiyotganini ko'rsa, xijolat bo'lmasmikan? Maqolani ota-onasi, qudasiga o'qib berishga yuzi chidarmikin? O'ziga ravo ko'rmagan narsani minglab o'quvchiga ravo ko'rishdan murod nima?

Millatni – millat, xalqni – xalq sifatida mahv etish uchun boshiga bomba yog'dirishishart emas. Uni o'z qadriyatlaridan uzib tashlash kifoya. Yigirma birinchi asr – informatika asrida ommaviy axborot vositalari qudratli qurolga aylandi. Undan yaxshi niyatda foydalanilsa, yaratuvchilikka, yomon niyatda ishlatilsa, qo'poruvchilikka xizmat qilishi mumkin. Bunday holatda «cheklash» to'g'ri va adolatli bo'ladi.

Sho'ro zamonida ham ayrim qonun va qarorlar bizning dunyoqarashimizga doim ham to'g'ri kelavermas edi. Esimda, yetmishinchi yillarda «Toshkent oqshomi» gazetasida ishlardim. Zamonaviy libosi, tilla taqinchoqlari o'ziga yarashgan ko'hlik ayol shikoyat qilib keldi. «Raispolkomdagi byurokratlarni boplab felyeton qilishimni» so'radi. Men felyeton yozmasligimni aytganimda, «mushtipar bir ayol» huquqini himoya qilish yozuvchilik burchim ekanini eslatdi.

Voqea bunday bo'lgan. U «so'qqabosh ayol» sifatida to'rt xonali uy olishga haqli. Ikki o'g'il, bir qizi bilan ikki xonali katalakda siqilib qolgan. Ijroqo'mdagilar anchadan beri ishni paysalga solib kelayotgan ekan. Bu esa qonunga xilof

ekan. Ayol gapining tasdig'i sifatida hukumat qarorini ham ko'rsatdi. Unga binoan ayolga yangi uy berishlari zarur ekan.

– Nima, eringiz vafot etganmilar? – dedim achinib.

– Men beva emasman, «mat – odinochkaman!» – dedi ayol ensasi qotibroq. – ZAGSimiz yo'q.

– Nima, ajrashib ketganmisizlar?

– Buning nima ahamiyati bor? – dedi u qoshini chimirib.

– Zagsimiz bo'ldi nima-yu, bo'lmadi nima?!

O'shandayam hech baloni anglamadim.

– Uchta bolangiz bo'lsa-yu, na zags, na nikoh...

– Uchta bolamning otasi uchta, tushunarlimi? – dedi u zarda bilan. – Men sizga zags, nikoh deganini tushuntirib bering, deytoganim yo'q. «Mat – odinochka» sifatida huquqimni tiklashga yordam bering deyaрман!

Shundagina gap nimadaligini tushundim. Demak, bu xotin uch bolani uchta erkakdan orttirgan. (Iloji boricha mo'may aliment to'laydigan badavlatroq va go'lroq erlardan.) Xudo bilsin, bolalar sho'rlik otasini (otalarini) tanimasa ham kerak. Baayni inkubatoridan chiqqan jo'jadek.

Harchand tilimni tiyishga urinmay, aytmasligim kerak bo'lgan gapni aytdim:

– To'rtinchi erdan nikohsiz to'rtinchi bola tug'sangiz, besh xonali uy talab qilasizmi?

Bo'ldi janjal! Bo'ldi to'polon! «Sovet xotin-qizini», ustiga-ustak mushtipar «mat – odinochkani» haqorat qilgan mendek «feodal» bir amallab qutulib qoldim.

Ehtimol, bunday qonun-qoidalar o'sha paytda erkaklar kam bo'lgan uzoq shimoldagi ayollar manfaatini himoya qilgandir. Lekin qanaqasiga aylantirganda ham u o'zbek xalqi ruhiga mos kelmas, chunki, amalda orsizlik, andishasizlik uchun yo'l ochuvchi hujjat edi. Tuppa-tuzuk ayol o'sha huquqdan «unumli» foydalangani masalasiga kelsak, nachora, el-yurtchilik: har xil odam bo'lishi mumkin.

Mahalladagi yig'inda otaxonlar bilan hamsuhbat bo'lib qoldik. G'alati gaplarni aytib berishdi. Urush yillari ocharchilikdan sillasi qurigan odamlar yarim kechasi non do'koniga «zaborniy kartochkasi»ni ko'tarib chiqib navbatda turgan. Birovni navbatdan chiqarib yuborish, yosh bolalarni haydab, o'rniga o'zi kirib olish degan gaplar bo'lmagan. Ammo «zaborniysi»ga non ololmay qolish hollari (non yetmagan holatlar) bo'lib turgan. Shunda non olishga ulgurgan qo'shni o'zi-yu, bolalari chalaqursoq qolsa ham qo'lidagi nonni qo'shnisi bilan baham ko'rgan. Qadimdan qolgan tag'in bir odat bor ekan. (Birinchi eshitishim.) O'choqboshini hech qachon qo'shnining devoriga yopishtirib qurish mumkin emas ekan. Taom pishirayotganingda chiqqan tutun qo'shnining ko'zini achitsa yegan ovqating harom bo'ladi, deyisharkan. Andisha degani bo'lsa, shunchalik bo'ladi!

Bo'y yetgan qizning ona oldida (otani qo'yavering), mo'ylovi chiqqan yigitning ota oldida (onani qo'yavering) ich kiyimda yurishi, kelinning qaynata-qaynana huzurida ovozini balandlatib gapirishi, kuyovning qaynata oldida ichish-chekishi beandishalik sanalgan. Ovqatlanishdan tortib, mehmon kutishgacha, ko'chada yurishdan tortib, davrada o'zini tutishgacha hammasi andisha degan tushunchaga asoslangan. Nima bu, mutelikmi? «Inson huquqini kamsitishmi?» Yo'q, bularning hammasi donishmand xalqning ming yillar davomida to'plagan xazinasidir! Bu shunday xazinaki, u asrlar osha inson zotini bir-birini qadrlashga da'vat etib keldi. Odamni odam bo'lib yashashga o'rgatdi. Shuning uchun xazinaki, Tangrining suyukli mavjudoti – Insoniyat bilan o'z nafsini qondirish yo'lida bir-birini g'ajib tashlashga tayyor hayvonot o'rtasida chegara borligini muttasil eslatib turdi. Shu ma'noda aytish mumkinki, andisha -- insonni hayvondan ajratib turadigan

sarhaddir! Yaratganga shukronalar bo'lsinki, hozircha bu xazinani sovurib yuborganimizcha yo'q.

Shunaqa deyman-ku, ko'cha-ko'yda, bozor-o'charda yurganda, davralarga borganda, xizmat yuzasidan turli odamlarga ro'para kelganda goho o'ylanib qolaman.

Benomuslikni hunar qilib olgan ayollar qayoqdan paydo bo'lyapti? Azbaroyi foyda ko'rish uchun «tezak»ning ustiga yaltiroq birka yopishtirib, «holva» deb pullayotganlar-chi? Yuz dollar uchun begona u yoqda tursin, bir qorindan talashib tushgan akasidan tonib ketadiganlar yo'qmi? O'zgalar haqini yeb semirgani yetmagandek, birni o'nga «qoyil qilib» pullagani uchun o'zini «dono», birni o'nga olishga majbur bo'lgani uchun qo'shnisini «nodon» sanaydiganlarni kim deb atash kerak? «Dunyoga o't ketsa – ketsin, oloviga mening qozonim qaynasin», deydiganlar urchib ketmayaptimikan? Andishasiz, azbaroyi beandisha bo'lgani uchun tili burro, dasti uzun bo'lsa-da, andishali, azbaroyi andishali bo'lgani uchun qo'li qisqa, tili qisq bo'lsa, buning otini nima desa bo'ladi?! «Andishaning oti – qo'rqq» deganlari shumi? Bu holda andisha pardasi yupqalashib, siyqalashib ketmasmikin? Oxir-oqibat go'zal udumlarimizning birini yo'qotib qo'yib, ildizi qurigan daraxtdek so'ppayib qolmasmikinmiz?..

Bilmadim, balki xato qilayotgandirman. Alhazar!

UVOL

Saksoninchi yillarning boshida O'zbekiston televideniyesida «Bahs» degan ko'rsatuv bo'lar edi. Bir safar non haqida bahs qildik. Ko'rsatuvda novvoylar, oshpazlar, huquqshunoslar, talaba yoshlar ishtirok etdi. «Kimo'zar» to'ylarda qoplab non isrof bo'layotgani, ortib qolgan qozon-qozon oshlar suvga oqizilayotgani, cho'chqaxonalarga

topshirilayotgani, ba'zi noinsoflar do'kondan suvtekinga un olib molini semirtirayotgani, xullas, shunga o'xshash ko'p armonli gaplar aytili. O'zim guvoh bo'lgan ayanchli voqea – ko'pqavatli uylar orasidagi maydonchada yosh bolalar yarim buxanka suvi qochgan nonni «futbol» qilib o'ynayotganini ham esladim.

Ko'rsatuvga ikki mingga yaqin xat keldi. Tomoshabinlar nonni uvol qiladiganlar ko'payib ketganini afsus bilan yozishgan edi. Uch-to'rt kundan so'ng munkillab qolgan qo'shni kampir ko'chada ko'rib qoldi.

– Bolam, qaysi kuni televizorda ko'p yaxshi gaplar aytdilaring, – dedi u. – Ammo esingda bo'lsin. Bunaqa havoyi gaplar odamlarning u qulog'idan kirib, bu qulog'idan chiqib ketadi. Senlar aytgan illatni yo'qotishning ikkita yo'li bor. Biri – agar davlat nontepkilarni, Xudo odam uchun yaratgan unni moliga atala qilib beradigan noinsoflarni, dabdabali to'ylarda noz-ne'matlarni oyoqosti qiladiganlarni qamash to'g'risida qonun chiqarsa. Ikkinchisi – ocharchilik bo'lib, non deganda kesak g'irillasa! Boshqa yo'li yo'q!

Oradan yillar o'tdi. Nonni koptok qilib tepadiganlar, un bilan mol semirtiradiganlar yo'q bo'ldi. To'y va ma'rakalardagi isrofgarchilik, dabdababozlikni to'xtatishga qaratilgan Farmon e'lon qilindi. ZAGSning o'ziga kuyov tomonidan o'nta qora «Mercedes», kelin tomondan o'nta oq «Mercedes» minib borishlar tiyilgan bo'lsa-da, shohona to'y qiluvchilar, «millioner» qo'shnisidan qolsa «qulog'ini kesadigan», o'n yil yig'ib-terganini bir kechada sovurib, ertasiga qozonini suvga tashlab o'tiradigan «errayim»lar haliyam uchrab turibdi. Mayli, har kimni to'yga yetkazsin. Masalaning boshqa tomonini o'ylab ko'raylik. Bolaligimizda ota-onamiz, amma-xolalarimiz «nonni uvol qilgan ko'r bo'ladi, nonni tepganning oyog'i sinadi, nonni o'ng qo'ling bilan ol, non ushlashdan oldin «bismillo» degin, yerda yotgan

non burdasini ko'rib qolsang, avaylab ko'zingga surtib, pokiza joyga olib qo'y», degan gaplarni har kuni necha bor qulog'imizga quyishar edi... Eslab ko'raylik. Bizning o'zimiz yaqin orada bolalarimiz yoki nevaralarimiz bilan nonni uvol qilmaslik haqida biron marta chin dildan gaplashdikmi?

...Esingizda bo'lsa, o'tgan asrning yetmishinchi yillarida umumiy ovqatlanish korxonalari – oshxonalarida non tekin bo'ldi. Tekin narsaning qadri bo'lmaydi. Shuning uchun tekin non xor bo'ldi, uvol bo'ldi!

O'sha kezlari dam olish uchun dengiz bo'yiga borgan edim. Sanatoriy oshxonasida to'rt kishi bir stol atrofida ovqatlanardik. Ro'para o'tiradigan xomsemiz odamning xunuk odati bor edi. Ovqat yeb bo'lgach, lab-lunjini bir burda non bilan artib, dasturxonga tashlardi. Bu qilg'i yolg'iz mening emas, boshqalarning ham g'ashiga tegib bo'lgan ekan. Bir kuni xomsemiz tag'in og'zini non bilan artayotgan edi, yonimda o'tiradigan yoshi ulug'roq kishi kuchi boricha stolni mushtladi.

– Odammisani, cho'chqamisan? Nega tumshug'ingni nonga artasan, oldingda salfetka turibdi-ku! – dedi-da, oshxonadan chiqib ketdi.

Ortidan chiqsam, oshxona ro'parasidagi gulzor oldida, yog'och skameykada boshini changallab o'tiribdi. Qon bosimi ko'tarilgan bo'lsa kerak, yuzi bo'g'riqib ketibdi. Qandaydir befarosat deb bunchalik bo'g'ilish shart emasligini aytib, taskin berdim. So'ng xayolimga kelgan savolni so'radim:

– Siz Leningrad qamalida bo'lganmisiz?

– Yo'q, men moskvalikman, – dedi u. – Urush boshlanganda o'n bir yoshda edim. Otam nogiron – bir oyog'i cho'loq edi. Ko'cha supurardi. Har kuni paqirni to'ldirib, burda-surda non olib kelardi. (Odamlar ko'chaga yoki axlat qutisiga tashlab ketgan nonlarni...) Onamning fig'oni falakka chiqar,

«Sen kraxaborsan, Plyushkinsan» deb baqirar, otam esa non bo'laklarini artib-tozalab duxovkada qizartirib olardida, burchakdagi sandiqqa solib qo'yardi... Lop etib urush boshlanib qoldi. Avvaliga taqchillik uncha bilinmadi-yu, ammo ko'p o'tmay shunaqangi qahatchilik boshlandiki!.. Shunda otam terib kelgan nonlar jonimizga oro kirdi! Otam nogiron bo'lgani uchun urushga bormadi. Uni qandaydir harbiy zavodga ishga olishdi. Bir kuni onam to'rt-besh burda suxarini tugunga o'rab, tungi smenada ishlayotgan otamga olib ketdi-yu, qaytib kelmadi. Kechasi bilan qo'rqib yig'lab chiqdim. Ertasiga otam ishdan kelib onamni so'radi. Kecha onam zavodga bormaganini aytib, chiqib ketdi-da, kechga tomon yomon xabar olib keldi. Qandaydir bezorilar onamning qo'lida non borligini bilganmi, xullas pichoqlab ketibdi...

...Nimani xor qilsang, o'shanga zor bo'lasan, degan gap xo'p o'ylab aytilgan. Yetmishinchi yillarda xor qilingan non saksoninchi yillar oxirida tortilib qoldi. Do'konlar eshigida «qadrdon» «ochered»lar paydo bo'ldi...

Xudoga shukr, bugun o'lkamizda nonni san'at asari darajasiga aylantirib yuboradigan novvoylarimiz bor! Biroq, bu nonni uvol qilish mumkin degan ma'noni anglatmaydi. Non qancha xor qilinsa, shuncha qimmatlashib ketishi mumkin. Dunyoning birona mamlakatida, hatto boyligi ko'pligidan yorilib ketay deydiganida ham hech kim hech kimga tekinga non bermaydi!

«Non odamdan aziz bo'ptimi?» degan gapni ko'p eshitamiz. To'g'ri, – odamzot – Xudoning eng mukarram mavjudoti. Lekin non odamdan aziz bo'lishi juda ham mumkin!

Janubi-sharqiy Osiyoning ayrim mamlakatlarida tilanchilar ko'p bo'ladi. Mashina to'xtashi bilan atrofingizni o'nlab gadoylar o'rab oladi. Ko'cha-ko'y, bozor-o'charda

ham ortingizdan to'da-to'da bo'lib ergashib yuradi. Tag'in o'ndan to'qqiztasi yosh bolalar, qizaloqlar... Buning ustiga ko'pchiligi cho'loq-maymoq. Birining chap qo'li orqasiga g'ayri-tabiiy qayrilib ketgan, birining o'ng qo'lida uchta barmog'i yo'q... Safarda bizga tarjimonlik qilayotgan yigitdan so'radim:

– Bu bolalar tug'ma maymoqmi? Nega deyarli hammasining biron qusuri bor?

Savolimga aqlga sig'maydigan javob oldim.

– Ular tug'ma mayib emas. Kichkinaligida ataylab shunday qilishgan. Odamlarning rahmini keltirib, ko'proq «baxshish» topishi uchun.

– O'z ota-onasi shunday qilganmi? – dedim hayratlanib.

– Ba'zilar yetim. Ba'zilarini ota-onasi ruxsati bilan majruh qilishgan. Albatta, bunday ishlar davlat idoralaridan yashirincha qilinadi. Tilanchilarning o'z «mafiya»si bor.

– Axir bu vahshiylik-ku! – desam, tarjimon tag'in kutilmagan javob qildi:

– Unchalik emas. Gadoylar «tashkiloti» juda puxta ishlaydi. Bir kunda kim qancha topganini yaxshi biladi. Aldagan omon qolmaydi. Lekin tilanchilarning birontasi biron kun kulbasiga nonsiz bormaydi ham. Basharti o'sha bola bugun hech nima «ishlolmagan» bo'lsa-da, umumiy tushumdan o'z ulushini oladi. Ularning ham o'z «adolati» bor. Xullas, bir burda non topish uchun har kim qo'lidan kelgan hunarini qiladi...

Bunday manzarani ko'rganda non odamdan aziz ekaniga ishonmay ilojingiz yo'q...

Biz bilib-bilmay uvol qiladigan ne'mat faqat nonmi? Xalqimizda «suv tekin», «suvdek serob» degan iboralar bor. Aslida suv tekin bo'lishi mumkinmi? Suv degan ne'mat shunchalik xormi?

Bolalik – tong sahardagi tush kabi totli bo'ladi. Qo'msayverasan, kishi... Maktabimiz yonidan Shirin degan ariq oqib o'tar edi. Suvi ham nomiga munosib shirin, tiniq bo'lardi. Biz – bolalar tanaffus paytida yugurib borib, hovuchlab ichishga ham toqat qilmay, shundoq qirg'oqqa yotib olib, simirib chanqog'imizni qondirar edik...

Keyinchalik o'ylab qarasam, «tabiatni asrash», «ekologiya» degan gaplar u paytlarda yo'q bo'lsa ham odamlar bu «ilm»ni allaqachon puxta egallab bo'lgan ekan. Oqar suvni harom qilish u yoqda tursin, bironta xasni ariqqa tashlash ham gunoh sanalardi.

...Bolaligimda ro'y bergan bir noxush voqea esimdan chiqmaydi.

Do'mbirobodning bog'-rog'li go'shasida to'qimachilar kombinatining kashshoflar oromgohi bo'lardi. Yoz kelishi bilan shahardan kelgan yuzlab bolalar qiy-chuvi olamni tutar, biz «qishloqi»lar uchun ham yangi o'yinlar topilib, yayrab qolardik. Akam sal jangariroq, «janjalni pulga sotib oladigan» xilidan edi. Bir kuni aka-uka aylanib, Darxon arig'i bo'yiga borsak, bir bola qirg'oqda turib, bemalol suvga «choptiryapti». Akam yugurib kelib orqasiga bir tepgan edi, bola shalop etib suvga tushdi. Buni qarangki, suzishni bilmas ekan. Og'zidan bilqillab suv chiqib, ko'zi ola-kula bo'lib ketdi. Akamning o'zi Darxonga tashlanib uni olib chiqdi. Voqea o'sha zahoti «vojatiy»ga yetib boribdi. Hammayoq to'polon bo'lib ketdi! «Falonchi bezori lagerda dam olayotgan kashshofni cho'ktirib o'ldirmoqchi bo'pti!» Birov melisa chaqiradigan bo'ldi, birov akt tuzadigan bo'ldi... Adam (biz otamizni «ada» derdik) ham bog'bon, ham qorovul bo'lib ishlardi. Hamma aybni adamga yuklashdi.

«Rostki, qorovulmisan, bunisiga ham sen javob berasan!» Shunda adam g'alati ish qildi. Boyagi «jabrdiyda» bolaning qo'lidan yetaklab lager oshxonasi oldidagi «siymonlangan»

hovuz bo'yiga olib keldi. «Bilaman, sen shaharda jo'mrakdan suv ichasan, – dedi bolaning boshini silab. – Sen tomonlarda ariqqa axlat oqiziladi. Ke, bolam, manavi hovuzga siy!» Vojatiylarning esxonasi chiqib ketdi (Shahardan o'n chaqirim naridagi qishloqda vodoprovod nima qilsin? Hamma, jumladan, dam oluvchilar ham ariq suvini ichadi). «Nima, siz bolalarni dizenteriya qilmoqchimisiz?» – dedi lager do'xtiri o'dag'aylab. «Ular-chi? – dedi adam suv etagi tomonga imo qilib. – Ular odam emasmi? U yoqda yashaydiganlar ham shu suvni ichadi-ku!» Oromgoh boshlig'i – labini pamildoridek qizilga bo'yab yuradigan xotin edi. «Bu odam to'g'ri aytayapti! – dedi qat'iy qilib. – Qaysi otryad bolasi suvni harom qilsa, vojatiysi ishdan haydaladi!» Labi pamildoriga o'xshash o'sha direktorni hamon hurmat bilan eslayman...

...Yaqinda, erta bahorda bir vaqtlar o'zim suv ichgan, cho'milgan Qonqus anhuri bo'yiga bordim. Ariqqa hali suv kelmagan ekan. Qarasam, o'zanda yo'q narsaning o'zi yo'q! Mashinaning siyqa balloni, bir poy rezinka etik, zanglab ketgan armatura, mushukning o'ligi... Anhor bo'yidagi ko'pqavatli uylar etagidan mag'zava oqib tushayapti...

Suvning uvoli tutmaydimi?

...Chet ellarga borganlar bir narsaga e'tibor bergan bo'lishi kerak. Musofirxonada yuzingizni yuvmoqchi bo'lsangiz, xohlasangiz ham suvni sharillatib oqiza olmaysiz. Suv ketadigan teshik shunday o'rnatilganki, jildiratib tushirishga majbursiz. Bo'lmasa, darhol toshib ketadi. Mexiko – dunyodagi eng katta shaharlardan. Aholisi yigirma million! Mehmonxonaga kirishimiz bilan navbatchi bir narsani tayinlaydi. «Yuvinish xonasida plastmassa idishda suv bor. Tishingizni shunga yuving. Jo'mrakdagi suv ekologik toza emas. Bet-qo'lni yuvish mumkin, ammo og'izni chayib bo'lmaydi». Butun bir mamlakatga teng shahar toza suv tanqisligidan qiynalar ekan. Keyin

Mexikodan Gvadalaxaraga mashinada bordik. Yo'l-yo'lakay g'alati manzarani ko'rdim. Fermerlarning tomi ustida parabolik antennani eslatadigan qurilma o'rnatilgan. Deyarli har bir rancho tomida! Yo'l boshlovchidan «bu nima?» deb so'ragan edim, tushuntirib berdi. Bu – antenna emas, yog'in suvni to'playdigan maxsus rezervuar ekan. Dehqonlar qor va yomg'ir suvlarini o'shanga to'plab, quvurlar orqali pastga tushirar, ehtiyojiga ishlatarkan...

«Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q», deydilar. Keling, aybni birovdan emas, o'zimizdan izlab ko'raylik. Tabiiyki, har kuni ertalab yuvinamiz, soqol olamiz... «Tabarruk» soqol olib bo'lguncha jo'mrakni oxirigacha sharillatib ochib qo'yamiz. Qarabsizki, kamida bir chelak suv ketdi oqib! Bet-qo'l yuvilguncha tag'in ikki chelak... Oilada olti kishi bor... Nonushtadan keyin kelinposhsha nevaraning ishtonchasini yuvadilarda, chayish uchun jo'mrakni tagiga tashlab qo'yadilar: issiq-sovuq suv aralash. Chorak soat... Yoz pallasi ishdan qaytishda futbol koptogidek tarvuz qo'ltiqlab kelamiz. Vannaga to'latib suv solib, tarvuzni tashlab qo'yamiz: sovutish uchun. Hovlidagi vodoprovod jo'mragini varanglatib «bir soatgina» ochib qo'yish undan ham qulay! Ertasi beysbol koptogidek qovun olib kelamiz...

Sho'ro zamonida paxtaning huzurini markaz ko'rdi. «Falon million tonna hosil olamiz», deb Orolni o'lim yoqasiga olib keldilar... Keyingi yillarda bo'lgan qurg'oqchilikda Qoraqalpog'istonning olis ovullariga mashinada suv tashiganlar, ikki chelak ichimlik suvni ko'ziga to'tiyo qilganlar «oldingdan oqqan suv» qadrini yaxshi biladi...

Qo'yingchi, siz bilan biz uvol qilmaydigan narsaning o'zi kam! Bostirmadagi chiroq kecha-kunduz yonib yotsa, vannaxonadagi titan qishin-yozin gurillab tursa, «hay, baraka topgur, shularning ham uvoli bor-ku», deydigan odam yo'q!

Holbuki, yarim soat gaz bo'lmay qolsa, elektr bir soat o'chib qolsa, fig'onimiz falakka chiqadi...

Bir gal qo'shni mamlakatga xizmat safari bilan bordik. Ancha jiddiy xalqaro yig'in bo'ldi. Hammasi joyida. Faqat bir kun kechqurun mehmonxona derazasidan tashqariga qarasam, ro'paradagi ko'pqavatli uylar zim-ziyo. Unda munda derazalarda o'limtik chiroq ko'rinadi... Ertasiga bizga hamrohlik qilayotgan mezbondan so'radim:

– Nima balo, odamlar avval oqshomdan yotib, uyquni uradimi?

– Yo'q, – dedi mezbon, – bizda elektr energiyasini tejash yo'lga qo'yilgan. Shaharning qaysi tumanida haftaning qaysi kuni chiroq o'chirilishi oldindan e'lon qilinadi. Odamlar ham shunga yarasha harakatini qilib qo'yadi: shammi, kerosin, lampami...

Shubhasiz, bunday «ilg'or» tajribani bizda ham qo'llash fikridan uzoqman. «Birini ko'rib fikr qil, birini ko'rib shukr qil», degan gapni eslayapman, xolos...

* * *

Moddiy ne'matlarni uvol qilishni gapirdik. Endi bundan o'n karra ortiq uvollar to'g'risida ham to'xtab o'tmasak, adolatdan bo'lmas. Non ham topilar, suv ham, harorat ham... O'zini o'zi uvol qilayotgan odamlarga nima deysiz?

Achchiq bo'lsa-da, bitta haqiqatni tan olaylik. O'z bolasini tug'ruqxonaga yoki «mehribonlik uyi»ga (aniqrog'i yetimxonaga) tashlab qochayotgan «inkubator» xotinlar yo'qmi? «Pul dardi – kabbob» deb, katta shaharlarga, ilojini topsa, chet ellarga yuguradigan ayollar-chi?

O'zining gunohi evaziga tug'ilgan begunoh go'dakning uvoli «inkubator» xotinning yoqasidan olmasmikan? Bugun bo'lmasa ertaga? Oilasining, erining, boringki,

farzandlarining ko'ziga cho'p solib «ham tijorat, ham ziyorat» (boringki, ham maishat) qilib kelganining kasofati o'ziga ursa-ku sadqai sar! Begunoh bolalariga urmasmikan?

Ming afsuslar bo'lsinki, ayolining «mo'may» pul topishiga monelik qilmaydigan «erkak»lar ham yo'q emas ekan! «Tijoratchi» xonimlar chet elga serqatnov bo'lib qolgan kezlari bir odam uzoqdan kelgani, «zaril» gapi borligini aytib, qo'ng'iroq qildi... Ko'rishdik... Gaplashdik...

– Xudoga shukr, – dedi mehmon fotihadan so'ng, – Vatanimiz mustaqillikka erishib, ona yurtimizni ziyorat qilish baxtiga muyassar bo'ldik. Otam rahmatlik bu kunlarni ko'rolmay armonda ketdilar...

Uning aytishicha, ota-bobolari o'ttizinchi yillardagi qatag'onlardan bezor bo'lib, chet elga ketgan. Qancha sarson-sargardonlikdan so'ng Dubayda qo'nim topganlar. Bu kishi o'sha yerda tug'ilgan ekan. Ammo ona tilini, udumlarimizni unutmagan. Istiqlol sharofati bilan ona yurtiga kelib, Marg'ilondagi qarindoshlari bilan diydor ko'rishib turarkan.

– Sizga aytadigan nozik gapim bor: qiyomat qarz gap, – dedi u muddaoga ko'chib. – Hamma xalqning o'ziga xos jihatlari bo'ladi. Arablar yaxshi odamlar. Faqat baqirib, shang'illab gapiradigan odati bor. Bu yerga kelishimdan oldinroq xunuk bir narsaning guvohi bo'ldim. Ikki arab tovushini baralla qo'yib gaplashayapti. «Yur, falon musofirxonaga, falon yurtdan suyuqoyoq xotinlar kelgan. Arzon-garovga maishat qilamiz!» Turgan joyimda qotib qoldim. Titrab ketdim! Ular o'zbek ayollari to'g'risida gapirayotgan edi! Taqsir, qiyomat qarz gapim shuki, gazetadami, televizordami shu narsani yotig'i bilan ayting. Xotinlar tijoratga borsa, eri bilan borsin.

Bu haqda televideniyeda chiqish qilishga va'da berdim. Albatta, tijorat qilish gunohmas. Ammo faqat molni emas,

nomusni ham o'rtaga qo'yib «tijorat» qilishni oqlash mumkinmi? Ustiga ustak bular faqat o'z oilasini emas, butun boshli Vatanini, butun boshli elini yetti yot begonalar oldida badnom qilayapti! Bunisini ikki dunyoda kechirib bo'lmaydi! Teleko'rsatuvlardan birida shu haqda bir qadar pardali, ammo tushunarli qilib aytdim...

Ertasiga bir odam telefon qildi. Salom-alik yo'q, «mening xotinim Dubayga boradimi, Turkiyagami, kimning nima ishi bor?» deb go'shakni ilib qo'ydi... Erning o'zini Xudo urib qo'yganidan keyin xotinga gapirishdan nima naf?

...Chilonzorda turadigan jiyanim aytib bergan «hangoma» bundan ham «qiziq». Bir kuni ishlab o'tirsa, pastdagi qo'shnisi qo'ng'iroq qilib, suv toshib ketayotganini aytibdi. «Dom»da yashaydiganlar suv toshishi qanaqangi balo ekanini biladi. Xullas, hovliqib boribdi. Qarasa, suv unikidan emas, to'rtinchi qavatdan toshib tushayotgan ekan. Yuqoridan tushgan suv uning xonadonini xarob qilib, pastki qavatga ham oqib o'tgan. Ikki qo'shni hay-haylashib, yuqori qavatga chiqadilar...

U yog'ini jiyanimning o'z so'zlari bilan aytib qo'ya qolay.

– Eshikni shu taqillatamiz, shu taqillatamiz, birov kimsan, deb so'ramaydi! Karsoqovlar jamiyatining a'zosimi bular, hayronman! Yo'q, bir mahal eshik ochilib, yaltiroq xalat kiygan yoshgina xonimcha paydo bo'ldi... Qarasam, ichkarida ham ikkitasi xonada toshib yotgan suvni lattaga bo'ktirib, paqirga solayapti. «Uyning egasi kim?» – desak, «Bilmaymiz, boshqa joyda turadi», deydi. «O'zlaring kimsizlar?» – desak, «kvartirantlarmiz», deydi. «Qayoqdan kelgansizlar, qayerda ishlaysizlar?» degan savolga javob «nol!» Ayolni yetaklab o'zimizning xonaga olib tushdim. Bo'yoqlari ko'chib ketgan shiftni, olapes bo'lgan devorlarni, rasvosi chiqqan gilamlarni ko'rsatib, «bularning haqini kim to'laydi?» desam, «bizda pul nima qilsin?» deydi. Tag'in-

chi, vey xijolat bo'lish o'rniga ko'zlari suzilib, jilmayi-ib turibdi. «Akajon, — deydi, — shu ish yaxshi bo'ldi-da, siz bilan tanishishga bahona topolmay yurgandik o'zi!» deydi. Baqa bo'b qopman! «Barter» qilmoqchi vey! Shu gapni xotinim eshitib qolsa bormi, naq teringni shilib oladi, dedim... Yarim kechasi kelib signal chaladigan mashinalar, zinada dumalab yotadigan shprislar hammaning joniga tekkan edi o'zi! Militsiyaga xabar qildik. «Kvartirantlar»dan qutuldik. Ijaraxo'r ham daf bo'ldi. Bola-chaqali boshqa qo'shni ko'chib kelib, tinchib qoldik....

...Bugun tafakkuri, dunyoqarashi mustaqillik yillarida shakllangan avlod paydo bo'ldi. Yoshlarimizning yurish-turishiga, ilmga chanqoqligi, jahon miqyosida fikrlashiga qoyil qolasiz! Institut talabasi u yoqda tursin, kollej o'quvchisi ham iqtisod, siyosat, chet tilini siz bilan bizdan yaxshi biladi! Dunyo voqealaridan chuqur xabardor, shijoatli, eng zamonaviy texnikaning «rozetkasidan kirib, anten nasidan chiqib ketadi!» Bu avlodga havas qilsak arziydi!

Shu bilan birga guruch kurmaksiz bo'lmagani kabi ba'zi yoshlar orasida yengil hoyu-havasga intilish, hamma narsaga «bir yo'la» ega bo'lishga harakat qilish hollari ham yo'q emas. Bir umr ketmon chopgan otaning ming mashaqqat bilan topgan puliga shartnoma haqini to'lab o'qiyotgan, ammo ilm olish o'rniga butun qimmatbaho chet el sigaretini chekish, ertaga ichkilik ichish, indinga «nina»ga o'tirish yo'liga kirayotgan yigitchalar bor. Ota sho'rlik «o'g'lim olim bo'lib keladi, «prapisir» bo'lib keladi, to'y qilaman», deb xursand! «Prapisir» esa o'z umrini o'zi uvol qilish bilan ovora!

Bir tomondan inson dunyoqarashini kengaytirish, tafakkurini boyitishga xizmat qilayotgan zamonaviy axborot vositalari, turfa xil kanallar, ikkinchi tomondan, hali «suyagi

qotmagan» yoshlarga «aks ta'sir» ko'rsatayotgan holatlar ham bor.

Mamlakatimizda nashr etilayotgan gazetalarni ro'yxat qilaman desangiz, butun boshli kitob bo'ladi. Bu so'z erkinligi, matbuot erkinligi belgisi. Shunaqa-ku, qolipdan chiqqan g'ishtdek bir-biriga aynan o'xshaydigan, g'iybatga moyil maqolalar shu qadar ko'payib ketganki, o'qisangiz, dilingiz og'riydi. Masalan, mana bunday. Ikki yosh bir-birini sevadi. Sevgisi shu qadar «otashin»ki, tanishganlariga yarim yil o'tmay qizaloqning bo'yida bo'lib qoladi. Ammo bo'lajak kelinposhshaning «feodal» otasi bilan bo'lajak kuyovto'raning «shallaqi» onasi ularning to'yiga qarshi. Ana, sizga fojia! Fojia nima o'zi? Qaysar qudalarning to'yga monelik qilishimi yoki hirsini jilovlay olmagan yigitning hovliqmaligiylu, iffatini nikohsiz uvol qilgan qizning yengiltakligimi? Maqoladan chiqadigan xulosa shuki, yoshlik – beboshlik. «Erkin sevgi»ning aybi yo'q. Hamma ayb to'y qilishdan bo'yin tovlayotgan ota-onada. Baraka topgur, avvalo tajribasiz yoshlarga bir-biringni chindan ham sevsang, iffatingni asra, nomusni uvol qilib bo'lmaydi, degan fikrni uqdirish muhimroq emasmi? Agar ota-onaning aybi bo'lsa, uni boshqa joydan – o'z farzandlarining jilovini bo'sh qo'rganidan izlash kerak emasmi?

Bir kuni hamkasblar bilan tushlikdan so'ng Milliy bog'ni aylandik. Ishonsangiz, har bir daraxt tagida, har bir skameykada oshiq-ma'shuqlar... Ha, endi yoshlikda bo'ladi-da, buning ustiga bahor bo'lsa... deb qo'ya qolish ham mumkin edi. Shunaqa-ku, ular shu qadar behayo alpozda turardiki, aytishga til bormaydi. Bunisi ham mayli, hammasi yosh-yosh qizaloqlar. Aqalli nomiga bo'lsa ham yuzini yashirish yo'q, ko'zingga chaqchayib qaraydi. Bog' aylanganimizga biz uyalib ketdik! Undan ham og'ir botgani

– qizlar orasida bironta rus, bironta tatar, bironta koreys yo‘q. Hammasi o‘zbek qizaloqlar!

Tavba deb gapiraylik. Hammamizning ham farzandlarimiz bor, nabiralarimiz bor... Bunchalik andishasizlik ildizi qayerga borib taqaladi, Axborot asrining «aks mo‘jizalari»dan biri shu emasmikan, Televideniye, Internet, turli diskotekalar, «streptiz»lar, shubhali klublar, fahsh videokassetalar... Bular kamlik qilgandek, «inson erki», «inson huquqi», deb shovqin soladigan, «milliy udum» desangiz, tepa sochi tik bo‘lib ketadigan» hammani o‘z qolipiga solishga, hammayoqni globalashtirib, xalqni xalq sifatida, millatni millat sifatida mahv etishga urinadigan turfa xil «tashkilotlar»... Bunday paytda siz bilan biz – ota-onalar ham o‘z huquqimizni talab qilishga to‘liq haqlimiz! Shunaqa «insonparvar» «xayrixohlar»ga «mening bolam senikiga o‘xshashini xohlamayman, mening farzandim or-nomusini oyoq osti qilmaydi», desangiz hech qanday «xalqaro huquqshunos» g‘iring deyolmaydi...

Bilaman, bular anchayin dardli gaplar. Lekin kasalni yashirsang isitmasi baribir oshkor qiladi. Hayotning ko‘p past-balandini ko‘rgan, issiqqa ham, sovuqqa ham bardosh bergan otaxonlar bilan bu mavzuda bir necha bor suhbatlashdik. Ko‘p o‘rinlarda fikr bir joydan chiqdi. «Quloq qilish» zamonidagi qahatchilikda ham, urush yillaridagi ocharchilikda ham odamlar har qancha mashaqqatga qaramay or-nomus, insof, andisha, sabr-qanoat degan narsani unutmagan.

Nazarimda hozir aynan sabr-qanoat tushunchasi xiralashgan ko‘rinadi. Erining ko‘ziga cho‘p solib «tijorat» aralash xiyonat qiladigan ayol «nega qo‘shnining xotini brilliantga belanib yuradi-ku, men aqalli «modniy kostyumchik» ololmayman, nimam kam undan», deb o‘ylaydi. Otasining ter to‘kib topgan puliga o‘qiyotgan

bo'lajak «prapisir» «nega falonchi kursdoshim o'qishga o'zining «Mersedesi»da keladi, har kuni restoranda «jononlar» bilan maishat qiladiyu, men aqalli bir marta «tortmasligim kerak», degan xayolga boradi. Kuppa-kunduzi bog'da «yigit»ning pinjiga kirib «erkin muhabbat» izhorini eshitayotgan qiz «falonchi dugonam nima uchun har kuni har xil yigitning mashinasida diskotekaga boradi-yu, men nega o'ynab-kulmasligim kerak, men undan chiroyliroqman-ku», deb xayol suradi.... Shu tariqa odamni yaxshilikdan ko'ra yomonlikka ko'proq undaydigan, qanday qilib bo'lmasin, tezroq boy bo'lish, tezroq «baxtli» bo'lishga intilish istagi kuchayib ketadi. Aslida kuniga restoranga borib maishat qilish, yashirin narkotik chekish oxir-oqibat odamni abgor qiladi. Harom-harish yo'l bilan topilgan pul bir kuni teshib chiqadi. Har kuni har xil yigitning mashinasida «kataysa» qiladigan qiz benomuslik ko'chasiga kiradi. Benomus esa badnom bo'lmay qolmaydi...

Savol tug'iladi. Xo'sh, bunday holatlarni jilovlash uchun nima qilish kerak?

Keling, hammasini boshidan boshlay qolaylik. Nonni uvol qilib axlat qutisiga tashlagan sudga berilsin, suvga mag'zava oqizgan badarg'a qilinsin, kunduzi elektrni o'chirib qo'ymagan jazolansin, tarvuzini vannada sovutadigan sazoyi qilinsin, degan qoida yo'q. O'zbek ayoli erining ishtirokisiz chet elga borib «tijorat» qilmasin, olisdan kelgan ayollar Chilonzordagi «allaqaysi qarindoshiga qarindosh bo'lmish allakimnikida» «mehmon» bo'lmasin, talaba yigit restoranga kirmasin, talaba qizaloq bog'da «xushtori» bilan sayr qilmasin, degan qonun ham yo'q.

Demak, yana savol tug'iladi. Buyog'i qandoq bo'ldi? Nima qilish kerak?

Ma'naviyat masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani bejiz emas. Zero, ma'naviyati sust jamiyat oxir-oqibat

tanazzulga yuz tutadi. Uvol tushunchasi esa ma'naviyatning o'zak nuqtalaridan biri. Uni ajdodlardan avlodlarga yetkazish, yetkazganda ham zaxa qilmay, butun qimmatini, teran mohiyati bilan anglash siz va biz – katta avlod zimmasiga tushib turibdi. Biz bunga og'rinishimiz emas, sevinishimiz kerak.

HAJVIY HIKOYALAR

AMERIKAGA SAYOHAT

Ustoz Said Ahmadning Amerikadan kelgan kuni
telefonda aytib bergan hangomasi

– Alyo, o'zingmisan, bolam? Vaalaykum assalom, mullo bo'ling! «Ziyoratlar qabul», deysanmi? Murod hosil! Rahmat. Safar qandoq bo'lardi, zo'r bo'ldi! «Qani bir eshitaylik», deysanmi? Mayli, sazang o'lmasin. Ammo-lekin sen yaramasning bir odating yomon. Mendan zo'r-zo'r hikoyalarni eshitib olasan-da, qo'shib-chatib o'zingniki qilib yozasan. Bu safar shunaqa qilmasang, hammasini bir boshdan gapirib beraman.

Aslida-ku, Amerika to'g'risida avval ham ancha-muncha narsa o'qiganman. Yoshligimda Achchiq Maxsum degan yozuvchining (senlar uni Maksim Gorkiy deysan) «Sariq iblis shahri», baqirib shig'ir o'qiydigan Mayakovskiyning «Nima bizga Amerika?» degan asarlarini varaqlaganman. Hatto o'zimizdan chiqqan Qobiljon Uzoqov degan muxbir ham «Amerikasini ham ko'rdik» degan muzdekkina maqola yozgan edi. Shular Amerikani ko'rganda, nega men bormasligim kerak!

Shundoq qilib, biqiniga «Pan-Amerikan» deb yozib qo'yilgan, gardani ho'kiznikiga o'xshab shishib ketgan «Boing» samolyotiga o'tirdik. Ishonsang-ishonmasang, ichi bamisoli metroning o'zi! Shifti shunaqangi balandki, Sabonis degan naynov basketbolchi bermalol basketbol o'ynasa bo'laveradi! Shunaqangi uzunki, u boshi bilan bu boshi ko'rinmaydi!

«Boing» osmonga ko'tarilishi bilan yonimga qoshlari ipdekkina, sochlari tilla kokildek, oyoqlari uzun-uzun, tizzasidan ikki qarich balandda to'xtab qolgan etak ostidan oppoqqina sonlari ko'rinib turgan xonimcha keldi. Og'izchasi angishvonadek. Lablari xuddi gilos tishlab turganga o'xshaydi. Odamning allaqayerini qizitib yuboradigan mayingina, sirligina tabassum hadya etdi.

– Gud moning, mister! – deydi.

Bir vaqtlar Stalin lagerlarida sargardon bo'lib yurganimda bir ingliz shpioni ham bizning barakda yotardi. Shu bilan gaplashib, tilini binoyidek o'rganib olgandim. O'sha esimga tushib, javob qildim:

– Xello! Okaginang aylansin, xello!

Xonimcha tilini bunchalik bilishimni kutmagan ekanmi, quvonib ketdi. Birpasda ancha narsalarni gapirib tashladi. «Djus» deydimi-ey, «biir» deydimi-ey! Ayniqsa, «chiken», «chiken» degan so'zni o'n martacha qaytardi-yov! Sal achchig'im chiqdi.

– Hay, manga qara, – dedim tushuntirib, – nega nuqul «chikka-pukka» deysan? Nima, sen bilan oshiq o'ynayapmanmi?

Xonimcha zipillab ketayotgan edi, yonimda o'tirgan, bo'yinbog' taqqan, bashang kiyingan amerikalik yigitcha gapirib qoldi:

– Oshiq o'ynaymiz, deytgani yo'q, tovuq keltiraymi, deyapti.

Hayratdan yoqamni ushlab qopman. O'zbekchani suvdek biladigan bu ajnabiy qayoqdan paydo bo'ldi?

– Menga seni Xudoning o'zi yetkazdi, bolam, – dedim sevinib. – O'zbek tilini qayoqdan o'rgangansan?

– Men o'zbekman, Said Ahmad domla! – deydi.

Battar hayron bo'ldim. «Bo'lmasa nega bunaqa sap-sariqsan, nima balo, onang zarchavaga boshqorong'i

bo'lganmidi?» degim keldi-yu, xafa qilib qo'yishdan qo'rqdim.

– Mabodo Nosir Fozilovga qarindoshliging yo'qmi, oltindek yaltirab turibsan, – desam, kuladi.

– Men Hayitboy sariqning nevarasi bo'laman, – deydi.

– Iye, taxtapullik Hayitboy sariqning nevarasimisan? – dedim. – Buvang rahmatli ko'p yaxshi odam edi. Sal tajangligini aytmasa, ja oriyatli edi. Bir gal bedanasi Isroil kalning bedanasidan yengilib qochganda, jonivorning kallasini shartta uzib tashlaganini ko'rganman. Oting nima, bolam, Amerikaga nega ketayapsan?

– Otim Hayitboyev Saidboy. Kaliforniya universitetida magistraturada o'qiyman, – deydi.

– Bundan chiqdi, adash ekanmiz! – dedim yelkasiga qoqib.

– Sizning hamma kitoblaringizni o'qiganman, domla, – dedi adashim.

Shu payt yana o'sha xonimcha kelib qoldi. Tag'in shirin tabassum bilan «chiken» deydi.

– Baraka topgur, – dedim ensam qotib, – «chiken-piken»ingni boshimga uramanmi? Dunyoda tovuqdan ahmoq parranda bo'lmaydi, odam nuqul tovuq yesa, aqli suyulib, tovuqmiya bo'lib qoladi! Menga qora qo'chqorning dumbasi solingan, cho'ng'araning guruchidan damlangan bir luqmagina palov bersang, kifoya. Ustiga Uchqo'rg'onning ot qoqilsa yiqiladigan behisidan yarim pallaginasini bostirib kelsang ham teshib chiqmaydi. Ertalabdan beri qorinlar piyozning po'stiga aylanib ketdi-ku!

Adashim gapimni tarjima qildi. Xonimcha tabassum bilan eshitdi. Xayolimga g'alati o'y keldi. Menimcha, bu onasining qornidan tug'ilgandayam «inga-inga» deb yig'lagan emas, iljaygan bo'lishi kerak.

– No problem! – dedi bosh irg'ab. Keyin yana ancha gaplar aytdi.

– Problema yo'q, – dedi Saidboy tarjima qilib. – Janob xohlasalar Nyu-Yorkdagi «Buxoro» restoraniga kirib, «xalta palov» yeyishlari mumkin. Biz chicken, biftsheks, yangi so'yilgan cho'chqa go'shtidan pishirilgan xot-dog bilan siylashga tayyormiz. Afsuski, janob aytgan piyozning po'sti bizda yo'q...

Insof bilan aytganda, biftsheksi mazaligina ekan.

O'zing bilasan, ovqatdan keyin sigaret moydek ketadi! Ayniqsa, o'zimizning «Xon»! Huzur qilib ikki-uch tortganimni bilaman, tepamda yana xonimcha paydo bo'ldi.

Bijir-bijir qilib allanimalarni gapirdi. Nuqul «fifti dollar, fifti dollar», deydi. Tilmochimga qarab, nima gap, desam, «ellik dollar ekan» deydi. Buning odamshavandaligiga qarang! Izzatimni joyiga qo'yib, menga ellik dollar bermoqchi! O'zbekistondak mo'tabar yurtdan borayotgan aziz mehmonligimni bilibdi-da!

– Meni sen siylasang, seni payg'ambarlar siylasin, – dedim duo qilib. – Menga sening puling jayam kerakmas. Amerika safarimning borish-kelish pattasini hukumatning o'zi obergan. Hatto «Sherotan» gastinitsasining haqini ham oldindan to'lab qo'ygan. Xudoga shukr, hurmatim bor. Endii-i judayam ko'ngling bo'lmayotgan bo'lsa, «ellik dollar, olmish dollar» deb maydalashib o'tirmagin-da... – Shunday deb, buyog'ini tarjimonimdan aniqlashtirib oldim:

– «Ming»ni nima deydi bular?

– Tauzent, – dedi Saidboy hozirjavoblik bilan.

– Bir yo'la tauzent dollar berib qo'yaqol, – dedim xonimchaga. – Nevaralarimga padarka-madarka oborarman.

Xonim gapimning tarjimasini eshitdiyu, negadir ko'zi g'ilay bo'lib ketdi. Bittasi menga qaraydi, ikkinchisi

adashimga! Haliyam kulib turibdi-yu, yig'layotganga o'xshaydi.

– Ellik dollarni u emas, siz berishingiz kerak ekan! – dedi Saidboy.

Hayron bo'ldim.

– Nega berarkanman?

– «Pan-Amerikan» kompaniyasining samolyotida chekish mumkin emas, ellik dollar jarima to'lasinlar, deyapti.

Rosmana jahlim chiqdi.

– Birinchidan, men umrim bino bo'lib jarima to'lagan emasman. Mening mashinamni ko'rsa, GAI teskari qarab turadi. Biladiki, narusheniye qilsam ham, bir tiyin bermayman. Ikkinchidan, men o'zimizning «Xon»ni chekdim. Amerikaniki emas. Uchinchidan, shu odating bor ekan, nega oldindan aytib qo'ymading? Shuning uchun men senga emas, sen menga jarima to'la! «Besh yuz»ni nima deydi?

– «Fayf xandrit» – dedi tarjimonim.

– «Fayf xandrit» dollar, – dedim beshta barmog'imni ko'rsatib. – Bo'lmasa, kattangni chaqir!

Zum o'tmay forma kiygan uchuvchi paydo bo'ldi. Shunaqangi po'rim, shunaqangi «akkuratniy»ki, Umarali Normatovga o'xshab ketadi. Hozir odob bilan jigarni ezadi, deb tursam, chest berdi. «Mister» deb gap boshladi-yu, birdan chehrasi yorishdi.

– Said Ahmad aka, o'zingizmisiz? – deb quchoqlab oldi.

Razm solib qarasam, tanish ko'rinadi.

– Menga qara, chuvalachilik Mirvaqqos qatiqchining o'g'limisan? – desam, «Qayoqdan bildingiz? Dadam sizni ko'p gapirardilar, bir maktabda o'qigan ekansizlar», – deydi.

Birpasda apoq-chapoq bo'p ketdik.

Shu samolyotda ikkinchi uchuvchi ekan. «O'zbekiston havo yo'llari» kompaniyasining vakili, obro'si ja baland ekan. Inglizchani «mixlab tashlarkan!»

– Bu ser kimligini bilasanmi? – dedi xonimchaga. – Mister Said Ahmad o'zbekning Mark Tveni bo'ladi. Tushundingmi?

Xonimcha shunaqa xijolat bo'ldi, shunaqa xijolat bo'ldi! Nuqul «Aym sorri, mister Axmed, aym sorri, pliz!» deydi (Uzr so'rayapti chog'i).

– Mayli, gunohingdan kechdim, okang aylansin! – dedim rahmim kelib. – Menga priz bermasang ham xafa bo'lmayman. Faqat Nyu-Yorkka qo'nganimizda tauzent dollar berish esingdan chiqmasin!

Uchuvchi shu samolyotga minishimdan bexabar qolganini, bo'lmasa «do'ppidekkina» osh damlab qo'ygan bo'lishini aytdi. Nega bunaqa olis safarga otlanganimni so'radi. «Kelinlar qo'zg'oloni» Amerikada sahnalashtirilgani, aka Buxor yahudiy qadrdonlarim asar premyerasini ko'rmasam, xafa bo'lishini aytib, o'n bir marta telegramma yuborganini, shu bahona o'z qizimdek bo'lib qolgan Muhabbat Shamayevani, kuyovimdek bo'lib qolgan Ilyos Mallayevni ko'rish uchun safarga chiqqanimni aytdim. Farmonbibi rolini o'ynagan aktrisaga bir jo'ra juhud atlas olib ketayotganimni ham eslatib qo'ydim. Uchuvchi menga qilingan boyagi noxush muomalani «dazmollagisi» keldimi, taklif qilib qoldi.

– Samolyotning yuqori qavatida basseyin bor. Yuring, mazza qilib cho'milib olasiz. Hali manzilga yetishimizga sakkiz soat bor. Atlantika ustidan o'tayotganda o'zimiz ham zerikib ketamiz, – dedi.

Xushlamayroq turganim uchun bahona qildim.

– Qo'yaqol, ukam, o'ng oyog'im zirqillab og'rib turibdi.

– Yuravering, basseyinning suvi issiq, – deb qo'ltig'imdan oldi, tarjimon Saidboy ham ergashdi. Lift g'uvillab tepaga olib chiqdi. Kichikroq tennis maydonidek keladigan hovuzda ko'm-ko'k suv mavjlanib turibdi. Basseyin o'rtasida ikkita suv parisi suzib yuribdi. Koshinlangan qirg'oqda tag'in ikkitasi o'tiribdi. Ikkitasining sochi malla, ikkitasiniqi qop-

qora. Rostini aytsam, umrim bino bo'lib bunaqangi pari-paykarlarni birinchi ko'rishim! Mening o'rnimda Chingiz Ahmarov bo'lsa, bir zumda «Amerika madonnasi» degan portret chizib tashlagan bo'lardi. Mikelanjelo tirilib kelsa, shularning haykalini yasardi. Oq marmardan! Shunaqangi mukammal, shunaqangi «figurniy»ki, Umar Xayyomning chikkabel ko'zasi bularning oldida xumdek gap! Yo'q, bular odam bolasi emas, haqiqiy suv parisi! Hushyor bo'lmasang, afsun qilib suv tagiga tortib ketadi! Ana, bittasi «kelaver» deb imo qilayapti. Kaftimni peshanamga soyabon qilib tikilib qarasam, dumi yo'q! (Suv parisida dum bo'lardi, shekilli?) Endi imlaysanmi, noinsof! Aqalli o'n-o'n besh yil avval qayoqda eding?! Basseyn tugul dengizning tubiga ham birgalashib tushib ketaverardim!

– Yechinadigan xona u yoqda, dushxona buyoqda. Endi, oqsoqol, xizmatchilik, bizga ruxsat, – dedi uchuvchi.

– Hademay Bermud uchburchagi ustidan o'tamiz. Shturvalni o'zim ushlab turmasam, anavi amerikalik hamkasblarim qiynalib qolishi mumkin. Nima, siz bilan menga o'xshab har kuni qazi-qarta yeb yuribdilarmiki, bilagi baquvvat bo'lsa!

Tarjimonning ikki ko'zi parilarda. Charviga tikilgan mushuknikiga o'xshab yiltirab turibdi. Tag'in menga aql o'rgatadi.

– Oqsoqol, odatda basseynga tushishdan oldin dushxonaga kirib, shampunga obdon cho'milish kerak, bo'lmasa yuz dollar jarima soladi, – deydi.

Jinday rashkim keldi.

– Men bekordan-bekorga cho'miladigan anoyilardan emasman, – dedim zarda bilan.

Shunaqa desam, nima deydi, degin? «O'zingiz ham yaqin besh-olti yildan beri cho'milishga ehtiyoj sezmagani ko'rinasiz», deydi. Buvasi ham shunaqa, to'ng odam edi. Ke,

shu yosh bola bilan teng kelamanmi, deb lift tomon yurgan edim, ketimdan ergashdi.

Joyimizga kelib o'tirishimiz bilan sertabassum xonimcha tag'in tepamizga keldi.

– Kofe? Ti? – dedi qildek qoshini uchirib.

– Janob, kofe ichadilarmi, choymi, deb so'rayapti, – dedi tarjimonim.

Bilasan, umrimda ko'k choy ichmaganman. Ko'k choy ichsam, obro'yim tushib, davleniyam pasayib ketadi. Shunaqa-ku, boya jarima to'laysan, deb tinkamni quritgani uchun men ham g'ashiga tekkim keldi.

– Menga kofe-mofe sapsem kerakmas. Menga «95» ko'k choydan bir choynakkina obkel. Shri-Lankaning choyidan bo'lsin. Choynakka tushishi bilan shapaloqdek yoyilib ketadiganidan bo'lsin, o-key? – dedim qo'limni paxsa qilib.

Xonimcha tamanno bilan nari ketdi. Bularning choy zavodi bormi, nima balo! Patnisda yetti xil ko'k choy olib kelsa, degin! Qahrabodek achchiq qilib damlangan choydan ikki ho'plam ichganimni bilaman, shilq etib pinakka ketibman. Aytmovdimmi, ko'k choy davleniyamni tushirib yuboradi, deb! Sovug'im oshib ketgan-da!

Bir mahal «ko'zingizni oching, oqsoqol, buyog'i yaqin qoldi» degan ovozdan uyg'ondim. Tepamda chuvalachilik uchuvchi turibdi.

– Nyu-Yorkka yetib qoldik, samolyotni ataylab pastlab uchiraymi, tepadan shaharni bir tomosha qilasizmi? – deydi.

Xayolimga «ariginalniy» fikr keldi.

– Menga qara, ukam, – dedim. – Rostdanam menga xizmat qilging kelayotgan bo'lsa, bir ish qilasan. Samolyotingni «Ozodlik haykali» atrofidan ikki marta aylantirib o'tasan. Shu xotinni yaqindan ko'rishni ko'pdan beri orzu qilib yurgandim.

– No problem, oqsoqol! – Uchuvchi shunday deb chest berdi-da, kabina tomon yugurib ketdi.

Zum o'tmay uzoqdan haykal ko'rindi. Boshida chambarak. Qo'lida mash'ala. Samolyot shunaqangi yaqin bordiki, qanoti haykalning qo'liga tegib ketay dedi. Shunda g'alati ish bo'ldi. Boyagi xotin o'ng qo'lidagi mash'alani olib, chap qo'ltig'iga qistirdi. Keyin o'ng qo'lini Kapitoliy qubbasidek bo'liqqina chap ko'ksi ustiga qo'yib, ta'zim bajo qildi.

– Assalomu alaykum, qadrli Said Ahmad aka! Bizning yurtimizga xush kelibsiz! – dedi tantanavor ohangda. – Sizning kelishingizni intizorlik bilan kutayotgan edim. «Kelinlar qo'zg'oloni» komediyasi «Tiklanish» teatrida namoyish qilinadi!» degan reklamani boshim atrofidan ikki yuz marta aylantirdim! – Shunday dedi-da, egilib-egilib tag'in uch marta ta'zim qildi. O'ziyam chimildiqdan yangi chiqib, qaynatasiga salom qilayotgan kelinchakka o'xshab ketdi.

– Vaalaykum assalom, qizim! – Shundoq dedim-da, samolyot derazasidan boshimni chiqarib, peshanasidan o'pib oldim. (Peshanasi muzdekkina ekaniga parvo ham qilmadim.) – Umringdan baraka top! Baxtli-saodatli bo'l! – dedim. «Qo'shganing bilan qo'sha qarigin», – degim keldi-yu, bu atrofda boshqa haykal yo'qligi esimga tushib, uyog'ini aytmay qo'yaqoldim. Shu payt kerosin oxirlab qoldimi, samolyot pastlay boshladi...

...Iye, shoshmay tur, bolam, bog' eshigi ochildi, shekilli. Ana, oq «Neksiya» kirib kelayapti. Kim bo'ldi bu? Mashinaning chap eshigidan GAIning tayog'iga o'xshagan burun chiqib turibdi. Iye, Anvar Obidjon-ku! Ja yaxshi ko'raman-da, shu bolani! Oltiariqning «bading»idan bir qopgina oboraman, degandi. Shuni olib kelayapti chog'i... Amerikaning qolganini keyin eshitarsan. Bodringni vaqtida marinovka qilib qo'ymasak, so'lib qoladi...

Muallif izohi. Hikoyani ustoz qanday aytgan bo'lsa, shundayligicha qog'ozga tushirdim. Davomini qachon aysalar, o'shanda yozaman. O-key? Senkyu veri mach! Gud bay!

OSH

Professor Obid Rasulevich yangi mahallaga ko'chib kelganiga bir oydan oshdi. Bir kuni ertalab tong qorong'usida darvoza taqillab qoldi. Professor pijamasini kiyib chiqsa, yon qo'shnisi Xoliq tajang turibdi.

– Iya, domla, odam degan ham peshingacha uxlaydimi! – dedi shang'illab. – Qani, otlaning darrov!

Obid Rasulevichning kechasi ishlaydigan odati bor edi. Barvaqt turish malol kelardi.

– Qayoqqa? – dedi ikkilanibroq.

– Qayoqqa bo'lardi, oshga-da!! – Xoliq tajang shuniyam bilmaysizmi, degandek qo'lini paxsa qilib tushuntirdi. – Shokir vag'-vag'ning qudasi bor-ku, iskaladda ishlaydigan! Ana o'sha jiyanining o'g'lini sunnat qildiriyapti. Choyxonaning oldida avtobus kutib turibdi. Qani, bo'ling chaqqon-chaqqon!

Professor Shokir vag'-vag'ning o'zi kim, qudasi kim-u, qudasining jiyan kim, so'ragisi keldi-yu, qo'shnisining ra'yini qaytarishga iymandi. Nima qilsayam ko'zdek qo'shni. Buning ustiga tajang. Ikkovlari uzun-qisqa bo'lib yo'lga tushdilar. Xoliq tajang yo'l-yo'lakay yana olti xonadonning darvozasini taqillatib, odamlarni uyg'otdi. Chindan ham choyxona oldida avtobus kutib turgan ekan.

Qo'yliqqa yetib borishguncha g'ira-shira tong yorishdi. Tumonat odam. It egasini tanimaydi. Obid Rasulevich eng yaqin qarindoshlari, ko'z qiymas hamkasblarining to'yiga bormasa, nahorgi oshga ko'pam qiziqmas edi. Butun

boshli olomonni ko'rib hayron qoldi. Karnay g'artillagan, surnay nola chekkan, qo'sh nog'ora taka-tum qilib, doiralar gijbanglab yotibdi. To'yxonaning bir tomoni to'qqiz qavatli bino, ikkinchi yonboshi qator ketgan uchastkalar ekan. Obid Rasulevich bir osham yesa – yedi, yemasa – yo'q. Ammo Xoliq tajang nahorgi oshning hadisini xo'p olgan ekan. Yeb bo'lib piyolaga mo'lgina qand tashlab choy ichishni, bir karjgina tarvuz, yarim boshgina uzum tanovul qilishni ham unutmadi.

– Ammo oshni ilik qilib yuboribdi, azamat! – dedi oshpazni maqtab.

Obid Rasulevich hammadan ham to'yxona atrofidagi xonadonlarda turadiganlarga achindi. «Har kuni shu ahvol bo'lsa, bechoralar qachon dam oladi?» degan ma'noda gap boshlagan edi, Xoliq tajang qayirib tashladi:

– Be-e-e! Nima deyapsiz, domla! Bular tong otmasdan nog'ora tovushini eshitmasa xumori tutadigan bo'pqolgan! Siz hoynahoy xizmatga borsangiz kerak? Bo'pti, osh yegan qo'lingizni bering! Men choyxonada bo'laman. Yo peshinga dimlama-pimlama arganizavat qipqo'yaymi?

– Yo'q, yo'q, rahmat, – Obid Rasulevich shosha-pisha bosh chayqadi. – O'zingiz bahuzur...

Xoliq tajang allaqaysi bozorda qorovul bo'lib ishlar, uch kunda bir ishga borar, qolgan kunlari maishat edi.

– Bo'pti, bo'lmasa! – U professorning qo'lini silkitib qisdi. – Chiqib turing, choyxona-poyxonaga bundoq. Tobutkashmiz axir, domla!

– Albatta, albatta! – Obid Rasulevich xijolat chekib, bosh silkigancha, yo'liga ravona bo'ldi. Saharlab turishga o'rganmagani uchun kun bo'yi boshi g'uvillab yurdi. Aksiga olib kechqurun ilmiy kengash bor edi. Ko'riladigan masalalar cho'zilib, majlis yarim kechagacha davom etdi. Uyga qaytdi-yu bir piyola choy ichib yotdi-qoldi.

Qancha uxlaganini bilmaydi. Bir mahal darvoza kechagidan ham qattiqroq taqillay boshladi. U vahima ichida soatiga qarasa, to'rt yarim bo'pti. Er-xotin darvozaga yugurishdi. Eshik oldida yana Xoliq tajang turibdi.

– Yilingiz uyqu, muchalingiz ko'rpachami, domla, nima balo! – dedi u askiya qilib. – E, odamlarga qo'shiling-da, bundoq, yotaverasizmi galanskiy pechkaning oldida mudragan mushukka o'xshab.

– Yana oshmi? – Professor qo'shnisiga mo'ltirab qaradi.

– Ha-da! Haligi yunusobodlik Husanboy polvonning o'gay o'g'li Nortoy bor-ku...

– Qaysi Nortoy? – dedi professor uning gapini bo'lib.

– Iya, nimaga tanimaysiz? Qoratoshdagi hammomning xodimgari bor-ku, xotini uch marta ketma-ket Hasan-Husan tuqqan... Shariat bo'yicha er-xotin qaytadan nikoh o'qitishgan.

Professor hech baloni eslamasa ham «ha-ha» deb qo'ya qoldi.

– Ana, barakalla! – Xoliq tajang quvonib ketdi. – Shu Nortoy deng, bir ko'zida sal aybi bo'lsayam xo'p ishning ko'zini biladigan odamda!.. Uchta to'yni qo'shib o'tkazyapti, deng. Ham ota-onasining kumush to'yini qilyapti, ham beva qaynisinglisini erga beryapti, ham o'rtancha o'g'lini sunnat qilyapti. Qani bo'ling, chaqqon-chaqqon. Iya, haliyam mudrab turibsizmi?

Professor osh yemadi, osh professorni yedi. Karnay tagiga o'tirib qolgan ekan, mikrofonni og'ziga tiqib baqirayotgan hofizning chiyildoq ovozi u qulog'idan kirib, bu qulog'idan teshib chiqib ketdi-yov!

Tashqariga chiqishganida kechadan beri o'ylab yurgan gapini aytdi:

– Shu... nahorgi osh jonivorni so'fi azon aytmasdan qilish shartmikin? Soat sakkizmi, to'qqizda qilsa ham bo'ladi-ku! Odamlar xotirjam tanovul qilib, ishiga boradi...

– Nahorgi osh xuddi o'sha so'pining azoniga qarab tortiladi-da, akam aylanay! – dedi Xoliq tajang hozirjavoblik bilan. – Nima, mo'yasafidlar «palonchi prapisir bo'kib uxlasinlar, deb kutib o'tirishi kerakmi? Namozdan chiqib to'g'ri oshga kelaveradi-da!

Obid Rasulevich «mo'yasafidlar osh yeb borib uyida kun bo'yi uyquni ursa birov g'iring demaydi, ishli odamlarga qiyin», demoqchi bo'ldi-yu, indamay qo'yaqoldi.

Shu kuni kechqurun himoya bor edi. Professor opponent bo'lgani uchun kun bo'yi muk tushib dissertatsiyani qaytadan o'qib chiqdi. Uyiga kelib, kitob varaqlaguncha yana allamahall bo'ldi. Soat ikkilarga yaqin ko'zi ilindi.

U qancha uxlaganini bilmaydi. Bir mahal darvoza yana gursillay boshladi. Bu safar Obid Rasulevich shoshilmasdan borib ochdi.

– Yana nima gap, Xoliqboy? – dedi sovuq ohangda.

– Iya, qanaqa uyquchi odamsiz, domla, onangiz yostiq bilan qo'shib tuqqanmilar? Bo'ling tezroq, Qo'chqor qassob xotiniga yigirma qilyapti. Shundoq oydek xotin suyak tiqilib o'lib qolsa deng! Falokat qosh bilan qovoqning o'rtasida turadi, deb shuni aytadi-da.

– Bilasizmi, men Qo'chqor qassobni tanimayman,– dedi professor qovog'ini solib.

– Siz tanimasangiz, biz taniymiz. Yigirma yil ulfatchilik qilganmiz. Qoraqamishga ko'chib ketgan bo'lsayam, ataylab aytib ketdi. Siz ham mundoq mahalla-ko'yga qo'shiling-da, qani bo'ling, qassobning oshi qazili bo'ladi.

Shu kuni professor o'z xodimlarining oldida sharmanda bo'ldi. Soat ikkiga majlis chaqirgan edi. Tushlikda ozgina tamaddi qildi-yu stolga boshini qo'ygancha, uyquga ketganini o'zi ham bilmay qoldi. Xodimlarning sekin-sekin «adresli» yo'talishidan uyg'onib ketdi. Qarasa, rosa qirq minut uxlabdi.

Juma kungi osh Qoraqamishda ekan.

– Shervon odil degan poshshoni eshitganmisiz? – dedi Xoliq tajang g'ira-shira ko'chadan professorni mahalla guzari tomon boshlab borarkan. – O'sha poshsho aytganki, dunyoda ikkita kasb egasini xafa qip bo'lmaydi. Biri – tabib, biri – oshpaz. Karimberdi oshpazning dong'i Dog'istonga ketgan! Xudo xohlasa siz ham hovli to'yi qilarsiz, oshpazga ishingiz tushar. Meravoy odam. Shu odam kenja o'g'lining yangi tug'ilgan chaqalog'iga aqiqa qilayapti. Amri-ma'ruf ham eshitamiz.

...Shunday bo'ldi. Tag'in karnay-surnaylar chalindi. Tag'in tumonat odam to'plandi. Amri-ma'ruf qilgan domla ja-a-a so'zamol ekan. Ota-onaning burchini gapirdi, farzandning vazifasini gapirdi, ichkilikning zararini gapirdi. Xullas bir soatcha ko'p ibratli gaplar aytdi. So'ng yana musiqa gumbirlab, qo'shiqlar xonish qilindi...

Obid Rasulevich uyiga keldiyu, xotiniga tayinladi:

– Ertalab men yo'qman. Komandirovkaga ketganman, vassalom!

U maza qilib uxlamoqchi edi. Baribir bo'lmadi. Ertalab Xoliq tajangning chiyildoq ovozidan uyg'onib ketdi.

– Uyat bo'lmaydimi, yanga! Nomus bo'lmaydimi! Mahalla-ko'yga qo'shilsinlarda mundoq! Kechqurun xonalarida ishlab o'tirganlarini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Chaqiring mundoq!

Bo'lmadi. Uyqusi harom bo'lgan Obid Rasulevich tashqariga chiqdi.

– Ana! – Xoliq tajang quvonib ketdi. – Devor bo'lmasa ko'chani ko'ramiz-da, yangajon!

Xotini, meni yolg'onchi qilmay o'ling, degandek qovog'ini solib ichkariga kirib ketdi.

– Ammo Rasul sartarosh xo'p oqibatli odam-da! – dedi Xoliq tajang boshini sarak-sarak qilib. – Jizzaxga ko'chib

ketgan odam ataylab to'yiga aytib ketdi, deng. Bechoraning o'g'li yo'q. To'qqizta qizi bor. Shu deng targoviy texnikumda o'qiydigan to'rva qoqdisini uzatayotgan ekan. Shuncha yurib yurtning oshini yedim, endi men ham el oldiga dasturxon yozay, deb osh beryapti. Qani, bo'ling, bo'la qoling, chaqqon-chaqqon.

– Ming rahmat! – professor keskin harakat bilan qo'lini ko'ksiga qo'ydi. – Men endi bo'ldim. Iltimos, ikkinchi to'rg'ay uyg'onmasdan meni bezovta qilmang.

U eshikni qars etib yopdi.

– O', aka, prapisir bo'lsangiz o'zingizga! – Xoliq tajang darvoza tomonga iyagini cho'zib baqirdi. – Bilib qo'ying, o', tobutkashmiz! O'lib-netib qolsangiz tobutingizni mahalla ko'taradi.

Obid Rasulevich tez-tez yurib, ichkari uyga kirdi-da, chuqur uh tortdi.

O'sha kuni Xoliq tajang Jizzaxdan peshinga yaqin qaytdi. «Ismen»dan bo'sh bo'lgani uchun to'ppa-to'g'ri choyxonaga kirdi.

– Bu prapisirlaring odammas ekan-u! – dedi qo'lini paxsa qilib. – Voy, dimog'ingga bedanam qo'nsin! Men buni odam bo'lsin, mahalla-ko'yga qo'shilsin, desam, eshikni yuzimga yopib o'tiribdi. Voy, seni yozib bergan kitobingga nosvoy o'rab sotay! O'zim sezuvidim-a, odamgarchiligi yo'q buni, deb! Bo'lmasa ko'chib kelganiga ikki kam qirq kun bo'ldi. A mundoq dasturxon yoz, hovli to'yi qilib yurtga osh-posh ber, o'lar yerdamisan? O'ziyam bolasi yo'q, shekilli, xotini o'zidan kamida o'n besh yosh kichik...

Xoliq tajang hadeb gap ma'qullar, professor esa bu paytda yuragi siqilib, yangi tadqiqot natijalarini tekshirar, shu ish amalga oshsa, xalqqa qancha foyda tegishini hisoblar edi.

MUNDARIJA

Mashaqqatli safar (Kitobxon bilan ikki og'iz suhbat)	3
--	---

Hikoyalar

Urushning so'nggi qurboni	13
Muhabbat	22
Hurkitilgan tush	33
O'zbeklar	39
Yanga	60
Nega? Nega?	69
Xotam-xasisning xazinasi	80
Umr savdosi	90
Dehqonning bir kuni	105
O'zbek ishi	112
Jintepa	148

Shingil hikoyalar

Tarnov	158
Tuya va eshik	159
Tomsuvoq.....	162
Laylak	164

O'ylar

Ajdahoga duch kelgan adib	166
Insof	200
Andisha	212
Uvol	223

Hajviy hikoyalar

Amerikaga sayohat	239
Osh	248

Adabiy-badiiy nashr

O‘TKIR HOSHIMOV

O‘ZBEKLAR

Hikoyalar, o‘ylar, hajviyalar

Muharrir

Badiiy muharrir

Texnik muharrir

Sahifalovchi

Musahhih

Gulnoz Mo‘minova

Oloviddin Sobir o‘g‘li

Dilmurod Jalilov

Bobur Tuxtarov

Rayxon Ibragimova

Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.
2018-yil 15-martda bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$. Times New Roman garniturası.
Ofset bosma. 25,30 shartli bosma toboq. 23,45 nashr toboqı.
Adadi 10000 nusxa. 1318-raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida

Yoshlar nashriyot uyi. Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 11-uy.

«DAVR PRESS» NMU MCHJ ning matbaa bo'limida
ofset usulida chop etildi.
O'zbekiston Respublikasi, 100156, Toshkent sh.,
Chilonzor tumani, 20-A daha, 42-uy.